NAMANGAN
DAVLAT
PEDAGOGIKA
INSTITUTI

ISSN: 2992-9008
UDK: 37

# TA'LIM VA TARAQQIYOT

ILMIY-USLUBIY JURNAL

2023-YIL 6-SON

***Bosh muharrir:*** *Namangan davlat pedagogika instituti rektori B.E.Xusanov*
***Mas'ul muharrir:*** *O'quv ishlari bo'yicha prorektor M.R.Qodirxonov*
***Mas'ul muharrir o'rinbosari:*** *Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedogogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i J.A.Yuldashev*

**T A H R I R  H A Y ' A T I**

***Aniq va tabbiy fanlar:*** *akad. K.Tojibayev, akad. A.To'rayev, k.f.d., prof. Sh.Abdullayev, f-m.f.d., dots. R.Xakimov, b.f.d., dots. A.Batashov, f-m.f.n., dots., T.Abdullayev.*
***Texnika fanlari:*** *t.f.d., prof. A.Umarov, PhD. Sh.Xudoyqulov, PhD. Abdunazarov.*
***Ijtimoiy gumanitar fanlar:*** *s.f.d., prof. T.Fayzullayev, tar.f.d, prof. A.Rasulov. f.f.d., prof. M.Ismoilov, i.f.d., dots. N.Sotivoldiyev, t.f.n., dots. A.Isoqboyev, PhD. J.Yuldashev, PhD. A.Abdullayev,*
***Pedagogika fanlari:*** *p.f.d., prof. U.Inoyatov, p.f.d., prof. B.Xodjayev, p.f.d., prof. SH.J.Yusupova, p.f.d., prof. O'.M.Asqarova. p.f.d., prof., M.Y.Sobirova, p.f.n., dots., Sh.Ubaydullayev, PhD. M.Asranboyeva, PhD. B.J.Urinov*
***Filologiya fanlari:*** *fil.f.d., prof. N.Uluqov, fil.f.d., prof. H.Usmanova, p.f.n., dots. S.Misirov, PhD.,dots. P.Lutfullayev, PhD., dots. M.Yakubbayev*

***Texnik muharrir: R.Tursunov***
**Tahririyat manzili: Namangan shahri, Uychi ko'chasi, 316-uy**.
***Pochta indeksi:*** 160136, ***Faks: (***0369) 227-27-21,
***Email***: Info@namspi.uz

*"Ta'lim va taraqqiyot" ilmiy-uslubiy jurnali elektron to'plam sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA)ning 2022-yil 25-oktabrdagi № 045044 raqamli guvohnomasi asosida chop etiladi. UDK: 37, Xalqaro standartlashtirish raqami ( ISSN): 2992-9008. "Ta'lim va taraqqiyot" ilmiy-uslubiy jurnalining 2023-yil 6-soni NamDPI Ilmiy-texnikaviy Kengashining 11-yanvar 2024-yildagi 1-sonli kengaytirilgan yig'ilishida muhokama qilinib, ilmiy to'plam sifatida chop etishga ruxsat etilgan (Bayonnoma* ***№ 01****). Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma'lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.*

**NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI 2023**

*Namangan davlat pedagogika instituti "Ta'lim va taraqqiyot" ilmiy-uslubiy jurnali*
*2023-yil 6-son. ISSN: 2992-9008. UDK: 37*

## TA'LIMNING DOLZARB MUAMMOLARI VA YECHIMLARI;

# TIL TO'GARAGI MASHG'ULOTLARINING O'ZIGA XOS JIHATLARI

**Sobirova Maxbuba Yusupdjanovna**
*Pedagogika fanlari doktori,*
*Namangan davlat pedagogika instituti professori.*
**E-mail: maxbubaxonsobirova@gmail.com**
**Toshnazarova Aziza Xoshimjanovna**
*Namangan davlat universiteti magistri*
**E-mail:toshnazarovaaziza2208@gmail.com**

***Annotatsiya:*** *maqolada til to'garaklari o'rta umumta'lim maktabi o'quvchilarining ona tilidan olgan bilimlarini mustahkamlash, savodxonligini va fanga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularning bo'sh vaqtlarini qiziqarli va maqsadga yo'naltirilgan holda tashkil etish, sinflar kesimidagi til to'garaklarining o'ziga xos jihatlari kabi masalalar yoritiladi.*

***Kalit so'zlar:*** *til to'garaklari, to'garakning maqsad va vazifalari, to'garak hujjatlari, tashkiliy ishlar, sinflar kesimidagi til to'garaklarining o'ziga xos jihatlari.*

# ОСОБЕННОСТИ ЯЗЫКОВЫХ КУРСОВ

**Собирова Маҳбуба Юсупджановна**
*доктор педагогических наук, профессор Наманганского гос.udинститута.*
**e-mail: maxbubaxonsobirova@gmail.com**
**Тошназарова Азиза Xoshimjanovna**
*Магистр Наманганского государственного университета*
**e-mail:toshnazarovaaziza2208@gmail.com**

***Аннотация:*** *в статье освещены такие вопросы, как языковые клубы, укрепляющие знания учащихся общеобразовательных школ на родном языке, повышающие их грамотность и интерес к наукам, интересно и целенаправленно организующие свободное время, а также особенности языковых клубов на занятиях.*

***Ключевые слова:*** *языковые кружки, цели и задачи кружка, документы кружка, организационная работа, особенности языковых кружков в классном разделе.*

## SPECIFIC ASPECTS OF LANGUAGE COURSES

***Sobirova Maxbuba Yusupdjanovna***

*Doctor of Pedagogical Sciences,*

*Professor of Namangan State Institut.*

***E-mail: maxbubaxonsobirova@gmail.com***

***Toshnazarova Aziza Xoshimjanovna***

*Master of Namangan State University*

***E-mail:toshnazarovaaziza2208@gmail.com***

***Annotation:*** *the article covers issues such as language clubs strengthening the knowledge of secondary school students in their native language, increasing their literacy and interest in science, organizing their free time in an interesting and goal-oriented manner, and the specific aspects of language clubs in classes.*

***Keywords:*** *language circles, goals and tasks of the circle, circle documents, organizational work, specific aspects of language circles in class section.*

**Kirish.** To'garaklar o'z zimmalariga yuklangan vazifalarni bajarishi va faoliyatlari davomida ta'lim-tarbiya ishini rejalashtirishi, o'quv-pedagogik jarayonni olib borishi, to'garaklar ishlarini yuritishni tashkil qilish bilan bohiq ishlar me'yoriy hujjatlarda o'z aksini topadi. Bu hujjatlar to'garaklarda amalga

oshirilayotgan ta'lim-tarbiya ishlarini sifat jihatdan tavsiflab beruvchi va tartibga soluvchi omildir. Fan to'garaklari, xususan, til to'garaklari yo'nalishi, mazmuni, ish metodi, o'qish vaqti va boshqa jihatlari bilan ajralib turadi. Ular o'quvchilarning qiziqish va qobiliyatlarini rivojlantirish, o'qishga ijobiy munosabatni shakllantirishga, turli tanlovlar: kitobxon tanloviga, fan olimpiadalariga, insholar tanloviga, Zulfiya nomidagi davlat mukofotini olish tanlovlariga tayyorlanishlarida yordam beradi. To'garaklar o'qishni hayot bilan aloqasini kuchaytiradi, fanlararo bog'liqlikni rivojlantirishga yordam beradi.

**Adabiyotlar tahlili.** Mavzuni yoritish maqsadida bir qator manbalar o'rganildi. Xususan, Respublika Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" asarida yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalash masalasi ko'tariladi [1]. Ona tili fani o'rta ta'lim maktablarida asosiy fanlardan bo'lganligi sababli katta soatlarda o'qitiladi va uning mamlakatimizda til siyosatini takomillashtirish[2]ga, o'zbek tilini yanada rivojlantirishga yoshlar e'tibori tortiladi. Bu o'rinda hamkorlik texnologiyasi[3] asosida ta'lim-tarbiya sifatini takomillashtirish, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish[4]da axborot va modulli ta'lim texnologiyalari[5] samara berishiga oid tadqiqotlar yuzaga kelganini ta'kidlamoq joiz. O'zbek tili o'qitish metodikasi fanining taraqqiyotida samara beradigan yondashuvlarga, xususan, ta'limni inson omili bilan bog'lab o'rganadigan, foydalilik, o'z-o'zini namoyon etishga asoslangan antroposentrik yondashuvlarga e'tibor kuchaydi[6, 7, 8,9, 10]. O'zbek tili o'qitishga oid darsliklarning yangi avlodi yaratildi[11], o'quvchi-yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishning pedagogik tizimiga oid[12], o'quvchilarda ma'naviy qadriyatlarni egallash ehtiyojini shakllantirish[13], til ta'limida matn tahlili orqali o'quvchilarda pragmatik kompetensiyani rivojlantirish[14] bo'yicha tadqiqot ishlari olib borildi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolada til to'garaklari o'rta umumta'lim maktabi o'quvchilarining ona tilidan olgan bilimlarini mustahkamlash, savodxonligini va fanga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularning bo'sh vaqtlarini qiziqarli va maqsadga yo'naltirilgan holda tashkil etish, sinflar kesimidagi til to'garaklarining o'ziga xos jihatlari kabi masalalar yoritiladi.

**Tahlillar va natijalar.** O'quvchilar til to'garagining dastlabki mashg'ulotida to'garakning maqsadi, vazifalari, yillik ish rejasi bilan tanishtiriladi. Mashg'ulotlarni vaziyatga va ehtiyojga qarab, 15 kunda bir marta o'tkazilgani ma'qul. To'garak ishini rejalashtirishda o'quvchilarning qiziqishlari inobatga olinadi. Til to'garagi mashg'uloti ona tili darsi mashg'ulotini takrorlamaydi, balki uni to'ldiradi va takomillashtiradi. Dars tuzilishi va qurilishi jihatidan muayyan qoliplar asosida tashkil etilsa, to'garak mashg'ulotida bunday qat'iylik bo'lmaydi. To'garaklarni tashkil etishda quyidagi tamoyillarga amal qilish kerak:

ixtiyoriylik; o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish; har tomonlama barkamol, garmonik ijodiy rivojlanishini ta'minlash; qo'shimcha mashg'ulotlarning ijobiy samaraga yo'naltirilishi.

To'garak mashg'ulotlari jurnali – to'garaklarning asosiy o'quv-pedagogik hujjatlaridan biri hisoblanadi. Uni har bir to'garak rahbari tomonidan to'g'ri yuritilishi ta'lim muassasasi ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari tomonidan muntazam nazorat qilib boriladi va saqlanishi ta'minlanadi. To'garaklarning jurnallari o'quv yiliga mo'ljallangan bo'lib, tasdiqlangan namunaviy shaklda har bir to'garakda yuritiladi. Har bir to'garakda a'zolar bilan maslahatlashgan holda sardor belgilanadi.

"To'garakning maqsad va vazifalari" degan bandiga til to'garagining tashkil etilishidan ko'zda tutilgan maqsad va vazifalar qisqa hamda lo'nda tarzda yozib qo'yiladi. "To'garak mashg'ulotlarining jadvali" ikkita (hafta kunlari va guruhlar ko'rsatilgan) jadvallardan iborat bo'lib, birinchisi "1-yarim yillik" jadvali, ikkinchisi "2-yarim yillik" jadvalidir. Ushbu jadvallar tagida "Jami soat" deb nomlangan band beriladi va mazkur bandga to'garak rahbarining haftalik yuklamasi (soati) yoziladi. To'garakning jadvali va "Jami soat" deb nomlangan bandlari o'quv yilining sentyabrь oyi ikkinchi o'n kunligidan to'ldiriladi.

Maktablardagi barcha to'garaklarning o'quv yili uchun mo'ljallangan o'quv rejasi metodik kengash muhokamasidan o'tkaziladi. Unda o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish hamda g'oyaviy-estetik tarbiyalash maqsadida

o‘tiladigan mavzular rejasi, rejaning necha soati nazariy, necha soati amaliy tarzda o‘tilishi hamda ushbu soatlarni o‘tish muddatlari yoziladi. To‘garak mashg‘ulotlari jurnalida “O‘quv yili uchun ommaviy ishlar rejasi” ko‘zda tutilib, unda turli ommaviy tadbirlar rejalari yoziladi. Masalan, “Navro‘z” umumxalq bayrami, Mustaqillik bayrami, Konstitutsiya kuni va shu kabi tadbirlarga bag‘ishlangan turli xil ommaviy ishlar yoziladi. Shuningdek, o‘tkaziladigan turli xil ko‘rgazmalar, uchrashuvlar, konsertlar, ro‘znoma va televideniyelarda chiqishlar haqida ma’lumotlar yoziladi. “To‘garak a’zolari haqida ma’lumot”da o‘quvchining to‘garakka a’zo bo‘lgan vaqti, tug‘ilgan sanasi, o‘qiyotgan sinfi, uy va mobil telefon raqamlari, elektron manzili, to‘garak a’zoligidan chiqarilgan sana va uy manzili to‘g‘risida ma’lumotlar yozib qo‘yiladi. To‘garak mashg‘ulotlari jurnalining yana bir bo‘limi “O‘tkazilgan mashg‘ulotlar hisoboti” deb nomlanadi. “O‘tkazilgan mashg‘ulotlar hisoboti” to‘garakning har bir guruhida yuritiladi. Har bir guruh jurnalning alohida sahifasiga yoziladi.

“O‘tkazilgan mashg‘ulotlar hisoboti” sahifalarining chap betidagi “Familiyasi, ismi” ustuniga guruhdagi o‘quvchilarning familiyasi va ismi, o‘ng betidagi “mashg‘ulotlar mavzusi” ustuniga mashg‘ulotlarda o‘tilayotgan mavzular yoziladi. O‘tilgan mavzu yoki o‘tkazilgan tadbir, ko‘rgazma, chiqish va ekskursiyalarning mavzusi va sarflangan soatlar miqdori aniq ko‘rsatiladi. To‘garakning o‘quv rejasida mavzular uchun ajratilgan soatlar miqdori katta, yaxlit, ya’ni 6, 9, 12, 15 soatgacha deb berilgan bo‘lsa, uning “soatlar miqdori” ustuniga toki o‘sha soatlar bajarilguniga qadar qayta-qayta 2 yoki 3 soatdan qo‘shib boriladi. Shuningdek, ushbu sahifadagi “mashg‘ulotlar mavzusi” ustunining chap tomonida “mashg‘ulot kuni” qo‘yiladi. Ushbu “mashg‘ulot kuni” ham mashg‘ulot vaqti kelmaguncha oldindan yozib qo‘yish mumkin emas. To‘garak mashg‘ulotlari jurnalining “To‘garak rahbarining metodik ishlari” deb nomlanadigan jadvalga to‘garak rahbari tomonidan o‘quv yili davomida o‘tkazilgan to‘garak ochiq mashg‘ulotlari mazmuni, o‘tkazilgan vaqtlari yozib boriladi. Metodik ish bajarilgandan so‘ng bu haqidagi ma’lumot bir hafta ichida jurnalga yozib qo‘yiladi. “Qatnashuvchilar soni” ustuniga metodik ishlarda qatnashgan pedagog

xodimlar va to'garak a'zolarining jami soni yoziladi. To'garak mashg'ulotlari jurnalining yuritilishini ta'lim muassasasi rahbari, uning ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha o'rinbosarlari, uslubchi yoki muassasa faoliyatini o'rganish hamda uslubiy yordam berish maqsadida kelgan yuqori tashkilot vakili tahlil qilishi mumkin.

Til to'garagi mashg'ulotlarida o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida, avvalambor, ona Vatanga, ona tiliga muhabbat va sadoqat, davlat ramzlariga hurmat hislarini shakllantirishga katta ahamiyat qaratilishi zarur. Bunda o'quvchilarga quyidagi qadriyatlarni singdirishga katta e'tibor qaratiladi:

o'zi tug'ilib o'sgan ona yurtiga – Vatanga, uning tarixi va ona tiliga muhabbat, ajdodlar xotirasiga sadoqat, mehmonga, o'zidan kattalarga va eng muhimi ustozlarga ehtirom, o'zidan kichiklarga izzat-ikrom, ayniqsa ota-ona, qarindosh-urug'larga doimiy samimiy hurmat va xizmat ko'rsatish, imkoni boricha yordamga muhtojlarga ko'mak berish, har qanday sharoitda ham hayo va andishani saqlash, milliy an'ana va urf-odatlarni hurmat qilish, milliy va diniy jihatlardan bag'rikeng, atrof-muhitni ozoda saqlash, maktabni muqaddas dargoh deb bilish, belgilangan tartib va qoidalarga doimo amal qilish va boshq. Bundan tashqari, o'quvchilarda irodalilik, mafkuraviy immunitet, halollik, mehr-oqibatlilik, mas'uliyatlilik, burchga sadoqat, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilishi kerak.

Yuqori sinf o'quvchilari bilan til to'garagida ishlash jarayonida inobatga olinishi zarur bo'lgan jihatlar quyidagilardan iborat:

kelajakka ishonch, mustaqil fikrlash va qaror qabul qilishni shaxsning ustuvor xususiyati sifatida mustahkamlash;

mamlakatda jadal sur'atlarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarga daxldorlik tuyg'usini kuchaytirish;

vijdonan mehnat qilish, tadbirkorlik, kasbiy-ma'naviy ko'nikmalarni o'rgatish, halol mehnatning inson va jamiyat hayotidagi ahamiyatini ko'rsatish;

mustaqil hayotda muvaffaqiyatga erishish uchun innovatsion tafakkur, tashabbuskorlik, fidoyilik fazilatlarini rivojlantirish;

oilaviy burch, oilada oʻzaro ishonch, sadoqat, mehr-muhabbat va hamjihatlikni mustahkamlash malakalarini shakllantirish, maʼnaviy barqarorlikni taʼminlash;

yoshlar, yosh ota-onalarda farzand tarbiyasi uchun masʼullik, oilani oqilona va odilona boshqarish, moddiy va maʼnaviy farovonlikka erishish uchun zarur bilim, koʻnikma va malakalarni shakllantirish.

Teleradiokanallarda ezgulik tarbiyasi mavzularida koʻrsatuv va eshittirishlar, ijtimoiy tarmoqlarda "Ibrat maktabi", "Soʻrang! Javob beramiz, oʻrgatamiz" ruknida axborot almashinuvini tashkil etish.

Kichik sinflarda, masalan, 5-sinflarda tashkil qilinadigan til toʻgaragi mashgʻulotlarida eʼtibor koʻproq grammatikaning morfologiya qismiga qaratiladi. Bu sinfda oʻquvchilar morfologiyani quyidagi mavzular asosida oʻrgana boshlaydilar:

5-sinfda ona tili darsida oʻquvchilar soʻz turkumlari, "Soʻz turkumlari" tushunchasining izohi, mustaqil va yordamchi soʻz turkumlari haqida umumiy maʼlumot, otlar, turdosh va atoqli otlar, kelishik qoʻshimchalari, egalik qoʻshimchalari, sifatlar, sifat darajalari, sonlar, sonlarning yozilishi, olmosh soʻz turkumi haqida tushuncha, feʼllar, feʼl zamonlari, oʻtgan zamon, hozirgi zamon, shaxs-son qoʻshimchalari, ravishlar guruhiga mansub soʻzlar haqida tushuncha mavzulari bilan tanishadilar. SHuningdek, yordamchi soʻz turkumlari va ularning gapdagi vazifasi, bogʻlovchilar, ularning vazifalari va yozilishi, koʻmakchilar, ularning maʼno-vazifalari va yozilishi, yuklamalar, ularning maʼno xususiyatlari va imlosi, yuklamali gaplarning ohangi, yuklama-qoʻshimchalar, soʻz-yuklamalar, ularning vazifasi, maʼnosi, imlosi va ohangi ustida ishlash, yuklamalar haqida umumlashma hosil qilish, mustaqil va yordamchi soʻzlar yuzasidan takrorlash, undov va taqlid soʻzlar, soʻzning tuzilishiga koʻra turlari, qoʻshma soʻzlar, bir asosli va koʻp asosli soʻzlar haqida tushuncha, ularning qiyosiy tahlili. «Ot+feʼl» tuzilishli qoʻshma otlar, ularning maʼnolari, yozilishi, qoʻshma otlar yuzasidan xulosa chiqarish, juft soʻzlar ustida ishlash, maʼnosini izohlash, ularga maʼnodosh soʻzlar va soʻz birikmalari tanlash, juft soʻzlar izohi, juft soʻzlar imlosi, takror soʻzlar bilan

ishlash, matn tahlili asosida takror so'zlar ma'nosini izohlash, takroriy so'zlar sharhi va imlosi, qisqartma so'zlar, ularning hosil qilinishi va yozilishi hamda mustaqil so'zlar va yordamchi so'zlar bo'yicha o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash maqsadida takrorlash berilgan.

6-sinflar uchun tashkil qilinadigan to'garak mashg'ulotlarida esa 6-sinf ona tili fanidan o'quv dasturi o'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan Davlat ta'lim standarti talablaridan kelib chiqib tuzish maqsadga muvofiq hisoblanadi. O'quv dasturida o'quvchilarda fanga doir nutqiy va lingvistik kompetentsiyalarni hamda tayanch kompetentsiyalarning elementlarini shakllantirish ko'zda tutilgan hamda umumiy o'rta ta'lim maktablari ona tili ta'limida o'rganilgan o'quv materiallarning akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida aynan takrorlanmasligi, o'quvchilarning yoshi, psixo-fiziologik xususiyatlari, umumiy o'rta ta'lim tayyorgarligiga mos kelishi hamda grammatik materiallarni asta-sekin, oddiydan murakkabga tomon borish tamoyiliga asoslanishi e'tiborga olingan. Shuningdek, ona tili chuqur o'rganiladigan davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini takomillashtirish, ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, o'quvchilardagi qobiliyat va iste'dodni yanada kamol toptirish uchun ixtisoslikka yo'naltirilgan o'quv dasturi kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv dasturiga moslashtiriladi. Bunda o'quvchilar so'z tarkibi, asos va qo'shimchalar, qo'shimchalar tasnifi, so'z yasovchi qo'shimchalar, tub va yasama so'zlar, shakl yasovchi qo'shimchalar va ularning tasnifi, so'z tarkibida tartib, fe'l, ot, otlarning tuzilishiga ko'ra turlari, sifat, sifatlarning yasalishi, son, ularning umumiy belgilari va vazifalari, ravish, ravishlarning yasalishini o'rganadilar.

7-sinf o'quvchilari uchun tashkil qilinadigan til to'garaklarida o'quvchilar so'z turkumlaridan olmosh so'z turkumi va uning tasnifi, so'zlarning munosabat shakllari, sof ko'makchilar, vazifadosh ko'makchilar, bog'lovchilar, bog'lovchilarning vazifasiga ko'ra turlari, yuklama haqida ma'lumot, sof va vazifadosh so'zlar haqida kengroq ma'lumotlar berish tavsiya qilinadi. SHuningdek, 6-7-sinf ona tili o'quv dasturlarida o'quvchilar egallashlari lozim

boʻlgan fanga oid kompetentsiyalar koʻrsatib oʻtilagan. Masalan, 6-sinf oʻquvchisi "Fe'l soʻz turkumi" mavzu doirasida fe'l soʻz turkumi va nisbatlarini izohlay olish, ajrata olish, oʻrganilgan ifoda vositalaridan nutqda oʻrinli foydalana olish kabi morfologik kompetentsiyalarga ega boʻlishi kerak. Shuningdek, 7-sinf oʻquvchilari mustaqil va yordamchi soʻz turkumlarini farqlash, matnni soʻz tarkibi (asos va qoʻshimchalar) va soʻz turkumi (fe'l, ot, sifat, son, olmosh, ravish, bogʻlovchi, koʻmakchi, yuklama, undov, modal, taqlid soʻzlar) yuzasidan tahlil qila bilish, soʻz turkumlaridagi grammatik shakllarga xos shakldoshlik, ma'nodoshlik, zid ma'nolilik hodisalarini nutq jarayoniga tatbiq qilish, kelishik qoʻshimchalarini oʻrinli qoʻllay olish, fikrni turli tarzda ifodalashda fe'lning zamon, shaxs-son, mayl, boʻlishli-boʻlishsizlik, nisbat shakllaridan, oʻtimli-oʻtimsiz, koʻmakchi fe'llardan unumli foydalanish, nutq vaziyatida olmosh soʻz turkumini fe'l, ot, sifat, son, ravish oʻrnida toʻgʻri qoʻllash orqali uslubiy izchillikka erishish, yordamchi soʻzlar, undov, taqlid, modal soʻzlardan nutq shakllarida maqsadli foydalanish asosida nutqiy ta'sirchanlikka erishish kabi morfologik kompetentsiyalarga ega boʻlishi kerak.

Ona tilini oʻrganish jarayonida oldingi oʻtilganlarga tayanib, yangi tushunchalarni oʻrganish, guruhlarga ajratish, qiyoslash, umumlashtirish orqali oʻzi mustaqil ta'rif chiqarishga oʻrgangan oʻquvchi til toʻgaragida bir-biriga oʻxshash va farqli hodisalar ustida ishlaydi, oʻqituvchi yordamida xulosa va hukm chiqaradi. Mashgʻulotlarda mustaqil ishlarni tashkil etish, qoʻyilgan muammo, savol, topshiriqlar mohiyatidan kelib chiqib, oʻquv jarayonini boshqarish yosh avlodda mustaqillik va faollikni tarbiyalaydi.

"Morfologiya" boʻlimi koʻplab grammatik shakllarga egaligi bilan ajralib turadi va uni oʻqitishga alohida yondashuv talab etiladi. Bu boʻlimni oʻrgatish jarayonida soʻz tarkibi boʻyicha tahlil amalga oshirib borilgandagina oʻquvchi soʻz shakllarini anglab, bir-biridan farqlay boshlaydi. Mavzuni mustahkamlanishiga zamin yaratadi. Oʻrganilayotgan soʻzning qaysi soʻz turkumiga mansubligi va uning gapdagi sintaktik vazifasi aniqlab borilishi natijasida oʻquvchilarning sintaktik bilimlari ham tobora oshib boradi. Bu esa ularning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga munosib hissa qoʻshadi. Hozirgi oʻzbek tilshunosligining bugungi

muammosi ham til egalari xotirasida jamlangan til dalillarining muloqot jarayonidagi tadbiqning (til kompetentligi), kommunikatsiya jarayonida tilning rolini, til va til egasi munosabatini oʻrganishdir.

**Xulosalar.** Oʻquvchilarning ona tiliga boʻlgan qiziqishini oshirish, savodxonligini mustahkamlash, lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish uchun toʻgaraklar katta imkoniyatlar beradi. Toʻgaraklar ona tilining grammatikasini oʻqitishni oʻz ichiga oladi, bu oʻquvchilarning umumiy bilim olishiga yordam beradi, ularni asosiy qoidalar bilan tanishtiradi, oʻquvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga yordam beradi. Sinfdan tashqari ishlardan biri hisoblanuvchi til toʻgaraklari oʻrta umumta'lim maktabi oʻquvchilarining ona tilidan olgan bilimlarini mustahkamlash, savodxonligini va fanga boʻlgan qiziqishini oshirish, ularning boʻsh vaqtlarini qiziqarli va maqsadga yoʻnaltirilgan holda tashkil etish vositasidir. Fan toʻgaraklarida oʻquvchilar bilan rejali tarzda tashkil qilingan mashgʻulotlar oʻquv jarayonini faollashtiradi, oʻqish sifatini oshirishga yordam beradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR


1. Mirziyoyev Sh. 2022-2026 yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi. 01.15.2022.
2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining "Mamlakatimizda oʻzbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida" PF-6084-son Farmoni. 2020- yil 20-oktabr.
3. Inoqov Q.Q. Hamkorlik pedagogikasi asosida ta'lim-tarbiya sifatini takomillashtirish. Ped.fan.b.fals.d-ri...diss. – Namangan, 2019. – 142 b.
4. Nurillayeva Sh.U. Ona tili darslarida oʻquvchilarni mustaqil fikrlashga oʻrgatish usullari. Ped.fan.nomz...diss. avtoref. – Toshkent, 2005. – 24 b.
5. Sobirova M. Modulli ta'lim texnologiyalari. Oʻquv qoʻllanma. – Namangan: Arjumand Media, 2021. – B.200.

6. Sobirova M. The use of integrated technology in the teaching of humanism in language education. POLISH SCIENCE JOURNAL(ISSUE 1(34) - Warsaw: Sp.zo.o."iScience", 2021.Part 3 – 234 p. https://sciencecentrum. pl/wp-content/ uploads/ 2021/01/POLISH%20 SCIENCE%20JOURNAL%20 %E2% 84%9634%20-%203%20%28web %29.pdf str. 98-105

7. Sobirova M. In imparting humane education use of integrated technology. In Volume 8, Issue 1, of JournalNX-A Multidiscip- linary Peer Reviewed Journal, ISSN No: 2581 – 4230. Impact factor 8.155. VOLUME 8, ISSUE 1, January 2022, Published by Novateur Publication, M.S. India. – P. 151-158. https://repo.journalnx.com/index. php/nx/article/view/3880/3718

8. Sobirova M. Innovative Technologies of Teaching in the Field of Higher Education Techniques. **Design Engineering**. International Research Journal of Advanced Engineering and Science (IRJAES) SKOPUS 5288-5295 http://thedesignengineering. com/index.php/DE/issue/view/31.

9. Sobirova M. Anthropocentric approach to language. ISJ Theoretical & Applied Science, 07 (111), *http://t-science.org/arxivDOI/2022/07-111.html – P.* 36-39.

10. Sobirova M. Teaching language phenomena on the basis of anthropocentric approach. https://www.int-jecse.net/abstract.php?id=5377 International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE) OI:10.9756/INTJECSE /V14I7.91 ISSN: 1308-5581 Vol 14, Issue 07 2022.

11. Sobirova M.Y. O'zbek tili va adabiyotini o'qitish metodikasi. Darslik. – Namangan: Arjumand media, 2023. – V.512.

12. Tojiboyeva X.M. O'quvchi-yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishning pedagogik tizimi. Ped.fan.b.fals.dok...diss.avtoref. – Toshkent, 2018. – 43 b.

13. Qosimova D. X. O'quvchilarda ma'naviy qadriyatlarni egallash ehtiyojini shakllantirish. Ped.fan.b.fals.dok...diss. avtoref. – Namangan, 2018. – 27 b.

14. Umarova Y.T. Til ta'limida matn tahlili orqali o'quvchilarda pragmatik kompetensiyani rivojlantirish. Ped.fan.b.fals.dok...diss.– Namangan, 2019. – 160 b.

# O‘ZBEKISTONDA TA’LIM ISLOHOTLARI. MAKTABGACHA TA’LIM XUSUSIDA

***Tursunboy Fayzullayev***
*NamDU professori, siyosiy fanlari doktori*
***Shaxnoza Xujamberdiyeva***
*NamDU dotsenti, pedagogika fanlari doktori (DSc)*

Ma’lumki, har qanday mamlakatning taraqqiyoti, millatning kelajagi unda o‘sib-ulg‘ayib kelayotgan yoshlarga – har tomonlama yetuk, intellektual salohiyatli, zamon bilan hamnafas, o‘qimishli, ma’naviyatli yigit-qizlarga bog‘liq. Shu bois, O‘zbekistonda keyingi yillarda “Jismonan sog‘lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat’iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish...”[1] masalalariga mamlakat Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan katta e’tibor berilmoqda.

Natijada, O‘zbekistonda ta’lim tizimini rivojlantirish bilan bog‘liq keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Sir emas, ta’lim ta’zimida uzviylik, izchillik olib borilayotgan islohotlarning mavaffaqiyatini, samaradorligini ta’minlovchi asosiy omil hisoblanadi. Shu maqsadda O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimida uzviylik, izchillik tamoyiliga asoslangan holda maktabgacha ta’lim tizimida tub islohotlar amalga oshirildi, chunki yaqin vaqtgacha maktabgacha ta’lim xalq ta’limi tizimining bir uzvi sifatida faoliyat ko‘rsatib kelmoqda edi. Bu esa tizimdagi o‘zaro bog‘liqlik va izchillik a’nanalarining boshdanoq barqaror, samarali rivojlanishiga, u yoki bu darajada salbiy ta’sir ko‘rsatib, e’tibordan chetda qolib kelayotgan edi.

Biroq, pedagogik ilm, amaliyot va hayotiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, bola tarbiyasiga qanchalik erta kirishilsa, shunchalik ijobiy samara berishi aniq. Xalq og‘zaki ijodi, aniqrog‘i xalq pedagogikada, bola tarbiyasiga uning ona qornida rivojlanayotgan chog‘idayoq kirishish zarurligi, aks holda qimmatli vaqt behuda sarf etilgan bo‘lishi mumkinligi xususida juda ko‘p ibratli fikrlar yuritiladi. O‘sib kelayotgan bolani yosh niholga qiyoslash an’anaviy tus olgani hammaga ma’lum.

Bu davrda, ya'ni bolaning "nihol" davri uning tarbiyaga juda kuchli ehtiyoj sezishini anglatish qatorida, uni istagan tomonga yo'naltirish oson kechishini, natijaviyligini anglatib turadi. Yoshlikda olingan bilimni toshga o'yilgan naqshga muqoyasa qilish zamirida ham ulkan haqiqat mujassam. Bu kabi ma'rifiy fikrlar bola tarbiyasiga juda erta va to'g'ri kirishish zarurligini ta'kidlaydi. Uzoqni ko'ra biladigan, haqiqatni idrok qiladigan, tafakkur olami keng insongina bola tarbiyasida shoshqaloqlikka yo'l qo'ymaydi, tizimli, izchil, uzviy ta'lim-tarbiya berish yo'lini tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabr kuni kuchga kirgan "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-sonli Qarori, hamda 2017-yil 30-sentyabrdagi PF-5198-sonli "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni orqali mamlakatimiz ta'lim tizimida uzviylik, izchillik tamoyili huquqiy jihatdan mustahkamlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Parlamentga yo'llagan Murojaatnomasida joriy yilda maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qamrab olish ko'rsatkichini 60 foizga etkazish vazifasi qo'yilgan. Ma'lumotlarga ko'ra, joriy yilning birinchi yarmida 2 million 632 ming nafar maktabgacha yoshdagi bolalarning 1 million 66 ming nafari respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan 9 ming 774 ta maktabgacha ta'lim muassasalariga qamrab olindi.Ularning 5 ming 832 tasi davlat maktabgacha ta'lim muassasasi hisoblanadi. 3 ming 942 tasi nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasalari bo'lib, shundan 753 tasi xususiy, 419 tasi davlat-sheriklik asosidagi, 2 ming 770 tasi oilaviy ta'lim muassasalaridir[2].

Shularni inobatga olgan holga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "bola dunyoga kelganidan boshlab, unda aynan maktabgacha bo'lgan yoshda aqliy faollik oshadi, axloqiy-estetik va jismoniy xislatlar shakllanadi.

Shu bois ham, kelgusi yillarda maktabgacha ta'li sohasini rivojlantirish borasidagi strategik maqsadimiz – ijtimoiy ahvolidan qat'i nazar, bog'cha yoshidagi

har bir Bolani ushbu ta'lim yoʻnalishi bilan toʻliq qamrab olish cuhun zarur sharoitlarni yaratishdan iborat" deb strategik vazifa belgilab berdi va davlat ijtimoiy siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biri darajasiga olib chiqdi.

Shuning uchun ham Prezident Sh.Mirziyoyev tomonidan maktabgacha ta'lim sohasidagi islohotlar izchil davom ettirilib, 2016-yildan boshlab, maktabgacha tashkilotlari tizimini rivojlantirish, bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlariga keng jalb etishga kirishildi.

Oʻzbekistonda bu borada, eng avvalo, qulay tashkiliy-huquqiy sharoitlar yaratildi, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini hozirgi zamon talablari va standartlari asosida rivojlantirish, ularni rekonstruksiya va modernizatsiya qilina boshlandi.

Natijada Oʻzbekistonda oʻtgan qisqa davr mobaynida maktabgacha ta'lim nafaqat qayta tiklanib, balki rivojlanib, takomillashib bormoqda. Bolalar qamrovi hozirgi 80 %ga, 2030-yilda esa 100 foizga yetkazish rejalashtirilgan. Sohaga yangicha innovatsion pedagogic texnologiyalarning joriy qilinishi sababli maktabgacha ta'lim tizimi ham shaklan, ham mazmunan, hatto xorijiy tillarni oʻrganish borasida ham, oʻzgardi. Buning natijasi har bir oila farzandlari misolida yaqqol koʻrinmoqda. Bu boradagi toʻplangan tajribani, aniqrog'i pedagogik texnologiyalarni oʻrganish, hali mavjud muammolarning yechimini toppish yuzasidan tadqiqotlar olib borilmoqda.

Prezident Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning "Oʻzbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash tog'risida"gi qarorida maktabgacha ta'lim sohasida ijobiy natijalar borligini ta'kidlab, hali saqlanib qolayotgan muammolarning ilmiy yechimiga qaratilgan izlanishlar olib boorish kerakligini uqtiradilar.

Jumladan, qarorda maktabgacha yoshdagi bolalarni erta rivojlantirish sohasida ilmiy tadqiqotlar olib boorish, ilg'or ilmiy ishlanmalar va texnologiyalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatiga integratsiya qilish hamda ta'lim-tarbiya jarayoni sifatini oshirish boʻyicha sa'y-harakatlarni birlashtirish maqsadida pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish bilan

shug’ullanuvchi ta’lim va ilmiy tadqiqot, shu jumladan, xorijiy mamlakatlarning muassasalari bilan samarali idoralararo hamlorlikni chuqurlashtirish masalalari ta’kidlab o‘tilgan.

O‘zbekistonda ushbu qarorda belgilangan vazifalar sohaning yetuk olim va mutaxassislar samarali tadqiqotlar olib bordilar.

Muxtasar qilib aytganda bugungi yangi O‘zbekistonda ta’lim tizimining izchil, uzviy rivojlanayotganini, bu borada juda ko‘p ibratli ishlar amalga oshirilayotganini e’tirof etish maqsadga muvofiqdir.

Umuman, qisqa tahlilimiz asosida shuni ta’kidlamoqchimizki, keyingi yillarda O‘zbekistonda Prezident Sh.M.Mirziyoev tashabbuslari bilan ta’lim, xususan, maktabgacha ta’lim tizimida samarali o‘zgarishlar yuz bermoqda. Bu boradagi dastlabki tajriba va yangicha yondoshuvlarni o‘rganish, hali mavjud muammolar echimiga qaratilgan tadqiqotlar olib borish taklif va tavsiyalar ishlab chiqish har bir izlanuvchining, har birimizning muhim vazifamiz bo‘lmog‘i lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Elektron manba: www.lex.uz/doks/ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni. T.: 2017-yil, 7-fevral.
2. Jamoldinova O. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, O‘zLiDep fraksiyasi a'zosi. 2020-yildan har bir bola maktabda o‘qish uchun bir yil maktabgacha ta'lim muassasasida tayyorlanadi. Elektron manba: http://uza.uz/oz/society/

## JAMIYAT VA SHAXS MUAMMOSINI O‘RGANISHDA FOROBIY QARASHLARINING O‘RNI

***Mamatov Obidxon Vaqqosqvich***
*Namangan davlat pedagogika instituti*
*Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o’qitish metogikasi kafedrasi dotsenti*

***Annotatsiya:*** *Maqolada Forobiyning jamiyat, shaxs tog'risidagi qarashlarining inson moxiyatini o'rganishdagi ahamiyati, uning ijtimoiy jihatlari, davlatning vujudga kelishi tabiiy ehtiyoj ekanligi, inson va jamiyat kamoloti yaxlit jarayon ekanligi haqidagi g'oyalar ilgari surilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *Jamiyat, inson, shaxs, davlat, inson kamoloti, Ijtimoiy-siyosiy bilimlar, baxt-saodat, fazilatli xalq, madaniyat, ko'pchilik manfaati, ehtiyojlar.*

***Аннотация:*** *В статье выдвигаются идеи о значении взглядов Фараби на общество, личность, при изучении сущности человека, его социальных аспектов, о том, что возникновение государства является естественной потребностью, созревание человека и общества-целостным процессом.*

***Ключевые слова:*** *общество, человек, личность, государство, созревание человека, социально-политические знания, счастье, добродетельный народ, культура, интересы большинства, потребности.*

***Annotation:*** *the article put forward ideas about the importance of Forobi's views on society, the essens of personality in the study of human leprosy, its social aspects, the fact that the formation of the state is a natural need, and the maturation of Man and society is a holistic process.*

***Keywords:*** *Society, people, person, state, human perfection, socio-political knowledge, happiness, virtuous people, culture, interests of the majority, needs.*

Mazkur mavzuni o'rganishni talabalarga Forobiyning «Baxt-saodatga erishuvi haqida» risolasini konspektlashtirishdan boshlashni tavsiya qilish kerak. Forobiy Markaziy Osiyoda uyg'onish davrida birinchi bo'lib nnsonning ijtimoiy mohiyati va jamiyat to'g'risidagi yangi ta'lnmotni yaratdi. Bu ta'limotning mohiyati - insonning ijtimoiy mazmuni, uning hayoti baxt-saodati, intilishlari xislatlaridan kelib chiqishini isbotlashdan iboratdir.

Shuni ham ko'rsatish kerak-ki, Forobiyda maxsus jamiyat tushunchasi uchramaydi. Uning o'rnida «madina» shahar ma'nosidagn tushuncha qo'llaniladi. Umuman shaharni insonlar ma'lum birlashmasining yetuk darajasi deb talqin etadi. Shahar davlatga to'g'ri keladi. Ijtimoiy-siyosiy bilimlar deb insonlarni xaqiqiy

baxg-saodatga olib boruvchi yaxshi harakat va faoliyatlarni faqat ma'lum asosiy uyushma-davlat birlashmasi yordamida amalga oshirishni ta'minlaydigan bilimlar boʻlishi mumkinligini koʻrsatadi. Bu siyosiy uyushma, davlatning vazifasi insonda yaxshi odat va harakatlarni tarbiyalab borish, uni avaylab asrash va buzgʻunchilikdan saqlashdir. Bu esa uyushma, davlat boshligʻidan katta san'at va mustahkam iroda, chuqur bilim talab qilishini ta'kidlaydi:

Forobiy jamiyatning kelib chiqishi asosida tabiiy ehtiyoj yotganligi xaqidagi nazariyani olgʻa suradi. Yashash uchun tabiiy ehtiyoj kishilarni bir-birlari bilan birlashishga, jamoaga uyushishga olib keladi. Chunki bir kishi oʻzining moddiy va ma'naviy extiyojlarini, turli talablarini qondira olishi mutlaqo mumkin emas. Buning uchun u boshqa kishilarning yordamiga muhtojdir, Ana shu oʻzaro yordam tufayli extiyoj qondiriladi. Kishilar oʻrtasida uzluksiz oʻzaro yordam inson jamoasini keltirib chiqaradi.

«Fozil odamlar shahri» asarida Forobiy shunday yozadi; «Har bir inson oʻz tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishish uchun koʻp narsalarga muhtoj boʻladi, bir oʻzi bunday narsalarni qoʻlga kirita olmaydi va ularga ega boʻlish uchun kishilar jamoasiga extiyoji tugʻiladi». Shu sababli yashash uchun zarur boʻlgan narsalarni bir-biriga yetkazib beruvchi va oʻzaro yordamlashuvchi koʻp kishilarning birlashuvi orqaligina odam oʻz tabiati jihatidan intilgan yetuklikka erishuvi mumkin. Bunday jamoa a'zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va yetuklikka erishish uchun zarur boʻlgan narsalarni yetkazib beradi. Buning uchun inson shaxslari koʻpaydilar va yerning aholi yashaydigan qismiga oʻrnashdilar natijada inson jamoasi vujudga keldi.

«Baxt-saodatga erishuv haqida» risolasidagi quyidagi fikr diqqatga sazovordir? «Kamolotga bir kishining oʻzi birovning yoki koʻpchilikning yordamisiz erishuvi mumkin emas, Har bir insonning tugʻma tabiatida va unga lozim boʻlgan har qanday ishlar va harakat jarayonida boshqa bir inson yoki koʻpchlik bilan munosabatda boʻlish, oʻzaro aloqa qilish hissiyoti bor odamzod jinsidan boʻlgan har

qanday insonning ahvoli shu. U har qanday insonning kamolotga erishuvida boshqalarning koʻmaklashuvi va ular bilan birlashishga muhtoj yoki majburdir».

Forobiy insonning moxiyatini hisobga olgan holda, uni «madaniy-ijtimoiy hayvon» deb tushunadi va bu bilan shaxsning mohiyati haqidagi fikrlarini olgʻa suradi. «Haqiqiy baxtga erishish maqsadida oʻzaro yordam qiluvchi kishilarni birlashtirgan shahar fazilatli shahardir, baxtga erishish maqsadida birlashgan kishilar jamoasi fazilatli jamoadir.

Baxtga erishish maqsadida oʻzaro yordam bergan xalq fazilatli xalqdir. Shu tartibda barcha xalqlar baxtga erishish uchun bir-birlariga yordam bersalar, butun yer yuzi fazilatli boʻladi, deb xulosa qiladi, Forobiy. Forobiyning ana shu fikrlari boʻyicha talabalar bilan suhbatlashishni tavsiya qilamiz[1].

Madaniyat tushunchasiga ta'rif berishda uning jamiyat hayotidagi oʻrni, rolini koʻrsatish uchun mulohaza yuritilishi «madaniyat» tushunchasidan «madaniyat-jamiyat» tushunchasiga yoʻnalgan boʻlishi kerak.

Madaniyat arabcha madina (shahar) soʻzidan kelib chiqqan. Arablar kishilar hayotini ikki turga boʻlib, birinchi badaviy yoki saxroiy turmush, ikkinchisini madaniy turmush, deb ataganlar. Badaviylik - bu koʻchmanchi holda dashtu saxrolarda yashovchi xalqlarga, madaniylik esa shaharda oʻtroq yashab, shaharga xos turmush tarzida yashovchi xalqlarga nisbatan ishlatiladi.

Umuminsoniy va milliy madaniyatlar ham boʻlishi, ularning bir-birlarini boyitib borish qonuniyati mavjudligini ham uqtirish zarur. Madaniyat tushunchasiga falsafiy ta'rif bergach, bu tushuncha jamiyatning ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma'naviy hayotida qoʻlga kiritilgan yutuqlar majmuini, biror ijtimoiy guruh yoki xalqning ma'lum davrda erishgan shunday yutuqlari darajasini, oʻqimishlilik, ziyolilik va ma'rifatparvarlikni hamda turmushni ma'rifatli kishi ehtiyojlariga mos keladigan sharoitlari majmuini ifoda etishga qaratilganligini hisobga olish kerak.

Forobiy ham shahar turmush tarzini jamoaning yetuklik shakli sifatida talqin etadi. Uning fikricha, madaniy jamiyat va madaniy shahar shunday boʻladi-ki, bu shaharda har bir odam kasb-hunarda ozod, hamma barobar boʻladi, kishilar

o'rtasida farq bo'lmaydi, har kim o'zi istagan yoki tanlagan kasb-hunar bilan shug'ullanadi. Odamlar chin ma'noda ozod bo'ladilar. Biri ikkinchisiga xo'jayin bo'lmaydi. Odamlarning tinchlik va erkinliklariga xalaqit beruvchi sulton (ya'ni podshoh) bo'lmaydi. Ular orasida turli yaxshi odatlar, zavq-lazzat paydo bo'ladi.

Shaharni o'zlaridan saylangan, sinalgan rahbarlar yoki boshliqlar boshqaradi, hokimi mutlaq bo'lmaydi. Ular o'z saylovchilarini to'la ozodlikka chiqaradilar, elni tashqi dushmandan mudofaa qiladilar. Shunday rahbarlar hammaga barovar munosabatda bo'ladilar, hatto ko'pchilik manfaatini o'zlarining manfaatlaridan ham ortiq ko'radilar. Xalq manfaati uchun o'zlaridagi kuch-g'ayrat va boyliklarni ayamaydilar. Forobiyning bu fikrlari uzoq o'tmishdagi xayoliy fikrlash natijasi bo'lsa ham hozirgi davr ijtimoiy taraqqiyoti uchun muhimligi yaqqol ko'rinib turibdi. Talabalar bilan ana shu mavzuda munozara uyushtirish maqsadga muvofiq bo'lar edi[2].

Sivilizatsiya tushunchasini madaniyat so'zining ma'nodoshi sifatidagina tushunmaslnk kerak. U konkret tushuncha bo'lib, jamiyat hayotining barcha jabhalarini qamrab oladi. Unga davlatni boshqarish tizimi ham, jamiyat tarakqiyoti ham, falsafa ham, jamiyat va shaxs hamda davlat va shaxs o'rtasidagi munosabatlar ham kiradi. Demak, sivilizatsiya-madaniyatning sotsial (ijtimoiy) birligidir.

Madaniyat sivilizatsiyaga nisbatan keng tushunchadir. Agar sivilizatsiya har bir konkret jamiyatning o'zi uchun, uning o'z sivilizatsiyasini tashkil etib, asosan ijtimoiy sohalarni qamrab olsa, madaniyat ham moddiy, ham ma'naviy, ham ijtimoiy tomonlarini, shu jumladan sivilnzatsiyaning o'zini ham yaxlit holda qamrab oladi.

Sivilizatsiya madaniyatning moddiy shaklda ro'yobga chiqishidir. U madaniyatlashish taqozosi o'laroq boshlanib, bora-bora uning sarhadidan ham uzoqlashadi va yuksak ma'naviy qadriyatlar bilan bog'liq bo'lmagan ko'pdan-ko'p hodisalarni yuzaga chiqaradi. Keyin o'z botiniy qonunlari asosida rivojlana boradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

**1.** Хайруллаев М. М. Уйғониш даври ва Шарқ мутафаккири – Тошкент.: 1971-Б. 297-306.

2. Хайруллаев М. М. Уйғониш даври ва Шарқ мутафаккири – Тошкент.: 1971-Б. 306.

# ONA TILI DARSLARIDA O'QITUVCHILAR FAOLIYATINI MODELLASHTIRISHNING ILMIY METODIK MANBALARDA YORITILISHI AHAMIYATLIGI

***NuriddinOlimjonovich Qirg'izov***

*Namangan davlat pedagogika instituti*

*(PhD) katta o'qituvchisi*

*Тел. 902793130 nuriddinqirg'izov43 @gmail.com*

***Annotasiya:*** *Maqolada boshlang'ich sinflarda ona tili darslarini o'qitishning maqsad va vazifalar foydalaniladigan usullar haqida fikr yuritiladi*

***Kalit so'zlar****: Maktab, boshlang'ich sinflar, darslarda o'yinlardan unumli foydalanish, o'qituvchi uslubi, ko'rgazmalar, tarqatmalar*

***Аннотация:*** *В статье рассматриваются цели и задачи обучения на уроках родного языка в начальной школе.*

***Ключевые слова****: школа, начальные классы, эффективное использование на уроках игровых методов, стиль учителя, выставки, раздаточный материал*

***Annotation:*** *There is an idea about. Some ways,which is used during the teaching mother tongue lessons for the primary schools in this article.*

***Key words:*** *Shohool, primary schools, subject, images, adjective, game method, numeral exhibitions*

Uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish maqsadida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy yo'nalishlaridan biri ta'lim jarayonini

texnologiyalashtirishdan iboratligi ta'kidlab o'tildi. Ushbu jarayonning samaradorligini ta'minlashda quyidagi shartlarning bajarilishi muhim ahamiyatga ega:

1) o'qituvchilar tomonidan zamonaviy ta'lim texnologiyalarining ta'lim amaliyotida faol qo'llanilishi;

2) rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta'limi amaliyotida qo'llanilayotgan zamonaviy texnologiyalardan xabardor bo'lish.

Ta'lim jarayonini loyihalashda nafaqat har bir tarkibiy qism, balki ular orasidagi aloqalar ham modellashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim o'quvchiga o'quv materialining mazmunini, vazifa yoki topshiriqlarni, faoliyat usullari hamda uslublarini tanlash imtiyozini beradi. Tanlash imkoniyati o'quvchini qaror qabul qilish, mustaqil izlanish va javobgarlikni his qilishga undaydi. Shu bois o'quv faoliyatining muqobil modellarini ishlab chiqish va ularni o'quvchiga taklif etish maqsadga muvofiq. O'qituvchining vazifalaridan biri o'quv maqsadiga muvofiq o'quvchining ichki intilishi, rag'bati (motivi)ni rivojlantirishdan iborat.

Ta'lim jarayonida o'qituvchi loyihasini amalga oshirishda uning shaxsiy sifatlari, ya'ni, kasbiy mahorati, motivatsiya, pedagogik qobiliyat, xarakter, temperament, ruhiy holati, o'z-o'zini anglashi va hokazolar namoyon bo'ladi.

Ta'lim jarayonini loyihalashda o'qituvchi loyihachi va bajaruvchi sifatida loyihani amalga oshirishning qulay yo'lini tanlaydi. Axborot ta'minotini loyihalash tamoyillari ta'lim jarayoni loyihasida axborot ta'minotini shakllantirishga xizmat qiladi. Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari ham axborot ta'minotini tashkil etuvchi vositalardir.

Ijtimoiy-iqtisodiy ta'minotni loyihalash tamoyili iqtisodiy maqsadga muvofiqlikni ta'minlashni anglatadi. Barcha ta'lim muassasalari faoliyatini loyihalashda ta'lim jarayoni ishtirokchilari, jamiyat hamda davlat (ijtimoiy buyurtma)ning ehtiyoj va imkoniyatlarini hisobga olish, ularni to'ldirishi zarur.

Maktab ta'limi muammolari o'quvchidan tashqarida emas, aksincha, uning o'zida shakllanadi. Binobarin, yoshlarning o'quv-tarbiyasiga oid ilmiy izlanishlar,

pedagogik amaliyot masalalari o'quvchilarning hayoti, ularning real bilish imkoniyatlari bilan uzviy bog'langan holda o'rganilishi va sharhlanishi lozim. Ta`limda o'quvchilar o'zlarini o'qituvchi bilan teng huquqli subyekt sifatida tasavvur etishlari va shu tasavvurga muvofiq o'quv topshiriqlarini bajarishlari ahamiyatlidir.

Biz ham muayyan o'quv predmeti bo'yicha belgilab berilgan ta'lim mazmuni tushunchasini yuqoridagi tasnif darajasida tushunamiz. Mustaqillik yillarida umumiy o'rta ta'lim tizimiga qo'yilgan ijtimoiy buyurtma asosida belgilab berilgan ta'lim maqsadi va davlat ta'lim standartlari o'quvchining mustaqil fikrlash ko'nikmalari, amaliy faoliyatini rivojlantirishni nazarda tutadi. Bunday ko'nikmalar esa subyekt-subyekt doirasida shakllanadi. Tom ma'noda maqsad usulni, usul mazmunni belgilaydi. Bilim – ta'lim mazmunining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Har bir yangi avlod hayotga qadam qo'yar ekan, ajdodlarining bilim va tajribalarini o'zlashtiradi hamda mazkur bilimlar asosida yangilarini hosil qiladi. O'quvchi o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilimlar hajmi va tabiati ta'lim maqsadi bilan bog'liq ravishda ijtimoiy zarurat asosida belgilanadi. Shuningdek, ta'lim oluvchining ehtiyoji va imkoniyatlari bilan muvofiqlashtiriladi. O'quvchiga bilim berishdan ko'zlanadigan asosiy maqsad uni mustaqil faoliyatga yo'llash, mikrosotsiumda o'z o'rnini egallashga tayyorlash, eng zarur ko'nikma va malakalarni hosil qilishdan iboratdir. Shuning uchun o'quvchi egallashi lozim bo'lgan bilimlar ularda muayyan ko'nikma va malakalarni shakllantirish va rivojlantirish bilan bog'liq bo'lishi kerak. Kundalik hayotda mustaqil tatbiq etilmaydigan bilimlar o'quvchi xotirasida ortiqcha yuk bo'lib, tezda izsiz yo'qoladi. Xususan, ona tili ta'limi misolida olib ko'radigan bo'lsak, o'quvchi o'zlashtirish lozim bo'lgan bilimlar hajmini belgilash o'ta murakkab masalalardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham boshlang'ich sinf ona tili jarayonida o'quvchiga taqdim etiladigan bilimlar amaliyligi, pragmatik qiymati bilan belgilanishi zarur. Bilim haqida fikr yuritilganda bilim berish bilan birga o'quvchilarda bilim olish, bilimni egallash yo'llari - lug'at, qomus, ma'lumotlar majmuasi, internet tizimi kabi axborot banklaridan amaliy foydalanish ko'nikmalarini hosil qilishga alohida

e'tibor berish kerak. Shaxsning ma'lumot to'plash ko'nikmasi ijtimoiy hayotda, ularning kundalik faoliyatida muhim ahamiyat kasb etishi haqida juda ko'p dalillar mavjud.

O'quvchida o'quv-biluv jarayonida hosil qilingan ko'nikma va malakalar ko'proq o'zgarib turadigan sharoitlardagi harakatlarni ongli ravishda puxta bajara olishi, natijalarning ishonchli bo'lishi bilan xarakterlanadi. Ko'nikma va malakalarni tarkib toptirish o'quv-biluv jarayonida topshiriqlarini bajarish orqali amalga oshiriladi.

Pedagogik adabiyotlarda ta'kidlanganidek, o'quv topshiriqlari – aqliy yoki amaliy ishni egallash yoki uning sifatini oshirish maqsadida o'quvchi o'zlashtirishi zarur bo'lgan bilimlarni uning real bilish imkoniyatlariga moslashtirishdan iboratdir. Bugungi kunda davlat va jamiyat bilimli shaxsni emas, balki bilimlaridan jamiyat talablariga mos foydalanuvchi, bunday odat uning tabiatiga aylangan, ya'ni tarbiyalangan, madaniyatli, ma'naviyatli shaxsni yetishtirib chiqarishni maktab ta'limi oldiga maqsad qilib qo'ygan. Demak, fikr nafaqat ko'nikma va malaka tizimi, balki bilim - ko'nikma malaka o'quvchi egallagan shaxsiy sifatlar uzviy tizimi haqida borishi kerak. So'ngi bosqichga ko'tarilgan, ya'ni shaxsiy sifatlarga ega bo'lgan o'quvchigina mujassam rivojlangan shaxs hisoblanadi.

O'quvchi egallagan bilimlarini ijtimoiy sharoitga mos tarzda ma'naviy-axloqiy me'yorlarga muvofiq amalga tatbiq etishi lozim. O'zlashtirgan bilimlarini amaliyotga to'la tatbiq eta oladigan o'quvchigina muayyan ko'nika, malaka hamda shaxsiy sifatlarni egallagan hisoblanadi. Bu esa ta'lim oluvchining bilimni quruq yodlamasligi, balki uni ta'lim usuli, ta'lim metodlari bilan uzviy bog'liqlik, aloqadorliklarda o'zlashtirishi, ularda ijodiylik tabiatini shakllantirishdan iboratdir. Bilimlar tizimida o'zaro aloqadorlik bog'lanish, taqqoslash, sabab-natija munosabatlari bo'lmasa, u o'quvchi shaxsi tafakkurini rivojlantira olmaydi. O'quvchilarga bilimlarni taqdim etishning, shu asosida muayyan ko'nikma, malakalar hosil qilishning xilma-xil vosita, yo'l va usullari mavjud.

Usul – faoliyatni amalga oshirish yo'li bo'lib, u ko'zlangan maqsadga erishishga olib boradi, ya'ni maqsadning natijaga aylanishi usul orqali amalga

oshiriladi. Usul insonning bilish jarayonini tartibli ravishda amalga oshirish yoki biror obyektni amaliy oʻzgartirishdan iborat. Usul aslida insonning amaliy faoliyati negizida vujudga keladi. Inson amaliy harakatining usullari anglanuvchi moddiy omilga aylangach, bu usullar tafakkur manbalari shakliga ega boʻladi. Faoliyat usullarining asosiy mazmunini avvalo amaliyotda sinalgan hodisalar, masalan, tadqiqot, bilish yoʻli, nazariya, taʼlimotlar tashkil etadi. Faoliyat usullari orqali amalga oshirilgan keyingi maqsadni yoki bosh maqsadni yaratuvchi yoxud amaliyot mazmunining izchilligini belgilovchi usullar vazifasini bajaradi.

Faoliyat usullari qanchalik toʻgʻri boʻlsa, koʻzlangan natijaga shunchalik aniqlik bilan erishish mumkin. Bugungi kunga qadar insoniyat tomonidan faoliyat usullarining boy xazinasi toʻplangan. Ammo ilm-fan, texnikaning toʻxtovsiz rivojlanib, murakkablashib borishi, yangi imkoniyatlarning vujudga kelishi ularni hal etish usullarini muttasil takomillashtirishni talab etadi. Bular, albatta, taʼlim jarayoniga ham bevosita aloqadordir.

Taʼlim usuli taʼlim mazmunining namoyon boʻlish shakli boʻlganligi sababli pedagogikaga oid adabiyotlarda, taʼlim mazmuni haqidagi nazariy yondashuvlarda, maʼlum bir mavzuni oʻquv-biluv jarayonida oʻrgatishda, metodik ishlanma va tavsiyalarda ham keng muhokama etiladi. Maʼlumki, didaktik jarayon oʻquvchiga bilim berish, uni ijodiy faoliyatga yoʻllash, unda muayyan koʻnikma va malaka hosil qilish, har bir ishda mustaqillik, tadbirkorlik hamda ijodiy yondashishni oʻrgatish, xilma-xil yoʻl, usul hamda vositalardan foydalanishni talab qiladi.

Boshlang'ich sinf ona tili taʼlimi oʻquvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish, uning mahsuli boʻlgan mustaqil fikrni yozma va ogʻzaki shakllarda toʻgʻri hamda ravon bayon qilishni oʻrgatishga xizmat qilmogʻi lozim. Bu maqsad uchun eng qulay usul oʻquvchilardan qoidalar yodlashni talab qilish emas, balki hodisalarni kuzatish, ularni umumlashtirish, narsa-buyum, holatlarni oʻzaro qiyoslash, ular orasidagi oʻxshashlik va farqlarni aniqlashga qaratilgan oʻquvchilarni oʻylash, fikrlash, izlash, topish va umumlashtirishga undovchi taʼlim usuli, muammoli vaziyatlar, mashq va topshiriqlarni talab etadi.

Boshlang'ich sinf ona tili darsligida beriladigan o'quv topshiriqlari o'quvchining mustaqil izlanishi uchun yo'llanmalar berganda, ularning axborot banklariga doimiy ehtiyojini qondirganda, ijodiy faoliyatga undagandagina ta'lim maqsadiga muvofiq kelishi mumkin. Shuning uchun darslik bilan dars davomida o'quvchi bajarishi nazarda tutilgan topshiriqlar tizimi va zaruriy o'quv materialini aralashtirmaslik lozim. Biz darslik deganda, mavzu talqini, o'quv materiali, o'quvchi bajarishi lozim bo'lgan mashq, masala, topshiriqlar tizimini o'z ichiga olgan majmuani tushunamiz. Haqiqiy ijodiy tafakkur sohibini shakllantirish va rivojlantirishga mo'ljallangan darslik bugungi kunda mavjud bo'lgan darsliklardan farq qilishi lozim. Demak, ta'limning yangi maqsadiga erishish uchun yangi tipdagi darsliklar zarur. Ijodiy tafakkur sohibini shakllantirish uchun o'quv materiali darslik materiallaridan ancha keng bo'lishi talab etiladi. Jumladan, ona tili darsliklari o'quvchilarni xilma-xil lug'atlardan (axborot banklaridan), qomuslardan, ma'lumotnoma (spravochnik)lardan, maktabda o'qitiladigan boshqa o'quv predmetlari bo'yicha olgan bilimlari va ma'lumotlaridan, tajribali kishilar (o'quvchilarning yaqinlari)dan qo'shimcha material olishga, bu darslikda berilmagan materiallar ustida ijodiy ishlar tizimini loyihalashtirishga undamog'i lozim, shu holatdagina ko'zlangan maqsadga oson yo'l bilan erishish mumkin bo'ladi. O'qituvchi darslikda berilmagan materiallar hisobidan har bir darsda o'tiladigan o'quv materiallarini kengaytirgan holda o'quv-biluv jarayonini loyihalashtirishi kerak. Ta'limning yangi maqsadiga erishish yangi tipdagi darsliklarni taqozo qiladi. Bunday darsliklar yordamida o'quvchi, axborot manbalarini chuqur biladigan, undan o'ziga kerakli ma'lumotlarni tez topa oladigan, bulardan o'zi yashab turgan muayyan sharoit uchun eng qulay va unumlisidan foydalana oladigan faol shaxsni yetishtirish imkonini beradi. Shuning uchun yangi darsliklar mashqlar, masalalar, qoidalar yoki aksiomalar majmuasidan emas, balki o'quv topshiriqlari tizimidan iborat bo'lmog'i kerak.

Ma'lumot mazmuni, shuningdek, o'qitish va o'qish uchun sinfga olib kirilgan qismi ta'lim mazmunini ijodiy egallash (o'zlashtirish) muammosi, bir tomondan, ijodiy faoliyat tajribasining o'rganilayotgan o'quv materiallarida

moddiylashganligi, ikkinchi tomondan esa ijodiy faoliyatni egallash usullari, vositalarini aniq tanlay olish bilan xarakterlanadi.

Ona tili darsligida berilgan mavzularni qiyoslab oʻrgatish orqali topshiriqlar asosida muammoli vaziyat yaratish, chunonchi oʻrganilayotgan har bir mavzu oʻquvchilardan tovushlar, soʻzlar va gaplarni qiyoslashni shu asosda umumlashmalar hosil qilishni talab etadi. Bu ham oʻz-oʻzidan ravshanki, muammoli vaziyatni yuzaga keltiradi. Masalan: "unli va undosh tovushlar" mavzusi oʻrganilayotganda oʻquvchi avval unli va undosh tovushlarni toʻgʻri nomlashni, keyin qiyoslashni, unli va undoshlar ishtirokida soʻzlar, soʻzlardan esa gaplar hosil qilishni, ularning bir-biridan farqlarini aniqlashni talab etadi.

Ta'lim standartlari va me'yorlari hamda an'anaviy ravishda ta'lim natijalarini baholash uchun foydalaniladi. Oʻquvchining natijalari standartga qanchalik yaqin boʻlsa, uning oʻquv faoliyati shunchalik yuqori baholanadi. Oʻquvchi tomonidan haqiqiy egallangan va yaratilgan bilimlar hajmi toʻla darajada nazorat qilinmaydi, chunki oʻquvchilarning standart doirasidan tashqaridagi shaxsiy bilim yoki boshqa natijalari an'anaviy maktab nazaridan chetda qolib keladi.

Ijodkorlikda oʻquv natijalarini baholashga yondashuv oʻzgacha. Tashqi berilgan natijalarga erishilganlik darajasi emas, balki koʻpincha undan chetga chiqishlar tekshiriladi. Ijodkorlikni baholashda oʻquvchilar ta'limiy natijalarining asosiy parametri-standartlarning minimum talablariga mos kelishi emas, balki oʻquvchining shaxsan ta'limiy oʻsish darajasidir.

An'anaviy ta'limda oʻquvchi ta'lim mazmunini saralashda amalda ishtirok etmaydi. Ijodkorlik faoliyatida esa ta'limda oʻquvchining ta'limiy samarasi ta'limning yangi mazmunini saralashda ishtirok etadi; bilimning hajmi, malakasi, faoliyat turlari hamda oʻquvchining foydalaniladigan usullari cheklanmagan boʻladi.

Oʻquv materiali mazmunining yana bir tarkibiy qismi munosabatdir. Har bir oʻquv predmeti va uning tarkibiy qismini tashkil etgan har bir oʻquv materialida tabiat, jamiyat va inson tafakkuriga munosabatlar ham qayd etiladi. Munosabat

keng ma'noda insonning tarbiyalanganlik darajasini oʻzida aks ettirib, shaxsning emotsional xatti-harakatlari, tabiat, jamiyat va ong hodisalarini baholash jarayonlarida rioya qiladigan normalarda aks etadi. Hech narsa – soʻz ham, fikr ham, xatti-harakatlar ham emotsional baholash oʻrnini bosa olmaydi.

Oʻquv materialining tarkibiy qismlari – bilimlar, koʻnikma-malakalar, ijodiy faoliyat tajribasi, munosabatlar ta'lim jarayoni davrlariga nisbatan oʻrganiladi. Bunda bilimlarni oʻrganish ta'limning ilk davri, koʻnikma-malakalarni shakllantirish ta'lim jarayonining ikkinchi davri va hokazolar bilan daxldorligi qayd etiladi.

Oʻquv materiali ma'lumot mazmuniga (darslik mualliflari)ning bergan soʻnggi ishlanmasidir. Darslik muallifi oʻquvchilarning tayyorgarlik darajasi (nechanchi sinfni tugatganligi) va shu oʻquv predmeti boʻyicha oldingi sinfda nimalarni oʻrganganligi, shuningdek, oʻquvchilarning yoshiga moʻljallab ta'limni loyihalashtiradi. Ammo oʻquv materialining darslikda berilgan holati oʻquvchilarning real oʻquv imkoniyatlariga har biri alohida sinfda mos boʻlmasligi ham mumkin.

Yuqorida qayd qilinganidek, oʻquv materiali darslik muallifining ta'lim mazmuniga bergan eng soʻnggi ishlanmasidir. Oʻqituvchining asosiy vazifalaridan biri sinf jamoasining real oʻqish imkoniyatlarini moʻljallab oʻquv materiallariga didaktik ishlov berish, uni jamoa a'zolarining real oʻqish imkoniyatlariga moslashtirishdan iborat. Oʻquv materiali va oʻquv topshirigʻining bir tizimiga oidligi, har ikkalasida ham ta'lim mazmunining moddiylashtirilganligi, shuningdek, oʻquv materialining ham, oʻquv topshirigʻining ham oʻqituvchidan oʻquvchiga harakati ularning umumiy xususiyatlaridir. Shu bilan birga, oʻquv materiali va oʻquv topshirigʻining oʻziga xos belgilari ham mavjud boʻlib, oʻquv materiali ta'lim mazmunining moddiylashtirilgan shakli hisoblanadi. Oʻquvchi uni oʻqib, bilim, koʻnikma-malaka, ijodiy faoliyat tajribasi, munosabatlarni egallaydi. Oʻquvchida oʻquv topshiriqlarini bajarish yoʻli bilan bilim, koʻnikma-malaka, ijodiy faoliyat tajribasi, tabiat-jamiyat va ong hodisalarini emotsional baholash layoqatlari tarkib

topadi. Shu jihatdan qaraganda oʻquv topshirigʻi oʻquv materialini oʻzlashtirish vositasi sifatida asosiy funksiyasini bajaradi.

Yosh avlod ongida milliy istiqlol gʻoyasini shakllantirish, ularda Vatanni sevish tuygʻusini uygʻotish boshqa fanlar qatori ona tili talimida ham muhim oʻrin egallaydi. Vaholanki, boshlang'ich sinf ona tili mashgʻulotlarida oʻquvchilar turli mavzularda yoki rasm asosida matnlar tuzish vositasida fikr mahsulini ravon va toʻgʻri ifodalash boʻyicha amaliy koʻnikma hamda malaka hosil qilishlari lozim.

Ta'lim maqsadiga mos keladigan ta'lim mazmuni birinchi navbatda fan-texnika, ishlab chiqarish hamda jamiyat hayotining ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy oʻzgarishlarini oʻzida ifodalay olishi kerak. Asosan ona tili va oʻqish oʻquv predmetlari yordamida oʻquvchilarda ijodiy-intellektual koʻnikmalar hosil qilinadi. Ona tili darslarida muayyan umumiylikka ega boʻlgan 2-3 soʻzni berib, bunday soʻzlar tizimini davom ettirish, chunonchi, 1) olma, oʻrik, ………/ mevalar nomini ifodalovchi soʻzlar/, 2) samo, shams, yulduz,………/ osmon jismlari nomini ifodalovchi soʻzlar/, 3) qit'a, fard,……./ nazmiy asar turlarini ifodalovchi soʻzlar/ va h. 4) uyadosh soʻzlar qatorini toʻldirish: a) pushti……..qirmizi, b) imillamoq…yelmoq, v) ota…….bobo kabi topshiriqlar oʻquvchilarning aqliy, mantiqiy faoliyatini rivojlantirish bilan bir qatorda ularda ijodkorlik koʻnikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Muayyan oʻquv predmeti mazmunini loyihalashda birinchi navbatda ta'limning umumiy maqsadi keyin esa oʻquv predmeti maqsadlariga asoslanish lozim. Oʻquv predmeti mazmunini loyihalash uchun ta'limning bosh maqsadi va oʻquv jarayonining xususiy maqsadlarini aniq bilish talab etiladi. Aks holda ta'lim maqsadi bilan uning mazmuni orasidagi muvozanat yoʻqoladi. Ta'lim maqsadi bilan uning mazmuni orasidagi mutanosiblikni ta'minlash uchun muayyan didaktik qonuniyatlar, jumladan, oʻquvchi shaxsini uzluksiz rivojlantirish, uni qoʻllab quvvatlash tamoyillariga amal qilish talab etiladi.

Shuning uchun boshlang'ich sinf ona tili darslarida toʻgʻri, ravon, nutq maqsadi, shakli va mazmuniga muvofiq ravishda mustaqil fikrni bayon etish koʻnikmalarini shakllantirishga barcha oʻquv predmetlari oʻqituvchilarining faol

ishtiroki zarur. Ta'lim mazmunini uning maqsadiga muvofiq tarzda belgilash uchun o'quv predmetlari maqsadlarini chuqur tahlil qilish talab etiladi. Bunda ta'lim-tarbiyaning birligi maqsadi ustuvor bo'lishi lozim.

Boshlang'ich sinf ona tili ta'limining ustuvor maqsadi sifatida o'quvchi shaxsi kamolotini ta'minlashni e'tirof etish va butun ta'lim mazmunini xuddi mana shu maqsadga yo'naltirish lozim.

**Adabiyotlar ro'yhati**

1. O'zbekiston Respublikasi ,,Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi qonun_2018 yangi tahrir;
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 7 fevralda ,,O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi" to'g'risidagi farmonida_2017; PF-4947sonli
3. Qosimova K., Matjonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. –T.: Noshir, 2022. – 354 b.
4. G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Mamatova G., Boqiyeva H. Husnixat va uni o`qitish metodikasi. –T.: TDPU, 2009. – 70 b.
5. X.G'ulomova, SH.Yo'ldasheva 4-sinf ona tili darsligi Toshkent o'q.nashriyoti 2020y
6. Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa'dullo Quronov, Shokir Tursun, Ona tili va o'qish savodxonligi 2-sinf. –Toshkent, 2021. –120 b.
7. Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa'dullo Quronov, Shokir Tursun, Ona tili va o'qish savodxonligi 1-sinf . –Toshkent, 2021. –104 b.
8. Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa'dullo Quronov,. Ona tili va o'qish savodxonligi 3-sinf. –Toshkent, 2022. –144 b.

## TA'LIM JARAYONIDA MULTIMEDIA VOSITALARI VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH

***Nazarov Otabek Dilshodbekovich***
*Andijon mashinasozlik instituti 1-bosqich doktoranti*

***Annatatsiya:*** *Ushbu maqolada Ta'lim jarayonida multimedia vositalari va ulardan samarali foydalanish, Ta'lim jarayonida multimedia vositalari va ulardan foydalanish muammo va yechimlari haqida ma'lmotlar berildi.*

***Kait so'zlar:*** *Multimedia, ta'lim jarayoni, animatsia, material, protsessor.*

Multimedia vositalari qiziqarli va samarali o'quv tajribalarini taqdim etish uchun o'qitishga kiritilishi mumkin bo'lgan ko'p qirrali resurslardir. Ushbu vositalar matn, audio, rasm va video kabi ommaviy axborot vositalarining turli turlarini qamrab oladi va ular axborotni taqdim etishini kuchaytiradi.

Ta'lim jarayonida multimedia vositalaridan samarali foydalanish uchun quyidagilarga e'tibor berish kerak:

1. Multimedia Taqdimotlarini yaratish. O'qitishda multimediali taqdimotlardan foydalanish keng tarqalgan odat hisoblanadi. Bu o'qituvchilarga ma'lumotlarni vizual tarzda va dinamik tarzda taqdim etish imkonini beradi. Multimedia taqdimotlari o'quvchilarga axborotni yanada samarali qo'lga kiritish va saqlab qolishga yordam beradi.

2. Video ma'ruzalar: Video ma'ruzalar ta'lim jarayonida multimedia vositalaridan samarali foydalanish. Ularni sinf odati yoki jadvalini buzmasdan oldindan yozib olish va o'quvchilar bilan bo'lishish mumkin. Video ma'ruzalar o'rganuvchilarga kurs materiallariga o'z tezligida kirishni osonlashtiradi.

3. Interaktiv Whiteboards: Darsga o'rnatilgan interaktiv oq taxtalar o'rganuvchilar uchun hamkorlik va interaktiv tajribani taqdim etadi. Ular kurs materiali bilan faol shug'ullanish bilan birga o'quvchilarga darsda ishtirok etish imkoniyatini taqdim etadi. O'qituvchilar motivatsiya, diqqat va umumiy qiziqishni oshiruvchi interaktiv displeylar yaratishlari mumkin.

4. Podkastlar yoki Audio Kliplar: Podkastlar va audiokliplar o'qitishda qo'llaniladigan ko'p qirrali multimedia vositalaridir. Ular osongina yaratilishi va bo'lishishi mumkin, bu esa talabalarga yanada qiziqarli va qulay o'quv tajribasini taqdim etadi. Ushbu vositalar o'rganuvchilarga vaqt va kuchni tejaydigan ta'lim mazmunini iste'mol qilishga yordam beradi.

5. Animatsion videolar: Animatsion videolar murakkab tushunchalarni yanada sodda va qiziqarli tarzda tasvirlay oladigan vizual yordamdir. Ushbu videolavlar o'quvchilarga qiyin mavzularni tushuntirishda qo'llaniladi va ular o'quv tajribasini oshirishi mumkin. Animatsion videolar o'rganuvchilarning qiziqishi va e'tiborini tortadigan ko'p sensorli tajribani taqdim etadi.

Multimedia - gurkirab rivojlanayotgan zamonaviy axborotlar texnologiyasidir. Uning ajralib turuvchi belgilariga quyi-dagilar kiradi:
- axborotning xilma-xil turlari: an'anaviy (matn, jadvallar, bezaklar va boshqalar), original (nutk, musika, videofilmlardan parchalar, telekadrlar, animatsiya va boshqalar) turlarini bir dasturiy maxsulotda integratsiyalaydi. Bunday integratsiya axborotni ro’yxatdan o’tkazish va aks ettirishning turli kurilmalari: mikrofon, audio-tizimlar, optik kompaktdisklar, televizor, videomagnitafon, videokamera, elektron musiqiy asboblardan foydalanilgan holda kompyuter boshqaruvida bajariladi;
- muayyan vaqtdagi ish, o’z tabiatiga ko’ra statik bo’lgan matn va grafikadan farqi ravishda, audio va videosignallar faqat vaqtning ma'lum oralig’ida ko’rib chiqiladi.

Video va audio axborotlarni kompyuterda qayta ishlash va aks ettirish uchun markaziy protsessor tez harakatchanligi, ma'lumotlarni o’zatish shinasining o’tkazish qobiliyati, operativ (tezkor) va video-xotira katta sig’imli tashqi xotira (ommaviy xotira), hajm va kompyuter kirish-chiqish kanallari bo’yicha almashuvi tezligini taxminan ikki baravar oshirilishi talab etiladi;
- "inson-kompyuter" interaktiv muloqotning yanggi doirasida, bunda muloqot jarayonida foydalanuvchi ancha keng va har tomonlama axborotlarni oladiki, mazkur xolat ta'lim, ishlash yoki dam olish sharoitlarini yaxshilashga imkon beradi.

Multimedia vositalari asosida o’quvchilarga ta'lim berish va kadrlarni qayta tayyorlashni yo’lga qo’yish xozirgi kunning dolzarb masalalaridandir. Multimedia tushunchasi 90-yillar boshida xayotimizga kirib keldi. Uning o’zi nima degan savol tug’iladi? Ko’pgina mutaxassislar bu atamani turlicha tahlil qilishmoqda. Bizning fikrimizcha, multimedia - bu informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari

asosida audio, video, matn, grafika va animatsiya (ob'yektlarining fazodagi xarakati) effektlari asosida o'quv materiallarini o'quvchilarga yetkazib berishning mujassamlangan xoldagi ko'rinishidir.

Rivojlangan mamlakatlarda o'qitishning bu usuli, xozirgi kunda ta'lim sohasi yo'nalishlari bo'yicha tatbiq, qilinmoqda. Xatto, xar bir oila multimedia vositalarisiz xordiq, chiqarmaydigan bo'lib koldi. Multimedia vositalarining 1981 yildagi yalpi oboroti 4 mlrd. AQSh dollarini tashkil qilgan bo'lsa, 1994 yili esa 16 mlrd. AQSh dollarini tashkil kildi. X,ozirgi kunda esa sotilayotgan har bir komp'yuterni multimedia vositalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Kompyuterlarning 70-yillarda ta'lim soxasida keng qo'llash yo'lida urinishlar zoye ketganligi, avvalombor, ular unumdorligining nixoyatda pastligi bilan bog'liq edi. Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, multimedia ' vositalari asosida o'quvchilarni o'qitish ikki barobar unumlidir va vaqtdan yo'tish mumkin. Multimedia vositalari asosida bilim olishda 30 % gacha vaqtni tejash mumkin bo'lib, olingan bilimlar esa xotirada o'zoq muddat saqlanib qoladi. Agar o'quvchilar berilayotgan materiallarni ko'rish (video) asosida qabul qilsa, axborotni xotirada saqlab qolinishi 25-30 % oshadi. Bunga qo'shimcha sifatida o'quv materiallari audio, video va grafika ko'rinishda mujassamlashgan holda berilsa, materiallarni xotirada saqlab kolish 75 % ortadi. Bunga biz multimedia vositalari asosida chet tillarini o'rganish jarayenida yana bir bor ishonch xosil qildik.

Multimedia vositalari asosida o'quvchilarni o'qitish quyidagi afzalliklarga ega:

a) berilayotgan materiallarni chuqurroq, va mukammalroq o'zlashtirish imkoniyati bor;

b) ta'lim olishning yangi sohalari bilan yaqindan aloqa qilish ishtiyoqi yanada ortadi:

v) ta'lim olish vaqtining qisqarish natijasida, vaqtni tejash imkoniyatiga erishish;

g) olingan bilimlar kishi xotirasida o'zoq muddat saqlanib, kerak bo'lganda amaliyotda qo'llash imkoniyatiga erishiladi.

Shuni aytib o'tish kerakki, kadrlarni qayta tayyorlash yo'lida Jaxon Valyuta Fondi, Umumjaxon banki, Yevropa Ittifoki komissiyasi kabi nufo'zli tashkilotlar katta tajribaga egadirlar.Biz bunga, ushbu tashkilotlar tomonidan tashkil qilingan seminar va konferensiyalarning ishtirokchisi sifatida yana bir bor ishonch xosil qildik. Avvalambor , o'quv jarayonida zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanish taxsinga sazovordir.

O'z o'rnida, multimedia vositalaridan keng foydalanish yo'lida ayrim ob'yektiv muammolar ham mavjud. Bulardan eng asosiysi - o'quvchilar uchun kerak bo'lgan o'quv materiallarini, qonunlarni va boshqa ko'rsatmalarni qo'llanma qilib kompyuter dasturlarini ishlab chiqarishdir. Ishlab chiqilgan kompyuter dasturlarida multimedia elementlarini qo'llash esa, kompakt disklarni (lazer disklari) qo'llashni talab qiladi. Xozirgi kunda bunday ko'rinishdagi kompakt disklarni respublikamizda ishlab chiqarish imkoniyati yo'qdir. Bular ma'lum bir miqdordagi mablag'ni oldindan jalb etishni talab qiladi.

Bizning fikrimizcha, zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan o'quvchilarga ta'lim berish va qayta tayyorlash jarayonida keng foydalanish, kelajakda yetuk va yuqori malakali mutaxassislarni kamol toptiradi.

Multimedia vositalari o'rganuvchilar uchun ta'lim mazmuni bilan interaktiv aloqada bo'lish uchun samarali platformani ta'minlaydi. Ushbu vositalar o'quv tajribasiga foyda keltiradigan ta'limga moslashuvchan yondashuvni ta'minlaydi. Biroq tarbiyalanuvchilar va talabalar o'rtasida tushuncha yoki tarbiya yetishmasligi bo'lganda masalalar yuzaga kelishi mumkin. Ushbu maqolada multimedia vositalari bilan bog'liq muammolar va ularning yechimlari o'rganiladi.

1. Texnik masalalar: Asbob-uskuna va dasturiy ta'minotdagi nosozliklar, ulanish muammolari, fayllarning muvofiqligi masalalari, yuklab olish muammolari kabi texnik masalalar ta'lim va o'quv jarayoniga uzilishlar keltirib chiqarishi mumkin. Biroq, texnik masalalarni ta'lim muassasasi tomonidan to'g'ri texnik qo'llab-quvvatlash, ishonchli internetga ulanishni ta'minlash, foydalanishdan oldin barcha dastur va dasturiy ta'minotlarning to'liq yangilanishini ta'minlash orqali yengillashtirish mumkin.

2. Kiberxavfsizlik: Onlayn platformalar va raqamli qurilmalar zararli dasturlar, fishing hujumlari va xakerlik kabi kiberxavfsizlik tahdidlariga moyil. Shaxsiy ma'lumotlar va nozik ma'lumotlarni himoya qilish o'qituvchilar va talabalar uchun eng asosiysi hisoblanadi. Kiberxavfsizlik xavflarini yumshatish uchun parolni himoya qilish, shifrlash va xavfsizlik devorlari kabi xavfsizlik choralari amalga oshirilishi mumkin.

3. Mualliflik huquqining buzilishi. O'quvchilar va tarbiyachilar foydalanadigan videoklip, audio fayllar, rasmlar kabi multimedia vositalari mualliflik huquqi qonunlariga bo'ysunadi. Mualliflik huquqi bilan himoyalangan materiallardan ruxsatsiz foydalanish huquqiy asoratlarga olib kelishi mumkin. Mualliflik huquqining buzilishiga yo'l qo'ymaslik uchun o'qituvchilar va talabalar mualliflik huquqi bilan himoyalangan materiallardan foydalanishga ruxsat olishlari, mualliflik huquqining tegishli atributlarini berishlari va jamoat domeni resurslaridan foydalanishlari kerak.

4. Matn haddan tashqari yuklanishi. Multimediali taqdimotlar kabi multimedia vositalari o'quvchilarni ortiqcha matn bilan ortiqcha yuklamaslik uchun ehtiyotkorlik bilan ishlab chiqilgan bo'lishi kerak. O'qituvchilar asosiy g'oyalarni birinchi o'ringa qo'yishlari va ko'proq qiziqish va qiziqish uyg'otish uchun o'q nuqtalari, infografika, grafikalar va rasmlardan foydalanishlari kerak.

5. Multimedia vositalari bilan tanishmaslik. Ba'zi o'qituvchi va o'rganuvchilar multimedia vositalari bilan tanish bo'lmasligi yoki ulardan qo'rqishi mumkin, bu esa ta'lim jarayonida ushbu vositalardan foydalanishga to'sqinlik qilishi mumkin. Multimedia vositalaridan samarali foydalanish uchun zarur bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish uchun ta'lim oluvchilarni mashg'ulotlarga, o'quv mashg'ulotlariga jalb qilish kerak. Bundan tashqari, o'rganuvchilar darslar va onlayn resurslardan ham foydalanishlari mumkin.

Xulosa qilib, multimedia vositalari o'rganish uchun samarali platformani taklif etadi. Ularning afzalliklariga qaramay, texnik masalalar, kiberxavfsizlik tahdidi, mualliflik huquqining buzilishi, matnning haddan tashqari yuklanishi va multimedia vositalari bilan tanishmaslik kabi qiyinchiliklar paydo bo'lishi mumkin.

To'g'ri qo'llab-quvvatlash, o'qitish va texnik bilimlar ushbu masalalarni yengillashtirishi, multimedia vositalaridan ta'lim jarayonida samarali foydalanishiga ko'maklashishi mumkin. Multimedia vositalarining samaradorligini nazorat qilish va baholash orqali tarbiyachilar o'quvchilarni turli mavzularni o'rganish va tushunishga ilhomlantiradigan va undaydigan zamonaviy va interaktiv o'qitish usullarini taqdim etishlari mumkin. Multimedia vositalari ta'lim jarayonini yanada rivojlantirishda katta potensialni taqdim etadi. Multimediali taqdimotlar, video-ma'ruzalar, interaktiv oq taxtalar, podkastlar, animatsion videolar kabi multimedia vositalaridan foydalanish qiziqarli va dinamik o'quv tajribasini yaratishi, shu tariqa o'rganish jarayonini yanada qiziqarli va interaktiv qilib qo'yishi mumkin. Ta'lim jarayonida multimedia vositalarini kiritish orqali ta'lim oluvchilar o'quvchilarni bilim olishga qiziqishni shakllantirishga ilhomlantirish, shu bilan birga bilimlarni amaliy egallashga ko'maklashish uchun o'ziga xos imkoniyatga ega. Bundan tashqari, ta'lim amaliyotini takomillashtirish va o'rganuvchilarning individual ehtiyojlarini qondirish uchun multimedia vositalarining samaradorligini uzluksiz baholash zarur.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 yil, 6-son, 70-modda.

2. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi 5111700 – Boshlang'ich ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari. Toshkent. 2018.08.25. 40 b. (3 b.)

3. Richard E. Boyatzis. David C. McClelland: For The Wiley Encyclopedia of Personality and Individual Differences Volume IV: Clinical, Applied and Cross – Cultural Research. December 5, 2016

4. J.Raven (1984). Competence in modern society: Its Identification, Development and Release. – UK. P.220

# BOLALAR TARBIYACHILARINING IJODIY QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH

***Nishanova Muslima***

*Kimyo Xalqaro Universititu (KIUT) Namangan filialali O'qituvchisi*

***Annotatsiya:*** *Bugungi jadal rivojlanayotgan dunyoda ijodkorlik muhim mahoratga aylandi. Yosh o'quvchilarda innovatsiya va qiziquvchanlikni rivojlantirish uchun bolalar o'qituvchilari ijodiy qobiliyatga ega bo'lishlari juda muhimdir. Ushbu maqola bolalar o'qituvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun strategiya va yondashuvlarni o'rganishga qaratilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *erkin fikrlash, shaxsiy fazilatlar, rag'batlantirish, moslashuvchanlik, ijodiy muhit*

***Аннотация:*** *Креативность стала важным навыком в современном быстро меняющемся мире.Чтобы способствовать инновациям и любознательности юных учащихся, важно, чтобы детские учителя обладали творческими навыками. Данная статья посвящена исследованию стратегий и подходов развития творческих способностей педагогов детей.*

***Ключевые слова:*** *свободомыслие, личностные качества, мотивация, гибкость, творческая среда*

***Abstract:*** *Creativity has become an important skill in today's fast-paced world. In order to foster innovation and curiosity in young learners, it is essential that children's teachers have creative skills. This article focuses on the study of strategies and approaches for the development of creative abilities of teachers of children*

***Keywords:*** *free thinking, personal qualities, motivation, flexibility, creative environment*

**Kirish:** Bolalar ongining rivojlanishi va kelajagini shakllantirishda bolalar tarbiyachilari muhim rol o'ynaydi. Bolalar bilan samarali muloqot qilish va

ularning ijodini rag'batlantirish uchun o'qituvchilarning o'zlari kuchli ijodiy qobiliyatga ega bo'lishlari kerak.

Ushbu kompetentsiyani rivojlantirish shaxsiy fazilatlar, strategiyalar va doimiy o'z-o'zini takomillashtirishning kombinatsiyasini talab qiladi. Bolalar o'qituvchilarining ijodiy kompetentsiyasini shakllantirishning bir necha asosiy elementlari:

1. Ochiq fikrlashni tarbiyalash: Ijodiy o'qituvchi yangi g'oyalar, istiqbollar va imkoniyatlarga ochiq. Ular qiziqishni o'z ichiga oladi va bolalarni atrofdagi dunyoni o'rganishga va savol berishga undaydi. Ular inklyuzivlik va turli fikrlar va fikrlarni hurmat qilish muhitini rivojlantiradilar.

2. Bilimlar bazasini shakllantirish: Pedagoglar bola rivojlanishi, ta'lim nazariyalari va innovatsion o'qitish usullarini chuqur tushunishlari kerak. Bu bilimlar ularni bolalarning kognitiv, hissiy va ijtimoiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi faoliyat va tajribalarni loyihalash uchun jihozlaydi.

3. Shaxsiy ijodkorlikni tarbiyalash: Pedagoglar o'zlarining ijodiy qobiliyatlari va qiziqishlarini, masalan, rasm chizish, yozish, musiqa yoki har qanday badiiy faoliyatni rivojlantirishlari kerak. Ijodiy faoliyat bilan shug'ullanish ularning o'zlari ijodkorlik quvonchini modellashtirishga imkon beradi va bolalar uchun ilhom manbai bo'lib xizmat qiladi.

4. Ijodiy muammolarni hal qilishni rag'batlantirish: Ijodiy o'qituvchilar bolalarni tanqidiy fikrlashga va muammolarni xayoliy usullar bilan hal qilishga undaydi. Ular bolalarga o'zlarining noyob echimlari va strategiyalarini ishlab chiqishga imkon beruvchi ochiq tadqiqot imkoniyatlarini taqdim etadi.

5. Moslashuvchanlik va moslashuvchanlikni qabul qilish: Ijodkorlik ko'pincha kutilmagan vaziyatlar va o'zgarishlar tufayli yuzaga keladi. Pedagoglar bolalarning ehtiyojlari va qiziqishlaridan kelib chiqqan holda rejalarni o'zgartirish yoki faoliyatni moslashtirish uchun moslashuvchan va ochiq bo'lishi kerak. Ushbu moslashuvchanlik ko'proq organik va sezgir o'rganish tajribasiga imkon beradi.

6. Qo'llab-quvvatlovchi muhitni targ'ib qilish: Ijodiy o'qituvchi bolalar o'zlarini erkin his qilishlari uchun xavfsiz va rag'batlantiruvchi muhit yaratadi. Ular ijobiy

munosabatlarni rivojlantiradi va konstruktiv fikr-mulohazalarni taqdim etadi, bolalarda o'zlarining ijodiy harakatlariga ishonch va qat'iyatlilikni oshirishga yordam beradi.

7. Uzluksiz kasbiy rivojlanish: Ijodkorlikni rivojlantirishda mavjud amaliyotlardan xabardor bo'lish uchun o'qituvchilar doimiy o'rganish va kasbiy rivojlanish bilan shug'ullanishlari kerak. Seminarlarda, konferentsiyalarda qatnashish va hamkasblari bilan tajriba almashish ularning ijodiy salohiyatini oshiradi va o'qitish uslubiga yangi g'oyalarni olib keladi.

8. Ota-onalar va jamoatchilik bilan hamkorlik: ota-onalarni jalb qilish va mahalliy hamjamiyatni jalb qilish pedagoglarning ijodiy malakasini oshirishi mumkin.

Hamkorlikdagi sa'y-harakatlar turli istiqbollarni, resurslarni va qo'llab-quvvatlashni ta'minlashi mumkin, bu esa yanada boyitilgan va rag'batlantiruvchi ta'lim muhitiga hissa qo'shadi.

Ushbu elementlarni o'zlashtirgan holda, bolalar o'qituvchilari o'zlarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishlari va yosh ongni kashf qilish, tajriba qilish va qutidan tashqarida fikrlashga ilhomlantirishlari mumkin. Bu o'qish va ijodga umrbod mehr uyg'otadi, ularning qaramog'idagi bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydi.

Bolalar ijodini rivojlantirish uchun shaxsiy xususiyatlar va motivatsiyalar kabi omillar bilan bog'liq bo'lgan bolalarning ijodiy qobiliyatlari juda muhimdir. Bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish ko'p jihatdan bolalar ta'lim muassasalari bolalar ijodini qanchalik rag'batlantirishiga bog'liq bo'lishi mumkin.

Bolalar ijodiyoti shaxsiy xususiyatlar va ijtimoiy muhit o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikdan iborat bo'lib, bolalar bog'chalarining tashkiliy ijodiy iqlimi bolalar ijodini rag'batlantiradigan yoki kamaytiradigan muhim o'zgaruvchidir.

Bundan tashqari, bolalar bog'chalari ijodiy muhitining turli darajalari o'qituvchilarning ta'lim-tarbiyasiga, o'zaro munosabatlariga va munosabatlariga ta'sir qilishi, bolalarning ijodiy qobiliyatlariga samarali ta'sir qilishi mumkin. 21-asr maktab ta'limini yaxshilash uchun ijodkorlik maktab iqlimini belgilovchi ikkita muhim omildan biri bo'ldi.

Bolalar ijodiyotini rivojlantirish uchun OECD ham "maktab" muhitining rolini ta'kidlashda davom etdi (Lucas et al. 2013).Maktab ta'limi tajribasi bolalar ijodiyotining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi haqida xavotirlar mavjud bo'lsa-da (Guilford 1950), ijodkorlikni hurmat qiladigan va tan oladigan institutsional muhitning ijobiy qiymati ham ta'kidlangan (Beghetto va Kaufman 2014; Runco 2003). ; Vestbi va Douson, 1995).

Bolalar ijodiyoti uchun ta'lim asosan bir martalik maxsus mashg'ulot yoki sinfdan tashqari tajribalar shaklida amalga oshirilishi tanqid qilindi, bu mavjud o'quv dasturiga shunchaki qo'shimcha hisoblanadi (Cho et al. 2012).

So'nggi paytlarda ijodiy ijtimoiy-madaniy muhit ta'kidlanganligi sababli, olimlar yosh bolalar ta'lim muassasalarining ijodiy muhiti va iqlimiga ko'proq e'tibor berishni boshladilar. Davies va boshqalarga ko'ra, 210 ta oldingi tadqiqotlarning adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, ijodkorlikka ta'sir qiluvchi omillar jismoniy muhit, resurslardan to'g'ri foydalanish, sinfdan / muassasadan tashqari faoliyat, o'quvchilarning mustaqilligini rag'batlantiradigan muhitlar, o'yin va o'yinlarning roli, vaqtdan moslashuvchan foydalanish, o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi hurmatli munosabatlar, jamoalar va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish. Ta'lim muassasalarining vaqt, makon va resurslari, o'qituvchilar va bolalar o'rtasidagi munosabatlar va jamoalardan foydalanish kabi omillar birinchi navbatda ularning o'quv dasturi bilan belgilanadi.

2012-yildan beri Koreya Respublikasi 0-2 yoshdagi barcha bolalar uchun bepul bolalar parvarishi bilan taʼminlanadi, shu bilan birga "Nuri" milliy oʻquv dasturini taqdim etadi va 3–5 yoshli barcha bolalar uchun taʼlim xarajatlarini subsidiyalaydi. Natijada koreyslik yosh bolalarni ta'lim muassasalariga qamrab olish darajasi OECDga a'zo mamlakatlardagi bolalarning oʻrtacha qabul qilish koʻrsatkichlaridan ancha yuqori.

Koreyada 3 yoshli bolalarning taxminan 93,7 foizi bolalar bogʻchalariga qamrab olingan boʻlsa, OECDga a'zo mamlakatlarda 3 yoshli bolalarning oʻrtacha qamrab olish darajasi 79,3 foizni tashkil etdi (Ta'lim vazirligi 2019 yil).

Koreyalik yosh bolalar ilgari ta'lim muassasalariga (ya'ni, bolalar bog'chasi va bog'chalariga) borishga moyil bo'lganligi sababli, bu muassasalarning muhiti bolalar ijodiyotiga ta'sir qiluvchi eng muhim omillardan biriga aylandi.

Koreyaning Ta'lim bo'yicha asoslari (9-modda, 3-bandi) maktab ta'limi o'quvchining ijodkorligi va shaxsiyatini rivojlantirishni o'z ichiga olgan yaxlit ta'limga urg'u berishi kerakligini aytadi. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, Nuri, 3-5 yoshli bolalar uchun milliy o'quv dasturi, shuningdek, yosh bolalarni har tomonlama rivojlantirish orqali ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan (Nah 2013).

Bolalar ijodiyoti erta bolalik davrida o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqqanligi sababli, kattalar va ta'lim muhitining etarli darajada yordami bolalar ijodini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Shunday qilib, bolalar bog'chalari uchun ijodiy ta'lim muhitini o'rganish juda muhimdir.

2015 yildan beri bolalar ijodi va shaxsiyatini rivojlantirishga qaratilgan Nuri oʻquv dasturiga muvofiq (Kim va boshq. 2019) maktabgacha yoshdagi bolalar taʼlimi sifatini oshirish maqsadida Koreya Taʼlim vazirligi mamlakat boʻylab baʼzi bolalar bogʻchalarini eng yaxshi namunali bogʻchalar deb belgilagan. , 2015-yilda 100 ta va 2016-yilda 50 ta bolalar bogʻchalari tashkil etilgan boʻlib, oʻzlarining ajoyib oʻquv dasturlarini omma oldida baham koʻrdi. Bu namunali bogʻchalar oʻzlarining ijodiy taʼlim-tarbiyasiga Nuriy oʻquv dasturini qoʻllaganlari uchun maxsus tanlangan.

Ijodkorlik va ularning o'quv dasturlarini sintez qilish uchun ushbu namunali bog'chalarning mudirlari va o'qituvchilari o'zlarining bog'chalari va sinflarini qayta qurish va qayta qurish bo'yicha turli sa'y-harakatlarni amalga oshirdilar. Shunday qilib, ushbu namunali bog'chalarning ish sharoitlari va o'qituvchilarning qarashlari boshqa bog'chalardan ancha farq qilishi kutilmoqda.

Bolalar bog'chasining ijodkorligi bo'yicha oldingi tadqiqotlar asosan shaxslarning ijodiy xususiyatlari va kognitiv fikrlash jarayonlariga qaratilgan. Aksincha, so'nggi tadqiqotlar odamlarning ijodiy mahsulotlari va xatti-harakatlariga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan ijtimoiy muhitga ko'proq e'tibor berishni boshladi.

Talabalarning ijodiy idroki va his-tuyg'ulariga qo'shimcha ravishda, ko'plab olimlar ijodiy sinf madaniyati va ijodiy sinf iqlimining ta'siriga qaratilgan tadqiqotlari bilan ijodkorlikni rivojlantirishda muhitning ahamiyatini ta'kidlaydilar.

Ijodiy sinf iqlimi yoki atmosferasi bolalar bog'chasiga uch o'lchovda ta'sir qiladi: kognitiv, hissiy va munosabatlar. Birinchidan, ijodiy sinf muhiti bog'cha tarbiyalanuvchilarini har tomonlama va ijodiy fikrlashga undashi, ularni o'z maqsadlarini belgilashga undashi, o'z qobiliyatlari va mulohazalari asosida erkin qaror qabul qilishiga imkon yaratishi, shuningdek, sinfdoshlari va o'qituvchilari bilan hissiy munosabatda bo'lishiga yordam berishi kerak.

Bundan tashqari, ijodiy sinf muhiti bolalar bog'chalari uchun ijodiy fikrlash va turli xil fikrlash usullarini o'zlashtirish uchun ochiq maydonni ta'minlaydi va ular o'quvchilarga kasbiy bilimlarni taklif qilishda qo'rqmasdan va xavf-xatarsiz yangi narsalarni sinab ko'rishlari mumkin bo'lgan xavfsiz joy yaratadi. Eng muhimi, o'rganish qiziqarli bo'lgan joyda ijodiy sinf muhiti boshlanadi.

## Xulosa

Bolalar tarbiyachilarida ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish yosh ongni kelajakda rivojlanish uchun tayyorlash uchun juda muhimdir. Uzluksiz kasbiy rivojlanish, hamkorlik va faol o'rganish kabi strategiyalar o'qituvchilarga ijodkorlikni ilhomlantirish uchun kuch beradi. Faol ovoz, turli jumla tuzilmalari va ko'p o'tish so'zlaridan foydalanish muloqotni kuchaytiradi va o'qituvchilar va talabalarni jalb qiladi. Bolalar tarbiyachilarining ijodiy qobiliyatlarini tarbiyalash orqali biz innovatsion va qiziquvchan o'quvchilar avlodini tarbiyalashimiz mumkin.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Amabile, T. M., Conti, R., Coon, H., Lazenby, J., & Herron, M. (1996). Ijodkorlik uchun ish muhitini baholash. Boshqaruv Akademiyasi jurnali, 39(5), 1154–1184.

2. Jin, K. H., Li, M. N. va Choi, G. R. (2007). Koreya bolalar bog'chasining ijodiy muhitini baholash uchun usullarni ishlab chiqish va haqiqiyligini o'rganish. Koreya ijodiy ta'lim instituti jurnali, 9, 183–199.

3. Kang, E. J., Kim, J. S., Kim, S. J. va Ahn, H. J. (2016). Maktabgacha ta'lim muassasalari va bolalar bog'chasi o'qituvchilarining ruhiyatini oshirish uchun siyosatni takomillashtirishni taklif qilish. Tadqiqot KICCE hisoboti 2016-24.
4. Lyu, K. H. (2016). Boshlang'ich, o'rta va yuqori sinf o'quvchilarida sinf muhiti, o'qitish uslubi va ijodiy kompetentsiya bilan bog'liqligini tahlil qilish. Yoshlar muassasalari va atrof-muhit, 14(2), 35–43.

# IQTISODIY FANLARNI O‘QITISHDA ZAMONAVIY METODLAR INTEGRATSIYALASHUVINI TASHKIL ETILISHI

***Urinov Baxrom Jamoliddinovich***
*Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes kafedrasi, PhD.*
*Namangan davlat uiversiteti*

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada talabalarda iqtisodiy tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish jarayonida xorijiy tajribalar metodlarining integratsiyalashuvi jarayonlari aks ettirilgan. Shuningdek, iqtisodiy fanlarni o‘qitish sifatini oshirish yo‘llari, xorijiy tajribalar asosida iqtisodiy fanlarni o‘qitishda o‘qituvchi o‘qitish tamoyillari yoritilgan.*
***Kalit so‘zlar*** *iqtisodiy tafakkur, integratsiya, iqtisodiy fanlarni o‘qitish metodikasi, ta’lim sifati, tamoyil, hamkorlik.*

# ОРГАНИЗАЦИЯ ИНТЕГРАЦИИ СОВРЕМЕННЫХ МЕТОДОВ В ПРЕПОДАВАНИИ ЭКОНОМИЧЕСКИХ НАУК

***Уринов Бахром Джамолиддинович***
*Кафедра зеленой экономики и устойчивого бизнеса, PhD.*
*Наманганский государственный университет*

***Аннотация.*** *В данной статье отражены процессы интеграции методов зарубежного опыта в процесс формирования и развития экономического мышления студентов. Также освещены пути повышения качества преподавания экономических наук, принципы подготовки учителей по преподаванию экономических наук на основе зарубежного опыта.*
***Ключевые слова:*** *экономическое мышление, интеграция, методика преподавания экономических наук, качество образования, принцип, сотрудничество.*

# ORGANIZATION OF INTEGRATION OF MODERN METHODS IN TEACHING ECONOMIC SCIENCES

***Urinov Bakhrom Jamoliddinovich***
*Department of Green Economy and Sustainable Business, Ph.D.*
*Namangan State University*

***Abstract***. *This article reflects the processes of integration of methods of foreign experience into the process of formation and development of economic thinking of students. Also highlighted are ways to improve the quality of teaching economic sciences, principles of teacher training for teaching economic sciences based on foreign experience.*

***Key words:*** *economic thinking, integration, methods of teaching economic sciences, quality of education, principle, cooperation.*

Zamonaviy iqtisodiyotda yuzaga keladigan muammolar evolyutsiyasi, ularning oldindan aytib bo'lmaydiganligi tahlili shuni ko'rsatadiki, samarali iqtisodiy rivojlanish yo'llarini izlash iqtisodiy tafakkur va odamlarning xatti-harakatlarini chuqurroq tushunishni talab qiladi.

Iqtisodiy tafakkur – tahlil, sintez, taqqoslash, abstraksiya kabi aqliy operatsiyalar yordamida iqtisodiy hodisalar, obyektlarning mohiyatini bilish, ularning qonuniyatlarini aniqlashdan iborat. Iqtisodiy fikrlash yoki iqtisodiy nuqtayi nazardan fikrlashning o'ziga xos xususiyati uning iqtisodiy faoliyatga, insonning ong bilan tartibga solinadigan, intellektual qobiliyatlarini rivojlantiradigan va iqtisodiy ehtiyojlar, manfaatlar va munosabatlarni amalga oshirishga, mehnat sifati va miqdorini yaxshilashga va moddiy jihatdan muhim natijalarga erishishga qaratilgan aqliy hamda mehnat faoliyatiga qaratilganligi bilan izohlanadi.

Uzoq vaqt davomida iqtisodiy tafakkurni shakllantirishning hojati yo'q edi. Chunki, ma'muriy-buyruqbozlik iqtisodiyoti sharoitida hech narsani o'zi hal qilmasligi kerak edi, chunki inson iqtisodiy munosabatlarning ishtirokchisi bo'lmaganligi sababli, unga ta'sir o'tkazish kerak emas edi. iqtisodiy voqealar

rivojiga, xo‘jalik tizimida o‘z o‘rnini tanlashiga, ijodiy faoliyat ko‘rsatishiga o‘sha davrda mavjud bo‘lgan rag‘batlantirish tizimi to‘sqinlik qildi.

Iqtisodiy fikrlash iqtisodiy voqelikni subyektiv aks ettirish shakli sifatida insonning iqtisodiy makondagi xatti-harakatlarini belgilaydi. Shaxsning iqtisodiy xulq-atvori iqtisodiy qaror qabul qilishda ifodalanadi. Shaxsning shakllangan iqtisodiy tafakkuri va xarakteri natijasida uning iqtisodiy xulq-atvorining xarakterli xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- iqtisodiy xulq-atvorning asosiy maqsadiga erishish – maksimal foyda olish;
- iqtisodiy xulq-atvorning axloqiy me’yorlarga va ijtimoiy-iqtisodiy muhitga bog‘liqligi.

Iqtisodiy tafakkurning shakllanishi, shaxsning iqtisodiy xulq-atvoriga qo‘yiladigan talablar iqtisodiy ta’limni takomillashtirish, iqtisod sohasidagi qonunchilik bazasini mukamallashtirish, o‘quv jarayonida tarbiyaviy ishlarning rolini oshirish zaruratini keltirib chiqaradi. Iqtisodiy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida mehnatni intellektuallashtirish maxsus va umumiy ta’limning yuqori darajasiga bo‘lgan talabni oshiradi.

Iqtisodiyotning shaxs va umuman jamiyat hayotida ortib borayotgan ahamiyati ta’siri ostida, har doim ham axloqiy va ma’naviy yo‘l bilan emas, balki moliyaviy barqarorlikka, ijtimoiy mavqega erishish istagida ifodalangan shaxslarning xatti-harakatlarida o‘zgarishlar ro‘y beradi. Shu munosabat bilan oilada ham, ta’lim muassasalarida ham shaxsni axloqiy tarbiyalashning ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Iqtisodiy tafakkur va iqtisodiy fikrlashning jamiyat a’zolari o‘rtasida orttirish bevosita iqtisodiy fanlarni o‘qitish sifatini oshirish orqali yechim topadigan masala hisoblanadi. Iqtisodiy fanlarni an’naviy usullarda o‘qitish o‘z navbatida jamiyatdagi maxsus iqtisodiy bilimlarga ega aholi doirasini toraytiradi. Yangi pedagogik va axborot texnologiyalaridan samarali foydalangan holda darslarni tashkil etish hamda jahon amaliyotida ijobiy natijalarga ega bo‘lgan ta’lim metodlari, usullari va texnologiyalari bilan integratsiyalashuv iqtisodiy fanlarni o‘qitishni sifat darajasiga olib chiqishga xizmat qiladi.

Iqtisodiy fanlarni o'qitish sifatini oshirish bevosita quyidagi vazifalarni o'z oldiga qo'yadi:

- iqtisodiy fanlarni o'qitish uchun o'qitish va ta'limning umumiy qonuniyatlarini ham, ularning o'ziga xos xususiyatlarini ham o'zlashtirish;
- iqtisodiy fanlarni o'qitishning metod va vositalarini yuqori saviyada o'rganish;
- o'quv mashg'ulotlarini tayyorlash va o'tkazishning zamonaviy usullarini o'zlashtirish;
- o'qituvchining talabalar mustaqil ishlariga rahbarlik qilish malakasini chuqurlashtirish;
- ta'lim jarayonida ta'lim va tarbiyaning birligini ta'minlash [1].

Hozirgi sharoitda iqtisod fanini o'qitish metodikasining o'rni va ahamiyati ortib borayotganligi quyidagi omillarga bog'liq:

- iqtisodiy fanlarni o'qitishdagi mutaxassislar o'z g'oyalarini talabalarga yetkazishda ijrochilik bilan cheklanib qolmay ijodkorlik qilishlari ham talab etilishiga;
- iqtisodiy fanlarni o'qitishda jamiyatdagi talaba (iste'molchi)larning iqtisodiy vazifalarini boshqa jabhalardan ajrata olish ko'nikmalarini shakllantirishga;
- nazariy berilayotgan bilimlarni amaliyotda mutaxassislar yordami bilan chambarchas bog'liqligini ta'minlashga;
- iqtisodiy fanlarni o'qitishda ta'lim beruvchilarga ta'lim berish huquqi kasbiy kompetensiyaga ega ekanligi bilan bog'liq.

Iqtisodiy fanlarni o'qitish metodikasi – iqtisodiy ta'lim sifatini oshirish omili hisoblanadi. Iqtisodiy fanlarni o'qitish metodikasi o'zida nafaqat asosiy iqtisodiy bilim va qonuniyatlarni, balki ushbu bilimlarni idrok etishning psixologik va ijtimoiy-siyosiy qonuniyatlarini ham sintez qiladi [1].

Iqtisodiy fanlarni aholining turli yosh guruhlariga qanday o'rgatish, o'quvchilarga iqtisodiy bilim, ko'nikma va malakalarni qiziqarli va samarali o'tkazish yo'llari iqtisodiy fanlarni o'qitish metodikasining asosiy muammosidir.

O'quv jarayonining muvaffaqiyati sifati u yoki bu o'quv materialini qanday yetkazish va o'qitish natijasi qanchalik jiddiy va professional bo'lishiga bog'liq. O'qitishning muhim uslubiy yondashuvi talabalarning bilim olishga bo'lgan ehtiyojini shakllantirishda namoyon bo'ladi. Iqtisodiy fanlarni o'qitish jarayonida talabalarning muammoli vaziyatlarni yechishdagi mehnatini, mustaqil tadqiqot faoliyatini tashkil etish mumkin.

Iqtisodiyot bo'yicha raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashning zamonaviy tizimi ko'nikma va malakalarini baholash tizimini takomillashtirishni talab qiladi. Xorijiy tajribalar asosida o'quv jarayonini tashkil etish talabalarning imkoniyatlarini faollashtirishga imkon beradi. Zamonaviy ta'lim madaniyati odamlarga o'z iste'dodlarini ochishga yordam berishi, nafaqat talabalarga ma'lumot berish, balki iqtisodiy ma'lumotlarni amaliy hayotda qo'llashni ham o'rgatishi kerak.

Xorijiy tajribalar asosida iqtisodiy fanlarni o'qitishda o'qituvchi o'qitish tamoyillari sifatida belgilangan metodikaning eng muhim talablariga rioya qilishi kerak. Iqtisodiy fanlarni xorijiy tajribalar asosida o'qitish quyidagi tamoyillarga asoslanishi maqsadga muvofiq:

- ilmiy o'qitish tamoyili – eng yangi yutuqlarni hisobga olgan holda materiallarni ilmiy tarzda taqdim etish, eskirgan iqtisodiy tushunchalar va qarashlarni asosli rad etish;

-amaliy yo'naltirilganlik tamoyili – o'quv jarayoni zamonaviy sharoitda iqtisodiyotning rivojlanish xususiyatlarini ochib berishni, o'quv kursi sohasidagi amaliy ishlanmalardan foydalanishni, kelajakda egallanadigan mutaxassilik va kasbiy jarayonlarga talabalarni ruhiy tayyorlashni e'tiborga oladi;

- ma'lumotlarni yaxlit va tezkor uzatish tamoyili;

- ta'lim oluvchilarning iqtisodiy kompetensiyasi imkoniyatlari doirasida ta'lim berishning noan'anaviyligi, qamrovi va tashkiliyligi bo'yicha qulaylik tamoyili;

- vizuallik tamoyili;

- kollaborativlik va o'rganishga individual yondashish tamoyili.

Iqtisodiy fanlarni o'qitishning zamonaviy metodlarining mohiyati tegishli o'qitish usullarini qo'llash orqali o'quv maqsadlariga muvaffaqiyatli va oqilona erishishni ifodalaydi. Iqtisodiy fanlarni o'qitish usuli – bu professor-o'qituvchi va talabaning ta'lim maqsadlarida birgalikdagi faoliyati usulidir. Iqtisodiy fanlarni o'qitish usullari quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

- bilimlarni uzatish manbai (og'zaki, vizual, amaliy);
- o'quv jarayoni subyektlarining o'quv materialini yaratishda ishtirok etish darajasi (akademik, faol, interaktiv);
- o'quv jarayonida ma'lumotlarni uzatish usuli (to'g'ridan-to'g'ri, tadqiqot, modellashtirish, qo'shma).

Bilimlarni uzatish manbasiga ko'ra professor-o'qituvchi materiallarni og'zaki bayon qilish jarayonida tushuntirish, ko'rsatma yoki ma'ruza orqali mavzuni bayon etishi mumkin. Suhbat, guruhlarda ishlash, seminar, konferensiya va muhokama ko'rinishida darslarni tashkil etish esa o'tgan materiallarni takrorlash va o'rganish, shuningdek, yangi qo'shimcha bilim olish imkonini beradi. Axborot kommunikatsion texnologiyalar yordamida turli rasmlar, diagrammalar, grafiklar, slaydlar, videoroliklar namoyish etish orqali darslarni vizual usulda tashkil etish mumkin. Mashqlar, laboratoriya ishlari, ishbilarmon o'yinlar, aniq vaziyatlar usuli yoki "keys usuli", o'quv loyihalash yordamida talabalardan ma'lum bilim, ko'nikma, malaka talaba qiladigan amaliy o'quv faoliyatlarini tashkil etish samarali hisoblanadi.

Rossiya Federatsiyasi Janubiy menejment instituti izlanuvchisi T.V.Kreps tadqiqotlariga ko'ra iqtisodiy fanlar bo'yicha ta'lim beruvchi professor-o'qituvchilar o'rtasida iqtisodiy fanlarni o'qitishda yangi ta'lim texnologiyalarining qaysi turlaridan foydalanishlari bo'yicha so'rovnoma o'tkazilgan. O'tkazilgan so'rov natijasida respondentlarning 25 foizi tematik munozalar, 21 foizi taqdimotlar, 20 foizi kichik olimpiadalar, 15 foizi biznes o'yinlari asosida mashg'ulotlarni olib borishi aniqlangan. Kamchilik respondentlar mashg'ulotlarni axborot texnologiyalariga asoslangan o'yinlar, guruhlarda ishlash va ilmiy-amaliy konferensiyalar ko'rinishlarida tashkil etishlari aytib o'tilgan [2].

Tahlil natijalari shuni koʻrsatadiki, iqtisodiy fanlarni oʻqitishda professor-oʻqituvchilar tomonidan zamonaviy innovatsiyalarning qoʻllanishi va ulardan samarali foydalanish koʻrsatkichlari yuqori emas. Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish jarayonida iqtisodiy munosabatlarda talabga ega boʻlgan mutaxassislarni kasbiy tayyorlashni mehnat bozorida yangi turdagi kadrlarga boʻlgan talabni inobatga olgan holda tashkil etish lozim. Ta'lim oluvchilarda zamonaviy iqtisodiy fanlar boʻyicha bilim, malaka va koʻnikmalarning shakllanishi ta'lim jarayonida qoʻllaniladigan ta'lim texnologiyalari va ulardan foydalanish samaradorligi bilan bevosita bogʻliq. Oʻz navbatida, ushbu texnologiyalar turli mulkchilik shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyatida, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlik sub'ektlari faoliyati sohasida vakolatlarni shakllantirish vositasi boʻlib xizmat qiladi [3].

Zamonaviy iqtisodiy fanlarni oʻqitish jarayonida jahon tajribalarining integratsiyalashuvi jarayonlari bevosita innovatsiyalarga asoslanadi. Iqtisodiy fanlarni oʻqitishda innovatsiya atamasining mazmuni taqdim etilayotgan ma'lumotlarning sifat tomonlama yangi turlari va koʻrinishlari, yangi pedagogik, innovatsion va axborot texnologiyalaridan foydalanishning ta'limga qaratilganligi, ularning ilmiy asoslanganligi va amaliyotda qoʻllash imkoniyatlari orqali izohlanadi.

Bu bozor munosabatlari sharoitida ta'lim xizmatlarini sotib olish va sotish sharti sifatida taqdim etilgan mutlaqo yangi yoki takomillashtirilgan mahsulotda oʻz ifodasini topgan. Iqtisodiy fanlarni oʻqitishda innovatsiyalarning xususiyatlaridan kelib quyidagi turlarga boʻlinadi:

- yopiq innovatsiyalar – innovatsion jarayonlar amalga oshirilayotgan ta'lim muassasasi professor-oʻqituvchilari tomonidan ishlab chiqiladi hamda ta'limga tatbiq etish holatlari faqatgina ushbu ta'lim muassasasi professor-oʻqituvchilari jamoasi tomonidan amalga oshirilishi mumkin boʻlgan innovatsiyalar;
- ochiq innovatsiyalar (integratsion innovatsiyalar) – boshqa ta'lim muassasalarining oʻxshash iqtisodiy fanlarni oʻqitish uchun maxsus texnologiyalarni ishlab chiqish boʻyicha ilmiy-pedagogik faoliyati natijalarini izlash

va koʻrib chiqish, oʻz tizimiga taʼlim texnologiyalarini ishlab chiqish va qoʻllash boʻyicha koʻrib chiqilgan tashqi tajribani kiritish [4].

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, iqtisodiy fanlarni oʻqitish tizimida mutaxassislar tayyorlashning yuqori, ham uslubiy, ham shaxsga yoʻnaltirilgan darajasini ta'minlashi kerak boʻlgan oʻqitish usullari kerak. Integratsion ta'lim texnologiyalari zamonaviy oliy ta'limning quyidagi dolzarb muammolarini hal qilishga yordam beradi:

- talabalarda egallagan bilimlariga asosan kelgusida olib boradigan faoliyatlarida ish bilan bogʻliq qarorlarni qabul qilishdagi kompetensiyalarni shakllantirish;
- talabalarga mustaqil bilim olish va tadqiqotlar bajarish boʻyicha kompetensiyalarni shakllantirish bosqichlariga oʻtishni kafolatlash;
- iqtisodiy yoʻnaltirilgan ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish bilan kognitiv faollikni oshirish.

Ushbu vazifalarni zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda mehnat bozorida talabga ega boʻlgan mutaxassislarning malakasini shakllantirish vositalari va usullari majmui boʻlgan innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish asosida samarali hal qilish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Конспект лекций по «Методике преподавания экономики» https://studfile.net/preview/9368670/
2. Т.В.Крепс. Применение современных образовательных технологий при преродавании экономических дисциплин// Scientific bulletin of the Southern Institute of Management. No. 4, 2018, 129-130 p
3. Галиянова Г. Инновационные технологии в преподавании экономики// Человек. Общество. Культура. Социализация. Материалы XVII Международной молодёжной научно-практической конференции. 2021, 23-24 апрел. 227-232 стр.
4. Кулжабаев Д.Б Инновационные образовательные технологии в преподавании экономических дисциплин //XI Международная студенческая

научная конференция. Студенческий научный форум – 2019 https://scienceforum.ru/2019/article/2018011963

# ЎҚУВЧИ ЁШЛАРНИ ВАТАНПАРВАРЛИК РУҲИДА ТАРБИЯЛАШДА БЎЛАЖАК ФУҚАРОЛАРНИНГ ҲУҚУҚИЙ ОНГ ВА ҲУҚУҚИЙ МАДАНИЯТИНИ ЮКСАЛТИРИШ ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ЖАМИЯТИ РИВОЖЛАНИШИНИНГ МУҲИМ ШАРТИДИР

***Қулматов Норқобил Эшмаматович***

*Самарқанд давлат ветеринария медицинаси, чорвачилик ва биотехнологиялар университетининг Тошкент филиали, катта ўқитувчи, ёшлар масалалари ва маънавий-маърифий ишлар бўйича декан ўринбосари*

*+91-166-22-35 norqobui65@mail.ru*

***Эшмуродов Сухробжон Турсоатович***

*Самарқанд давлат ветеринария медицинаси, чорвачилик ва биотехнологиялар университетининг Тошкент филиали, ўқитувчи, ёшлар масалалари ва маънавий-маърифий ишлар бўйича декан ўринбосари*

*+97-477-35-75 SuhrobEshmurodov@mail.ru*

***Annotatsiya:*** *Ушбу мақоланинг мазмунида мамлакатимиз таълим-тарбия тизимида илм-фаннинг ривожланиши асосида ўқувчи ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашда бўлажак фуқароларнинг хуқуқий онги ва хуқуқий маданиятини юксалтириш янги Ўзбекистон жамияти ривожланишининг муҳим шарти эканлиги баён этилади.*

***Калит сўзлар:*** *Таълим-тарбия, илм-фан, ўқувчи ёшлар, бўлажак фуқаролар, ватан, ватанпарвар, ватанпарварлик, хуқуқ, онг, хуқуқий маданият, хуқуқий онг, янги Ўзбекистон, жамият.*

***Аннотация:*** *В содержании данной статьи утверждается, что повышение правового сознания и правовой культуры будущих граждан в воспитании студенческой молодежи в духе патриотизма на основе развития науки в системе образования нашей страны является важным условием развития нового узбекского общества.*

***Ключевые слова:*** *Образование, наука, студенты, молодежь, будущие граждане, Родина, патриот, патриотизм, право, сознание, правовая культура, правосознание, новый Узбекистан, общество.*

***Annotation:*** *The content of this article states that increasing the legal consciousness and legal culture of future citizens in educating students in the spirit of patriotism based on the development of science in the education system of our country is an important condition for the development of the new Uzbek society.*

***Key words:*** *Education, science, students, youth, future citizens, Motherland, patriot, patriotism, law, consciousness, legal culture, legal consciousness, new Uzbekistan, society.*

*Жамиятда ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданиятни юксалтириб бориш қонун устуворлигини таъминлаш ва қонунийликни мустаҳкамлашнинг энг муҳим шартларидан бири ҳисобланади.*

***Ш.М.Мирзиёев***

**Тадкиқот ишининг долзарблиги:** Бугунги янгиланаётган дунёдаги ҳар қандай мамлакатнинг демократик хусусиятларини кўрсатувчи шартларидан бири бу инсон хуқуқ ва эркинликларига қандай ёндошилганлиги ҳамда унинг амалга ошиши учун қандай шарт-шароитлар яратилганлиги билан белгиланади. Мустақил Ўзбекистон Республикасининг демократик ва хуқуқий давлат қуришдан мақсади-мамлакатда яшовчи ҳар бир ёш авлоднинг хуқуқ ва эркинликларини тўла таъминлашдир.

Бунинг учун, аввало Ўзбекистонда мустақиллик йилларида хуқуқий асос яратилди, яъни 1992 йил 8 декабрда қабул қилинган республика Конститутцияси[1] ва қабул қилинган қонунларда, 2023 йил 30 апрелдаги референдумда қабул қилинган ва 1 майдан кучга кирган янги таҳрирдаги Ўзбекистон Конститутциясида[2] қабул қилинган қонунларда умум эътироф қилинган халқаро хужжатлар қоидаларига мос келувчи инсон хуқуқ ва эркинликлари белгилаб қўйилди.

Бугунги кунда мамлакатимизда хуқуқий давлат ва фукаролик жамияти қуришни таъминлайдиган қонунчилик асоси вужудга келтирилган, жамият ҳаётининг барча соҳаларида инсон манфаатларининг устунлиги принципи ишлаб чиқилган, инсон хуқуқлари ва эркинликларини ҳимоя қилиш механизми такомиллаштирилмокда. Ўзбекистон Республикасининг биринчи президенти И.А.Каримовнинг 1996 йил 31 октябрдаги Фармони билан Ўзбекистон Республикасининг инсон хуқуқлари бўйича Миллий маркази[3] ташкил этилди. Марказнинг бош вазифаларидан бири инсон хуқуқлари масалаларида давлат муассасалари ходимларининг ва бутун кенг халқ оммасининг хуқуқий маданиятини оширишдан иборатдир.

Олий Мажлис томонидан 1997 йил 29 августда тасдиқланган жамиятда хуқуқий маданиятни ошириш Миллий дастури[4] жамият ҳаётини демократлаштириш ва фуқаролик жамиятини шакиллантириш учун шарт-шароитлар яратиш борасида давлатимиз олиб бораётган изчил сиёсатнинг яна бир тасдиғи бўлди. Дастур ёшларимизга, жумладан ўқувчи ёшларимизга хуқуқий таълим бериш ва уларни хуқуқий тарбиялаш соҳасидаги аниқ чора-тадбирларни жорий этади, фарзандларимизни жуда ёшлик чоғлариданок белгилаб қўйилган хулқ-атвор меъёрларига ўргатиш зарурлигига алоҳида эътибор беради. Миллий дастурнинг қимматли томони, аввало, унинг фуқаролик жамиятини шакиллантириш ва ривожлантириш учун зарур шарт сифатида шахснинг ижтимоий-хуқуқий фаоллигига эришишга каратилганлигидадир. Мустақилликка эришганимиздан буён ўтган, тарихан қисқагина давр мобайнида давлатимиз ва халқимиз турмуш тарзида жуда катта ижтимоий, иқтисодий, сиёсий, маънавий-маърифий ўзгаришлар юз берганлигининг бугунги кунда барчамиз гувоҳи ва шоҳиди бўлиб турибмиз.

Ҳар қандай ривожланган мустақил хуқуқий давлат ўз фуқароларининг, айниқса ўқувчи ёшларининг хуқуқий муҳофазасини тўлиқ ўз зиммасига олмас экан , унга кафил бўла олмас экан, бундай давлатнинг истиқболи ҳам, келажаги ҳам порлоқ бўла олмайди. Ёшларимизнинг эркинлик ва хуқуқлари эса уларнинг онги, билими, тафаккури, дунёқараши, бир сўз билан айтганда

хуқуқий маданияти билан чамбарчас боғликдир. Шундай экан биз танлаган "Ўқувчи ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашда бўлажак фуқароларнинг ҳуқуқий онг ва хуқуқий маданиятини юксалтириш янги Ўзбекистон жамияти ривожланишининг муҳим шартидир" мавзуси бугунги куннинг энг долзарб мавзуларидан бири саналади. **Таклиф ва тавсиялар:** Мустақил хуқуқий демократик давлатда инсон хуқуқлари ва ёшларнинг хуқуқий маданиятини юксалтиришнинг асл моҳияти ва мақсади нимадан иборат эканлиги ҳақида гапирар эканмиз, энг аввало шу давлатда бўлаётган ижтимоий-иктисодий воқеа ва жараёнларнинг аҳамиятини теран англаб етишимиз, ўтган қисқа давр мобайнида сиёсий ва хуқуқий маданият соҳасида қилинган ишларимизга баҳо беришимиз зарурдир. Ҳуқуқий онг, ҳуқуқий маданият, ҳуқуқий саводхонлик ҳақида гап кетганда кўпчилигимизда фақат қонунларни билиш ёки улардан бохабарлик даражаси тушунилади. Аслида бу жуда кенг тушунча бўлиб, давлат ва жамиятнинг ривожланганлигини белгилайдиган учта муҳим омилни ҳам ўз ичига олади. Ҳуқуқий маданияти юксак инсон қонунларга итоаткор бўлади, ҳамиша унга бўйсинади ва қонунларга нисбатан ҳурмат билан қарайди. Бундай инсонлар қонунларда белгиланган қоидаларга зид ҳатти-ҳаракат қилмайди, аксинча, бошқаларни ҳам шунга даъват этади. Ижтимоий-сиёсий фаол фуқаро жамиятда рўй бераётган воқеа-ҳодисаларга онгли муносабатда бўлиб,ислоҳотларга дахлдорлигини сезиб, давлат ва жамият олдидаги фуқаролик масъулиятини ҳис қилиб яшайди. Энг муҳими, у мамлакат тараққиётига амалий ҳисса қўшишга ҳаракат қилади. Мамлакатимизнинг биринчи раҳбари И.А.Каримов мустақиллик давридаги тажрибаларни ва етакчи хорижий мамлакатлар тажрибаларини чуқур таҳлил этиб, фуқароларимизнинг, жумладан ўқувчи ёшларимизнинг сиёсий ва хуқуқий жараёнларда иштирок этишининг демократик тамойилларини илгари суриб шундай деган эди: "Маълумки, хар кандай жамиятда ҳам демократия қай даражада эканлигини белгиловчи камида учта мезон бор. Булар-халкнинг қарорлар қабул килиш жараёнларидан қанчалик хабардорлиги, хукумат қарорлари халқ томонидан қанчалик назорат

қилиниши, оддий фуқароларнинг давлатни бошқаришда қанчалик иштирок этишидир. Биз адолатли, демократик жамият қурмокчи эканмиз, бир ҳақиқатни асло ёддан чиқармайлик; тепадан туриб, махсус фармон ёки қарор билан жамиятда адолат ва демократияни ўрнатиб бўлмайди. Бу барчанинг бирдек иштироки, биринчи навбатда пешқадам зиёлиларимиз, турли сиёсий партиялар, жамоат ташкилотлари намоёндаларининг, масъул хизматчиларимизнинг ғайрати, жасорати, акл-заковати билан рўёбга чиқадиган мураккаб ишдир" [5]

Ўқувчи ёшларимизнинг хуқуқларини ҳимоя қилиш, уларнинг хуқуқий онги ва хуқуқий маданиятини юксалтириш-хуқуқий демократик давлат барпо этиш йўлидаги энг долзарб масалалардан бири бўлиб, мамлакатимиз сиёсатининг асосий йўналишларидан биридир. Шу ўринда Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Миромонович Мирзиёевнинг 2019 йил 9 январдаги "Жамиятда ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданиятни юксалтириш тизимини тубдан такомиллаштириш тўғрисида"ги ПФ-5618-сон Фармони [6] кенг жамоатчиликнинг ҳуқуқий онги, ҳуқуқий маданияти, ҳуқуқий саводхонлик даражаси юксалишида амалий аҳамият касб этади. Ушбу фармонда давлатимиз раҳбари аҳолининг ҳуқуқий онги ва ҳуқуқий маданиятини юксалтиришга, жамиятда фуқароларнинг ҳуқуқий саводхонлиги даражасини оширишга тўсқинлик қилувчи қуйидаги муаммо ва камчиликлар сақланиб қолинаётганлиги санаб ўтади. "Жумладан, ҳуқуқий маданиятни юксалтиришда, энг аввало, ҳуқуқий таълим ва тарбия борасидаги ишлар тизимли ва узвий олиб борилмаяпти. Узоқ йиллар давомида бу масала ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар ва айрим давлат органларининг иши сифатида қараб келиниб, бунда оила, маҳалла ва фуқаролик жамияти бошқа институтларининг иштироки етарлича таъминланмаган, ёшларнинг ҳуқуқий тарбиясига салбий таъсир кўрсатувчи омилларга нисбатан ҳуқуқий иммунитетни шакллантириш, ҳар бир шахсда қонунларга ва одоб-ахлоқ қоидаларига ҳурмат, миллий қадриятларга садоқат, ҳуқуқбузарликларга нисбатан муросасизлик ҳиссини уйғотиш ишига комплекс тарзда ёндашилмади, аҳолининг ҳуқуқий билимларини оширишга

доир вазифаларнинг умумий тусда белгиланганлиги ҳамда уларни амалга оширишнинг аниқ таъсирчан механизми мавжуд эмаслиги жамиятда ҳуқуқий маданиятни юксалтириш борасидаги ишларнинг самарасиз олиб борилаётганлигини кўрсатади, ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданиятни юксалтиришда шахсий манфаатлар ҳамда жамият манфаатлари ўртасидаги мувозанатни сақлаш ғояларини аҳоли онгига сингдириш ишларининг етарли олиб борилмаслиги ҳам қонун устуворлигини таъминлашга ўзининг жиддий салбий таъсирини кўрсатмоқда". Давлатимиз раҳбари ўзларининг кўплаб маъруза ва чиқишларида давлат ва жамиятни тараққий эттириш умумжамиятнинг ишига айланиши кераклигини, бунинг учун ҳар бир фуқаро ўзининг бу борада қатъий фуқаролик позициясини намоён этиши, фуқаронинг шахсий манфаати хеч қачон жамият манфаатидан устун бўлмаслиги лозимлигини таъкидлаб ўтадилар. Мустақиллигимизни қўлга киритганимиздан буён ўтган қисқа давр мобайнида асрларга татийдиган ҳаёт синовларини бошимиздан кечирдик,  тарихда ўхшаши бўлмаган ижтимоий-иктисодий жараёнларга дуч келдик. Ўзбекистонда мустаҳкам қарор топган тинчлик, барқарорлик ва фуқаролар ҳамжиҳатлиги, республикамиз сиёсий, иктисодий, маънавий-маърифий  ҳаётидаги туб ислоҳотлар инсон хуқуқларида эришилган муваффақиятга асосий кафолат бўлди. Ўзбекистон Республикаси Конститутциясида энг олий кадрият сифатида давлат ва ижтимоий тизим эмас балки инсон олинган. Конститутциянинг 13-моддасида "Ўзбекистон Республикасида демократия умуминсоний принципларга асосланади, уларга кўра инсон , унинг ҳаёти, эркинлиги, шаъни, қадр-қиммати ва бошқа дахлсиз хуқуқлари олий кадрият ҳисобланади" деб белгилаб қўйилган.[3] Ёшларимиз хуқуқлари ва эркинликлари фақатгина конститутция билангина қўриқланиб, кафолатланиб қолмасдан, балки улар жаҳон ҳамжамияти томонидан тан олинган халқаро хуқуқ нормалари ва принциплари билан ҳам қўрикланади. Инсон хуқуқлари бўйича асосий халқаро ҳужжатларга Хуқуқ тўғрисида халкаро билл; унинг таркибига Инсон хуқуқлари тўғрисидаги умумий деклорация, фуқаролик ва сиёсий хуқуқлар тўғрисида халқаро битим ва унга иккита

факультатив протокол , шунингдек иктисодий , ижтимоий ва маданий хуқуқлар тўғрисидаги халқаро битим киради. Бизга маълумки яратилган қонунлар ёшлар хуқуқларини ҳимоя қилиш билан чегараланиб қолмасдан, ёшларимизнинг хуқуқий онги ва хуқуқий маданиятини оширишда ҳам муҳим аҳамият касб этиб келмокда. Давлатимизнинг хуқуқий тизими тубдан ўзгариб бораётган бугунги кунда олий маълумотли хуқуқшунос кадрларга бўлган талаб кундан-кунга ортиб бормокда.

**Кутилаётган ижтимоий самара:** Қонунчиликни таъминлашда ёшларимизнинг хуқуқий онгини ва хуқуқий маданиятини оширишда, уларни қонунга ҳурмат ва итоат руҳида тарбиялашда мухим устивор вазифаларни амалга ошириш учун олий таълим муассасаларида малакали хуқуқшунос мутахассисларни тайёрлаш тизимини такомиллаштириш масаласига алоҳида эътибор бериш лозим бўлади. Конун устиворлигини таъминлаш биринчи навбатда ёш авлоднинг хуқуқий онги ва хуқуқий маданиятини ошириш билан узвий боғлиқдир.Бу борада қилиниши лозим бўлган ишлардан энг биринчиси хуқуқий маданият соҳасидаги ишларни аввало ўзимиздан бошлашимиз зарур. Бунинг учун биринчи навбатда қабул килинаётган қонунларни, Президент Фармонларини, Вазирлар Маҳкамасининг қарорларини тўлиқ ўрганиб бориб, уларнинг мазмуни ва моҳиятини тушуниб етиб, уларни кенг халқ оммасига, ва ёшларимизга тушунтиришимиз, тарғибот-ташвиқот қилишимиз зарур бўлади. Ёшларимизнинг хуқуқий маданият соҳасидаги ютуқлари уларнинг фақатгина қонунларни яхши билишлари билан белгиланмайди. Улар ҳар томонлама етук бўлмоғи лозим. Ёшларимиз жамиятимизда бўлаётган ижтимоий-сиёсий,иктисодий ,маънавий ўзгаришларни билиши, давлатимизнинг ички ва ташки сиёсатини тўғри англай олиши зарур бўлади. Ўқувчи ёшлар ўзларининг муомиласи, хулқ-атвори, кийиниши , интизоми билан ҳам бошқаларга ўрнак бўлиши лозим. Ёш авлод хуқуқий онги ва хуқуқий маданиятини оширишда ижтимоий уюшмалар катта хизмат килишлари мумкин. Биринчи Президентимиз И.А.Каримов олдимизда турган улкан вазифаларни ҳал этишда жамоатчилик ,ўзини-ўзи бошқариш тузилмаларини ривожлантириш

ҳар доим муҳим аҳамиятга эга эканлигини қайта-қайта уктириб ўтган эдилар.Чунки бундай тузилмалар замирида ёшларимиз ташаббусларини шакиллантириш, ёшларнинг ижтимоий фаоллигини ошириш, турмушимизнинг кўпгина долзарб муаммоларини ҳал этиш истиқболлари мужассамдир. Маълумки, хуқуқий маданият умуммаданиятнинг ажралмас қисмидир ва у хуқуқий онгни ўз ичига олади. Хуқуқий онг даражаси ёшларнинг янги қонунлар қабул қилишга, давлат органларининг хуқуқни қўллаб-қувватлаш соҳасидаги фаолиятига, ёшларнинг хуқуқи ва манфаатларини ҳимоя этиш масалаларига муносабатини, уларнинг мамлакатдаги демократик ислохотларга қарашларини белгилаб беради. Шу ўринда ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданият ўзи нима деган саволга ойдинлик киритиб ўтамиз. Ҳуқуқий онг – қисқача қилиб айтганда ҳуқуқ ва қонунчиликка оид одамларнинг тасаввурлари, уларнинг ҳис-туйғулари, амалий тажрибалар таъсирида пайдо бўлган ҳуқуққа нисбатан муносабатини ифодалайди. Ҳуқуқий маданият эса – фуқароларнинг давлат ва ҳуқуқ ҳақидаги муҳим билимларни эгаллаб олиши, амалдаги норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар ҳақидаги тушунчаларини талқин қила олиши ҳамда улардан тўғри фойдалана олишидир. Бирок, афсуски, бизда бугунги кунда ҳам биринчи Президентимиз И.А.Каримов ўз даврида ҳаққоний таъкидлаганларидек кўпчиллик ёшларимиз ҳали етарли даражада хуқуқий онгга ва хуқуқий маданиятга эга эмаслар. Шуларни назарда тутиб 1997 йил 25 июлда Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ахолини хуқуқий тарбиялашни яхшилаш, унинг маданияти даражасини ошириш, хуқуқшунос кадрлар тайёрлашни такомиллаштириш, ижтимоий фикрни ўрганиш ишларини яхшилаш тўғрисида”ги Фармонига[7] мувофиқ хуқуқий маърифатни тарғиб қилиш ва хуқуқий адабиёт билан таъминлаш маркази ташкил этилди. Марказ фаолияти йўналишларидан бири турли ижтимоий гуруҳларнинг, жумладан ёш авлоднинг хуқуқий онги ва хуқуқий маданиятини ошириш, хуқуқий тарбия ва таълимнинг замонавий усулларини жорий килишга доир тавсиялар ишлаб чикишдан иборатдир. Бугунги кунда юртимизда барча жабҳаларда туб ўзгаришлар юз бераётган

масъулиятли паллада ҳуқуқий тарбиянинг барча шакл ва усулларидан самарали фойдаланиш муҳим аҳамият касб этишини ёдимиздан чиқармаслигимиз лозим. Шу сабабли ҳуқуқий маданиятимиз даражасига танқидий баҳо бериб, муаммоларимиз сабабини чуқур ўрганишимиз керак. Бироқ фақатгина қонунларни ўргатиш ва жавобгарлик билан қўрқитиш орқали қонун устуворлигига ва тараққиётга эриша олмаймиз. Бундан ташқари, ҳозирги глобаллашув, илмий-техник тараққиёт даврида аҳолининг ҳуқуқий онги ва ҳуқуқий маданиятини юксалтиришнинг инновацион усулларидан, тарғиботнинг илғор ва таъсирчан воситаларидан, хорижий давлатларнинг бу борадаги ижобий тажрибаларидан етарли даражада фойдаланмаётганлигимиз юқоридаги фикрларимиз исботидир.

**Хулоса қилиб айтадиган бўлсак** фуқароларнинг, айникса ўқувчи ёшларнинг хуқуқий онги ва хуқуқий маданиятини ошириш соҳасидаги фаолиятни давлат сиёсатининг асосий йўналишларидан бири қилиб белгилаш, жамиятда хуқуқий маданиятни юксалтириш, Миллий дастурда қўйилган вазифаларни муваффақиятли бажариш учун таълим муассасаларида ўқувчи ва талабаларнинг ҳуқуқий билимлари узлуксиз ва тизимли ошириб борилишини таъминлаш механизмини жорий этиш, шунингдек, ўқувчи ва талабаларнинг ҳуқуқий саводхонлигини оширишга қаратилган ўқув дастурларини тубдан қайта кўриб чиқилишини таъминлаш, ёш авлоднинг ҳуқуқий онги ва ҳуқуқий маданиятини юксалтириш бўйича таълим муассасаларининг ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар билан ҳамкорлик қилишининг самарали механизмларини кенгайтириш чораларини кўриш, ҳуқуқий тарбияни шакллантириш ва ҳуқуқий маданиятни юксалтириш узлуксиз бўлиб, ёшликдан бошлаб бериб борилиши лозим. Болалар мактабгача тарбия муассасаларидаёқ хулқ-атвор қоидаларидан хабардор бўлиши, маънавий ва баъзи ҳуқуқий нормалар тўғрисида бошланғич тушунчалар олиши, келгусида ўқув давомида бу билимлар кенгайтирилиши ва чуқурлаштирилиши, аниқ ифодаланган хуқуқий хусусият касб этиши зарур. Ўқувчи ёшларнинг ҳуқуқий онги ва ҳуқуқий маданиятини юксалтиришда оила, маҳалла, мактаб, касаба уюшмалари, ёшлар ва хотин-қизлар ташкилотлари

муҳим ўрин тутади. Улар ҳуқуқий таълим ва ҳуқуқий тарбиянинг турли шаклларидан янада самарали фойдаланишлари, фуқароларнинг ижтимоий-ҳуқуқий фаоллигини кучайтиришга катта ҳисса қўшишлари лозим. Жамият ва давлат ижтимоий фаол ва қонунга итоаткор ўқувчи ва талаба ёшларни тарбиялашдан манфаатдордир. Давлат жамият маданий ҳаётининг таркибий қисми бўлмиш ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданият тўғрисида алоҳида ғамхўрлик қилади.

## АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Ўзбекистон Республикаси Конститутцияси,Тошкент-2003,5-бет.
2.Янги таҳрирдаги Ўзбекистон Республикаси Конститутцияси, Т.:2023
3.И.А.Каримов "Инсон хуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий марказини тузиш тўғрисида"ги ПФ 1611-сон фармони, 31.10.1996 йил.
4. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг 1997 йил 29 август 466-I-сон қарори "Жамиятда хуқуқий маданиятни юксалтириш" Миллий Дастури
5. Ўзбекистон XXI асрга интилмокда,Тошкент-Узбекистон-2000,135-бет.
6. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2019 йил 9 январдаги "Жамиятда ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданиятни юксалтириш тизимини тубдан такомиллаштириш тўғрисида"ги ПФ-5618-сон Фармони
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Аҳолини хуқуқий тарбиялашни яхшилаш, унинг маданияти даражасини ошириш, хуқуқшунос кадрлар тайёрлашни такомиллаштириш, ижтимоий фикрни ўрганиш ишларини яхшилаш тўғрисида"ги Фармони. 1997 йил 25 июль

# MAKTABGACHA TA'LIM TARBIYACHISI FAOLIYATINI KOMPATENTLI YONDASHUV ASOSIDA SHAKLLANTIRISH

***Nazarova Asila Mamarasulovna***
*Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Maktabgacha*
*ta'lim mutaxassisligi 2-bosqich magstranti*

***Annotatsiya****: maqolada maktabgacha ta'lim tarbiyachisi kasbiy kompetentlik yondashuv asosida shakllantirish va pedagogik kompetetlik komponentlari, sifatlari, darajalari, kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik asoslari ko'rsatib o'tilgan. Kompatetlik yondashish asosida tarbiyachining individual hususiyatlari imkoniyatlari va qobiliyatlaridan yaxshi foydalanish omillari bayon etilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *kasbiy kompetentlik, kompetentlilik, ijtimoiy kompetentlik, maxsus kompetentlik, psixologik kompetentlik, metodik kompetentlik, kreativ, kompetentlik.*

***Аннотация****. в статье показаны компоненты, качества, уровни, педагогические основы развития профессиональной компетентности педагога дошкольного образования на основе подхода развития и педагогической компетентности. На основе подхода компатибилизма индивидуальные характеристики педагога описываются как средство хорошего передвижения.*

***Ключевые слова:*** *профессиональная компетентность, компетентность, социальная компетентность, социальная компетентность, психологическая компетентность, творческая компетентность.*

***Annotation:*** *In the article, the formation of the preschool teacher's professional competence based on the approach and pedagogical competence components, qualities, levels, pedagogical foundations of competence development are shown.Based on the competence approach, the factors of good use of the opportunities and abilities of the individual characteristics of the educator are described.*

***Keywords:*** *professional competence, competence social competence, specil competence, psychological competence, methodological competence, creative competence*

**Maktabgacha ta'lim** — maktabgacha yoshdagi bolalar qiziqishi, iqtidori, individual ruhiy va jismoniy xususiyatlari, madaniy ehtiyojlarini inobatga olgan holda hamda bolada ma'naviy me'yorlarning shakllanishi, hayotiy va ijtimoiy

tajriba egallanishini ko’zda tutgan har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan yaxlit jarayon.

Yangi O’zbekistonda amalga oshiriladigan ulkan islohotlarining muvaffaqiyati, eng avalo, pedagolarning o‘z ishlariga mas’uliyat bilan qarashlariga, kundalik mehnat faoliyatida mamlakat taraqqiyotiga hissa bo‘lib qo‘shiladigan ishlarni qila olishlariga bog‘liq. Jamiyatda pedagog (o‘qituvchi, tarbiyachi), birinchidan, o‘sib kelayotgan avlodni tarbiyalash, har tomonlama bilim berishdek savobli va mas’uliyatli vazifalarni bajaradi.

Maktabgacha ta’limning maqsadi – bolalarni maktabdagi o’qishga tayyorlash, bolani sog’lom, rivojlangan, mustaqil shaxs bo’lib shakllantirish, qobiliyatlarini ochib berish, o’qishga, tizimli ta’limga bo’lgan ishtiyoqini tarbiyalashdir.

Bola shaxsining shakllanishi tarbiya jarayoni bilan bofliq bo’lib, uni xech qaysi jarayon bilan taqqoslab bo’lmaydi. Har qanday amaliy faoliyat, insonning eng yuqori ma’naviy va ruhiy ehtiyojlarini qondiradi. Ehtiyojlar insonga tegishli bo’lib, o’ziga xos hususiyatlarni tashkil etadi va u albatta san’atga aylanadi. Bunda pedagogika asosiy orinda turadi, chunki u insonning eng muhim ehtiyojlaridan birini qondirishga harakat qiladi.

Tarbiyachining qadr-qimmati shu qadar buyukki, u odamni ma’naviy jihatdan boy qilib, qalbini baxtga, ilohiy nurga to‘ldiradi. Tarbiyachining siyosiy yetukligi bolalarni tarbiyalash uchun xalq va jamiyat oldidagi o‘z mas’uliyatini anglashga, ta’lim-tarbiya ishlarini hal etishga ijodiy yondashishga, o‘z mahoratini doimo takomillashtirib borish va hamkasblarining ishdagi o‘sishiga ko‘maklashishda yordam beradi. Tarbiyachi o‘zi yashab turgan o‘lka hayotini bilishi, tabiat va jamiyat qonunlarini tushunishi, ijtimoiy faol bo'lishi kerak.

Bizning fikrimizcha Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyachining kasbiy faoliyati muhim ahamiyatga ega. Tarbiyachining kasbiy mahoratiga kompatetlik yondashish tarbiyachining individual hususiyatlai imkoniyatlari va qobiliyatlaridan yaxshi foydalanishni talab etadi. Kompatetli tarbiyachi deganda tarbiyachi o’zining ma’lumoti, ko‘nikmasi, qobiliyati va tajribasidan foydalana olishi

tushuniladi. Har qanday tarbiyachi ham "kompetentlik" nimani anglatishini bilavermaydi.

Kompetentlik tushunchasi ta'lim sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelgan. Shu sababli kompetentlik no'ananaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zining qanday tutishi , muloqatga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi , noaniq vazifalar bajarishda , ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalikni anglatadi.

Kompetentli – biror sohani chuqur bilish, ko'p narsalardan xabardorlik, o'z mutaxassisligi bo'yicha katta e'tiborga moliklik".

Kompetentsiya – 1. Biror kishi juda yaxshi bilgan yoki xabardor bo'lgan masalalar doirasi. 2. Biror kishining vazifalari, huquqlari doirasi".

Kompetentsiya – bior soha bo'yicha har tomonlama chuqur bilimga ega bo'lgan va shuning uchun ham fikri salmoqli, ishonchli hisoblangan kishining sifati".

Kompetentlik yondoshuvi ta'lim sifatini baholash uchun ham muhim hisoblanadi, chunki, ta'lim oluvchi tomonidan erishiladigan asosiy ta'limiy natija – kompetentlik hisoblanadi, uning asosiy ko'rsatkichlari esa, bir tomondan ta'lim standartlarining me'yoriy talablariga muvofiqligi, ikkinchi tomondan, shaxs va turli ijtimoiy guruhlarning ehtiyojlariga mosligidir. Kompetentlikning birinchi tarkibiy qismi me'yoriy hujjatlarda belgilab qo'yilgan ta'lim natijalaridan iborat. Ikkinchi tarkibiy qismini ijtimoiy talablar va ehtiyojlar belgilaydi, bu qism jamiyatning rivojlanishiga mutanosib, o'zgaruvchan bo'lib, o'zgartirishlar va tuzatishlar kiritilib turiladi.

Xorijiy so'zlar lug'atida «kompetentlik» tushunchasi biror shaxs yoki muassasaning vakolati va huquqlari majmuasi yoki biror bir insonga tegishli ishlar, savollar majmuasi sifatida ta'riflangan. Frantsuzcha «competent» so'zi kompetentli, vakolatli sifatida tarjima qilinadi. Inglizcha «competense» atamasida shaxsning sifati ma'nosi mavjud: kompetentlik - qobiliyat sifatida keltirilgan.

Kompetentlik alohida jihatlariga ko'ra tadqiq qilinsa ham, umuman olganda, fundamental pedagogik muammo sifatida hali nafaqat yechimi topilmagan, balki, muammo sifatida ham yetarlicha shakllantirilmagan. Xususan, kompetentlik yondoshuvini tizimli tahlil etishga, uni umuman ta'lim tizimida ham, kasbiy ta'limda ham qo'llashning nazariy-metodologik va didaktik asoslarini aniqlashga doir ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmagan.

Ma'lumki, har bir kasb o'z mazmuniga maxsus yondashuvni va kasbiy faoliyatning u yoki bu funktsional vazifasiga ko'ra maxsus shakllanishini talab qiladi. Pedagogik faoliyatda mutaxassisning pedagogik kompetentlik sifatlariga ega bo'lishi zarur. Mutaxassisning kasbiy kompetentligi kasbiy yetuklikligini baholovchi me'yoridir.

Kompetentlik tarbiyachilarda o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmaydi. U tarbiyachining kasbiy ko'nikmalarni egallashgaga bo'lgan intilishi, ularni o'zlashtirish va o'zining pedagogik faoliyatida foydalana olish, innovatsiyalarni ijodkorlik bilan qo'llay olish, o'zining mualliflik g'oyalariga ega bo'lish hamda kpedagogik kompetentlikga ega bo'lishni talab etadi. Bu ularning pedagogik kompetentligi hisoblanadi. kasbiy potentsialni ko'tarish kompetentlikga erishishning ilk qadami hisoblanadi.

Kasbiy kompetentlikning asosiy darajalariga kasbiy tayyorgarlik va tajriba, o'zini o'zi anglash, o'z kuchiga ishonish, o'zga insonlar tomonidan ko'rsatilgan kamchiliklarni to'g'ri qabul qilish va shu kabi boshqa kasbiy kamolotni belgilab beruvchi shaxs xususiyatlarini kiradi. Yuqorida qayd etilgan fikrlarni tahlili pedagogning kasbiy kompetentligini shaxsiy, ijtimoiy, kreativ, metodik kompetentlik kabi qator o'ziga xos xususiyatlar majmuasi sifatida to'liq izohlanishiga imkon beradi. Quyida kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlarning mohiyatini keltiramiz.

**Kasbiy kampetentlik** – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatning amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egalanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishidir.

Pedagog-tarbiyachi shaxsiga qo'yilgan talablar. Uning shaxsini shakllantirish. Pedagog-tarbiyachining nutq madaniyati. Har qanday jamiyatda barkamol avlodni tarbiyalash, voyaga yetkazish va uni ma'lum bir kasbga yo'naltirish og'ir va mashaqqatli mehnat evaziga amalga oshiriladi. Bu mashaqqatli mehnat uzluksiz ta'lim va tarbiyaviy faoliyatining mahsulidir.

Ilk yoshdagi bolada nutq hosil bo'lishi hamda bola tomonidan tashkil etilayotgan harakatlar ongli ravishda sodir bo'la boshlashi va ijtimoiy munosabatlar jarayonida uning ishtirok etishini bolaning shaxe sifatida rivojlanishining dastlabki bosqichi sanaladi.

Tarbiyachi nutq madaniyatiga ega bo'lishi va uning nutqi quyidagi xususiyatlarda aks ettira olishi kerak. Nutqning aniqligi. Nutqning irodaviyligi. Nutqning sofligi (uning turli sheva so'zlaridan xoli bo'lib, faqat adabiy tilda ifoda etish, jargon, (muayyan kasb yoki soha mutaxassislarga xos so'zlar) varvarizm (muayyan millat tilida bayon etiladigan nutqtsa o'zga millatlarga xos so'zlarning o'rinsiz qo'llanilishi) vulьgarizm (harakat qilish, so'kishda qo'llaniladigan so'zlar) hamda kontselyarizm (o'rinli bo'lmagan vaziyatlarda rasmiy nutkda so'zlash) so'zlaridan xoli bo'lishi va pedagogning nutqi sodda, ravonligi, boyligi (so'zlash jarayonida maqsadga muvofiq tarzda hikmatli so'zlar, maqollar, ko'chirma gaplardan foydalana olish).

Pedagog-tarbiyachilarga bolalarni jismoniy sog'lom ma'naviy yetuk qilib tarbiyalashdek vazifalar qo'yildi. Davlat ahamiyatiga molik bunday vazifani amalga oshirishda umumta'lim maktablari bilan bir qatorda xalq ta'limining boshlang'ich bo'limi bo'lgan bolalar bog'chalari muhim rolь o'ynaydi. Buning uchun qar bir tarbiyachi o'zini talab va nazorat qila bilishi davlatimiz maktabgacha tarbiya muassasalari oldiga qo'ygan talablarni amalga oshirishning garovidir. Bunga quyidagilar kiradi:

1. Bolaning sog'lig'ini saqlash va mustahkamlash.
2. Aqliy qobiliyatini o'stirish.
3. Milliy qadryatimiz va ma'naviyatimizning tamoyillariga mos keluvchi e'tiqod va qarashlarini tarkib toptirish.

4. Ona vatanga muhabbatini, ijtimoiy faollikni shakllantirish.

5. Yosh avlodda o'rtoqlik, do'stlik hissini halollik va mehnatsevarlikni tarkib toptirish.

Yuqorida keltirilgan sifatlarni tarkib toptirish yosh avlodni tarbiyalash vazifasining hamma tomonlarini qamrab ololmaydi. Lekin tarbiyachi ishlarga asoslanib, bolalarni mustaqil hayotga va mehnatga tayyorlash ishini ma'lum bir maqsad bilan samaraliroq amalga oshirish mumkin.

Tarbiyachi maktabgacha tarbiya pedagogikasi va psixologiya-fiziologiya fanlarining asoslarini bilish, ta'lim-tarbiya jarayonida bolalarning yoshi va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda faoliyatni tashkil etishi kerak. Tarbiyachi ta'lim-tarbiya jarayonida samarali shakl, metod va vositalaridan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Tarbiyachi yuksak darajadagi pedagogik mahoratga, chunonchi kommunikativlik layoqatiga ega bo'lish, pedagogik texnika, nutq, yuz, qo'l, oyoq va gavda qarakatlari, mimika, jest, pantomimika) qonuniyatlarini chuqur o'zlashtirib olish lozim.

Tarbiyalanuvchi shaxsini shakllantirishda tarbiyachi alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, har bir bolaning shaxs sifatida shakllanishida javobgar ekanligini taqozo etadi.

Tarbiyachi kun davomida olib boradigan ta'limtarbiya ishini tahlil qila bilishi va uni rivojlantirish yo'llarni topa olishi kerak. Tarbiyachi ota-onalar bilan muntazam ravishda suhbatlar uyushtirishi, uchrashuvlar o'tkazishi, ularni bolalarga ta'lim-tarbiya berish bo'yicha amalga oshiriladigan ishining mazmuni, metodlari bilan tanishtirib borish, oila tarbiyasidagi ijobiy namunalardan o'zining ta'lim-tarbiyaviy ishlarida foydalanishi mumkin.

Demak, tarbiyachi avvalo, bilimli bo'lishi, o'zi yashab turgan ulkan hayotini bilishi, tabiat va jamiatning qonunyatlarini tushunishi, ijtimoy faol bo'lishi, umumiy va maktabgacha tarbiya pedagogikasini, bolalar ruhiyati va fiziologiyasini egallashi va bolalarning yosh xususiyatlarini bilishi kerak.

Bizning fikrimmizcha Yangi o'zbekistonning ta'lim-tarbiya tizimi modernizatsiyalash jarayonlarida innovatsion faoliyat muhitini amalga oshirish

mexanizmi va istiqbolli loyixalari, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, innovatsion jarayonning muvaffaqiyatli borishi pedagogog-tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlanishiga bevosita bog'liq.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'**g'**risidagi Qonuni" 2020 y. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz), 2020 yil 24 sentyabr "Xalq so'zi".
2. Ожегов. С. Словарь русского языка. – Москва: Русский язык, 1999.
3. Migranova Ye.A., Pozilova Sh.X. Kasbiy pedagogik faoliyatga kirish. – Toshkent: Tafakkur bo'stoni, 2018.
4.F.R. Qodirova, Sh.Q. Toshpo'latova, N.M. Kayumova, M.N. A'zamova. Maktabgacha pedagogika Tafakkur" – Toshkent – 2019.
5.Qambarov M.M. Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik kompetentlik komponentlarini shakllantirish //NamDU Ilmiy axborotnomasi.-Namangan, 2021-y. №11. – B.681-686.
6. Qambarov M.M. Bo'lajak o'qituvchilarda media kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik asoslari // NamDU Ilmiy axborotnomasi.-Namangan, 2021-y. №12. – B.693-697.
7. Qambarov M.M. Talabalar mustaqil fikrlash madaniyatini rivojlantirish. Monografiya- Namangan: Arjumand mediya. 2021-y.
8. Qambarov M.M. Pedagogik atarixi. Toshkent: Bayoz. 2022-y.

# MUSIQA TA'LIMI QO'SHIMCHA TA'LIM MUASSASALARIDA NOGIRON BOLALARNI IJTIMOIYLASHTIRISH VOSITASI SIFATIDA

***O'rmonjonov Azizbek Muhammadjon o'g'li***

*Namangan davlat pedagogika instituti*

*Musiqa ta'limi va san'at mutaxassisligi 1-bosqich magistranti*

***E-mail:*** *azizbekormonjonov2@gmail.com*

***Annotatsiya:*** *ushbu maqola oʻzgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayot sharoitlarida nogiron bolalarning ijtimoiylashuvi va integratsiyasi muammosini tahlil qilishga bagʻishlangan. Ma'lum boʻlishicha, qoʻshimcha ta'lim tizimida nogiron bolalarni muvaffaqiyatli ijtimoiylashtirish shartlaridan biri bu bolaning qobiliyatlari va qiziqishlarini ochib beradigan va ularning ahamiyatini his qilish imkonini beradigan badiiy va amaliy ijodiy mashgʻulotlardir. Shunday qilib, musiqiy ta'lim bolaga umumiy rivojlanishning zarur darajasiga erishishga yordam beradi, teng yoki yosh normasiga yaqin, bu unga normal rivojlanayotgan tengdoshlari orasida moslashishga va jamiyatda yanada muvaffaqiyatli ijtimoiylashishga imkon beradi. Maqola musiqa ta'limi qoʻshimcha ta'lim muassasalarida nogiron bolalarni ijtimoiylashtirish vositasi sifatida keng yoritib berilgan.*

***Kalit soʻzlar:*** *musiqa ta'limi, integratsiya, qobiliyat, nogiron bolalar, ijtimoiylashtirish, qoʻshimcha ta'lim, inklyuziv ta'lim.*

***Аннотация:*** *данная статья посвящена анализу проблемы социализации и интеграции детей-инвалидов в меняющихся социально-экономических и политических условиях жизни. Как оказывается, одним из условий успешной социализации детей-инвалидов в системе дополнительного образования является художественно-практическая творческая деятельность, раскрывающая способности и интересы ребенка, позволяющая почувствовать свою значимость. Таким образом, музыкальное образование помогает ребенку достичь необходимого уровня общего развития, равного или близкого к возрастной норме, что позволяет ему соответствовать нормально развивающимся сверстникам и более успешно социализироваться в обществе. В статье описывается музыкальное образование как средство социализации детей-инвалидов в дополнительных образовательных учреждениях.*

***Ключевые слова:*** *музыкальное образование, интеграция, способности, дети-инвалиды, социализация, дополнительное образование, инклюзивное образование.*

***Abstract:*** *this article is devoted to the analysis of the problem of socialization and integration of disabled children in changing socio-economic and political life conditions. As it turns out, one of the conditions for the successful socialization of disabled children in the additional education system is artistic and practical creative activities that reveal the child's abilities and interests and allow them to feel their importance. Thus, musical education helps the child to achieve the necessary level of general development, equal or close to the age norm, which allows him to fit in with his normally developing peers and more successfully socialize in society. The article describes music education as a means of socialization of disabled children in additional educational institutions.*

***Key words:*** *music education, integration, ability, disabled children, socialization, additional education, inclusive education.*

Bugungi kunda mamlakatimizda imkoniyati cheklangan bolalar ta'lim-tarbiyasi va ularning ijtimoiy hayotga moslashuviga qulay sharoitlar yaratib berilmoqda. Ularni jamiyatga integratsiya qilish, avvalo imkon qadar salomatligini tiklash maqsadida "Imkoniyati cheklangan bolalar uchun umumiy ta'lim loyihasi" asosida ish yuritib kelinmoqda. Bu borada Respublikamizda amalga oshirilayotgan bir qator ishlar alohida tahsinga sazovordir. Xususan, 2020 yil 13-oktabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4360-son "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi [1] qarori respublika bo'yicha rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning inklyuziv ta'lim-tarbiya olishi uchun bir qator afzalliklar yaratib berishga xizmat qilmoqda.

Madaniyat va sivilizatsiyaning rivojlanishi nogiron bolalarni ijtimoiylashtirish hamda hayotning o'zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sharoitlariga, ularni o'qitish va tarbiyalashning turli shakllariga integratsiyalashuvi muammosini keskinlashtirdi. Ijtimoiy-madaniy muhitning doimiy o'zgarishlari, jadal rivojlanayotgan yangi axborot texnologiyalari sharoitida kundalik aloqani yengillashtirish va soddalashtirish uchun mo'ljallangan

(kompyuter tarmog'i, televidenie ko'prigi, chatlar va boshqalar), lekin kerakli natijaga olib kelmaydi, bu tobora kuchayib bormoqda. nogiron bolalar uchun jamiyatda to'liq hayot uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni olish qiyin. Tobora ko'proq bolalar va yoshlar kundalik hayotda, o'yinlarda, mashg'ulotlarda va hatto do'stlarida haqiqiy muloqotlarni virtual bilan almashtiradilar, bo'sh vaqtlarini internetda o'tkazadilar, bu ularning ijtimoiylashuv jarayonini murakkablashtiradi.

Nogiron bolalarning ijtimoiy moslashuv jarayonining mazmuni quyidagi o'zaro bog'liq tarkibiy qismlardan iborat: motivatsion(ehtiyojlar, motivlar, ijtimoiy o'zini-o'zi takomillashtirishga qiziqishlar, ijtimoiy qadriyatlar); kognitiv(jamoat hayotining hodisa va hodisalari, davlatning ijtimoiy-huquqiy tizimini tartibga soluvchi huquqiy hujjatlarning elementlari, faol ijtimoiy-huquqiy pozitsiyasi haqidagi ijtimoiy g'oyalar va tushunchalar tizimi); hissiy-irodaviy(ijtimoiy voqelik mohiyatining hissiy tajribalari; ixtiyoriy ko'rinishlar, nogironlarning ijtimoiy ahamiyatga ega maqsadlarni amalga oshirishda yuzaga keladigan qiyinchiliklarga qarshi turishga tayyorligi sifatida); faol(adekvat baholash va o'z-o'zini tanqid qilish; jamiyatda qabul qilingan xatti-harakatlar normalari va qoidalariga rioya qilish; paydo bo'lgan muammolarni mazmunli hal qilish; ixtiyoriy va ongli ijtimoiy faoliyat ko'nikmalari va qobiliyatlari).[2]

Rossiya Fedaratsiytasi olimlari S.N.Gavrov, N.D.Nikandrovlarning tadqiqotlariga asoslanib, biz iqtibos keltirishimiz mumkin – "sotsializatsiya hayotning ko'p tomonlama va ko'pincha ko'p qirrali ta'sirini o'z ichiga oladi, buning natijasida inson ma'lum bir jamiyatda qabul qilingan "o'yin qoidalari" ni, ijtimoiy tomonidan tasdiqlangan normalarni o'rganadi. Bular: qadriyatlar, xatti-harakatlar modellari"[3]. Sotsializatsiya jarayonida, albatta, qo'shimcha ta'lim muassasalari katta rol o'ynaydi. So'nggi o'n yillikdagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar ijtimoiy institutlarni, birinchi navbatda, umumiy va qo'shimcha ta'limni modernizatsiya va isloh qilish zaruratini dolzarblashtirdi. Jahonda ham, mamlakatda ham mavjud vaziyat turli ijtimoiy guruhlar, jumladan, nogiron bolalar, jamiyatda ushbu jarayonning holati va samaradorligini belgilovchi ijtimoiy kategoriya sifatida qaraladigan zamonaviy ta'lim sifatiga yangi talablarni qo'yadi.

Ta'limni boshqarishning zamonaviy modellarining o'ziga xos xususiyati o'zgaruvchanlik hisoblanadi.

Bu o'zgaruvchanlik ta'lim va qo'shimcha ta'limning yanada moslashuvchan tizimini, shu jumladan tashqi muhitdagi har qanday o'zgarishlarga, xususan, ta'lim xizmatlarining bevosita istemolchilari - bolalar, ota-onalarning talablariga munosib javob berishga qodir bo'lgan tizimni qurishni ta'minlaydi[3]. O'zbekiston ta'lim tizimini modernizatsiya qilish kontseptsiyasida bolalar uchun qo'shimcha ta'limning ahamiyati ko'rsatilgan, bu asosan moyillik, qobiliyat va qiziqishlarni rivojlantirishga, shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy tajribaga ega bo'lishga qaratilgan. Qo'shimcha ta'lim standartlar bilan tartibga solinmaydi, ta'lim dasturlari mazmuni bolalar, ota-onalar va boshqa ijtimoiy muassasalarning ijtimoiy buyurtmasi bilan belgilanadi. U turli mazmunli faoliyat shakllari va o'quv birlashmalari (to'garak, ustaxona, studiya, klub, maktab, laboratoriya, markaz va boshqalar) bilan tavsiflanadi.

Zamonaviy ta'lim va qo'shimcha ta'lim tizimini tavsiflovchi xususiyatlardan biri, xususan, nogiron bolalarning ta'lim va tarbiyasiga qarashlarning o'zgarishidir. Bunday bolalarni tarbiyalashning mazmuni iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot omillaridan biri bo'lib, uning zamonaviy jamiyatiga integratsiyalashgan shaxs va fuqaroning shakllanishini ta'minlaydi va jamiyatni takomillashtirishga qaratilgan. Qo'shimcha ta'lim tizimida nogiron bolalarni muvaffaqiyatli ijtimoiylashtirish shartlaridan biri bu bolaning qobiliyatlari va qiziqishlarini, muayyan faoliyat sohasidagi maxsus iste'dodlarini ochib beradigan, uning ahamiyatini his qilish imkonini beradigan badiiy va amaliy san'at darslaridir. Badiiy va ijodiy uyushmalarga jalb qilingan nogiron bolalarning katta qismi professional qo'shiqchi, rassom yoki aktyor bo'la olmaydi, lekin ularning ijodiy faoliyatdagi ishtiroki shaxsiy resurslarni faollashtiradi va hayotda kuchli ijtimoiylashtiruvchi va madaniy integratsiya omilidir. San'at shaxsni moslashtirish va ijtimoiylashtirish vositasi bo'lib xizmat qiladi, chunki u hissiy holatlarni uyg'unlashtirishga yordam beradi va ijodiy salohiyat ufqlarini ochishga imkon beradi.

So'nggi yillarda nogiron bolalarning hissiy holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan musiqiy vositalardan foydalanish imkoniyatlari tobora ko'proq e'tiborni jalb qila boshladi. Musiqa san'atining asosiy imtiyozlaridan biri shundaki, u o'ziga xos xususiyatlarga ko'ra shaxsning ma'naviy tashkilotiga ta'sir ko'rsatishi, uning qadriyatlari tizimini belgilab berishi, dunyoqarashini shakllantirish va ijtimoiy tajribani chuqurlashtirish, insonparvarlik g'oyalarini tarbiyalashi mumkin. Musiqiy san'at bolaga umumiy rivojlanishning zarur darajasiga erishishga yordam beradi, bu unga normal rivojlanayotgan tengdoshlari orasida moslashishga va jamiyatda yanada muvaffaqiyatli ijtimoiylashishga imkon beradi. Musiqiy faoliyat kundalik hayotda zarur bo'lgan estetik ehtiyojlar, bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishga yordam beradi. Nogiron bolalarni musiqiy korrektsion faoliyatga erta jalb qilish mavjud buzilishlarni faol ravishda bartaraf etishga va shaxsdagi ijobiy ijtimoiy-madaniy o'zgarishlarga yordam beradi. Musiqaning inson tanasining turli tizimlariga foydali ta'siri ilmiy jihatdan isbotlangan. San'at bilan muloqotdan olingan ijobiy his-tuyg'ular inson organizmidagi psixosomatik jarayonlarga terapevtik ta'sir ko'rsatadi, zahira kuchlarini safarbar qiladi, psixo-emotsional stressni yengillashtiradi, ijodkorlikni rag'batlantiradi, degan xulosalar art-terapiya nazariyasi va amaliyotida ishlab chiqilgan.

Mahalliy va xorijiy olimlarning ushbu qoidalari nogiron bolalar bilan tuzatish ishlarida musiqadan foydalanishni ilmiy asoslash uchun asos bo'ldi (Vorozhtsova O. A. [2], Gudina T. V. [4], Petrushin V. I. [5], Terletskaya O. V. , Sysueva V. F. [6], Shushardjan S. V. [7] va boshqalar) [3]. Rivojlanish muammosi bo'lgan bolalarga nisbatan musiqiy san'atning tuzatish va rivojlanish yo'nalishi nogiron bola uchun ijobiy tajribalar manbai ekanligi bilan bog'liq. Musiqa san'ati insoniyatga berilgan eng qudratli vositalardan biri bo'lib, his-tuyg'ularini, ongini, kayfiyatini, sog'lig'ini boshqarishga qodir, bolalarning jamiyat, tabiat, hayot va an'analar haqidagi ijtimoiy g'oyalarini boyitadi. Musiqiy va badiiy hamkorlikda ishtirok etish ularning ijodiy ehtiyojlarini qondiradi va musiqa bilan tirik san'at sifatida tanishtiradi. Imkoniyati cheklangan bolalarni musiqiy tarbiyalashning asosiy vazifalari

quyidagilardan iborat: har bir bolaning psixofiziologik imkoniyatlarini hisobga olgan holda bolalarning musiqiy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish; musiqa faoliyatining turli yoʻnalishlari orqali shaxsning musiqiy madaniyati asoslarini shakllantirish, umumiy maʼnaviy madaniyatni rivojlantirish va qadriyatlarni tarbiyalash, dunyoni badiiy idrok etishning eng muhim omili sifatida xayoliy fikrlashni optimallashtirish, nogiron bolalarning hissiy sohasini rivojlantirishdagi kamchiliklarni qoplash [3].

Shunday qilib, musiqa sanʼati, bir tomondan, bizni oʻrab turgan olamni anglash vositasi boʻlsa, ikkinchidan, shaxsni ijtimoiylashtirish va tarbiyalash vositasi sifatida xizmat qiladi. Sanʼat maktabidagi estetik tarbiya guruhlarida musiqa asboblarida oʻqitiladigan kirish darslari nogiron oʻquvchilarda quyidagi muammolarni aniqlashga imkon beradi: - umuman bolaning uygʻun shakllanishi uchun zarur boʻlgan metroritmik tuygʻu yomon rivojlangan, - eshitish eʼtibori etarli darajada rivojlanmagan, bu bolaning muvaffaqiyatli oʻrganishi va umumiy konsentratsiyalash qobiliyatining asosiy omili, - kognitiv faoliyatga qiziqish yoʻq yoki qoniqarsiz rivojlangan, - koordinatsiyaning umumiy rivojlanmaganligi aniqlangan (eshitish va ovoz oʻrtasida, vosita sohasi), - muloqot qobiliyatlari yetarli darajada rivojlanmagan, - bolalarning ichki psixologik va hissiy cheklanishi qayd etilgan. Taʼlim yetti yil davom etishi mumkin va bolalarning shakllanishi va rivojlanishining uch bosqichini oʻz ichiga oladi deb taxmin qilinadi.

Dastlabki bosqich taʼlimning dastlabki ikki yiliga toʻgʻri keladi, bu bolaning ijtimoiy-madaniy tajribasida koʻnikma va taassurotlarning nisbatan passiv toʻplanishi va konstruktiv faoliyatni shakllantirish bilan tavsiflanadi. Birinchi bosqich boshqariladigan reproduktiv harakatlar bilan tavsiflanadi. Kollektiv turli xil musiqiy faoliyatga kiritish (qoʻshiq aytish, musiqani idrok etish, musiqiy-ritmik harakatlar, musiqiy va oʻquv oʻyinlari, dam olish mashqlari, musiqa va musiqa-shovqin asboblarini chalish (bolaning individual imkoniyatlariga qarab), shuningdek, ular bilan tanishish. Bu bosqichda eshitish diqqatini shakllantirish va rivojlantirish, uni faollashtirish va diqqatni jamlashga alohida eʼtibor beriladi. Oʻyin texnikasidan foydalanish tufayli tizimning turli analizatorlari ishtirok etadi:

vizual, taktil, motor-kinestetik. Motor-kinestetik va vizual-fazoviy usullar va usullardan faol foydalanish asosida rivojlanadigan metroritmik his-tuyg'ular va g'oyalarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Birinchi bosqichda bolaning motivatsion aqliy faoliyatini rivojlantirishga alohida e'tibor beriladi. Ikkinchi bosqichda (3-5 yillik o'qish) o'quv vazifalari bilan bog'liq tubdan boshqacha yondashuv birinchi o'ringa chiqadi. Asosiy ko'nikma va qobiliyatlar sayqallanadi, takomillashtiriladi va kengaytiriladi. Bolaning ijtimoiy-madaniy tajribasidan, shuningdek, olingan bilim va ko'nikmalardan faol foydalanish muhim rol o'ynaydi, ma'lumot va ko'nikmalarni birlashtirish, ijodiy o'zgartirish va boshqa ijtimoiy-madaniy faoliyat turiga o'tkazishga urinishlar mamnuniyat bilan qabul qilinadi va rag'batlantiriladi.

Treningning ikkinchi bosqichida mustaqil reproduktiv harakatlar kuzatiladi. Biz bolalarning musiqiy savodxonligini rivojlantirish vazifalarini ijodiy faoliyatni rivojlantirishga e'tibor qaratgan holda amalga oshiramiz, bu o'quv musiqa darslarida vizual va majoziy vositalardan foydalanish (qo'shiqlar, she'rlar uchun rasmlar, reproduksiyalarni tanlash, o'yinchoqlar, qo'shiqlarni dramatizatsiya qilish) yordam beradi. Shuningdek, asosiy musiqa chalish va tanlangan cholg'u asbobida improvizatsiya qilish ko'nikmalari birinchi o'ringa chiqadi. Ushbu bosqichda, qoida tariqasida, nogiron bolalarning ijodiy erkinligi va aqliy erkinligining rivojlanishi qayd etilgan.

Uchinchi bosqich (6-7 yillik ta'lim) nogiron bolaning ijtimoiy-madaniy tajribasini yanada boyitish va uni kundalik hayotda boshqa faoliyat turlariga o'tkazish, ko'nikma va qobiliyatlarni chuqurlashtirish, ulardan faol ijodiy foydalanishni o'z ichiga oladi. Uchinchi bosqichda mustaqil samarali harakatlar, tashabbuskorlik, faollik va mas'uliyatning ortishi namoyon bo'ladi. Biz bolalarni ijodiy musiqiy mashg'ulotlarga (ota-onalar uchun kontsertlar, bayramlar, raqobatbardosh o'yin tadbirlarida ishtirok etish), shuningdek, mustaqil va ansambl musiqasini o'rgatilgan asbobda o'ynashga kiritiladi. Shunday qilib, musiqa maktabidagi estetik tarbiya guruhlarida musiqa asboblarida o'qitiladigan nogiron bolalar uchun mashg'ulotlar ijtimoiy-madaniy tajribani muvaffaqiyatli to'plash va

uni oddiy hayotga o'tkazish, shaxsiy rivojlanishga yordam beradi, muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi, yangi ijtimoiy doirani shakllantirishga yordam beradi hamda qo'shimcha tarzda ba'zan bolaga kasbiy yo'l-yo'riqni tanlashga yordam bering va muvaffaqiyatga erishish holatini yarating.

Xulosa qilib aytganda qo'shimcha ta'lim muassasalari ta'lim muassasasida beriladigan umumiy ta'limni to'ldirishga imkon beradi va nogiron bolalarning individual qobiliyatlarini rivojlantirishga, shuningdek, ularning o'zini-o'zi anglashi va o'zini namoyon qilishiga hissa qo'shadi. Imkoniyati cheklangan bolalar o'z qobiliyatlari, qiziqishlari va psixofiziologik imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda turli mazmundagi o'quv birlashmalari (to'garak, ustaxona, studiya, klub, maktab, laboratoriya, seksiya va boshqalar) hamda musiqa maktablariga borishlari mumkin. Nogiron bolalarni ijodiy faoliyatga faol jalb qilish va musiqa madaniyati bilan tanishish ularning samarali ijtimoiylashuvi va normal rivojlanayotgan tengdoshlari muhitiga integratsiyalashuviga yordam beradi, shaxsiyatning har tomonlama va barkamol rivojlanishiga yordam beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4360-son "Alohida ta'lim ehtoyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarori.

2. https://goaravetisyan.ru/uz/vystuplenie-inklyuziya-i-rabota-s-detmi-s-ovz-v-dopolnitelnom-obrazovanii/.

3. Alieva E.F., Jiltsova O.A. Maktab o'quvchilarining qo'shimcha ta'limi: shaxsiy yutuqlar diagnostikasi: monografiya. Moskva: Ta'limni rivojlantirish federal instituti, 2015. 269 p.

4. Vorozhtsova O.D. Bolalar psixoterapiyasida musiqa va o'yin. Psixoterapiya instituti nashriyoti, 2004. 88 b.

5. Gavrov S. N., Nikandrov N. D. Shaxsni sotsializatsiya qilish jarayonida ta'lim // URAO byulleteni, 2008. № 5. P. 21 .

6. Gudina T. V. Aqli zaif bolalarni ijtimoiy-madaniy moslashtirish va integratsiyalashuv tizimida musiqiy ta'lim: mavhum. .kand.diss.: 13.00.05, 13.00.03. Sankt-Peterburg, 2005–22 b.
7. Petrushin V.I. Musiqiy psixoterapiya: nazariya va amaliyot. M.: VLADOS, 2000. 176-b.
8. Terletskaya O. V., Sysueva V. F. Nutqni buzgan bolalar bilan nutq terapiyasi ishida musiqiy vositalardan foydalanish // Maxsus va inklyuziv ta'limning dolzarb muammolari: maqolalar to'plami, 2018. 472–478-betlar.
9. Shushardjan S. V. Musiqa terapiyasi va inson zahiralari tanasi. M.: Antidor, 1998. 361 b.

## MAKTABGACHA TA`LIM YOSHIDAGI BOLALARGA AXLOQIY TARBIYA BERISHNING PEDAGOGIK OMILLARI

***Qosimova Aziza***
*Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Namangan filiali magistranti*

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada maktabgacha ta`lim yoshidagi bolalarni axloqiy tarbiyalash vazifalari va Sharq mutafakkirlarining fikr va mulohazalar yoritilgan.*

***Kalit so`zlar:*** *Axloq, axloq tushunchasi, axloqiy munosabat, axloqiy kategoriya, axloqiy tarbiya tamoyillari, axloqiy ideal, axloqiy tarbiya vazifalari.*

***Аннотация:*** *В данной статье описаны задачи нравственного воспитания детей дошкольного возраста и мысли и мнения восточных мыслителей.*

***Ключевые слова:*** *этика, понятие этики, этическое отношение, этическая категория, принципы этического воспитания, этический идеал, задачи этического воспитания.*

***Annotation:*** *This article describes the tosks of the moral education of preschool children and the thoughts and opinions of Eastern thinkers.*

***Key words:*** *ethics,concept of ethics, ethical attitude , ethical category,principles of ethical education,ethical ideal, tasks of ethical education.*

Ma`lumki axloqiy me`yorlarsiz shaxsning ruhiy va jismoniy yetukligi, ma`naviy kamolotga erishishi mushkuldir. Axloq so'zi arabcha –xulq-atvor ma`nosini bildirib, ijtimoiy munosabatlar va shaxs xatti-harakatini tartibga solib turuvchi qonun-qoidalar majmui, ma`naviyatning tarkibiy qismi sifatida shaxs kamolotining yuqori bosqichi bo`lib xizmat qiladi. Axloq tushunchasi umumiy xarakterga ega bo`lib, alohida munosabatlarni emas, balki barcha sohadagi munosabatlarni o`z ichiga oladi. Bu esa, axloqiy kategoriya deyiladi. Insonlarning o`zida birlashtirgan yaxshilik, mehnatsevarlik, ezgulik, adolatlilik, rostgo`ylik, insonparvarlik vatanparvarlik, jamoaviylik kabi sifatlarini majmuini axloqiy tarbiya tamoyillarga kiritish mumkin. Axloqiy ongning o`zida birlashtirgan sifatlariga yaxshilik-yomonlik, burch va vijdon,qadr –qimmat kabilarni misol qilib ko'rsatish mumkin. Oilada, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida axloqiy tarbiyanining elementlari berib boriladi.

Darhaqiqat, har bir farzand shaxsi oilada shakllanadi. Demak, oila-barkamol avlod poydevori hisoblanadi. Shunday ekan, oilada farzandlarni axloqiy jihatdan tarbiyalash, ayniqsa, adolat, burch, vatanparvarlikni shakllantirish, ona vatanni sevish hissini uyg'otish o'ta muhim hisoblanadi.

Oilada farzandlarni o'z burchiga sadoqat ruhida tarbiyalash mas'uliyat, onglilik, vijdon kabi fazilatlar bilan chambarchas bog'liqdir. Bunda ota-onaning o'zaro samimiy munosabati, ularning farzandlari bilan yaqin, do'stona munosabatda bo'lishi, ularning kelajakdagi orzu-maqsadlarini tushunib olishlari, farzandlarning sog'-salomat voyaga yetishlari uchun asos bo'ladi.

Inson tarbiya jarayonida yaxshi xulq-atvorga, odatlarga va aql-farosat omillariga ega bo'lgan bo'lsa, hayot saboqlarini shunchalik yaxshi anglaydi va yaxshi ishlarni amalga oshiradi, va aksincha, qanchalik tarbiyasi kam, hayotiy ko'nikmalari oz bo'lsa, bunday shaxs ba'zan bilib yoki bilmay yomon ishlarga qo'l uradi.

Bolalarni axloqiy tarbiyalashda yo'l qo'yilgan xato-kamchiliklardan o'z o'rnida bartaraf etib borish lozim. Jamiyatda odobsiz, bilimsiz, aqlsiz, giyohvand, ota-onasiga qo'l ko'taradigan va o'z bolalarining baxtsiz yashashiga sababchi bo'layotgan kishilar uchraydi. Bu esa, bolalarning insoniy xatti-harakatlariga ularning tarbiyaga loqaydliklari sabab bo'lgan.

Maktabgacha ta`lim yoshidagi bolalarni axloqiy tarbiyalashda bolaning ongi, dunyoqarashi, axloqiy hislatlari, shaxsiy fazilatlari va xulq-atvorini tarbiyalash uni rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi. Maktabgacha ta`lim yoshdagi bolalarni axloqiy tarbiyalashda quyidagi vazifalar belgilab berilgan:

1) bolalarning axloqiy his-tuyg`ulari, ularning xatti-harakatini tarbiyalash;

2) xulqiy madaniyat va ijobiy his-tuyg`ularni tarbiyalash;

3) axloqiy xulq-atvor ko`nikmalarini rivojlantirish.

Maktabgacha ta`lim yoshidagi bolalarni axloqiy tarbiyalashda aniq mezonlarga tayangan holda ish olib boriladi. Har tomonlama yetuk komil insonda odamiylikning eng yaxshi xislatlari: mehr-muhabbat, rahm-shafqat, adolat-u diyonat, hayo-iffat, imon-e`tiqodlar rivojlangan bo`lsa,axloqsiz,beburd insonlar tarbiyasida bunday xislatlar buning aksidir. Har bir millat-u xalqning obro-e`tibori insonlarning xulqi, axloqi, odobi yaxshi va yomon xislatlari va fazilati bilan belgilanadi. Axloqiy tarbiya normalari har bir xalqning huquqiy normalariga asos bo`lib xizmat qiladi. Axloqiy bilmlarni egallagan, har qanday vaziyatlarda o`zini boshqara oladigan, axloqiy normalarga o`zini munosib tuta oladigan kishilar ma`nan yetuk, axloqiy tarbiyalangan insonlar toifasiga kiradi. Bularning barchasi maktabgacha ta`lim tashkiloti va oilada bolalar ongiga singdiriladi. Maktabgacha ta`lim yoshidagi bolalarni axloqiy tarbiyalashda hadis-u sharif, yaxshilik va yomonlik o`rtasidagi ziddiyatlar aks ettirilgan ertaklar, hikoyalar matallar, masallar, maqollar va rivoyatlar na`muna sifatida asos qilib olinadi.

Sharq mutafakkirlari oila va farzand tarbiyasiga alohida e`tabor qaratishgan. Abu Rayhon Beruniy insonning axloqiy fazilatlarini, axloqiy tushunchalarini insonning tabiati bilan bog`laydi. Inson tabiati esa oilada

shakllanadi. Bu esa, bola tarbiyasida ota-ona ta`siri va na`munasi benihoya kata ekanidan dalolat beradi. Beruniy tan va ruh pokligiga e`tabor qaratadi. Oilada tozalik, poklik, tartib o`rnatilgan bo`lsa bu yerda ma`naviy poklik shakllangan bo`ladi. Bu fikrini tanani toza tutish bilan cheklanmay ko`p harakat qilishga undaydi. Bu esa, mehnat qilishga da'vat etadi. Uning qalb va harakat haqidagi fikri inson tani bilan ruh pokligining bir butunligi haqidagi g`oya bilan chambarchas bog`liqdir. Bizning fikrimizcha makatabgacha ta`lim yoshdagi bolalar tarbiyasida jismoniy sog`lomlik, ma`naviy-axloqiy bilmlar o`rtasidagi bog`liqlik bugungi kun talabi bilan o`zaro bog`liqlikda rivojlanadi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tarbiyashda oila, mahalla, maktabgacha ta`lim tashkiloti o`zaro hamkorlikda ish olib borishi natijasida ma`nan yetuk, axloqiy rivojlangan barkamol,komil inson voyaga yetadi. Bu esa el-yurt ravnaqiga, obro`-e`tiboriga, shaniga o`z ta`sirini ko`rsatadi.

Yaxshi tarbiya, ba'zilar o'ylaganidek, bir soatlik yoki bir kunlik ish emas. Maqsadli tarbiya tarbiyachidan chidam, matonat, katta bilim va tajriba talab qiladi. Demak, har bir ota-ona va o'qituvchi tarbiyaga oid bilim va malakaga ega bo'lishi shart.

Bolalar tarbiyasida tezda ijobiy natijalarga erishish uchun ularga bilim berish bilan birga, ma'lum mehnat jarayonlariga jalb etish, kasb va mutaxassislik sir-sinoatlarini qo'shib o'rgatish maqsadga muvofiqdir. Tarbiya ishining ba'zan samarasiz bo'lishiga asosiy sabablardan biri tarbiya jarayonida tartib-intizomning bo'lmasligidir. Shaxs qanchalik mehr-muhabbat va tartib-intizom asosida tarbiyalansa, yomon xatti-harakatlardan shunchalik uzoq bo'ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga axloqiy tarbiya berishning asosiy maqsadi yoshlarni baxt-saodatli, o'z zamonining aziz, hurmatli va fidoiy kishisi qilib tarbiyalashdan iborat.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, tarbiyaning murakkabligi shundaki, u hech qachon tugamaydi, ya'ni bola tug'ilganidan to umrini oxirgi qadar davom etadiga davomli jarayondir. Bundan tashqari, bir tarbiya ko'rgan avlod o'rniga

kelgan farzandlarni yana qayta boshdan tarbiya qilish darkor bo'ladi. Bu esa tarbiyaning tinimsiz davriyligini va abadiyligini ko'rsatadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**:

1. Sh.Sodiqova. Maktabgacha pedagogika."Tafakkur bo`stoni" Toshkent- 2013.
2. https://qomus.info.

# O'QISH DARSLARIGA O'QUVCHILARDA TANQIDIY FIKRLASH ORQALI MUSTAQIL FIKRLASH KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH

***Xusanova Naima Zokirjonovna***
*Namangan davlat pedagogika instituti*
*magistranti xusanovan513@gmail.com 97 251 77 07*

***Annotatsiya:*** *Boshlang`ich sinflarda o`tiladigan ona tili, matematika, o`qish, tabiatshunoslik darslari o`z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko`ra ta'lim tizimida alohida o`rin tutadi. Negaki ularning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta'limiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshlang`ich ta'lim darslariga o`quvchilar qiziqishini oshirishga alohida e'tibor berish lozim. Chunki bolalar boshlang`ich sinflardanoq « dars » degan muqaddas so`zdan bezib qolmasliklari lozim.*

***Kalit so'zlar:*** *O'qituvchi, metod, innovatsiya, o'qish darslari*

***Abstract:*** *Mother tongue, mathematics, reading, natural science lessons held in primary grades have a special place in the educational system according to their essence, goals and tasks. After all, the foundations of literacy and moral-educational education stand on their soil. Therefore, it is necessary to pay special attention to increase the interest of students in primary education classes. Because children should not get tired of the sacred word "lesson" from the elementary grades.*

***Key words:*** *Teacher, method, innovation, reading lessons*

***Аннотация:*** *Уроки родного языка, математики, чтения, естествознания, проводимые в начальных классах, по своей сущности, целям и задачам занимают особое место в системе образования. Ведь на их почве*

*стоят основы грамотности и нравственно-воспитательного воспитания. Поэтому необходимо уделять особое внимание повышению интереса учащихся к занятиям начального образования. Потому что детям не должно надоедать священное слово «урок» еще с младших классов.*

***Ключевые слова:*** *Учитель, метод, инновация, уроки чтения.*

Bugungi kunda o`quvchilarni darsga bo`lgan qiziqishlarini oshirish uchun tajribali o`qituvchilar turli didaktik o`yinlardan foydalanishmoqda. Interfaol metod – ta'lim jarayonida o`qituvchi va o`quvchilar o`rtasidagi faollikni oshirish orqali ularning o`zaro harakati ta'sir ostida bilimlarni o`zlashtirishni kafolatlash, shaxsiy sifatlarni rivojlanishiga xizmat qiladi.Ushbu usullarni qo`llash dars sifati va samaradorligini oshirishga yordam beradi. Uning asosiy mezonlari– norasmiy bahs– munozaralar o`tkazish, o`quv materialini erkin bayon etish, mustaqil o`qish,o`rganish, seminarlar o`tkazish, o`quvchilarni tashabbus ko`rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo`lib ishlash uchun topshiriq, vazifalar berish, yozma ishlar bajarish va boshqalarda iborat.

Interfaollik, bu – o`zaro ikki kishi faolligi, ya'ni, bundan o`quv- biluv jarayoni o`zaro suhbat tariqasida dialog shaklida (kompyuter aloqasi) yoki o`qituvchi – o`quvchilarning o `zaro muloqotlari asosida kechadi. Interfaollik – o`zaro faollik, harakat, ta'sirchanlik, o`quvchi – o`qituvchi, o`quvchi – o`quvchi suhbatlarida sodir bo`ladi. Interfaol metodlarning bosh maqsadi - o`quv jarayoni uchun eng qulay muhit va vaziyat yaratish orqali o`quvchining faol, erkin, ijodiy fikr yuritish, uni ehtiyoj, qiziqishlari, ichki imkoniyatlarini ishga solishga muhit yaratish. Bunday darslar shunday kechadiki, bu jarayonda bironta ham o`quvchi chetda qolmay, eshitgan, o`qigan, ko`rgan bilgan fikr mulohazalarini ochiq oydin bildirish imkoniyatlariga ega bo`ladilar. O`zaro fikr almashish jarayoni hosil bo`ladi. Bolalarda bilim olishga havas, qiziqish ortadi, o`zaro do`stona munosabatlar shakllanadi .

Interfaol ta'lim o`z xususiyatiga ko`ra didaktik o`yinlar orqali evristik(fikrlash, izlash, topish) suhbat – dars jarayonini loyihalash orqali

muammoli vaziyatni hosil qilish va yechish orqali kreativ – ijodkorlik asosida axborot kommunikatsion texnologiyala lar yordamida amalga oshirish metodlarini o`z ichiga oladi .

Axborot kommunikatsion texnologiyalar asosida ta'lim o`z navbatidakompyuter dasturlari yordamida o`qitish, masofadan o`qitish, internet tarmoqlari asosida o`qitish, media – ta'lim metodlaridan iborat.Boshlang`ich ta'limda o`quvchilarning yosh xususiyatlari, savodxonlikdarajalari, shaxsiy tabiatlariga ko`ra didaktik o`yinlar orqali evristik suhbatlar loyihalashtirish asosidagi metodlar keng qo`llanilmoqda. Agar o`qitish jarayonida har bir o`quvchi o`zining o`zlashtirish imkoniyati darajasida topshiriqlar olib ishlaganida u yuqori sifat va samaradorlikni ta'minlagan bo`lar edi. Bunday holatni faqat tabaqalashtirgan ta'lim orqaligina amalga oshirish mumkin. Endi ta'lim jarayonlarini didaktik o`yinlar orqali amalga oshirish haqida fikr yuritamiz: Interfaol o`yinli metodlar o`quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Ular o`quvchi shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarini ro`yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega.Interfaol o`yinlarning asosiy turlari: intellekual (aqlli) va harakatli hamda aralash o`yinlardan iborat. Bular o`quvchilarda aqliy, jismoniy, axloqiy, ma'naviy, ma'rifiy, psixologik, estetik, badiiy, tadbirkorlik, bunyodkorlik, mehnat, kasbiy ko`nikmalarni rivojlanishiga yordam beradi.

Bu metod o`quvchini ichki imkoniyatlarini ishga tushishiga, o`ylashga, erkin fikr yuritishga, muloqotga, ijodkorlikga yetaklaydi. Ayniqsa, unda atrof –muhit, hayotni bilishga qiziqish ortadi, uchragan qiyinchilik, to`siqlarni qanday yengish va tanqidiy fikrlash ko`nikmalarini shakllantiradi . Ta'lim – tarbiya jarayonida asosan o`quvchilarda ta'lim olish motivlarini,ularni turi yo`lanishlardagi qobiliyat va qiziqishlarini oshiradigan, biror kasbga moyilliklarini ko`rsatadigan, interfaollikkka asoslangan didaktik o`yinlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.Interfaol o`yinlar nazariy, amaliy, jismoniy, rolli, ishchanlik va boshqayo`nalishdagi turlarga ajratiladi. Ular o`quvchilarda tahlil qilish,hisoblash,o`lchash, yasash, sinash, kuzatish, solishtirish, xulosa chiqarish,

mustaqil qaror qaabul qilish, guruh yoki mustaqil jamoa tarkibida ishlash,nutq o`stirish, til o`rgatish yangi bilimlar olish faoliyatlarini rivojlantiradi.

Umumiy o`yinlar nazariyasiga ko`ra, mavjud barcha o`yin turlarinitasniflashga ularni funksional, mavzuli, konstruktiv, didaktik , sport va harbiy o`yinlarga ajratiladi.Interfaol o`yin turlarini tanlashda quyidagi mezonlarga rioya qilish yaxshi natijalar beradi. -ishtirokchilarni tarkibi bo`yicha, ya'ni o`g`il bolalar, qiz bolalar yoki aralash guruhlar uchun o`yinlar :

-ishtirokchilarning soni bo`yicha –yakka, juftlikda, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi, sinflararo va ommaviy tarzdagi o`yinlar :

- o`yin jarayoni bo`yicha fikrlash, o`ylash, topag`onlik, harakatlarga asoslangan, musobaqa va boshqalarga yo`naltirilgan;

-vaqt me'yori bo`yicha –dars, mashg`ulot vaqtining reja bo`yicha ajratilgan qismi, o`yin maqsadiga erishguncha, g`oliblar aniqlanguncha davom etadigan o`yinlar.

Bularning bari o`quvchilarga fanlararo bog`liqlikni o`rgatish orqali ularda olam tuzilishini ilmiy asoslarini to`liq idrok etish va ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish, ijodiy tafakkurlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.Boshlang'ich sinflarning o'qish darslari o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra ta'lim tizimida alohida o'rin tutadi. Negaki uning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta'limiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshqa predmetlar ta'limini o'qish ta'limisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.O'quvchi matnni to'g'ri, tez, tushunib o'qish, mazmunini o'zlashtirish bilan ilk bor o'qish darslarida yuzlashadi. O'qish darslari orqali o'quvchilarning Davlat ta'lim standarti (DTS) talablari bo'yicha o'zlashtirishlari ko'zda tutilgan o'quv-biluv ko'nikma-malakalari hamda bilimlarni egallashlariga yo'l ochiladi. Aynan o'qish ta'limida insonning, avvalo, o'zligini, qolaversa olamni anglashga boigan intilishlariga turtki beriladi. Shu maqsadda ,,O'qish kitobi" darsliklariga ona tabiat, atrofimizni o'rab turgan olam, Vatanimiz tarixi va bugungi qiyofasi, kattalar va bolalar hayoti, mehnatsevarlik, istiqlol va milliy-ma'naviy qadriyatlar, xalqlar do'stligi va tinchlik kabi turli mavzular bo'yicha atroflicha tushunchalar berishga mo'ljallangan badiiy, axloqiy-ta'limiy, ilmiy-ommabop asarlar kiritiladi.O'qish darslari savod o'rgatish davrida o'quvchilarni bo'g'in, so'z

va gaplar bilan tanishtirish va ularni o'qish, rasmlar asosida hikoya qilish tarzida uyushtirilsa, o'qish texnikasi egallangandan so'ng o'qish muayyan mavzular bo'yicha tanlangan badiiy, ilmiy-ommabop matnlar yuzasidan olib boriladi.

Boshlang'ich sinf ,,O'qish kitobi" darslariga kiritilgan muayyan mavzular o'quvchilarni badiiy adabiyotning sehrli olamiga olib kirishi, dunyoqarashlarini milliy istiqlol mafkurasi asosida to'g'ri shakllantirishga qaratilishi bilan belgilanadi. Shunga ko'ra, o'qish darslarining yetakchi xususiyati o'quvchilarning savodxonligini ta'minlash bilan birga, o'quvchilarni milliy mafkura asosida yuksak axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga qaratiladi.Boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida o'rganiladigan asarlarning mavzu doirasi ancha keng bo'lib, ular ona tabiat, yil fasllari, xalq og'zaki ijodi, mehnatga muhabbat, asosiy bayram sanalari, milliy istiqlol va ma'naviyat kabi umumiy mavzular doirasida birlashtirilgan.O'qish darslari uchun tanlangan mavzular o'quvchilarga kundalik hayot, mustaqillikni mustahkamlash va insoniy munosabatlar bo'yicha ham bilim va tarbiya berishni ko'zda tutadi. Bular ichida istiqlol, vatan, ma'naviyat va tabiat haqidagi mavzular alohida ajralib turadi. Ulardan ko'zlangan maqsad o'zlikni anglash, istiqlol, vatan va tabiat bilan bog'liq tuyg'ularni uyg'otishdir.

Ijtimoiy-tarixiy mazmundagi mavzular Vatanimiz o'tmishi, xalqimiz hayoti, mardonavor kurashi, ulug` siymolar tomonidan amalga oshirilgan ishlar, tarixiy sanalar to'g'risida muayyan tasavvur beradi. Beruniy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Bobur va boshqa ajdodlarimiz haqidagi matnlar shular jumlasidandir. Bu xildagi asarlar o'quvchilarni faqat o'tmishimiz bilan tanishtirib qolmasdan, Vatan oldidagi farzandlik burchi va mas'uliyatini teran anglashga ham yordam beradi. Ularda Vatanga muhabbat tuyg'usi shu tariqa shakllanadi. Vatanimiz o'tmishi haqida hikoya qilingan asarlar bilan tanishish va ularni tahlil qilish jarayonida o'quvchilar o'tmish bilan bugungi kunni taqqoslash imkoniga ega bo'ladilar, jamiyat taraqqiyoti xususida qisqacha bo'lsada, tushuncha hosil qiladilar. Bu borada ayniqsa milliy istiqlol bilan bog'liq H. Imonberdiyevning ,,O'zbekistonim", J. Jabborovning „Istiqlol"(2-sinf), A. Rustamovning ,,Bayroq nima?", A. Obidjonning ,,O'ktam avlod" (3-sinf), S.Barnoyevning ,,Mangulikka tatigulik kun", E.Malikovning ,,Assalom,

Neksiya!" (4-sinf) mavzusidagi asarlari yaqindan yordam beradi.Tabiatga oid mavzular yordamida o'quvchilar tabiatdagi o'zgarishlar, yil fasllarining almashinuvi, hayvonot olamiga doir bilimlarni egallaydilar. Bunday mavzudagi asarlar o'quvchilarni kuzatuvchanlikka, tabiatni sevishga, unga nisbatan to'g'ri munosabatda bolishga o'rgatadi.

Tabiat tasviriga oid matnlar ustida ishlashda tabiat bag'riga sayohat uyushtirilib, bolalar kuzatuvchanlikka o'rgatilsa, vatanparvarlikka oid asarlar tahlili vatanning dongdor kishilari bilan uchrashuvlar yoki mavzuga daxldor kinofilmlar namoyishi vositasida amalga oshirilsa, dars samaradorligi yanada ortadi.Umuman, ,,O'qish kitobi" darsliklaridagi barcha mavzular o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish bilan birga, ularning lug'atini boyitishga, og'zaki va yozma nutqini to'g'ri shakllantirish va nutq madaniyatini o'stirishga ham qaratiladi.Amaldagi ,,O'qish kitobi" darsliklarida materiallarning sinfdan sinfga o'tgan sari mavzu jihatidan ham, mazmun jihatidan ham kengaya borishi hisobga olingan. Masalan, 1-sinfda o'rgatiladigan ,,Ajdodlarimiz-faxrimiz", »Ilm — aql chirog'i", ,,Zumrad bahor", ,,Kumush qish" kabi mavzular 2—4-sinflarda ham davom ettirilgan. Bu esa o'quvchilarning oldingi bilimlarini to'ldiradi va boyitadi.

Uzluksiz ta'limning boshqa bosqichlaridan farqli o'laroq, boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida o'quvchilarning o'qish malakalarini shakllantirish, asar matni ustida ishlash ta'limning didaktik maqsadi hisoblanadi. U turli mavzudagi matnlar ustida ishlash orqali ma'naviy-axloqiy, adabiy-estelik tarbiya bilan chambarchas bog'lab olib boriladi.O'qish darslarining samaradorligi ko'p jihatdan ta'lim metodlarining to'g'ri tanlanishiga bog'Iiq. Binobarin, fanning o'zi kabi o'qitish metodlari ham doimiy rivojlanishda bo'ladi. Masalan, eski maktablarda o'qish quruq yod olish metodi asosida o'rgatilgan bo'lsa, hozir izohli o'qish asosida olib boriladi. Yod olish metodida matndagi so'zlarga izoh berishga, ma'nosini tushuntirishga, o'qilganni qayta hikoyalashga, umuman olganda, o'qishning ongli bo'lishiga mutlaqo e'tibor berilmagan. Ularda ko'proq to'g'ri talaffuz, qiroat bilan o'qish, ifodali o'qish nazarda tutilgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.Abdullayeva Q. va boshqalar "O'qish ktobim" 2- sinf, T. 2006 yil

2.Abdullayeva Q., va boshqalar "Savod o'rgatish darslari" T, "O'qituvchi"1996

3.Abdullayeva Q. va boshqalar "2- sinfda o'qish darslari", T., 2004 yil.

4.Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnolofiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent. 2006.

5.Abdullayeva Q., va boshqalar "Ona tili" T., "O'qituvchi "1999 yil.

6.Bo'ri Ziyamuhammedov, Mamarajab Tojiyev. Pedagogik texnoloya- zamonaviy o'zbek milliy modeli. Toshkent. 2009.

7.«Kitobim-oftobim» Toshkent. «O'qituvchi» nashriyoti, 2008 yil.

# ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

***To'xtasinova Gulizebo Yorqinali qizi***

*Namangan davlat pedagogika instituti magistranti*

***Annotatsiya:*** *Maqolada zamonaviy ta'lim berish jarayonida "Ona tili va o'qish savodxonligi" fanini o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning metodik asosi yoritilgan. Mazkur maqola umumta'lim maktablarining ona tili darslarida foydalanish uchun manba bo'lib xizmat qiladi*

***Kalit so'zlar:*** *pedagogik, ta'lim, boshlang'ich sinf, ta'lim texnologiyalari.*

***Аннотация:*** *В статье раскрыты методологические основы использования проблемных образовательных технологий при преподавании «Родного языка и читательской грамотности» в курсе современного образования. Эта статья служит ресурсом для использования на уроках родного языка в средних школах.*

***Ключевые слова:*** *педагогика, образование, начальный класс, образовательные технологии.*

***Abstract:*** *The methodological basis of using problem-based educational technologies in the teaching of "Mother language and reading literacy" in the course of modern education is explained in the article. This article serves as a resource for use in the mother tongue classes of secondary schools*

***Key words:*** *pedagogy, education, primary class, educational technologies.*

Muammoli ta'lim texnologiyasining asosiy maqsadi bilim oluvchilarning mustaqilligi va faolligini oshirish, tafakkurini rivojlantirish, o'zlashtirilgan bilimlarning amaliyotga tatbiq etilishini kuchaytirishdan iborat. Pedagogik-psixologik adabiyotlarda muammoli ta'limning ilmiy-na-zariy asoslari haqida gap borganda, uni ta'lim metodi, prinsipi yoki alohida tizim deb hisoblash holatlari uchraydi. Muammoli ta'limni qanday nomlashdan qat'iy nazar, uning asosiy xususiyati - bilim oluvchining aqliy faolligini oshirish, mustaqil ijodiy izlanish, o'zi uchun yangi bilim, ko'nikma va malakalarni kashf etishdan iborat. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida ta'lim jarayoni tashkil etilgandan bilim egallashning bir qancha bir-biriga bog'liq bo'lgan bosqichlari mavjud bo'lib, tayyor bilimlarni o'quvchi-talabalar ongiga yetkazish, xotiralash, xotirada saqlash, qayta xotiralash, so'zlab berish, yozma ifodalash kabi holatlar bilish, tushunish darajasini ifodalaydi.An'anaviy pedagogik usuldagi –bilimlardan muammoga qarab – oʻquvchilar mustaqil ilmiy izlanish koʻnikma va malakalarini hosil qila olmaydi, chunki ularga oʻzlashtirish uchun tayyor natijalar taqdim etiladi. Muammoning yechimi ijodiy fikrlashni taqozo etadi. Oʻzlashtirilgan bilimlar shablonlarini takrorlash bilan bogʻliq boʻlgan reproduktiv psixik jarayonlar, muammoli vaziyatlarda hech qanday samara bermaydi.Agar inson muntazam tayyor bilim va koʻnikmalarni oʻzlashtirishga oʻrgatilgan boʻlsa, uning tabiiy ijodiy qobiliyatini soʻndirish ham mumkin; u mustaqil fikrlashni «esdan chiqaradi» Fikrlash jarayoni muammoli masalalarni yechishda a'lo darajada namoyon boʻladi va rivojlanadi.

Muammoli oʻqitishda kechadigan jarayonlarning psixologik mexanizmi quyidagicha boʻladi: inson ziddiyatli, yangi, noma'lum muammoga (muammo – murakkab nazariy yoki amaliy masala boʻlib, yashirin ziddiyatlarni qamrab oladi,

uning yechimi turli, hatto muqobil vaziyatlarni talab etadi) duch keladi, hayratlanish, ajablanish holati paydo boʻladi, «gap nimada?» degan savol tugʻiladi.Oʻquvchi nomaʼlum yechimni topish uchun mustaqil yoki oʻqituvchi yordamida izlanadi. Muammoni jamoaviy hal etishda paydo boʻluvchi, subʼekt-obʼekt-subʼekt munosabatlari ijodiy fikrlashni faollashtirishga olib keladi.Muammoli ta'lim va uning o'ziga xosliklari.Bugungi kunda, muammoli oʻqitish deganda mashgʻulotlarda pedagog tomonidan yaratiladigan muammoli vaziyatlar va ularni yechishga qaratilgan oʻquvchilarning faol mustaqil faoliyati tushuniladi. Buning natijasida oʻquvchilar kasbiy bilimlarga, koʻnikmalarga, malakalarga ega boʻladilar va fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi.Muammoli oʻqitish, oʻqitishning shaxsga yoʻnaltirilgan texnologiyalarga taalluqli, chunki bu yerda shaxs subʼekt sifatida qaraladi, muammoli vaziyatlarning maqsadi - pedagogik jarayonda oʻziga xos qiziqish uygʻotishdir.

Muammoli oʻqitish, oʻqitishning eng tabiiy samarali usulidir, chunki ilmiy bilimlar mantiqi oʻzida muammoli vaziyatlar mantiqini namoyish etadi.Muammoli vaziyatlar kiritilib, anʼanaviy, bayon etish oʻquv materialining eng optimal tarkibi hisoblanadi. Pedagog muammoli vaziyat yaratadi (3.3-rasm), oʻquvchini uni yechishga yoʻnaltiradi, yechimni izlashni tashkil etadi. Muammoli oʻqitishni boshqarish, pedagogik mahoratni talab etadi, chunki muammoli vaziyatning paydo boʻlishi individual holat boʻlib, tabaqalashtirilgan va individuallashtirilgan yondashuvni talab etadi.Muammoli oʻqitish, ijodiy jarayondan nostandart ilmiy-oʻquv masalalarni nostandart usullar bilan yechishni taqozo etadi. Talabalarga mashq uchun beriladigan masalalar, olingan bilimlarni mustahkamlash va malakalar hosil qilish uchun xizmat qilsa, muammoli masalalar esa faqat yangi yechimlar izlashga qaratiladi.Oʻquv materialini muammoli taqdim etilishining mohiyati shundaki, unda oʻqituvchi bilimlarni tayyor holda taqdim etmasdan, oʻquvchilar oldiga muammoli masalalar qoʻyadi, ularni yechimining yoʻllari va vositalarini izlashga undaydi.

O'qitishda muammoli ta'limdan foydalanish ham kreativ faoliyatni shakllantirishda samarali hisoblanadi. O'quvchilarning biror-bir haqiqatni

mustaqil izlashi va kashf etishi bilan bog'liq bo'lgan ta'lim metodlaridan evristik yoki tadqiqotchilik metodlari bilan birga o'quvchilarni ijodiy fikr "laboratoriyasi"ga olib kiradigan jarayon ham asosiy ahamiyatga egadir. Muammoli ta'lim shu jihatdan bir qancha afzalliklarga ega:

1. U o'quvchilarni mantiqiy, ilmiy, didaktik, ijodiy fikrlashga o'rgatadi.

2. U o'quv materialini ishonarli qiladi, bu bilan bilimlarning e'tiqodga aylanishiga ko'maklashadi.

3. U odatda, ancha ta'sirchan bo'lib, chuqur intellektual his-tuyg'ular, shu jumladan ko'tarinki ruh, hissini o'z imkoniyatlari va kuchiga ishonch tuyg'usini vujudga keltiradi, shuning uchun u o'quvchilarni qiziqtiradi, o'quvchilarda ilmiy bilishga jiddiy qiziqishni tarkib toptiradi.

4. Haqiqat qonuniyatining mustaqil "kashf etilishi" olingan bilimlarni unutmasligi aniqlab chiqilgan, mustaqil hosil qilingan bilimlar unutilgan taqdirda ham ularni tezda qayta tiklash mumkin.

O'quvchilarining yosh xususiyati bilim saviyasidan kelib chiqqan holda muammoli vaziyatlar yaratishning quyidagi usullaridan foydalanish mumkin:

1. Ona tili darsligida berilgan mavzularni qiyoslab o'rgatish orqali muammoli vaziyat yaratish, chunonchi o'rganilayotgan har bir mavzu o'quvchilardan tovushlar, so'zlar va gaplarni qiyoslashni shu asosda umumlashmalar hosil qilishni talab etadi. Bu ham o'z-o'zidan ravshanki, muammoli vaziyatni yuzaga keltiradi. O'quvchilarda "Nima uchun?" degan savolga javob izlashga ehtiyoj tug'iladi. Masalan "unli va undosh tovushlar" mavzusi o'rganilayotganda o'quvchi avval unli va undosh tovushlarni to'g'ri nomlashni, keyin qiyoslashni, unli va undoshlar ishtirokida so'zlar, so'zlardan esa gaplar hosil qilishni, ularning bir-biridan farqlarini aniqlashni talab etadi.

2. Muammoli savollar berish orqali muammoli vaziyat yaratish.
O'qituvchi dars mashg'ulotini muammoli savolni o'rtaga tashlash bilan boshlaydi:

1. Unli va undosh tovushlarni alohida aytib ko'ring.

Ularni talaffuz qilishda qanday farqni sezayapsiz?

2. Oltita unli va harf ishtirok etgan so’z yozing. Ulardagi unlini boshqa unli bilan almashtirib ko’ring, qanday o’zgarishlarni sezayapsiz?

3. Undosh tovushlarning talaffuz etib ko’ring. SHovqin ovozdan hosil bo’lgan undoshlarni alohida, faqat shovqindan hosil bo’lgan undoshlarni alohida yozing. Agar topshiriqlarni bajarish muayyan qiyinchilik tug’dirsagina, namuna ko’rsatadi.

4. Ramziy tasvirlar orqali muammoli vaziyatlar yaratish.

Muammoli vaziyat yaratishning bu usulida ramziy tasvirlardan foydalaniladi. Masalan, “O’zbekiston qovunlari” rasmlari va nomini berib, mavzuda matn yaratish topshirilishi mumkin.

5. Muammoli vaziyat yaoratishda til hodisalarini guruhlash, ajratish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, so’zlarni muayyan uyalarga birlashtirib, umumiy ma’noli so’zning xususiy ma’nosini yoki xususiy ma’noli so’zlarning umumiy ma’nosini topishini talab qilish muammoli vaziyat yaratish imkonini beradi. Masalan, o’quv qurollari, mevalar, sabzavotlar, daraxtlar va gullarning o’nlab hatto yuzlab uyadoshlari borki, o’qituvchi umumiy ma’noli so’zni o’quvchi hukmiga havola etadi va qolgan so’zlarni topishni o’quvchilarga topshiradi.

1. Sabzavotlar: sabzi, ...

2. O’quv qurollari: kitob, ... va hokazolar.

An’anaviy ta’limda o’quvchi ta’lim mazmunini saralashda amalda ishtirok etmaydi. Ijodkorlik faoliyatida esa ta’limda o’quvchi ta’limiy samarasi ta’limning yangi mazmunini saralashda ishtirok etadi; bilimning hajmi,malakasi, faoliyat turlari hamda o’quvchining foydalaniladigan usullari cheklanmagan bo’ladi.

Boshqa har qanday sifat (fazilat) kabi kreativlik ham birdaniga shakllanmaydi. Kreativlik muayyan bosqichlarda izchil rivojlantirilib boriladi. Xo’sh, shaxs faoliyatida kreativlik xususiyatlari qachondan namoyon bo’ladi? Bolalarda kreativlikni rivojlantirishda quyidagilarga e’tibor qaratish zarur:

1) ular tomonidan ko’p savollar berilishini rag’batlantirish va bu odatni qo’llab-quvvatlash;

2) bolalarning mustaqilligini rag’batlantirish va ularda javobgarlikni kuchaytirish;

3) bolalar tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratish;

4) bolalarning qiziqishlariga e'tibor qaratish

5) Bolalarda to'g'ri savol berish ko'nikmasini shakllantirish.

Zero, savol tarkibidagi "ta'riflab bering" tushunchasi o'z mohiyatiga ko'ra "mavjud bilimlaringizni birma-bir aytib o'ting" deyish bilan teng. Nazorat savollarini berishda o'quvchilarni fikrlashga undovchi so'z (fe'l)lardan foydalanish ularning kreativ fikrlashlarini osonlashtiradi. Shu sababli shaxsda kreativ sifatlarni shakllantirishning birinchi yo'liga ko'ra pedagoglar turli, antiqa, noan'anaviy hamda puxta javobni berishga majbur qiluvchi so'z (fe'l)lardan foyalanishlari maqsadga muvofiqdir. M: "bog'liqlikni toping", "yarating", "bashorat qiling", "fikrni mantiqan bayon eting", "tasavvur qiling" kabi so'z (fe'l)lardan foydalanish amaliy jihatdan samarali sanaladi.

Topishmoqni o'rganish, unga javob topish orqali bolalar predmetlarning kelib chiqishi, uning inson hayotidagi o'rni va roli haqida tasavvurga ega bo'ladilar, ularning qiziqishi ortadi, ongi va tafakkuri o'sadi, fikrlash qobiliyati rivojlanadi, tabiat va hayvonot olamini sevish, ardoqlash kabi hissiyotlari tarbiyalanadi. Topishmoqlardan dars jarayonida foydalanish orqali o'quvchilarning nutqi boyiydi, takomillashadi. Ular ifodali, mazmunli o'qishga o'rganadilar.

Topishmoqlarning matn mazmuni bilan bog'liq ravishda o'rganilishi o'quvchilarning bir tomondan matn mazmunini to'liqroq tushunishi va yaxshi esda saqlashiga turtki bo'lsa, ikkinchidan, ularning darsdagi faolligini oshiradi, dam olish muhitini yaratadi, ma'naviy-axloqiy jihatdan kamol toptiradi.

Jumladan, Farhod Musajonovning 3-sinf "O'qish kitobi" darsligidagi "Yaxshilik" hikoyasining birgina so'z – "Yaxshilik" deb nomlanishi undagi bosh qahramon Erkinning xatti-harakatlari o'zgarishi bilan bog'liqdir. Barcha o'zgarishlar asardagi Pirmat boboning birgina "Yaxshilik qil, lekin maqtanib uni yuvib yuborma" degan nasihatlari natijasida yuz beradi va u o'z hatti-harakatlarini o'ylab ko'rishga majbur bo'ladi. Mirzakalon Ismoiliyning 3-sinf "O'qish kitobi"dagi "Bobongiz xafa bo'lsa maylimi?" hikoyasi ham o'zining sarlavhasi bilan asosiy g'oya

bilan bevosita bog'langan. Bu g'oya boboning nevarasi sodir qilgan hatti-harakatlarni baholashida ifodalangan. Shuning uchun o'quvchilarga hikoya nima uchun bunday nomlanganini tushuntirishda, albatta, undagi asosiy muammoga murojaat qilinadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, muammoli o'qitish jarayonida o'qituvchilar ham, o'quvchilar ham o'zlarining intellektual, jismoniy, ma'naviy imkoniyatlarini o'quv va amaliy muammolarni yechishda doimiy sinovdan o'tkazadilar. Bu esa kelajakda har qanday muammoli vaziyatnioson hal eta oladigan shaxsni shakllantirishga zamin hozirlaydi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. -T.: "Ma'naviyat", 2008-y.
2. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari: -T.: "O'qituvchi", 2004- y.
3. Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari (o'quv qo'llanma).-T.: "Fan" nashriyoti, 2006 -y.
4. Farberman B. Ilg'or pedagogik texnologiyalar.-T.: "Fan", 2000-y.

# STEAM TEXNOLOGIYALARI ORQALI BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING MUSTAQIL BILISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

***Turdiyeva Madinaxon A'zamxo'ja qizi***
*Namangan davlat pedagogika instituti Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim)mutaxassisligi magistranti.*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada STEAM( science, technology, engineering, Arts and Mathematics ) ta'lim texnologiyasi yordamida o'quvchilarni mustaqil bilish, o'z-o'zini boshqarish va o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini to'g'ri shakllantirish yoritilgan. Bu ta'lim texnologiyasi orqali o'quvchilar kelajakda*

*oldilariga qo'ygan maqsadlari sari dadil odimlashadi, paydo bo'lgan muammolar qarshisida zaiflashib qolmay ,osonlik bilan hal qila olishadi*

***Kalit so'zlar:*** *Fan, texnologiya ,muhandislik, san'at, matematika, mustaqil bilish ,o'z-o'zini boshqarish , o'z-o'zini baholash, ta'lim texnologiyasi , integratsiya, malaka oshirish.*

***Аннотация:*** *В данной статье образовательная технология STEAM (наука, технология, инженерия, искусство и математика) используется для совершенствования у учащихся самостоятельных знаний, навыков самоуправления и самооценки. Благодаря этой образовательной технологии учащиеся смело движутся к своим целям в будущем, не становятся слабыми перед лицом проблем и легко их решают.*

***Ключевые слова:*** *Наука, техника, инженерия, искусство, математика, самостоятельное знание, самоуправление, самооценка, образовательная технология, интеграция, профессиональное развитие.*

***Annotation:*** *In this article, STEAM (science, technology, engineering, Arts and Mathematics) educational technology is used to improve students' independent knowledge, self-management and self-evaluation skills. The formation of ri is covered. Through this educational technology, students boldly move towards their goals in the future, they do not become weak in the face of problems and they solve them easily.*

***Key words:*** *Science, technology, engineering, art, mathematics, independent knowledge, self-management, self-assessment, educational technology, integration, professional development.*

## KIRISH

XXI asrning dinamik talablariga javoban ta'lim sohasi chuqur o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Bilimlarni tarqatishning an'anaviy usullari o'z-o'zidan o'rganishni birinchi o'ringa qo'yadigan innovatsion yondashuvlarga mos keladi. Ushbu maqola fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika (STEAM)

texnologiyalarining boshlang'ich ta'limga integratsiyalashuvi orqali yordam beradigan paradigma o'zgarishini o'rganadi. Bizning maqsadimiz ushbu integratsiya orqali boshlang'ich maktab o'quvchilarini o'z-o'zini o'zi o'rganish qobiliyatini oshirish, ularni kelajak muammolari va imkoniyatlariga tayyorlashga qanday yordam berishini o'rganishdir.

Mustaqil bilish faolligini o'quvchilarda boshlang'ich sinfdaligidan boshlab o'rgatishning ahamiyati shundaki o'z-o'zini boshqarishning asosiy tamoyillari o'quvchilarning avtonomiyasini himoya qiluvchi ta'lim nazariyalarida chuqur ildiz otgan. Konstruktivizm o'quvchilar bilimni faol ravishda qurishini ta'kidlaydi, gumanizm esa o'quv jarayonida individual vositachilikni ta'kidlaydi. Jan Piaget va Lev Vygotskiy kabi hurmatli o'qituvchilar uzoq vaqt davomida o'z-o'zini o'rganish tamoyillariga mos keladigan pedagogik yondashuvlarni qo'llab-quvvatlab kelishgan. O'quvchilar o'z-o'zini boshqarish bilan shug'ullanar ekan, ular nafaqat ma'lumotni o'zlashtiradilar, balki o'zlarining ta'lim sayohatlarida ichki motivatsiya, tanqidiy fikrlash va chuqur egalik hissini rivojlantiradilar.[1]

O'z-o'zini baholah ham shular qatorida muhim sanaladi ,chunki o'qituvchi hammaga birder muammo tashlaydi va bu jarayonda o'quvchilar o'zlarining javoblarini berishadi ,so'ngida o'qituvchi to'g'ri javobni e'lon qiladi. Almashinilgan ma'lumotlar orqali esa har bir o'quvchi o'z javobini to'g'ri noto'g'riligini o'zi mustaqil taxlil qila oladi va o'z-o'zini munosib baholay oladi ham . Hamda o'qituvchi ustidan shikoyat ,norozilik barham topadi .

-Fan: Darsliklar doirasidan tashqarida, interfaol ilmiy tajribalar nazariy tushunchalarni hayotga tatbiq etadi, qiziquvchanlikni va ilmiy tamoyillarni aniq tushunishni kuchaytiradi. O'quvchilar passiv kuzatuvchilardan faol tergovchilarga o'tishadi, bu esa izlanish va izlanishga bo'lgan ishtiyoqni uyg'otadi.

-Muhandislik: Muhandislik loyihalarida ishtirok etish o'quvchilarni tanqidiy fikrlash va ijodkorlik sohasiga undaydi. Loyihalash, qurish va takrorlash jarayonida ular muammolarni hal qilish, innovatsiyalar va muhandislik loyihalash jarayonini chuqurroq tushunish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni rivojlantiradilar.

San'at - Tasviriy san'at, musiqa yoki drama orqali ifodalangan san'at shunchaki darsdan tashqari mashg'ulotlar emas, balki ijodkorlik, muloqot va hissiy intellektni rivojlantirish uchun kuchli vositadir. Badiiy ifodalar yaxlit ta'lim tajribasiga sezilarli hissa qo'shadi, akademik sohadan tashqarida ko'nikmalarni rivojlantiradi.

-Matematika: Matematikaga asoslangan masalalar yechish faoliyati formulalarni eslab qolishdan tashqariga chiqadi. O‘quvchilar amaliy qo‘llanmalar bilan shug‘ullanadilar, matematik tushunchalarning real hayotiy ahamiyatini kashf etadilar. Ushbu yondashuv analitik ko'nikmalarni, mantiqiy fikrlashni va matematikani turli kontekstlarda qo'llash uchun chuqur minnatdorchilikni oshiradi.

Ta'lim olish jarayoniga kelsak, ko'rish imkoniyati cheklanganlikni ikki kategoriyaga ajratish mumkin. Bular ko'rish imkoniyatining past ya'ni ma'lum darajada cheklanganligi va ko'rlik ya'ni ko'rish imkoniyatining mutloq cheklanganligi. Ko'rish imkoniyati ma'lum darajada cheklangan talabalar chop etilgan materiallardan foydalana oladigan lekin qo'shimcha tarzda materiallar va turli asbob-uskunalar va jixozlardan ham foydalanadilar. Ko'rish imkoniyati yana boshqa turlu unsurlar ham o'z ta'sirini ko'rsatishi mumkin. Bular muhitning yrtarli darajada yoritilmaganligi, jismoniy charchoq va boshqa holatlar kabilar ham bo'lishi mumkin. Shuning uchun ko'rish imkoniyati cheklangan har bir shaxsning o'ziga hos individual xususiyatlari bo'lib har kimda o'zgacha bo'lishi mumkin. Ko'rish imkoniyati cheklangan talabalar oldida turgan asosiy qiyinchiliklardan biri ularning mavjud bo'lgan materiallardan foydalanish uchun maxsus shart sharoitlar asosida aynan ularga mos holdagi shaklda emasligidir. Ko'plab o'quv materiallarining visual yani grafik shaklda ekanligi ko'rish imkoniyati

cheklanganlar uchun ularni o'zlashtirish yo'lida qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Shuningdek ko'plab materiallarning video, kompyuter va televizor shakllarda yaratilayotgani ko'rish imkoniyati cheklanganlar uchun ularni o'zlashtirishda yanada qiyinchiliklarni keltirib chiqardi [2].

Albatta shu o'rinda ko'zi ojiz yoki ko'rish imkoniyati cheklangan talaba mavjud bo'lgan guruh yoki sinf bilan ishlaydigan o'qituvchilar e'tibor berishi kerak bo'lgan y o' riqnomalar mavj ud.

- O'qituvchi dars xonasiga kirganda yoki chiqib ketayotganda guruhga buni ovoz chiqarib bildirishi ma'qul.
- O'quvchilarga murojat qilayotganda turli ishoralardan ko'ra ularning ismi yoki familiyalarini aytgan holda murojat qilingani ma'qul.
- O'qituvchi yo'nalish va buyumlaming joylashuvini ko'rsatmoqchi bo'lganida ishora yoki "ana u", "mana bu", "u yerda", "bu yerda" degan noaniq so'zlardan ko'ra "o'ng tarafingizda", "chap tarafingizda", kabi aniq so'zlar ishlatilishi tavsiya etiladi.
- Mash g'ulotlarda grafik va rasmli materiallarni detallashtirgan holda aniq tasvirlab berishga harakat qilgan ma'qul.
- Tegishib va qo'llar yordamida ushlab ko'rish va his qilish mumkin bo'lgan narsalar va dars xonasini shu yo'lda tanishtiring.
- Mashg'ulotlar va sinf xonasidagi o'zgarishlar va yo'riqnomalarni og'zaki yetkazib berganingizga ishonch hosil qiling.
- Yozuv shaklidagi malumotlar yetkazib berilishi uchun albatta o'qib berilishni ta'minlang.
- Doimo ismingizni ishlatgan hold ava imkoniyati cheklangan talaba uchun tanib olish mumkin bo'lgan darajada gapiring.
- Ko'rish imkoniyati cheklanganlar harakati xavfsiz bo'lishi uchun yordamingizni taklif qiling va jixozlarni ularga qulay holatda tartiblang.
- So'zlaganda davom etishingiz yoki gapingiz tugaganini eslatib turing chunki ular hatti harakatingiz orqali buni anglab olish imkoniga ega emas.
- Ko'rish imkoniyati cheklangan insonga gapirgan da juda baland ovozda gapirishingiz talab etilmaydi. Ular diqqat bilan eshitishga o'rgangan bo'lishadi.

O'qituvchi o'quv materiiallarini taqdim etayotganda e'tibor berishi kerak bo'lgan jixatlar mavjud bo'lib, ular quyidagilar bo'lishi mumkin.

- Har bir so'zni aniq talaffuz qilib yoki kerak bo'lganda harflab aytgan halda ko'rish imkoniyati cheklangan talabaga va boshqalarga yordam bergan bo'lasiz.
- Yozuvlarni katalashtirilgan holarda berilishi yoki uch o'lchamli holatda taqdim etilgan buyumlar ko'rish imkoniyati qisman cheklangan talabalarga yordam berish mumkin.
- Proyektordan foydalanganda yozuvlarni yetarlicha kattalikda aks etganiga ishonch hosil qiling va keraksiz qismlarni berkitib qo'ying.
- Sinf doskasida yozilgan barcha malumotlarni og'zaki yetib borishini taminlanganligiga ishonch hosil qiling.
- Audio va video yozuvlar orqali grafik holatdagi ma'lumotlarni yetkazib berish samarali usul ekanligini hisobga oling.
- Uch o'lchamli va tegish hissi orqali anglash va idrok etish mumkin bo'lgan narsalardan keng foydalaning.
- Guruh taqdimotlarini tasmaga yozib olgan holda ko'rish imkoniyati cheklanganlarga taqdim etishni tashkillashtiring.

Chet tillarini o'qitishda ingliz tili ta'lim sohasining asosiy bo'laklaridan biri hisoblanadi. Chet tili kurslari va darslari har doim barcha yo'nalish va sohalar uchun zaruriy boshqa bir soha sifatida ko'rilgan. Shu bilan bir qatorda, chet tillarini o'qitish metodikasi va metodologiyasi doimiy o'zgarib bormoqda. Chet tilini korish imkoniyati cheklangan shaxslarga o'qitish ham o'zining murakkabliklari bilan til o'qituvchilari uchun yangidan yangi izlanishlarni talab etmoqda.

Chet tilini o'qitish asosan grafiklar va visual materiallarga asoslanganligi ko'rish imkoniyati cheklangtan til o'rganuvchilariga chet tillarini o'qitishda qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Chunki visual ma'lumotlar, xarita va chizmalar, diagrammalarda aks ettirilgan ma'lumotlarni o'zlashtirish ko'rish imkoniyati cheklanganlar uchun mustaqil amalga oshirilishi imkonsizdir. Bunda ma'lumotlarni o'zlashtira olmagan imkoniyati cheklangan talabalar ko'plab imkoniyatni qo'ldan boy beradilar. Shunday holatda mustaqil o'rganish uchun

ishtiyoq ular orasida yo'qolishi mumkin[3]. O'qib tushinish va yozuv ko'nikmasida aks etgan qiyinchiliklar barcha sohalar uchun odatiy holar bo'lishi mumkin lekin aynan chet tilini o'rganish sohasi uchun bu ayniqsa katta masala bo'lishi mumkin. Hujjatlardagi ma'lumotlar, matn mazmuni, so'zlarda urg'uni to'g'ri qo'yilishini aks ettirilmasligi bunday muammolar ichida eng yiriklaridir, Brayl yozuvini o'z ona tilisida o'rgangan odam uchun bu yozuvni chet tili uchun ham qo'llash ayniqsa imkoniyati cheklanganlar uchun qiyinchiliklarni vujudga keltiradi. Brayl yozuvida urg'u va ba'zi boshqa belgilarning bor ekanligi ularga yordam berishi mumkin lekin chalkashliklar hali ham juda ko'pligicha qolmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, suhbatdan o'tgan va darslari kuzatilgan ingliz tili o'qituvchilari O'zbekistonda ko'zi ojiz o'quvchilarni o'qitish uchun deyarli bir xil o'qitish usullari va materiallaridan foydalanganlar, bu esa ko'rish qobiliyati zaif o'quvchilarning o'qitishlari haqidagi oldingi tadqiqotlarga ziddir. Bundan tashqari, ular bir nechta qiyinchiliklar yoki muammolarga duch kelishdi va ularni hal qilish uchun nima qilish kerakligini bilishmaydi va shunchaki bir xil texnika va materiallardan foydalanishni davom ettirdilar. Buning sababi, ishtirokchilarning hech biri ko'rishda nuqsoni bo'lgan talabalarga ingliz tilini o'rgatish bo'yicha hech qanday rasmiy tayyorgarlikdan o'tmaganligidir. O'zbek milliy va mahalliy ta'lim boshqaruvchilari va oliy ta'lim siyosatini ishlab chiquvchilar uchun eng muhim xulosa shuki: ko'zi ojizlar maktablarida ishlaydigan ingliz tili o'qituvchilari uchun malaka oshirish dasturlari qayta ko'rib chiqilishi va yanada samaraliroq bo'lishi kerak. Shuningdek, EFL o'qituvchilarini tayyorlash dasturlari qayta ko'rib chiqilishi va alohida ehtiyojli talabalarni o'qitish bo'yicha kurslar kiritilishi kerak. Bunday kurslar ko'rish qobiliyati zaif o'quvchilarning verbalizmdan foydalanish kabi xususiyatlariga e'tibor qaratishlari kerak, shuningdek, tinglash va gapirish qobiliyatlarini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning ahamiyatini ta'kidlashlari kerak.

Ko'zi ojiz odamlar ingliz tilini tinglash va gapirish ko'nikmalarini yaxshi bilsalar, ishga joylashish imkoniyatlari ko'proq bo'lishi aniq. Ishtirokchilarning muhim da'vosi shundaki, har bir o'quvchilar guruhida bir nechta nogironligi bo'lgan

bir nechta o'quvchilar bor edi va bu ularga har bir sinfdagi barcha talabalar uchun mos keladigan o'qitish texnikasi va materiallarini tanlashni qiyinlashtirdi. Xuddi shu sinfga o'xshash xususiyatlarga ega o'quvchilarni biriktirish orqali kichik bir hil guruhlarni shakllantirish orqali bu muammoni bartaraf etish mumkin. O'qituvchilar talabalarga ko'proq yo'naltirilgan yondashuvni qo'llashlari va o'quvchilarning mustaqilligi tamoyillariga rioya qilishlari kerak. Ko'rish imkoniyati cheklangan o'quvchilarning ko'zi ojiz tengdoshlari bilan ko'proq muloqot qilish tendentsiyasini inobatga olgan holda, ko'rish qobiliyati zaif bolalarni ham qamrab olgan ta'lim muhitini yaratish kerak.

**Foydalanilgan adabiyotlar**:

1. Kashdan, S., Barnes, R., & Walsh, C. E. (2002, September). Teaching English as a new language to visually impaired and blind ESL students: Problems and possibilities. In A Celebration of Solutions. National Symposium on Literacy for Adults with Visual Disabilities, Atlanta, Georgia.
2. Ba§aran, S. (2012). Teaching English to visually impaired students in Turkey: A case study. Energy Education Science and Technology Part B: Social and Educational Studies, 2(217-226), 10.
3. McGaha, C. G., & Farran, D. C. (2001). Interactions in an inclusive classroom: The effects of visual status and setting. Journal of Visual Impairment & Blindness, 95(2), 80-94.
4. Co§kun, A. (2013). English language teaching for the visually impaired learners: Training non-native English teachers. international J. soc. sci. & education, 4(1),
5. Асроров, И. (2021). INDIVIDUAL FEATURES OF VISUALLY IMPAIRED STUDENTS. ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ, 4(3).
6. Asrorov, I., & Abdullayeva, G. (2020). MEASURES TO FIND OUT LEARNING DIABILITIES AND IMPROVE THE CONDITION FOR LD

# TA'LIM TIZIMIDA INKLYUZIV TA`LIMNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI

***Rahimjanova Mashhura Rustamjon qizi***
*Namangan davlat pedagogika instituti*
*Pedagogika fakulteti Maktabgacha ta`lim yo`nalishi 2- bosqich talabasi*
*Tel:+998939230026 E-mail:@rahimjanovamashhuraxon@gmail.com*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada O`zbekiston Respublikasiga inklyuziv ta`limni tatbiq etish masalalari, ustuvor vazifalari, hozirgi davr mobaynigacha qilingan farmon, farmoyish, qaror, qonunlar haqida batafsil bayon etilgan.*

***Аннотация:*** *В данной статье подробно описаны вопросы реализации инклюзивного образования в Республике Узбекистан, его приоритеты, указы, распоряжения, решения и законы, принятые к настоящему времени.*

***Annotation:*** *This article describes in detail the issues of implementation of inclusive education in the Republic of Uzbekistan, its priorities, decrees, orders, decisions, and laws made up to the present time.*

***Kalit so`zlar:*** *inklyuziv ta`lim, konsepsiya, konvensiya, imkoniyati cheklangan bola, qonun*

***Ключевые слова:*** *инклюзивное образование, концепция, конвенция, ребенок с ограниченными возможностями, закон.*

***Key words:*** *inclusive education, concept, convention, child with disabilities, law*

## KIRISH

Mashhur yozuvchi Devid Blanket: "Alohida ehtiyojli bolalarni tarbiyalash mamlakatimiz oldidagi asosiy vazifalardan biridir. Bu zarur shart har bir kishi o'z harakatlarining egaligi va dolzarbligini his qilishi mumkin bo'lgan chinakam inklyuziv jamiyatni yaratish. Biz har bir bolaning ehtiyojlari va boshqa sharoitlaridan qat'i nazar, o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi, jamiyatga hissa

qo'shishi va uning to'laqonli a'zosi bo'lishi uchun sharoit yaratishimiz shart",-deydi. Shu munosabat bilan mamlakatimizda bugungi kunda jismoniy yoki aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan 86 ta ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasasida 21 ming 363 bola ta'lim-tarbiya olmoqda. 13 ming 868 o'quvchiga esa uyda yakka tartibda ta'lim beriladi. 2025-yilgacha 40% imkoniyati cheklangan bolalar inklyuziv ta'limga jalb etilishi rejalashtirilmoqda.[1]

Bugungi kun talablari asosida inklyuziv ta'limni joriy etishning huquqiy asoslarini yaratish maqsadida yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni loyihasiga inklyuziv ta'lim tushunchasi kiritildi. Bu borada Prezidentimizning 2018 yil 5-sentyabrda qabul qilingan "Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori tizim rivojida muhim ahamiyat kasb etadi.

Tabiiyki, savol tug`ilishi mumkin? Inklyuziv ta'lim o`zi nima? O`zbekiston Respublikasida bu ta'lim tizimini joriy etish mumkinmi? Inklyuziv ta'lim (ingliz tilidan olingan bo'lib, in clusive, inclusion-uyg'unlashmoq, uyg'unlashtirish qamrab olmoq, qamrab olish ma'nolarini bildiradi nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni (diskriminatsiyani) bartaraf etish, maxsus ta'limga muhtoj bolalar, (ayrim sabablarga ko'ra nogiron bo'lgan) rivojlanishida uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat'iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan ta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimidir.[2]

Bugungi kundagi O'zbekistonning yangi qiyofasi ta'lim sohasidagi ijobiy o'zgarishlar bilan ham hamohangdir. Har sohadagi kabi nogironligi bo'lgan bolalar ta'limida ham jahonning ilg'or tendensiyalari asosida qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Sog'lom bolalar bilan bir qatorda u yoki bu alohida ehtiyojlari bor bolalarning o'qishini bolaning noyob hamda yashiringan imkoniyatlari uchun mos tashkil etish maqsadida huquqiy me'yorlar ishlab chiqildi. Mamlakatimizda bola huquqlarini himoya qilishning huquqiy asoslari yaratilib, bir qator qonunlar qabul qilindi va ularda bola huquqlari kafolatlab qo'yildi. O'zbekiston Respublikasi 1992-yilda "Bola huquqlari to'g'risida Konvensiya" (20-noyabr 1989-yil BMT tomonidan qabul qilingan) ni ratifikatsiya qildi. Ushbu Konvensiya BMTning bolalikni

muhofazalash borasidagi eng universal hujjatidir. O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunida bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish, kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik, sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish va boshqa qator ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega vazifalarni amalga oshirish kafolatlab qo'yilgan. Bundan tashqari oxirgi 5 yil mobaynida ta'limni isloh qilish, fuqarolarning bandligini ta'minlash orqali farovon hayot kechirish sharoitini ta'minlash masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.[3]

Vazirlar Mahkamasining 11-oktabr 2021-yildagi "Reabilitasiya markaziga ega bo'lgan davlat ixtisoslashtirilgan ko'p tarmoqli maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" gi 510-son qarori qabul qilindi. 2019-yil 16-dekabrdagi 595-sonli "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi qonuni O'zbekiston Respublikasi qonunining 17-moddasida inklyuziv guruhlarga ega maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarning alohida ta'lim olish ehtiyojlari va individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda, ularni sog'lom muhitga uyg'unlashtirish orqali ta'lim va tarbiya olishi uchun teng imkoniyatlar ta'minlanadi. Xususan, umumiy turdagi davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari to'g'risidagi nizom (13.05 2019 yildagi 391-son VMQ bilan tasdiqlangan) quyidagilar bilan to'ldirildi:

- rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan tarbiyalanuvchilar bilan ishlash texnologiyalari, usullari va shakllari ularning psixofizik rivojlanish xususiyatlari o'ziga xos imkoniyatlari va sog'lig'i holatidan kelib chiqqan holda, pedagog va tibbiy xodimlar tomonidan belgilanadi hamda maktabgacha ta'lim tashkilotining pedagogik kengashi bilan kelishiladi;

-har bir yosh guruhidagi mashg'ulotlar, o'yinlarming har yilgi soni, davom etadigan
-davri va izchilligi MTTning o'quv rejasida belgilanadi,

-MTTdagi inklyuziv guruhlarga qabul qilish uchun rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan bolalar qo'shimcha ravishda tibbiy-psixologik, pedagogik komissiyaning belgilangan tartibda berilgan xulosasi taqdim etiladi;

-ta'lim tashkilotida rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan, shu jumladan nutqida nuqsoni bo'lgan tarbiyalanuvchilar bilan korreksion-pedagogik mashg'ulotlarni o'tkazish uchun difektolog shtat birligi kiritiladi.[4]

Shu bilan bir qatorda 12-bob: "Bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotida parvarishlash, ovqatlantirish va ularga qarab turish uchun ota-onalar to'loviga o'zgartirishlar kiritildi.[5] Endi to'lov ota-onalar va MTT o'rtasida tuzilgan shartnomaga asosan amalga oshiriladi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirishda albatta ijtimoiy sheriklik jarayonlariga tayanish lozim. Bu borada ijtimoiy sheriklik asosan, davlat hokimiyati organlari va nogironlar jamoat tashkilotlari o'rtasida bo'lishi kerak. Chunki aynan, nogironlar jamoat tashkilotlari joriy o'quv yili davomida 7 yoshga to'lgan tarbiyalanuvchilar mazkur o'quv yilining so'ngiga qadar MTTda qoladi.Bundan tashqari, Nizom MTTda defektolog faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi yangi bob bilan to'ldirildi. Umumiy turdagi maktabgacha nogironligi bor shaxslarga nima muhimligi va keraklígi haqida davlat organlariga maslahat bera oladi Nogironligi bor bolalarni talablari va o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda maktabda to'siqsiz muhitni yaratishga yordam berishadi.

Mamlakatimizda tasdiqlangan hujjatlar asosida Xalq ta'limi vazirligi tomonidan rivojlanishida turli nuqsoni bo'lgan hamda davolanishga va sog'lomlashtirishga muhtoj bolalarning ijtimoiy kafolatlarini ta'minlovchi chora-tadbirlar samaradorligini yanada oshirish, ularning ta'lim-tarbiya olishiga xizmat qiladigan moslashuv muhitini yaratish bo'yicha alohida vazifalar belgilandi.

Mazkur belgilangan vazifalar ijrosi doirasida amalga oshirilayotgan ishlar xususida O'zA muxbiriga Xalq ta'limi vazirligi Bolalarni ijtimoiy himoyalash va qo'llab-quvvatlash boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari Suxrob Xoliqov quyidagilarni so'zlab berdi: "Inklyuziv ta'lim bo'yicha Yevropa Ittifoqi bilan hamkorlikda 2014-2016 yillarda amalga oshirilgan loyiha doirasida Respublikaning 5 ta hududida tajriba-sinov maydonchalari tashkil etildi. 153 nafar tibbiy-psixologik-pedagogik komissiya va 1350 nafar pedagog xodim inklyuziv ta'lim xizmatlariga o'qitildi. Ta'lim tizimiga inklyuziv amaliyotni tatbiq etish bo'yicha pedagog xodimlarni

qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutlarining oʻquv rejalariga 3 ta oʻqitish  moduli kiritildi. 2000 dan ortiq imkoniyati cheklangan bolalar va ularning ota-onalariga  inklyuziv ta’lim xizmatlari tashkil etildi. [6]

Rivojlanishida turli nuqsonlari boʻlgan hamda davolanish va sogʻlomlashtirishga muhtoj boʻlgan bolalarning ijtimoiy kafolatlarini ta’minlovchi sa'y-harakatlar, korreksion va reabilitatsion ishlar natijasida oxirgi besh yilda 500 nafarga yaqin mana shunday oʻquvchilarning umumiy oʻrta ta’lim maktablariga qaytishi ta’minlandi.

Oʻzbekistonda inklyuziv ta’limni takomillashtirish, alohida ta’lim ehtiyojlari boʻlgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini shakllantirish hamda ularga koʻrsatiladigan ta’lim xizmatlari sifatini yaxshilashga qaratilgan Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 13-oktyabrda “Alohida ta'lim ehtiyojlari boʻlgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada  takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori qabul qilindi. Mazkur qaror bilan 2020- 2025 yillarda xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi. Konsepsiyani amalga oshirish boʻyicha 2020-2021 yillarga moʻljallangan “Yoʻl xaritasi” tasdiqlandi.[7]

## XULOSA

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida imkoniyati cheklangan bolalarga korreksion-pedagogik yordam ko’rsatmasdan, oilalar bilan muloqotda bo’lib turmasdan, maxsus o’quv adabiyotlar bilan ta’minlanmasdan ular uchun alohida sharoit yaratmasdan turib integratsiya yoki inklyuziv ta'limni amalga oshirish ijobiy natija bermaydi. Bunday yondashish jismoniy integratsiya turiga kiradi.

Yuqorida keltirilgan muammolarni hal qilish uchun quyidagi masalalar o'z yechimini topishi zarur Imkoniyati cheklangan bolalar ta'lim-tarbiyasining uyg'unlashuvi uchun ularni ilk yoshdan aniqlash, tashxis qo'yish, ta'lim olishi uchun tegishli tashkilotlariga yo'llash, uzluksiz maxsus ta'limning muqobil turlarini rivojlantirish zaruriyati mavjud. Psixik va jismoniy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ta'lim olishi uchun shart-sharoitlar yaratish, uy sharoitida tarbiyalanayotgan bolalar ta'lim mazmuni ularning imkoniyati va ehtiyojlaridan

kelib chiqqan holda belgilash, individual dasturlarni ishlab chiqish, ota-onlar va pedagoglar uchun inklyuziv ta'lim yo'nalishida o'quv-metodik adabiyotlarni ishlab chiqish ta'limga zamonaviy pedagogik, axborot texnologiyalarni jalb qilish, internet tarmoqlari orqali masofa o'qitishning tashkil etish jamiyatimiz va mutaxassislar oldida turgan vazifadir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi qonuni 2019-yil 16-dekabrdagi 595-sonli "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" gi qonun.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi "Maktabgacha ta'lim tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risidagi" 802-sonli qaror.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazırlar Mahkamasining 11.08.2021-yildagi "Reabilitatsiya markaziga ega bo'lgan davlat ixtisoslashtirilgan ko'p tarmoqli maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" gi 510-son qarori

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 13.05.2019 yildagi 391-son qarori "Umumiy turdagi davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari to'g'risidagi nizom"

5. R.Sh. Shomaxmudova "Maxsus va inklyuziv ta'lim xalqaro va milliy tajribalar"- o'quv uslubiy qo'lanma.Toshkent 2011.

6. "Inklyuziv ta'lim" - o'quv uslubiy qo'llanma. Toshkent 2019.

7. "Inklyuziv ta'lim asoslari" -o'quv uslubiy qo'llanma.Urganch 2020.

## IJTIMOIY PEDAGOGIKA;

# MA’NAVIYAT KATEGORIYALARINING XALQ MAQOLLARIDA AKS ETISHI

***Mamatov Obidxon Vaqqosovich***
*Namangan davlat pedagogika instituti dotsenti*
***Abduvohidov Qobiljon Komiljon o’g’li***
*Namangan davlat pedagogika instituti Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi (Ma‘naviyat asoslari) mutaxassisligi magistranti*
***E-mail** : abduvohidovqobiljon2001@gmail.com **tel** +998937884540*

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada inson va jamiyat uchun muhim tushunchalardan sanalgan ma’naviyat va uning kategoriyalarinig o’ziga xos jihatlarining xalq maqollaridagi o’rni va ahamiyati haqida fikr va mulohazalar bayon etilgan.*

***Kalit so’zlar:** Ma’naviyat, kategoriyalar, maqollar, lingvoma’naviyatshunoslik, halollik, tarbiya.*

***Annotation:** This article presents thoughts and opinions about the place and importance of spirituality and its categories, which are important concepts for people and society, in folk proverbs*

***Key words:** Spirituality, categories, proverbs, linguistics, spirituality, honesty, education.*

***Аннотация:** В данной статье представлены мысли и мнения о роли и значении духовности и ее категорий в народных пословицах, которые являются важными понятиями для человека и общества.*

***Ключевые слова:** Духовность, категории, пословицы, языкознание, духовность, честность, образование.*

Buyuk xalqimizning uzoq yillik orzu umidlari natijasi bo’lmish mustaqillikni qo’lga kiritganimizdan keyin ta’rixan qisqa muddatlarda mamlakatimizda iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy sohalar bilan birgalikda ma’naviy sohada ham islohotlar qilish zarurati yuzaga keldi. Chunki o’sha davrlarda xalqimiz ongida sobiq sho’rolar tuzumi davridagi ma’naviy dunyoqarash saqlanib qolgan edi. Va bu holat ma’naviyatni mustaqil soha sifatida o’rganilishini kun tartibiga qo’ydi. Shuning uchun ham O’zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Abdug’aniyevich Karimov tomonidan mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ma’naviyatga juda katta etibor berildi. Xususan, Oliy Majlisning Birinchi chaqiriq, Birinchi sessiyasida so’zlagan nutqida: “Taraqqiyot taqdirni ma’naviy jihatdan yetuk odamlar hal qiladi, Texnikaviy bilim murakkab texnalogiyalarni egallash qobiliyati ma’naviy barkamollik bilan, mustaqil tafakkur bilan borishi kerak. Aqliy zakovat va ruhiy-ma’naviy salohiyat –ma’rifatli insonning ikki qanotidor” [1] deb ta’rif bergan edi.

Ma’naviyat juda keng qamrovli tushuncha bo’lib unga aniq bir ta’rif berish mushkuldir. Ma’naviyat ko’proq insonnig ruhiy olamiga bog’liqligi bilan boshqa tushunchalardan ajralib turadi. Shu sababli ham ma’naviyatga ta’rif berish jarayonida milliy qadriyatlarimiz, tarixiy, madaniy merosimiz va ajdodlarimizning nazariy qarashlariga chuqur e’tibor berishimiz kerak . Ma’naviyat tushunchasiga eng munosib ta’riflardan birini Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug’aniyevich Karimov o’zining “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” asarida quyidagicha beradi. “ Ma’naviyat-insonni ruhan poklanish, qalban ulg’ayishga chorlaydigan, inson ichki dunyosini, irodasini baquvvat, imon-e’tiqodini butun qiladigan vijdonini uyg’otadigan kuch, uning barcha qarashlar mezonidir” [2]. Darhaqiqat insonda qachonki shunday mezonlar vujudga kelsagina, biz uni ma’naviyatli deya olishimiz mumkin bo’ladi. Shu bilan bir qatorda ma’naviyat yuksak shakllanganlik darajasi nafaqat shaxsda balki oila va jamiyatda bo’lishi kerak hisoblanadi. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining

hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishi davomida so'zlagan nutqida :" Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir"[3] degan ta'rifi bilan bugungi kunda ma'naviyatning naqadar muhim ahamiyatga ega ekanligini yana bir bor isbotladi.

Kategoriya so'zi yunon tilidan olingan bo'lib mulohaza, fikr, belgi degan ma'nolarni bildiradi. Falsafada esa voqealikdagi hodisalar va bilishning muhim, umumiy xususiyat hamda munosabatlarini aks ettiruvchi eng umumiy va asosiy tushunchalardir deb ta'rif berilgan. Har bir fanning o'z kategoriyalari bo'lib, bu kategoriyalar shu fanning xususiyatlarini ko'satib turadi. Ma'naviyatning kategoriyalari sifatida shaxs, jamiyat, millat hayoti bilan bevosita chambarchas bog'liq bo'lgan quyidagi tushunchalarni keltirish mumkin: shaxsning o'z-o'zini anglashi, bilimdonlik, qalbi tozalik, saxiylik, halollik, vijdonlilik, rostgo'ylik, poklik, adolatparvarlik, ota-onaga hurmat va hokazolar. Bu kategoriyalarning barchasi xalqimiz hayotida o'zining tub mohiyatiga ega . Shu bilan birga donishmand xalqimiz hayotida bu kabi kategoriyalar bugun yoki kecha vujudga kelgani yo'q. Balki xalqimizning ming yillar davomida o'z boshidan o'tkazgan qiyinchiliklari , sinalgan ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-madaniy, axloqiy-falsafiy, diniy qarashlarining mahsuli hisoblanadi.

Maqol so'zi arabcha "qavvola" so'zidan olingan bo'lib "aytmoq so'zlamoq " degan ma'nolarni anglatadi. Maqollar insonlarning turli sohalardagi faoliyati jarayonida sinovdan o'tgan turmush tajribalari natijasi bo'lib: barqaror, o'zgarmas va haqqoniy tajribasi natijasi sifatida vujudga kelgan hisoblanadi. Maqollar ma'lum vaziyatda, ma'lum voqea-hodisa munosabati bilan fikrni boshlash oldidan, yo fikr bayoni jarayonida, yo fikr yakunida ishlatilishi mumkin. Bu orqali so'zlovchi o'zining fikrini tinglovchilarga aniqroq va teranroq yetkazishga muvaffaq bo'lishi tabiiy. Maqollardan kundalik ish jarayonida, oddiy va jiddiy munozaralarda hamda to'y hashamlarida foydalanilishi mumkin. Va bu orqali tinglovchilarda turli xil kechinmalarni vujudga keltirishi tabiiy. Lekin barcha bir xil xulosaga keladi. Bunga sabab

shuki bu hukmlar avvalo asrlar davomida sayqallanib turmush tajribalarida qayta-qayta sinalib ta'rix hikmatiga aylanganligi hisoblanadi. Shu bilan birga maqollarda mantiq kuchi baland, fikr ishonarli va bahslashishga o'rin qoldirilmagan. Mustaqillikdan keyin tilshunoslikning "lingvoma'naviyatshunoslik" sohasi ham e'tibordan chetda qolmadi. Lingvoma'naviyatshunoslikda ,"ma'naviyat" leksik-semantik guruhi, uning til xususiyatlari keng qamrovda o'rganilib kelinmoqda. Xususan, ,,Ma'naviyat" kategoriyalarining xalq og'zaki ijodining maqol janri bilan ham uzviy aloqada ekanligi e'tiborga molikdir. ,,Ma'naviyat" umumiy semali maqollarning leksik- semantik xususiyati shundan iboratki, har bir maqol zamirida inson ma'naviyatini yuksaltirish g'oyasi mavjudligidir. ,,Maqollar ko'p asrlik hayotiy tajribalar, doimiy kundalik kuzatishlar xulosasini tugal fikr tarzida qat'iy qutbiylikda ifodalar ekan, ularda har bir so'zning ma'no xilmaxilligi, iboralarning turg'unligi, shakliy barqarorlik ustunlik qiladi''.[4]

"Mehnatingni halol qilsang, Huzurini ko'rasan" [4] maqolida insonlarni halol mehnat qilishga chorlab. Buning natijasida huzur halovatga erishishlari mumkinligi haqida fikr yuritilayotgan va ularni halollikga chorlayotgan bir vaqtda "Tekin topgan mol yomon, Oxiri qo'ymas omon". "Tekin to'n qimmatga tushar"[4]. Maqollari orqali qing'ir yo'llar bilan topilgan mulklar oxirida ayanchli oqibatlarga olib kelishi mumkinligi haqida ogohlantirilib insonlarni doimo halol va birovning haqqiga xiyonat qilmasliklari targ'ib qilinyapti.

Jannat onalar oyog'i ostida,
Otangni quyosh deb bilsang, onangni oy deb bil!

Yuqoridagi maqollar orqali xalqimizning ma'naviy dunyoqarashida asrlar davomida shakllanib kelgan ota-onaga bo'lgan muhabbat ,mehr-muruvvat va hurmat qanday bolishi kerakligi majoziy o'xshatishlar orqali insonlar ongiga yetkaziladi.Va buning natijasida o'laroq ota-onaga hurmat ko'rsatish orqali farzandlarga yorqin kelajak ta'minlanishini ma'lum bir ma'noda bashorat qilinadi.

To'g'ri bola o'stirsang, Xalq ichida sher bo'lar.
Egri bola o'stirsang, Ikki ko'zi ko'r bo'lar.

Bu ikki maqollarda ma’naviyatning oilaga nisbatan sadoqat , farzand tarbiyasiga nisbatan vafodorlik kategoriyalari o’z aksini topgaan desak mubolag’a bo’lmaydi. Agar farzand tarbiyasiga oid vazifalar ota-ona tomonidan o’z vaqtida va samarali tarzda tashkil etilsa, farzandlar ulg’aygandan keyin xalqga manfaat keltiradigan inson bo’lib yetishishi go’yalari yuksak darajada mahorat bilan aks etadi. Vaholangki tarbiya jarayonida bolaning ma’naviy dunyoqarashi to’g’ri shakllantirilmaydigan bo’lsa bu oxir oqibat ota-onaning jigar porasiga nisbatan mudhish holatlar bilan yakunlanishi mumkinligi haqida ularni ogohlantiriladi. Shu bilan bir qatorda Imom G‘azzoliy tarbiya haqida quyidagi fikrlarni bayon etadi: “Bolalar ota-onalariga berilgan bir omonatdir. Bolaning qalbi har qanday naqsh-u tasvirdan xoli bir qimmatbaho gavhardir. U qanday naqsh solinsa, qabul qiladi, qayoqqa bukilsa, egiladi. Agar yaxshilikka o‘rgatilsa, shu bilan o‘sadi va dunyo-yu oxiratda saodatga erishadi. Uning savobiga ota-onasi ham, har bir muallim-u ustozlari ham sherik bo‘ladilar. Agar yomonlikka odatlantirilsa, hayvonlardek o‘z holiga tashlab qo‘yilsa, oxir-oqibat halok bo‘ladi. Gunohi esa uning tarbiyasi uchun javobgar bo‘lganlarning gardaniga tushadi”[5].

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak bugungi kunda xalqaro miqyosida insonlarning ongi va shuuri uchun kurash kechayotgan bir vaqtda, biz xalqimizni uzoq vaqtlar davomida ajdodlarimiz hayotida sinalib sayqallanib bizgacha yetib kelgan yuksak darajada shakllangan ma’naviyatning kategoriyalarini xalq maqollarida tasdig’ini ko’rsatish bilan ularda ma’naviy jihatdan kuchli bo’lgan immunitet hosil qilishimiz mumkin.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1.Karimov.I.A. O’zbekistonning siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari.-T.:”O’zbekiston”,1995.-B.29

2. Karimov.I.A. yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch.-T.:”Ma’naviyat”,2008.-B.13

3.Sh.Mirziyoyev. http://isrs.uz/oz/ozbekiston-yangiliklari/shavkat-mirziyoyev-jamiyat-hayotining-tanasi-iqtisodiyot-bolsa-uning-joni-va-ruhi-manaviyatdir

4. T.Mirzayev. ,,O'zbek xalq maqollari" –T.: ,,Sharq" , 2005.-B.2.5.16
5. https://iiau.uz/oz/news/2113

## MILLIY QADRIYATLAR VA TA'LIM TARBIYANING UYG'UNLIGI

***Kenjayev Burgutali Qovuljon o'g'li***
*NamDPI,Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi o'qituvchi-stajyori*
***Sultanova Zarina Abdujabbor qizi***
*NamDPI, Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi talabasi*
*Tel: +998-93-484-60-03 E-mail: sultanovazarina965@gmail.com*

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada yoshlarni milliy qadriyat uyg'unligida tarbiyalash, ma'naviy yetuk bo'lib yetishishlarida ta'lim-tarbiyaga e'tiborni kuchaytirish, mustaqilligimiz sharofati bilan amalga oshirilayotgan barcha islohotlar va yaratilayotgan shart-sharoitlarning qadriga yetish va ularni yanada kuchaytirish haqida so'z boradi. Shuningdek, O'zbekiston yoshlari o'z xalqining tarixi, milliy an'analari va o'zligini anglashda ta'lim-tarbiyani muhim omil sifatida baholashliklari lozim ekanligi ta'kidlangan.*

***Абстрактный.*** *В данной статье говорится о воспитании молодых людей в гармонии с национальными ценностями, большем внимании к образованию в их духовной зрелости, понимании и укреплении всех реформ и условий, созданных нашей независимостью. Было отмечено, что молодежь Узбекистана ценит образование как важный фактор понимания связи поколений и самобытности национальных традиций истории своего народа.*

***Abstract.*** *This article talks about raising young people in harmony with national values, paying more attention to education in their spiritual maturity, appreciating and strengthening all the reforms and conditions created by our independence. . It was mentioned that the youth of Uzbekistan value education as an important factor in understanding the connection between generations and the identity of the national traditions of the history of their people.*

***Kalit so'zlar***. *Milliy qadriyat, an'ana, ma'naviyat, ta'lim-tarbiya, islom dunyosi, dunyoviy ta'lim, o'zlikni anglash, ma'naviy rivojlanish*

***Ключевые слова.*** *Национальная ценность, традиция, духовность, образование, молодежь, исламский мир, светское образование, самосознание, духовное развитие*

***Keywords.*** *National value, tradition, spirituality, education, youth, Islamic world, secular education, self-awareness, spiritual developmen*

## KIRISH

Insoniyat yaralibdiki, o'z an'analarini asrash, unga sodiq qolish va kelajak avlodga ohorini saqlagan holda yetkazib berishga harakat qiladi.Hozirgi milliy qiyofamiz, takrorlanmas va betakror fazilatlarimiz,ming yillik an'ana va qadriyatlarimizni asrab qolganimizdan dalolatdir. Insoniyatning ming yillik tarixiy tajribalari shuni ko'rsatadiki, milliy an'ana va qadriyatlar o'z-o'zidan paydo bo'lib qolgan emas. Ularning qadriyatga aylanishi uzoq vaqtni talab qilgan. Shuni aytib o'tish ham kerakki an'analar, urf-odatlar avlodlar tomonidan qabul qilinsa, davom ettirilsa, aynan shuni qadriyat yoki urf-odat deya bemalol ayta olamiz. Yer yuzidagi har bir xalqning o'ziga xos an'ana va qadriyatlari mavjud bo'lib, ular aynan shu an'analari bilan yaqqol ajralib turadi. O'zbek xalqining ham ahamiyatga molik bo'lgan, xalqning tarixini, hayotini ko'rsatib beradigan, uning ma'naviyatini yuksaltiradigan urf-odatlari, an'analari yetarlicha.

Ma'naviyat haqida so'z ketganda shuni aytish joizki,har bir shaxs,avvalo, oilada ta'lim-tarbiya oladi. Jamiyatimizda o'sib-ulg'ayayotgan har bir bolani odobli, tarbiyali, ma'nan yetuk qilib tarbiyalash orqali u jamiyatdagi voqeliklarni tahlil qila oladigan, ko'z qorachig'dek asrab-avaylanayotgan milly qadriyatlarni kelajak avlodga asl holicha yetkazib bera oladigan avlod bo'lib yetishadi.

Shu asnoda,birinchi Prezidentimiz I.Karimov ham o'zining " Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asarida shunday degan edi: "Ma'naviyatni shakllantirishga bevosita ta'sir qiladigan muhim hayotiy omillardan biri bu ta'lim-tarbiya tizimidir. Ma'lumki ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo'lmish ilmu

ma’rifat ta’lim va tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb bilgan. Albatta, ta’lim-tarbiya ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan ya’ni xalq ma’naviyatini shakllantiradigan va boyitadigan eng muhim omildir. Binobarin, ta’lim-tarbiya tizimini va shu asosda ongni o‘zgartirmasdan turib, ma’naviyatni rivojlantirib bo‘lmaydi.[1]

Darhaqiqat, ma’naviyat bu insonga ezgulik va yovuzlikni farqlay olishda ko‘maklashadigan, axloqiy tarbiyasini shakllantiradigan, o‘z xatti-harakatlarini nazorat qilishda yordam beradigan bir mezondir desak, yanglishmagan bo‘lamiz. Bilamizki,Temuriylar davrida Movaraunnahr va Xurosonda ta’limga e’tibor, ilm-fanga homiylik davlat siyosati darajasiga chiqqan. Amir Temur Turon yurtidagi madrasalarga dars berish uchun islom dunyosining taniqli olim-u ulamolarini madrasalarda dars berishga jalb qilgani hech kimga sir emas. Bu bilan buyuk bobomiz o‘z xalqini ma’naviyati boy, ta’lim-tarbiyada yetuk qilib shakllantira oldi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.Chunki oddiygina misol tariqasida olishimiz mumkin, Mirzo Ulug‘bek o‘z davrining bilimli, dono va buyuk mutafakkiridir. Yoki xonliklar davrini oladigan bo‘lsak , ushbu davrda dunyoviy bilimlarga qaraganda diniy ta’limni roli kuchayib ketadi va buning oqibatida fan-texnika yutuqlaridan birmuncha ortda qolib ketadi. Mening o‘ylashimcha esa inson ham diniy ham dunyoviy ta’limni teng olib ketishi darkor, shundagina imoni butun, g‘ayrati jo‘shqin adolatli dunyo bilan hamnafas bo‘lgan yoshlar yetishib chiqadi. Ta’lim-tarbiyani rivojiga yana bir misol qilib jadidlar davrini olishimiz mumkin. Ushbu jadidlar davrida yoshlar dunyoviy ta’limni o‘rganib uni qadriyat sifatida bizga kiritdi. Yoshlarni ta’lim olishida yangicha uslullar yaratildi, va bu bilan ilm-u ma’rifatni ta’lim-tarbiyani hayotning bir bo‘g‘iniga aylantirib bebaho boylik deb atalmish yurtimiz kelajagini gullab-yashnashiga sababchi bo’ladigan farzandlar yetishadi deb o’ylayman.

Albatta inson bu hayotda yashar ekan, avvalo, chiroyli hayot kechirish, bilim olish, yaxshi joylarda ishlashni orzu qiladi. Ana shu istaklarni ro‘yobga chiqishi uchun esa uning ongiga uning hayotiga, ta’lim va tarbiyani yaxshi singdirish lozim.

Chunki bolaga oilada tarbiya maktabda ta'lim yetarlicha berilsa, u vatanparvar yurt tinchligi, oila farovonligi uchun qaygʻuradigan ma'nan yetuk shu bilan birga moddiy va ma'naviy hayotni teng olib bora oladigan farzand boʻlib yetishadi.

Shu bois bu ta'lim sohasida rasmiy yondashuvlarga puxta oʻylanmagan ishlarga mutlaqo yoʻl qoʻyib boʻlmaydi. Maktab ta'lim-tarbiya masalasi davlat va jamiyat nazoratida boʻlishi Asosiy qonunimizda ham belgilab qoʻyilgan. Shu bilan birga bu keng jamoatchilik -butun xalqimizning ishtiroki va qoʻllab-quvvatlashini talab qiladigan umummilliy masaladir. Kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi. Boshqacha aytganda, xalqmizning ertangi kuni qanday boʻlishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim-tarbiya olishiga bogʻliq. Buning uchun har qaysi ota-ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo buyuk shaxsni koʻrishi zarur. Bu esa ta'lim va tarbiya ishini uygʻun holda olib borishni talab etadi.[1]_Oʻzbekiston bugun va ertadan keyin ham oʻz mustaqilligini himoya qilishi uchun koʻp millatli yurtimizni himoya qilishlari uchun har bir yosh avlodni milliy qadriyatlar va milliy g'oya ta'sirida ulg'aytirishimiz kerak.

Pedagogik qadriyatlar-bu pedagogik faoliyatga xos bo'lib, ular nafaqat pedagogik ehtiyojlarni qondirishga imkon beradi, balki uning ijtimoiy va kasbiy faoligini o'zida ifoda etadi. Pedagogik qadriyatlar hayotda o'z-o'zidan tasdig'ini topmaydi. Ular jamiyatdagi ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy aloqalarga bog'liq. [2] Hammaga ayonki, biz axborot texnologiyalari davrida yashayapmiz va doimiy tarzda internetdan, axborot tizimlaridan foydalanamiz, turli xil ko'rsatuv, reklama va kinolar tomosha qilamiz. Buning natijasida ma'naviy hayotimizga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan turli qadriyatlarning hayotimizga, turmush tarzimizga kirib kelishiga o'zimiz imkon beramiz, o'zimiz sharoit yaratamiz.

Shuni aytishimiz kerakki, pedagogik qadriyatlarning xilma-xilligi ularni umumiy tarzda ta'limiy tarbiyaviy qadriyatlar deb aytishga imkon beradi. Tarbiyaviy qadriyatlar ijtimoiy hayot va inson ongida xilma-xil muddatlarda mavjud bo'lishi mazkur qadriyatlarning barcha jamiyatlar uchun bir xil ahamiyatga ega bo'lmasligi, tarbiyaviy tizimlarda mavjud bo'la olishi va pedagogik samaradorlikni belgilashga xizmat qiladi.[3].Ushbu qadriyatlar tizimida inson

o'zining qadriyat tushunchalariga muvofiq faoliyat orqali o'zini amalga oshiradi. Milliy qadriyatlar milliy muhitning tarkibiy qismidir, ammo bu ularning shaxsga avtomatik ta'sirini anglatmaydi, atrof-muhitga ta'sir qilish uchun madaniy qadriyatlar bilan faol aloqa qilish kerak.

Bugungi kunda ta'lim-tarbiya jarayonining oldida turgan dolzarb vazifalardan biri barkamol shaxs tarbiyasida milliy qadriyatlar va urf-odatlardan foydalanishdir. Ayni paytda, yurtimizda ma'nan yetuk hamda barkamol bo'lgan shaxsni voyaga yetkazish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Bu xususda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning: "O'zbekiston millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik sohasida o'z an'analariga doimo sodiq bo'lib, bu yo'ldan hech qachon og'ishmasdan ilgari boradi. Biz bugun ko'p millatli xalqimizga, barchamizning umidimiz va suyanchimiz bo'lgan yoshlarimizga ishonib, marrani katta olmoqdamiz. Aziz farzandlarimiz, nabiralarimiz baxtini, kamolini o'ylab, el-yurtimizning xalqimizning yorug' kelajagini ko'zlab, oldimizga ulkan vazifalar qo'ymoqdamiz. Niyati ulug' xalqning - ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi", - degan jumlalarini keltirib o'tishimiz o'rinli deb o'ylayman. Shu o'rinda aytib o'tish joizki, ta'lim-tarbiya jarayonida milliy qadriyat va an'analarning ahamiyati katta bo'lib, ular tarbiya jarayonida eng ta'sirchan qurol vazifasini bajaradi desak noo'rin bo'lmaydi.[4]

O'zbekiston yoshlari o'z xalqining tarixi va an'analari, milliy madaniyati, avlodlar o'rtasidagi aloqa, o'zlikni anglash va o'ziga xoslikni muhim omil sifatida baholaydi. Hozirgi kunda dunyoda globallashuv jarayonining tezlashishi hisobiga dunyo xalqlari o'rtasidagi o'zaro aloqalar ham ortib bormoqda. Tabiiyki, O'zbekiston ham bundan chetda turgani yo'q va bu holat yoshlarimiz tarbiyasiga, fikrlashiga umuman hayotiga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, jamiyat yoshlar ongida ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirmasdan yoxud mustahkamlamasdan turib o'z istiqboliga erisha olmaydi, shuningdek har bir davlat o'sib kelayotgan kelajak avlodni o'z milliy qadriyatlari, an'ana va urf-odatlari negizida tarbiyalashi uchun o'z taqdirini o'zi belgilash huquqiga ya'ni mustaqillikka erishgan bo'lishi kerak.

Darhaqiqat,ta'limni isloh etish uchun tarbiyani ham ushbu jarayonga hamohang ravishda olib borish oʻz samarasini bermay qolmaydi.Negaki tarbiyaning shakllanganligi bevosita tartib va intizom mustahkamligini taminlaydi. Intizomning qat'iyligi boʻlgan joyda esa ilm olish muntazamligi ortib, natija yana bir karra yuqoriroq boʻladi.Shuning uchun ham bugungi davlat siyosatida ta'lim va tarbiyaning uzviyligini ta'minlash hamda uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish ustuvor maqsad sifatida belgilab olingan.Zero,mustaqil vatanimiz kelajagi yoshlar qoʻlida ekan,ularning ajdodlarga munosib kamolga yetishishlari aynan milliy qadriyatlarning ta'lim hamda tarbiyaga uygʻunligi asosida amalga oshadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1) I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" Toshkent. "Ma'naviyat" 2008. 61-bet.
2) https://cyberleninka.ru/article/n/talimda-pedagogik-qadriyatlar
3) https://cyberleninka.ru/article/n/ozbekistonda-milliy-qadriyatlar-va-millatlararo-totuvlik
4) https://cyuberleninka.ru/article/n/talim-tarbiya-jarayonida-milliy-qadriyatlarning-o-rni

# FUQAROLIK MUNOSABATLARINI TARTIBGA SOLISH – MAMLAKAT TARAQQIYOTI SARI YANA BIR MUHIM QADAM

***Kenjayev Burgutali Qovuljon oʻgʻli***
*NamDPI, Ijtimoiy gumanitar fanlarni oʻqitish*
*metodikasi kafedrasi stajyor-oʻqituvchisi*
***Sadullayeva Gulnoza Azamat qizi***
*NamDPI, Milliy gʻoya, ma'naviyat asoslari*
*va huquq ta'limi yoʻnalishi talabasi*

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada fuqarolik huquqiy munosabatlarning paydo boʻlishi va ularning xususiyatlari, ularning mazmun mohiyati va ushbu munosabatlarning asosiy ishtirokchilari haqida soʻz boradi. Bundan tashqari,*

*mamlakatimizda yaratilayotgan qonunlarni qadimgi Rim davlati bilan taqqoslanishi haqida so'z yuritiladi.*

***Kalit so'zlar:*** *Fuqarolik huquqiy munosabatlar, fuqarolik huquqiy munosabat ishtirokchilari, fuqarolik huquqiy munosabat subektlari, shaxsiy va shaxsiy nomulkiy huquqlar*

***Аннотация:*** *В данной статье говорится о возникновении гражданских правоотношений и их характеристике, их содержании и основных участниках этих отношений. Кроме того, мы поговорим о сравнении законов, созданных в нашей стране с древнеримским государством.*

***Ключевые слова:*** *Гражданские правоотношения, участники гражданских правоотношений, субъекты гражданских правоотношений, личные и личные неимущественные права.*

***Abstract:*** *This article talks about the emergence of civil legal relations and their characteristics, their content and the main participants of these relations. In addition, there is talk of comparing the laws being created in our country with the ancient Roman state*

***Key words:*** *Civil legal relations, participants of civil legal relations, subjects of civil legal relations, personal and personal non-property rights*

## KIRISH

Mamlakatimizda amalga oshirib kelinayotgan barcha islohotlar fuqarolik muomalasi ishtirokchilari bilan bog'liq munosabatlarni huquqiy tartibga solish bilan bevosita bog'liqdir. Darhaqiqat, ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda fuqarolarimiz huquqiy ong va huquqiy madaniyatini va qolaversa, o'z mulkiy va shaxsiy huquqlarini himoya qilish borasida ham bir qancha amaliy ko'nikmalarga ega bo'lib kelishmoqda. Huquq nazariyasidan barchamizga ma'lumki, kishilar muayyan jamiyatda, muayyan mamlakatda va muayyan davlatda o'zaro bir-birlari bilan ijtimoiy munosabatga kirgan holda yashaydilar. Ushbu ijtimoiy munosabatlar orqali ular

o'zlarining ehtiyojlarini qondiradilar va o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqaradilar. Bu esa albatta, fuqarolik huquqiy munosabatlarning asosini tashkil etadi.

Fuqarolik huquqi-mamlakatimiz huquq tizimidagi yetakchi huquq tarmoqlaridan biri hisobalanadi. Biz bilamizki, mamlakatimizda amalga oshirib kelinayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning asosiy sababchilari bo'lgan fuqarolik subektlari asosiy o'rinni egallaydi. Ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish esa davlatimizning eng ustuvor vazifalaridan biridir.

Fuqarolik huquqi rivojlangan har qaysi huquq tizimining mustaqil va muhim sohalaridan biri hisoblanib u qadimgi Rim davlatida shakllangan huquq tizimining dastlabki poydevori sifatida vujudga kelgan. o'sha davda sodir etilgan barcha hatti-harakatlar,dastlab fuqarolik huquqiy normalar bilan tartibga solinganligi, keyinchalik fuqarolik huquqining keng qamrovli rivojlanishiga, ijtimoiy hayotdagi ahamiyatining ortishiga, huquq sohalari qatoridagi egallangan mavqeining mustahkamlanishi va o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Bugungi kunda jamiyatimiz hayotida shunday o'zgarishlar sodir bo'lyaptiki, fuqarolik huquqiy munosabatlarini tartibga solish va uni keng ommaga tadbiq qilish va amalga oshirib kelinayotgan keng ko'lamli islohotlar hech birimizni e'tiborsiz qoldirayotgani yo'q.

**Fuqarolik huquqiy munosabat** deb yuridik jihatdan teng bo'lgan shaxslar o'rtasida bo'ladigan va fuqarolik-huquqiy normalar bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlarga aytiladi. Fuqarolik-huquqiy munosabatlar ijtimoiy munosabat sifatida shaxslar ,kishilar o'rtasidagi munosabat bo'lganligi uchun ham unda qatnashuvchilarni erk-irodasi orqali vujudga keladi. Fuqrolik-huquqiy munosabatlarda keltirilgan shaxslarning erklari va o'zaro manfaatlari fuqarolik-huquqiy normalarida o'z ifodasini topgan.

Fuqarolik-huquqiy munosabatlar uchta mustaqil elementdan tashkil topgan bo'lib bular :

- Huquqiy munosabat obektlari
- subekti
- Mazmunidir.

**Fuqarolik- huquqiy munosabatlarining obekti** deb, fuqarolik-huquqiy munosabatda qatnashuvchi shaxslarning subektiv huquqlari va majburiyatlari nimaga qaratilgan boʻlsa, shunga aytiladi.Bularga – ashyolar, molk-mulklar, pullr, qimmatli qogʻozlar, ishlar va xizmatlar, shaxsiy va nomulkiy huquqlar kirishi mumin.

**Bunda, fuqarolik-huquqiy munosabat subektlari** boʻlib, ushbu huquqiy munoasabatda qatnashuvchi shaxslar – fuqarolar va shaxslar ( ya'ni yuridik shaxs huquqiga ega boʻlgan korxonalar) hisoblanadi. Davlat ham fuqarolik-huquqiy munosabat subekti boʻlishi mumkin.

**Huquqiy munosabatlarning mazmunini** yuqorida koʻrsatilgan huquqlar bilan bir qatorda majburiyatlar ham tashkil etadi. Majburiyatning mohiyati shundaki, bunda huquqiy tartibning talabi boʻyicha uni oʻz zimmasiga olgan shaxs ma'lum harakatlarni qilishga yoki harakatlarni qilishdan saqlanishga majbur boʻladi.

Deyarli har doim fuqarolik-huquqiy munosabatlar barcha partiyalarning irodasi bilan aniq belgilanadi. Shartnoma esa ularning odatiy asosidir. Tomonlar tengdirlar va shuning uchun faqat shartnoma asosida emas, balki qonunga muvofiq bir-biridan talab qilish huquqiga ega. Agar ularning tengligi yoʻqolsa, munosabatlar fuqarolik-huquqiy boʻlishni toʻxtatadi.

Fuqarolik-huquqiy munosabatlar subektlari boshqacha. Bu fuqarolar, fuqaroligi boʻlmagan shaxslar va boshqa har qanday davlat fuqarolari. Ular, shuningdek, har qanday yuridik shaxslar, shahar korxonalari,va uning subektlari boʻlishi mumkin.

Obektga koʻra, turli moddiy va nodavlat narsalarga qaratilgan subektlarning xatti-harakatlarini tushunish kerak.

subektiv fuqarolik huquqi uchta kuchga asoslangan:

- oʻz harakatlariga ega boʻlish huquqi, ya'ni muhim huquqiy harakatlarni mustaqil ravishda amalga oshirish imkoniyati;

Majburiyatlarni bajarishning majburiyat subektlaridan talab qilish imkoniyati sifatida tushuniladigan talab;

- majburiyatlarni bajarmagan taqdirda majburiy choralar sifatida tushuniladigan himoya uchun. Chora-tadbirlar juda jiddiy qabul qilinishi mumkin. Aks holda, ish jinoyatga aylanishi mumkin.

Fuqarolik huquqiy munosabatlarda davlatning ishtirok etishi ikki shaklda amalga oshirilishi soha tadqiqotchilari va olimlari tomonidan e'tirof etiladi. Davlat turli mulkiy va majburiy huquqiy munosabatlarda bevosita o'zi va uning tomonidan tashkil etilgan yuriik shaxslar orqali ishtirok etadi. Bunda davalat nomidan fuqarolik huquqiy munosabatlar ishtirok etuvchi mazkur subektlar ushbu munosabatlar ishtirokchilari bo'lgan boshqa subektlar bilan teng mavqeyda bo'ladi va ular orasida munosabatlar tenglikka asoslanadi.

Davlat nomidan fuqarolik huquqiy munosabatlarda ishtirok etuvchi uning vakolatli organ-muassasalari yoki yuridik shaxslari mazkur munosabatlarda ishtirok etayotgan uchinchi shaxslarga nisbatano'zining "hokimiyat" pozitsiyasiga tayangan holda ularga nisbatan ustun mavqega ega bo'la olmaydi. Umuman olganda, davlat ishtirok etadigan mulkiy munosabatlarda davlat ushbu munosabatlar "shartli kreditori" maqomida ishtirok etishi holatlari kuzatiladi. Ushbu jarayon davlat turli to'lovlar (davlat boji, yig'im va soliqlar) belgilovchisi, o'rnatuvchisi, o'zgartiruvchisi va yig'uvchusi bo'lgan soliq va moliyaviy munosabatlarda yanada yaqqol ko'zga tashlanadi. Davlat o'zining hokimiyat vakolatini amalga oshirish mobaynida iqtisodiy munosabatlar ishtirokchilari bo'lgan subektlar uchun to'lanishi majburiy bo'lgan soliq va boshqa to'lovlarni belgilaydi.

Yurtimizda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirilishi,hamda rivojlanishi fuqarolik-huquqiy munosabatlarni yaxshi tartibga solinganligdan dalolat beradi. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng ma'muriy-buyruqbozlikni yo'qotib erkin bozor munosabatlariga o'tishimizning o'zi ham huquqiy davlatga asos solganligidan jamiyat fuqarolarining huquq va manfaatlarini kafolatlanganlidan dalolat beradi.

Xech shubhasiz, yurtimizda erkin adolatli va farovon hayot qurish jarayonida ijtimoiy-siyosiy munosabatlar, odamlarning ongi va tafakkuri ham o'ziga xos shu

bilan birga, mutlaqo yangicha ma'no kasb etib bormoqda. Xususan, shaxs va davlat inson va jamiyat oʻrtasidagi munosabatlar yangicha mazmun va shakl topib, yangi xususiyatlar, yangi tamoyillar asosida takomillashib borayotganini sezish, anglash qiyin emas.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shunday xulosalarga kelish mumkin:

- Mamlakatimiz taraqqiyoti hamda yuksalishi yoʻlida amalga oshirilayotgan har qanday islohotlarning tag zamirida xalqimizning xohish-irodasi orzu-umidlari va manfaatlari yotadi;
- Atroflicha olib qaraydigan boʻlsak xalqimizning ming yillik hayot tarzi, milliy an'ana va qadriyatlarimizni va qolaversa jamiyatimizning bir boʻlagi hisoblanmish fuqarolarimizning fikr mulohazalari ham hisobga olindi;
- Chunki mamlakatimizda yaratilayotgan qonunlar va amalga oshirilayotgan islohotlarning tag zamirida jamiyat fuqarolarining xohish istaklarini roʻyobga chiqarish asosiy oʻrin egallaydi.
- Fuqarolik huquqiy-munosabatlarini tartibga solish haqida koʻplab fikrlar bildirishimiz mumkin, lekin fikrimizning xulosasi sifatida shuni aytish joizki har bir sohada rivojlanib borayotgan oʻzbekistonimizning huquqiy manfaatlarini himoya qilish uni qonun va tamoyillariga amal qilish shu zaminda yashab kelayotgan har bir fuqaroning asosiy burchidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar**:

1. Abdullayeva Feruza Sharipovna, and Saidjonova Zulfizar Sobirjon Qizi. "Huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish davr talabi" Oriental Art and Culture, no. III, 2020, pp. 405-415.

2. Asadov, Shahriddin Faxriddin OʻGʻLi. "Fuqarolik-huquqiy munosabatlarda davlat ishtiroki (davlat-xususiy sheriklik misolida)" Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, vol. 1, no. 11, 2021, pp. 789-799. doi:10.24412/2181-1784-2021-11-789-799

3. Tursinbaev M. Omirzakov R. Ijro hokimiyati organlari tizimining asosiy bo'g'ini sifatida vazirliklarning ekologik davlat boshqaruvi sohasidagi vakolatlari. JILD:02 NASHR:07 2023 yil. 31-35.

4.Muminjon Taxtamuratovich Tulaganov. "Fuqarolarning huquqiy siyosiy ongini yuksaltirishda sifatli ta'limning ahamiyati" Oriental Art and Culture, vol. 4, no. 2, 2023, pp. 415-421.
5. Fuqarolik huquqi: Darslik. I qism/Mualliflar jamoasi - T.:TDYU nashriyoti, 2016. -312 bet.
6.https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/huquqshunoslik/fuqarolik-huquqiy-munosabat
7.https://www.oriens.uz/media/journalarticles/104_Asadov_Shahriddin_Faxriddin_ogli_789-799.pdf
8. https://uz.delachieve.com/fuqarolik-huquqiy-munosabatlar/

## КОРРУПЦИОН ҲОЛАТЛАРНИ ОЛДИНИ ОЛИШДА МАЪНАВИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЎРНИ: ТАРИХИЙ-СИЁСИЙ ЁНДАШУВ

***Валиева Нафиса Абдумажитовна***
*Ижтимоий-гуманитар фанларни ўқитиш методикаси кафедраси катта ўқитувчиси*

Илмий адабиётларда унга қуйидагича таъриф берилади: "Коррупция— шахснинг ўз мансаб ёки хизмат мавқеидан шахсий манфаатларини кўзлаб моддий ёки номоддий наф олиш мақсадида қонунга хилоф равишда фойдаланиши, худди шунингдек, бундай нафни қонунга хилоф равишда тақдим этиш".

Коррупция атамаси лотинча "корруптио" сўзидан олинган бўлиб, пора бериб сотиб олиш, бузилиш, ишдан чиқиш, ахлоқий (маънавий) бузилиш деган маъноларни англатади. Одатда мансабдор шахс томонидан унга берилган мансаб ваколатлари ва ҳуқуқлардан, шунингдек, бу билан боғлиқ расмий нуфуз мақомидан, имкониятлар ва алоқаларидан ўзларининг шахсий манфаатларини кўзлаб қонунчилик ва ахлоқ қоидаларига зид равишда фойдаланишини англатади.

Жамиятда коррупция оддий халқ вакилларининг юқори амалдорларга ёхуд давлат амалдорларининг ўзаро бир-бирларига бўлган муносабатидан келиб чиқади. Ушбу салбий ҳолатнинг ҳар қандай кўриниши жамиятни ҳалокат ёқасига олиб бориши муқаррардир.

Коррупциянинг тарихи антик даврларга бориб тақалади. Қадимги Юнонистон давлатида оддий халқ вакиллари оқсоқолларга ва турли даражадаги амалдорларга совға-саломлар беришган. Худди шундай ҳолатлар қадимги Мисрда ҳам кузатилган: бу ерда эркин деҳқонлар, ҳунармандлар ва ҳатто ҳарбий аъёнларга нисбатан ҳам ўзбошимчалик ва зўравонлик ишлатган ҳамда қонунбузарликларни ўзига касб қилиб олган амалдорлар бюрократик аппарати юзага келганди.

Коррупция ҳар қандай давлат ва жамият ривожига жиддий салбий таъсир кўрсатувчи хавфли омил, барча мамлакатларга таҳдид солувчи мураккаб ижтимоий-сиёсий, иқтисодий ҳодисадир. Зеро, бу омил туфайли давлатнинг ривожланиши секинлашади, ҳукумат тизими ишдан чиқади, демократик институтларга путур етади. У сайлов жараёнларига салбий таъсир қилиб, қонун устуворлигига жиддий зиён етказади. Шу билан бирга, унинг таъсири остида фуқароларнинг ижтимоий адолатга, ҳақиқатга ва давлат органларига ишончи йўқолади. Ҳар қандай жамият учун ушбу жиноятга қарши курашиш энг долзарб масалалардан биридир. Бизнинг давлатимиз коррупциянинг олдини олиш ва унинг илдизларига барҳам бериш мақсадида кўпгина тадбирларни амалга оширмоқда. 2003 йил 9 декабрда БМТнинг "Коррупцияга қарши конвенция"си имзоланганлиги ҳам фикримизнинг исботидир.

Республикамизда ушбу жиноятга қарши кураш соҳасида мақсадли сиёсат олиб борилмоқда. Жумладан, ушбу соҳада қонунчилик асосларини такомиллаштириш, давлат органларининг, жамиятнинг очиқлигини таъминлаш, ахборотлардан фойдаланиш имкониятларини кенгайтириш борасида аҳамиятли ишлар амалга оширилмоқда. Дарҳақиқат, коррупцияга

қарши курашиш ва бу соҳада самарали чора-тадбирлар ишлаб чиқиш масалалари давлатимиз раҳбариятининг диққат марказидадир.

Коррупцияга қарши курашиш соҳасидаги давлат сиёсатининг асосий йўналишлари ва принципларини белгилашда бундай ҳуқуқбузарлик учун жавобгарликнинг муқаррарлигини таъминлаш масаласи қатъий ҳисобга олинган. Коррупцияга аралашган, бу жирканч иллатга қўл урган одам учун улуғ нарсалар, мўътабар туйғуларнинг қадри йўқолади. Бундай одамлар ҳаётда ҳамма нарсани сотиб олиш ва сотиш мумкин, деб ўйлайди. Улар иймон-эътиқодга ишонмайди, айни пайтда бундай кимсаларга ҳаёт учун азиз саналадиган ҳеч нарсани инониб бўлмайди. Чунки улар ота-онаси, қариндош-уруғлари, ёр-у биродарлари, маҳалла-кўйининг юзини ерга қаратишдан, бошини эгишдан уялмайди.

Қонунга кўра, коррупцияга қарши курашиш бўйича фаолиятни амалга оширувчи, бу жараёнда иштирок этувчи органлар ҳамда ташкилотларнинг фаолиятини мувофиқлаштириш учун Коррупцияга қарши курашиш бўйича республика идоралараро комиссияси ташкил этилди. Айни вақтда қонун ҳуқуқий муносабатларни тартибга солади. Ваколатлар, ҳуқуқ ва мажбуриятларни, амалга ошириладиган чора-тадбирларни белгилаб беради.

Ислом дини жамиятда соғлом муҳитни шакллантиришни ҳамиша диққат марказига қўйгандир. У ўзининг бу олий мақсад йўлида халқ орасидаги барча жабҳадаги иллат ва камчиликларнинг олдига қатъий тўсиқлар қўйган. У ҳар қандай ишни жорий қилишда ўзининг ҳикматли йўли – бир иллатдан қайтарса, унинг муқобилида бир неча тўғри ва савобли амалларни таклиф этади. Зеро, инсон табиати ҳамиша қайтариққа дуч келаверишни хушламайди. Шунинг учун қайси бир йўл ёки таълимотда буйруқдан қайтариқ кўп бўлса, унинг эртанги куни таназзулдан бошқа нарса бўлган эмас.

Ёзма манбаларда коррупция ҳақида эрамиздан аввалги XXIV асрнинг иккинчи ярмида, Шумер подшолиги даврида эслаб ўтилган. Коррупция бизнинг кунларгача етиб келганлиги шундан далолат берадики, бошқа иллатлар каби, уни ҳам таг-туги билан йўқотиб бўлмайди.

Ҳатто идеал бўлган давлатлар ҳам коррупциядан халос бўлолмаган. Юқорида такидлаганмиздек Қуръони каримни Бақара сураси, 188 – оятида «Бир-бирларингизнинг молларингизни ботил йўл билан еманг. Билиб туриб одамларнинг молларидан бир қисмини ейишингиз учун уни ҳокимларга гуноҳкорона ташламан» дейилган, лекин шунга қарамай, порахўрлик халифаликда ҳам мавжуд бўлган.

Бу тарихан Аббосийлар сулоласи вакиллари ҳокимлик қилишни ислом давридан олдинги Эрон ҳукмдорлари – Сосонийлар давлат хизмати тажрибасига эга бўлган исломни қабул қилган эронийлар устунлик қилган амалдорларга топшириб қўйганлиги билан боғлиқ.

Дастлабки паллаларда халифа турли идоралар фаолиятини шахсан назорат қиларди, лекин вақт ўтиши билан бу ишни ўзига яқин одам бўлган – аввал халифанинг турли ишлар бўйича шахсий ёрдамчиси бўлган вазирга топшириб қўйди. Вақт ўтиши билан вазирлар кенг тармоқли давлат аппарати шакллантирдилар. X асрнинг ўрталарига келиб, у ёки бу лавозимга тайинланиш учун амалдорлар томонидан вазирларга пора бериш мунтазам амалиёти шаклланиб бўлганди. Бундан, масалан, халифа Муқтадирнинг вазири бўлган Убайдуллрҳ Ҳоқоний (926 йил вафот этган) амалдорларни турли лавозимларга тайинлаш ва олиб ташлашда фаол фойдаланган. Пулга қаттиқ муҳтожлик сезаётган давлат солиқлар тўплашни хусусий шахсларга топшириб, бу улар томонидан турли суиистеъмолларга олиб келарди. Масалан, улар солиқ миқдорини ошириш учун они ҳосилни оширилган ставка бўйича баҳоларди; солиқлар тўланмагунга қадар мевалар ва дон ҳосилини йиғиб олишга рухсат бермасди, қарзни ундиришни эса кечиктирарди ва деҳқонлар ҳосилнинг ҳалок бўлмаслигини кўзлаб, солиқ йиғувчилар тезроқ солиқ ундириши учун уларга пора беришга мажбур бўларди.

Бу ҳолат Усмонлилар салтанатида ҳам истисно эмасди. 1763-1764 йилларда усмонийларнинг Пруссияда элчиси, кейинчалик эса салтанатнинг ташқи ишлар вазири бўлган Расми-эфенди порахўрликнинг айрим турларига тавсиф берган: «...яничарларнинг ҳар битта мингбошиси қўлида рўйхати

номма-ном ёзилган мингта аскар бўлган ва у ҳар ой давлат ғазнасидан тўлиқ миқдорда минг кишилик маош олишни одат қилиб олган, гарчи унинг аскарлари бунинг ярмини ташкил қилмаса ҳам. Фараз қилайлик, «минг» бу «беш юз»га тенг. Қирқ кундан кейин бу беш юздан тўрт юзи овқат излаб топиш баҳонасида тарқалиб кетади. Мингбошининг қўл остида нари борса юз нафар хизматчи бўлади, у ишёқмас эса минг кишига маош берилишини талаб қилади: унга пул билан тўлайсанми ёки пул ўрнига омборлардан дон олишга кўндирасанми, барибир ғазнада бир чақа ҳам қолмайди. Баҳслашаман деб кўр-чи, – бу одамлар дарров дод-вой сола бошлайди: "Вазир – аҳмоқ! Бош ғазначи – муттаҳам! Қўшин мирзоси, яничарлар оғасининг рўйхати – тўғри, адолатли ҳужжат! Барча тўловлар ва таътиллар у бўйича амалга оширилиши лозим. Ким унинг тўғрилигига шубҳа билдириши мумкин?"…

Қўшинни озиқ-овқат билан таъминлаши лозим бўлган интендантлар эса қуйидаги равишда ўғрилик қиларди: «Сухари тайёрлаш учун квартирмейстерлар омборларда қирқ йиллаб ётган ва оҳакка ўхшаб кетган эски унни ва шу ернинг ўзидан топилган, ранги қора ер билан бир хил бўлган эски сухариларни олиб, уларни бир-бири билан аралаштирарди, янги ун қўшарди ва ҳамма станцияларда омборлар ва нон печлари ерга қурилган эканлиги сабабли хамирга исталганча тупроқ қўшиш учун узоққа боришнинг ҳам кераги йўқ эди. Тупроқдан нон ёпиб бўлмайди! Халққа бериладиган нон қуриган лойга ўхшаб кетарди. Бошқа илож йўқ эди: мажбуран шу сухарилар билан овқатланишга тўғри келарди; ўн кун шу сухаридан еган одамлар Хан-тепесида бу дунёдан кўз юмиб, янги қазилган гўрларга ётарди ва абадий уйқуга кетарди. Улар жамоаларига ўзи ҳақида хабар бермай қўйгач, ўнбошилар ва рота қўмондонлари тиловат тушириб ўзларича: "Уларнинг маоши бизга қолади! Улар – шаҳидлар!…. бечоралар ғайридинларга қарши урушга йўл олган ҳолда ҳалок бўлди!" деб айтарди.

XVI асрда усмонийлар империясида илтизомга берилган солиқлар тўплаш билан оммавий суиистеъмоллар бошланди. Аслида қанча солиқ

тўпланганини назорат қилишнинг имкони йўқ эди. Солиқларни тўпловчи давлатга аниқ белгиланган бир суммани топширарди, холос.

Бундан ташқари, давлатдан фойдаланиш учун ер – тимар оладиган ҳарбий хизматчи сипоҳилар шу билан бирга бу ерларда ишлайдиган деҳқонлардан солиқ тўплаш ҳуқуқини ҳам қўлга киритарди. Шунингдек, тимарлар бир қисмига сипоҳилар уларнинг миқдори аниқ белгилаб қўйилган турли айблар учун жарима саналган «ҳаво солиғи» (бад-и-хава) ундириш ҳуқуқига эга бўлган.

Султон Мурод III ҳукмронлик қилган даврда (1574-1595) тимарларни тақсимлашдаги суиистеъмоллар энг авжига чиққан. Турли провинциялар губернаторлари (бейлербей ва санджакбей) уларни бу ҳуқуққа эга бўлмаган шахсларга ҳам пора эвазига тарқатиб юборарди.

Тимарлардан солиқ тўплашни музд эвазига бериш ҳаракатлари шунга олиб келдики, ер майдонларида ишлайдиган деҳқонлар «откуп(музд)»чилар ўзбошимчалигининг қурбонига айланди. Бу суиистеъмол ҳолатларини ҳаттоки Усмонийлар салтанати шайхулисломлари чиқарган махсус фатволар ҳам бартараф қила олмади.

Аста-секинлик билан сипоҳилар ҳарбий юришларга бормай қўйди, уларга тақдим этилган ерларда муқим қолиб, амалда давлат мулкини шахсий мулк қилиб олди.

Давлат эса, ўз навбатида, буюк вазирлар тимсолида кўнгилсиз реакциядан хавфсираган ҳолда ҳарбийлар билан тўқнашувга боришдан қўрқарди. Усмонийлар салтанатида порахўрлик оқибати шу бўлдики, қўшинлар ҳарбий тайёргарлигини йўқотди, натижада XVIII аср охири ва XIX аср бошларида қатор мағлубиятларга учраб, бу давлатнинг қудратига путур етказди.

Имом Заҳабий шундай дейди: "Эй инсон сен ер юзига йиғлаб келдинг ота-онанг сени хурсанд бўлиб кутиб олдилар, Эй инсон энди сен бу дунёдан кетмасингдан олдин жамият, халқ, дин, давлат, ота-она ва фарзандлар олдидаги бурчларингни мукаммал адо қилиб қўйгинки, кетар чоғингда сен

кулиб кетгин, қолганлар эса, қандай яхши инсон эди-я деб орқангдан йиғлаб қолсинлар.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Шайх Мухаммад Содиқ Мухаммад Юсуф "Тафсири Ҳилол" Тошкент; 2021.
**2.** *Зайнул-обидин (Зайниддин) Ибн Нужайм ал-Мисрий ал-Ҳанафий «Пора ва унинг турлари» рисоласи. Тошкент. 2020.*
**3.** *Зайнул-обидин (Зайниддин) Ибн Нужайм ал-Мисрий ал-Ҳанафий «Ар-Расоил аз-зайниййа фий фиқҳ ал-ҳанафиййа» рисолалар тўплами (Ҳамидуллоҳ Беруний таржимаси); Тошкент. 2020.*
**4.** *Баҳодиржон Баҳромжон ўғли Мақола. Тошкент Ислом институти "Ҳадис ва ислом тарихи фанлари" 2022.*
5. IslamOnline.uz *сайти*

## TEMURIYLAR DAVRIDA IJTIMOIY-IQTISODIY VA MADANIY JARAYONLAR

***Yo'ldashev Safoxon A'loxon o'g'li***
*Namangan davlat unversiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti Tarix yo'nalishi 3-bosqich talabasi Telefon: +998939854995.*
*safoxonyuldashev@gmail.com*

***Annotatsiya.*** *Amir Temurning ibratli hayoti va davlatdorlik iqtidori, faoliyati, saltanati tarixi, undagi ilm-fan va madaniyatni o'rganish tarixshunoslikning yirik ilmiy yo'nalishlaridan biri sifatida doimo jahon olimlari, davlat rahbarlari, siyosatchilar diqqat-e'tiborida bo'lib kelgan va shunday bo'lib qolmoqda. Shuningdek, Temuriylar tarixiga oid manbalar jahon miqyosida turli tillarda tarjima qilingan hamda ilmiy-tadqiqotlar amalga oshirilgan. Dunyo tarixshunosligida Amir Temur davrini o'rganishga oid nashrlar kun sayin ortmoqda. Pirovardida jahon jamiyatshunosligida "Temurshunoslik" mustaqil ilmiy*

*yo'nalishi shakllandi. Bugun Amir Temur va Temuriylar sulolasining dunyo sivilizatsiyasi rivojiga, insoniyatning ilmiy, siyosiy-huquqiy, ma'naviy-g'oyaviy, madaniy va tafakkur darajasi keskin ko'tarilishiga qo'shgan hissasi beqiyosligi hech kimda shubha uyg'otmaydi. Jahon hamjamiyati Temuriylar davrini ilm-fan, madaniyat, san'at va adabiyot taraqqiyoti hamda ulug' kashfiyot va ixtirolarda o'z aksini topgan davr, xalqimizni esa shu paytgacha ikki marotaba Renessansga asos solgan el sifatida e'tirof etadi. Ya'ni xalqimiz haqli ravishda Renessans yarata olgan kam sonli xalqlar sirasiga kiritiladi.Mazkur maqolada shular xususida so'z yuritamiz.*

***Kalit so'zlar**: renessans, kashfiyot, xalq, temuriylar, svilizatsiya, san'at, adabiyot, madaniyat*

***Аннотация:** Изучение образцовой жизни и государственной деятельности Амира Темура, деятельности, истории его правления, науки и культуры в ней, как одно из важнейших научных направлений историографии, всегда было и остается в центре внимания мировых ученых, государственных деятелей и политики. Также источники, связанные с историей Тимуридов, переведены на различные языки мира и проведены научные исследования. В мировой историографии с каждым днем увеличивается число публикаций по изучению эпохи Амира Темура. В конце концов, в мировом обществознании сформировалось самостоятельное научное направление «темуровская наука». Сегодня ни у кого не вызывает сомнений, что Амир Темур и династия Тимур внесли несравнимый вклад в развитие мировой цивилизации, в резкий подъем научного, политико-правового, духовно-идейного, культурного и интеллектуального уровня человечества. Мировое сообщество признает эпоху Тимуридов периодом, отразившимся в развитии науки, культуры, искусства и литературы, великих открытий и изобретений, а наш народ – как народ, дважды до сих пор основавший Ренессанс. То есть наш народ по праву входит в число тех немногих народов, которые смогли создать Ренессанс, о них мы и поговорим в этой статье.*

***Ключевые слова:*** *ренессанс, открытие, народ, тимуриды, цивилизация, искусство, литература, культура.*

***Annotation.*** *The study of Amir Temur's exemplary life and statesmanship, activity, history of his reign, science and culture in it, as one of the major scientific directions of historiography, has always been and remains the focus of world scientists, state leaders, and politicians. Also, sources related to the history of the Timurids have been translated into various languages worldwide and scientific researches have been carried out. In world historiography, publications on the study of Amir Temur's era are increasing day by day. In the end, the independent scientific direction of "Temur science" was formed in world social studies. Today, no one doubts that Amir Temur and the Timur dynasty made an incomparable contribution to the development of world civilization, to a sharp rise in the scientific, political-legal, spiritual-ideological, cultural and intellectual level of mankind. The world community recognizes the era of the Timurids as a period reflected in the development of science, culture, art and literature, as well as great discoveries and inventions, and our nation as a nation that founded the Renaissance twice so far. That is, our nation is rightfully included among the few nations that were able to create a Renaissance. We will talk about them in this article.*

***Key words:*** *renaissance, discovery, people, Timurids, civilization, art, literature, culture*

## KIRISH

Amir Temurning ibratli hayoti, saltanati tarixi, undagi ilm-fan, madaniyatni o'rganish tarixshunoslikning yirik ilmiy yo'nalishlaridan biri sifatida doimo olimlar diqqat-e'tiborida bo'lib kelgan. . "Amir Temur tuzuklarini o'qisam," - degan edi Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov-xuddi bugungi zamonning katta-katta muammolariga javob topgandek bo'laman"[2].

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Temuriylar tarixiga tegishli manbalar jahon miqyosida turli tillarga tarjima qilingan hamda ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Shu o'rinda temurshunoslik

rivojiga tamal toshini qo'ygan G.A.Pugachenkova, I.Mo'minov, R.Mukminova, B.V.Lunin, E.V.Rtveladze, P.Zohidov, L.I.Rempel, A.O'rinboyev, B.Ahmedov, D. Yusupova, O'.Alimov, T.Fayziyev, O.Bo'riyev kabi qator fidoiy olimlarning tadqiqotlari Amir Temur saltanati tarixini yoritishga xizmat qildi. Zero, aynan ularning mustaqillik yillarida chop etilgan yirik nashrlarda Amir Temur hayoti va faoliyati tarixini mukammal yoritishdagi xizmatlarini e'tirof etish zarur. Birlamchi yozma manbalar, ya'ni qo'lyozma kitoblar maxsus kataloglarda yoritilgan[3]. Dunyo tarixshunosligida Amir Temur davri tadqiqiga oid nashrlar, "Temurshunoslik" ilmiy yo'nalishining shakllanishi, badiiy adabiyotda Amir Temur obrazining yaratilishi ancha ilgari boshlangan. Bu jarayon Sohibqironning tirikligidayoq boshlangan desak xato bo'lmaydi. Yevropa Uyg'oniy davri ijodkorlari uning shaxsiga katta qiziqish bilan qaraganlar. "Xorijning mashhur tarixchilaridan E.Gibbon, F.SHlosser, G.Veber, JanPol' Ru va boshkalar o'z asarlarida Amir Temur faoliyati haqida ma'lumotlar berganlar"[4].

## NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

Amir Temur qudratli davlat barpo etgach G'arbiy Yevropa hukumdorlari Usmonli turk imeriyasi hujumidan tashvishga tushib undan yordam so'raydi. "Shu maqsadni ko'zlagan Vizantiya imperatori Manuil II Paleologning dojlari (imperatorning o'zi o'sha kezlarda G'arbiy Evropa qirollari huzurida bo'lgan) Yildirim Boyazid tazyiqidan xalos etishni so'rab, Amir Temurga murojaat qilishadi va shu paytgacha turk sultoniga to'lab kelgan bojlarini bunday buyon Sohibqironga berajaklarini aytadilar. Kastiliya qiroli Genrix III va Frantsiya qiroli Karl VI o'z elchilarini, Rim papasi Bonifakiy IX bo'lsa o'z katolik missionerlarini shoshilinch Amir Temur huzuriga yo'lladilar[5]. Bu yozishmalar jahon tarixshunosligi va manbashunosligida muhim o'rin egallaydi. "...bu nomalarning asl nusxa va tarjima variantlari hozirda Parij, Madrid va London kutubxonalarida saqlanib kelinadi. Bu haqda biz quyidagi tarixiy asarlardan bilib olsak bo'ladi" [6].

Ushbu ma'lumotlar Keren L. Amir Temur saltanati , Fransuz tilidan tarj. Va izohlar muallifi: B.Ermatov, Maxsus muharrir: X.Sulton; So'z boshi Lui Bazen. - T.: "Manaviyat", 1999, -224 bet. kitoblari ham bor.

Temur va Temuriylar davridagi madaniy yuksalishning umumiy omillarini aniqlash shuni koʻrsatadiki, ular oʻzaro uzviy bogʻlangan va yaxlit bir butun holdagina qisqa vaqt ichidagi madaniy-ma'naviy yuksakligini yuzaga keltira olgan.

Bulardan birinchi navbatda siyosiy- ijtimoiy omilni koʻrsatish mumkin. Movarounnahr va Xurosonda tarqoq, oʻzaro nizo va urushlar natijasida turli viloyat, amirliklarga boʻlinib ketgan va kelgindi hukmronlar - moʻgʻillar tomonidan ayovsiz ezilgan xalqning mustamlakachiliqdan qutulishi, mamlakatda yagona birlashgan davlatning barpo etilishi, yagona davlatchilik asosida boshqarish qoidalarining joriy etilishi, zoʻravonliklar, oʻzboshimchaliklar kabi illatlarning tugatilishi ijtimoiy yuksalishni ta'minladi.

Ikkinchi - iktisoliy omil - Movarounnahr va Xurosonda yagona idora tizimining joriy etilishi iqtisodiy osoyishtalik, ishlab chiqarishni jadal rivojlanishga olib keldi. Davlat tomonidan dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiqning rivojiga e'tibor berilishi va bu sohada kator tadbirlarning amalga oshirilishi mamlakatning ma'naviy-madaniy taraqqiyoti uchun nihoyatda muhim ahamiyat kasb etdi.

Uchinchi - ma'naviy omil - avvalgi madaniy meros, ma'naviy qadriyatlar, boyliklardan keng foydalanish, ular asosida rivojlanishini amalga oshirishdan iborat boʻldi. Markatiy Osiyoda avvalgi asrlarda, xususan IX-XIII asrlarda yaratilgan madaniy – ma'naviy boyliklardan, Xorazmiy, Farobiy, Ibn Sino, Beruniy, Chagʻminiylar merosidan; arab, fors va turkiy tillarda yaratilgan Firdavsiy, Nizomiy Ganjaviy, Rumii, Tusiy, Attor kabi allomalar merosidan: Musulmon Sharqi ma'naviy merosida keng ahamiyat kasb etgan qadimgi yunon ilmiy-ma'naviy, boyliklaridan keng foydalanildi.

Toʻrtinchi -gʻoyaviy omil - bu omil ma'naviy omilning uzviy davomi boʻlsa-da, uning muhim ahamiyatga ega boʻlganligi va oʻz davri ma'naviy hayotida katta rol oʻynaganligi uchun alohida ajratib koʻrsatish maqsadga muvofiqdir. Bu XV asrga kelib Movarounnahr va Xurosonda keng tarqalgan tasavvuf - xususan Naqshbandiya ta'limotidir. Markaziy Osiyoda Yusuf Hamadoniy, Abdu Xoliq Gʻijduvoniy ta'limotlarini rivojlantirish asosida shakllangan Naqshbandiya ta'limoti

va uning yirik vakillari XIV-XV asrlardaga siyosiy-ijtimoiy hamda madaniy hayotda nihoyatda muhim rol oʻynadi, ma'naviy oʻzgarishlar ma'lum erkinlik uchun gʻoyaviy asos, omil boʻlib xizmat qildi. Temur va temuriy shahzodalar, koʻp olim-fozillar, hunarmandlar naqshbandiya ta'limotidan ozuka oldilar, oʻz faoliyatlari, ijodlari bilan uni har tomonlama boyitdilar.

Amir Temur diplomatiyasining oʻziga xos tomonlaridan biri – u oʻzining barcha murojaatlarida, hatto qat’iy talab shaklida yozilgan nomalarida ham Sharq diplomatiyasi etiketlariga rioya qilgan. Ayrim yurtlar xukmdorlarining qoʻpol shaklda, ba’zi hollarda jahl va jaholat bilan yozilgan nomalariga ham Sohibqiron hamma vaqt oʻz fikrini aniq bayon qilgan holda madaniyat va odob bilan javob qilganini oʻsha davrlardan meros boʻlib qolgan tarixiy xatlar orqali bilib olish qiyin emas. Amir Temurning Fransiya qiroli Sharl VI ga yoʻllagan maktubida “Salom va tinchlik e’lon qilaman!”, degan soʻzlar bitilgani buni yaqqol tasdiqlaydi.

Shu oʻrinda Fransiyada Amir Temur shaxsiga boʻlgan katta qiziqish haqida toʻxtalib oʻtsak. Fransuz sharqshunoslari Sohibqiron va u asos solgan buyuk sulola tarixini yoritishda faqat harbiy yurishlar va amalga oshirilgai ishlar solnomasini tuzish bilan cheklanmasdan, oʻsha davr ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy-mafkuraviy muhitini hamda Amir Temurga va uning avlodlariga xos sof insoniy fazilatlarni, ularning davlat, jamiyat, din va ilm-fanga boʻlgan munosabatini ham atroflicha tadqiq qilishga alohida e’tibor beradilar.

## XULOSA

Fransuz sharqshunoslarining Amir Temur va Temuriylar davri tarixini oʻrganish miqyosi keng boʻlib, ular oʻsha davr boshqaruv va harbiy tizimini, madaniyati, dini, falsafasi va ilmiy tafakkurini atroflicha yoritadi. San’at va me’morchilik fransuz olimlari uchun alohida va doimiy qiziqish mavusidir. Temuriylar Uygʻonish davriga bagʻishlab ular yozgan asarlar, oʻtkazgan ilmiy anjumanlar va koʻrgazmalar shundan dalolat beradi.Amir Temur birinchi navbatda bunyodkor shaxs va har tomonlama yetuk, bilimli kishilardan edi. Uning faoliyatiga nazar tashlar ekanmiz, har bir odimida yurt farovonligi, obodligi, ta’lim, fan va san’atning rivoji uchun qaygʻurishini koʻrishimiz mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Karimov IA Amir Temur haqida so'z.T. 1986 y.

2.Tmur va Ulug'bek davri tarixi.T. 1996 y.

3.Amir Temur va temuriylar davrida madaniyat va san'at. T.1996 y,

4.Abdurahmonov A. Ulug'bek va uning rasadxonasi.T. 1996 y.

5.Ahmedov B. Temur.T. 1995 y.

6.Dadaboev H. Amir Temurning harbiy mahorati.T. 1996 y.

7.Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi.T. 1992 y.

# JAMIYAT BARQARORLIGI VA IJTIMOIY ADOLAT QAROR TOPISHIDA SIYOSIY LIDER FENOMENI

***J.A.Xamidov***

*Namangan davlat pedagogika instituti magistranti*

***xamidovjaxongir151@gmail.com***

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada ijtimoiy adolat tushunchasining tadrijiy falsafiy asoslari va bu orqali jamiyat barqarorligga erishish maqsadida siyosiy liderning faoliyat birliklari ochib beriladi ayniqsa Yangi O'zbekiston holatidan kelib chiqib bunda rahbarlik vakolati uning etiketik qarashlari burchga mas'uliyat bilan yondashgan holda jamiyatda inson manfaatlari va uning oliy qadriyatligini dastak qilib olish va jamiyat azolarini kapitalistik jarayonda ijtimoiy bo'hronlardan asrash kabi dogmalar maqsadlari ochib beriladi.*

***Аннотация.*** *Отчет показывает нам, что многие данные относятся к нашей системе образования. Новую систему образования Узбекистана заменит наш президент. Этот процесс создает новые возможности и ресурсы работодателей. Но с другой стороны, наиболее важным фактом является поведение подростков, система предлагает нам сохранить хорошую точку в гуманитарно-пафосном и уважительном смыслах. В конце отчета новая*

*система образования Узбекистана состоит из правильной, умной, измеримой, достижимой и квалифицированной.*

***Kalit so`zlar:*** *Rezolutsiya , siyosiy lider, umum etirof etilgan qadriyatlar, Erasmus, xalqaro talim standarti ( International education degree), gender tenglik , ijtimoiy adolat , demokratik modernizatsiya .*

***Ключовые слова:*** *Резолюция, политический лидер, общепризнанные ценности, Эразм, международный стандарт образования ( International education degree), гендерное равенство , социальная справедливость, демократическая модернизация .*

***Abstract.*** *This article reveals the evolutionary philosophical foundations of the concept of social justice and the units of activity of the political leader in order to achieve stability of society through this especially from the new state of Uzbekistan, in which the authority of leadership is revealed, such as supporting human interests and its higher value in society with a responsible approach to the duty of its*

***Key words:*** *Resolution, political leader, universally recognized values, Erasmus, international training standard ( international education degree), gender equality , social justice, democratic modernization.*

Bilamizki dunyoda qaysi davlat bo’lmasin unda albatta ijtimoiy adolat tushunchasi keng miqyosda jarangdor chorlov kabidir. Lekin bu statutga erishish uzoq tadrijiy yo’lni bosib o’tmog’i lozim. Afsuski bu yo’lda ko’plab qiyinchiliklar yuzaga kelishi tayin va bu sotsioevolutsional jarayonda asosiy ikki dastakdan iborat : ma’rifatli xalq va kuchli yetakchi bu ikkisi bamisoli tarozining ikki pallasi kabi muvozanatda ushlashi orqali jamiyatda barqarorrivojlanish qaror topadi.

“Ijtimoiy adolat”ning mafkuraviy kelib chiqishini adolatning tarixiy rivojlanishidan izlash muqarrar ravishda Arastuga borib taqaladi. U birinchi boʻlib adolatning har xil turlarini ajratib koʻrsatgan va aniqlagan boʻlib bu bizning adolat haqida qanday fikr yuritishimizni kontseptual shakllantirishga xizmat qildi. Aristotel birinchi boʻlib umuminsoniy adolat va xususiy adolatni ajratib koʻrsatdi. Birinchisi barcha fazilatlarni qamrab oluvchi yoki boshqaradigan eng oliy fazilat

boʻlsa, ikkinchisi adolatning ayrim maxsus sohalarda qoʻllanilishini nazarda tutadi. Maxsus adolatning turli turlariga e’tibor qaratadi: taqsimlovchi adolat, tuzatuvchi adolat va oʻzaro adolat. Taqsimlovchi adolat deganda davlat lavozimi, sha’ni va boyligini xizmat koʻrsatish nisbatiga koʻra taqsimlash tushuniladi; tuzatuvchi adolat oʻgʻirlik, qotillik, talonchilik, tuhmat va boshqalar kabi majburiy ijtimoiy almashinuvni oʻz ichiga oladi; oʻzaro adolat ixtiyoriy iqtisodiy almashinuvni, masalan, sotishni oʻz ichiga oladi. Oʻrta asr mutafakkirlari oxirgi ikkitasini kommutativ adolat umumiy nomi ostida birlashtirgan. Shubhasiz, “ijtimoiy adolat” tushunchasi Aristotel boʻlimida mavjud emas. Xoʻsh, “ijtimoiy adolat” tushunchasining kelib chiqishi, nasl-nasabi oʻrtasida bogʻliqlik bormi? Agar shunday boʻlsa, bu bogʻliqlik qanday sodir boʻlgan? Agar yoʻq boʻlsa, “ijtimoiy adolat” degan mutlaqo yangi tushuncha qayerdan paydo boʻlgan? Savolarni paydo qiladi, “ijtimoiy adolat” “taqsimlovchi adolat” bilan tenglashtirilgan ma’noda, adolatning tarixiy ildiziga, ayniqsa “taqsimlovchi adolat” tarixiy tafakkur asosida koʻrib chiqilishi mumkin. Shu oʻrinda, nega hozirda “ijtimoiy adolat” soʻzi koʻp qoʻllaniladi, degan savolni vaqtincha chetga surib, avvalo, bugungi “tarqatish adolati”, ya’ni “ijtimoiy adolat” va “adolat” oʻrtasidagi farqni koʻrib chiqishimiz zaruriyat deb hisoblaymiz.

Huquqiy-falsafiy tafakkur tarihida taqsimlovchi adolat” masalasi boʻyicha ikki xil yondashuv mavjud.

Birinchi yondashuv ikkalasi oʻrtasidagi meros munosabatlarini ta’kidlashga qaratilgan. Aristotelning "taqsimlovchi adolat" ta’rifini koʻrib chiqish: mazmun nuqtai nazaridan, axloqiy jihatdan muhim narsalarni adolat bilan taqsimlash yoki yoʻqligini hukm qilish va hukm qilish mezoni sifatida "xizmat" dan foydalanish; shakl nuqtai nazaridan. Bu ma’lum narsalarni taqsimlash ma’lum bir me’yor boʻyicha adolatli yoki adolatsizlikni hukm qilishdir. Qaysi narsalarni taqsimlash va qaysi hukm standartiga koʻra, u koʻpincha vaqt oʻtishi bilan bir-biridan farq qiladi. Ushbu rasmiylashtirish "taqsimlovchi adolat" nomi bilan birga xristian an’analariga Akvinskiy kabi oʻrta asr mutafakkirlari tomonidan kiritilgan va bugungi kunda ham ta’sir oʻtkazmoqda. Shu bois, bugungi kunda biz soʻz

yuritayotgan "tarqatish adolati" bo'lgan "ijtimoiy adolat" ko'pchilik tomonidan Aristoteldan kelib chiqqan "taqsimlovchi adolat"ning kengaytirilgan shakli sifatida baholanadi, ya'ni u eng tizimli izlanish sifatida qaraladi. adolat va kengroq manfaatlar uchun taqsimlovchi adolat. Biroq, bu tushuncha "ijtimoiy adolat" muammosini osonlikcha soddalashtirishi mumkin: Shoshilinch ravishda tarqatilishi kerak bo'lgan bir guruh narsalar mavjud, tarqatish oladigan odamlar guruhi mavjud va tarqatishni amalga oshiradigan tarqatish agentligi bor, u qanday mezonlar bo'yicha taqsimlanishi kerak? Shunday qilib, "Ijtimoiy adolat" tug'ilgan kunida tortni qanday qilib yaxshiroq kesish kabi narsalar bilan shug'ullanadi. Bu, ayniqsa, bugungi kunda keng tarqalgan "taqsimlovchi adolat"ning mashhur talqini bo'lib, ko'pchilik "ijtimoiy adolat"ni shu ma'noda tushunadi. Biroq keng omma orasida keng tarqalgan bu qarash "ijtimoiy adolat" tushunchasidan foydalanishga qarshi boo'lgan olimlar tomonidan tanqid qilindi. Xaek va Nozikning tanqidlari ana shu umumlashgan tushunchaga qaratilgan.

Taqsimot adolati bo'yicha bahslar asosan kafolatlanishi mumkin bo'lgan vositalar miqdori va bu vositalarni taqsimlashni ta'minlash uchun zarur bo'lgan davlat aralashuvi darajasiga qaratiladi." Ko'rinib turibdiki, birinchisi mazmuni va shakli jihatidan Aristotelning "taqsimlash adolati" ga juda mos keladi; ikkinchisi esa taqsimlanadigan narsalar va taqsimlash me'yorlari jihatidan birinchisidan butunlay farq qiladi. qaysi u asoslangan , bu erda farq asosan ikki tomonidan nazarda tutilgan mazmuniga ko'ra belgilanadi. Albatta, muallif bu yuzaki tafovut bilan cheklanib qolmoqchi emas, balki ikkinchisini mustaqil tushunchaga aylantiruvchi bir qator asosiy tarixiy omillarni ochib berishni, shu orqali "taqsimlovchi adolat" degan ikki tushunchaning o'zgarishi faqat bir-biridan farq qilish emasligini ta'kidlaydi. Narsalarni belgilash tarqatish mezonlarini o'zgartirish va kengaytirish kabi oddiy. Lekin har qanday holatda ham muallif har ikkalasi uchun ham bir xil "taqsimlovchi adolat" nomini qo'llaydi, bu esa hech bo'lmaganda rasmiy ma'noda "taqsimlovchi adolat" tushunchasi hamon Aristotel ta'rifiga tegishli ekanligini ko'rsatadi.

Yuqoridagi faktirlar shuni ko’rsatadiki insoniyat tarixi va intelligent salohiyati oldida doim ijtimoiylashuv asosiy hodisa ammo faqat xalqning ma’naviy dunyosi hal etmaydi shu asosda siyosiy yetakchining ham faoliyati u tanlagan siyosiy yo’l kata ahamiyatga ega. Misol uchun yangilanga konstitutsiyamizda ham xobius korpus fakti yoki ish bilan taminlash , kafolatli o’quv tartibi , konstitutsiyaning bevosita amal qilinishi va unga zid keluvchi normalar o’z-o’zidan bekor bo’lishi tartibi jamiyatda ijtimoiy adolat va barqarorlik uchun eng zaruriy asoslardan. Endi bu qomusiy asos jamiyat hayotining ajralmas bo’g’ini bo’lib , huquqiy madaniyat va huquqiy ongni tarkibi sifatida amalda namoyon bo’lishi zaruriyati yuzaga kelmoqda. Har qanda davlatda adolat barqaror taraqqiyot uchun faqatgina shu xalq va faqatgina shu xalqning tepasidagi rahbargina daxldordir . Globallashuv jarayonida ,, Demokratiya exporti” keng kuchaymoqda lekin bizga yaxshilikni faqat o’zimiz o’z ichki imkoniyatimizdan kelib chiqqan holda amalga oshira olamiz.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг асосий якунлари ва 2017 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маърузаси

2. Президент Шавкат Мирзиёевнинг “Камолот” ёшлар ижтимоий ҳаракатининг IV қурултойидаги нутқи

3. Президент Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис палаталари, сиёсий партиялар ҳамда Ўзбекистон Экологик ҳаракати вакиллари билан видеоселектор йиғилишидаги маърузаси

# O’QUVCHILARNI BADIIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA METODLARNING AHAMIYATI

***Aliyeva Matluba Jakbaraliyevna***

*Namangan davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi yo’nalishi 2-bosqich talabasi*

*Tel: +998941521147*

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada oʻquvchilarning badiiy qobiliyatlari, rivojlantirish usullari, oʻquvchilarning tasviriy san’atga boʻlgan qiziqishlarini oshirishda metodlarning ahamiyatini bilib olish mumkin.*

***Аннотация:*** *В данной статье можно узнать о художественных способностях учащихся, методах их развития, о значении методов в повышении интереса учащихся к изобразительному искусству.*

***Abstract****: In this article, it is possible to find out the importance of metdos in improving the artistic abilities, methods of development of students, their interest in the visual arts.*

***Kalit so’zlar****: rasm chizish, san’at, metod, rassomlar haqida qiziqarli faktlar, texnologiya, qobiliyat, qobiliyatni rivojlantirish.*

***Ключевые слова:*** *интересные факты о рисовании, искусстве, методе, художниках, технологии, развитии способностей, способностей.*

***Key words:*** *drawing, art, method, interesting facts about artists, technology, ability, ability development.*

*“Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma`naviy salohiyatga ega bo`lib, dunyo miqyosida o`z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo`sh kelmaydigan insonlar bo`lib kamol topishi, baxtli bo`lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”.*

***Sh.M.Mirziyoyev***

Qobiliyat bilimlar, koʻnikmalarda emas, balki ularni egallash dinamikasida ya’ni bilim, koʻnikmalar qanday sharoitda tez, chuqur va oson egallanishida namoyon bo`ladi. Bu tushunchadan bugungi kunda ham foydalaniladi.

B.M.Teplov qobiliyatlarining umumiy nazariyasini ishlab chiqishga oʻz xissasini qoʻshgan. B.M.Teplovning fikricha “qobiliyatlar” tushunchasi oʻz ichiga 3 gʻoyani qamrab oldi.

“Birinchidan: qobiliyatlar deganda-bir odamni boshqasidan ajratib turadigan individual psixologik xususiyatlar tushuniladi...”.

“Ikkinchidan: qobiliyat deganda, har qanday individual psixologik xususiyatni emas, biror bir faoliyatni muvaffaqiyatli bajarilishini ta’minlovchi xususiyat tushuniladi”.

“Uchinchidan: “qobiliyatlar odamning bilimlari, koʻnikmalari va malakalariga tenglashtirilmasligi lozim”.

B.M.Teplovning fikricha qobiliyatlar doimiy rivojlanishdagina mavjud boʻlishi mumkin.

Rivojlanmagan, amaliyotda qoʻllanilmaydigan qobiliyat vaqt oʻtishi bilan yoʻqoladi.

Rasm chiza bilish va hamma masalalarga ijodiy yondashish barcha sohalarda zarurdir. Ijodiy yondashish butunlay yangi gʻoyalar va tasavvurlarni vujudga keltiradi, shaxsni badiiy rivojlantirishda muhim oʻrinni egallaydi. Metodika ta’lim-tarbiya jarayonida o'qituvchining oʻquvchilar bilan ishlash usullarining mazmunining xususiyatlariga qarab chiqadi. Ma’lumki, maktabda oʻqitishning xilma-xil metodlari qoʻllaniladi. Bu yerda ta’lim usuli, oʻquv materiallarining joylashishi (oʻquv, reja, dastur), ta’lim prinsiplari va yana (soʻngida), oʻquv tarbiyaviy ishlarning umumiy maqsad va vazifalari eng muhim ahamiyatga egadir. “Metod” soʻzi grekcha boʻlib, “Tadqiqot yoʻli”, “bilish usuli” ma’nosini anglatadi. Pedagogik oʻqitish metodlari deganda, maktab oʻquvchilarning bilim, mahorat va malakalarini egallashida, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda va dunyoqarashini tarkib toptirishda oʻqituvchilarning qoʻllagan ish usullari tushuniladi.

Bugungi kunda o'quvchilarning badiiy qobiliyatlarini rivojlantirishda turli metodlardan foydalanish mumkin. O'quvchilarni qobiliyatini aniqlash uchun avvalo o'qituvchi ularning qobiliyatlarini ajrata olishi kerak. Sababi o'quvchilarda qobiliyat ularning faqat bitta fan uchun emas, balki, bir necha fanlarda bo'lishi mumkin. Badiiy qobiliyatni aniqlash bo'yicha an'anaviy va xalqaro dasturlar mavjud. Bundan tashqari psixolog olimlar qobiliyatni aniqlash uchun maxsus savolnoma va testlar ham ishlab chiqishgan. Masalan, ikki nafar amerika psixologi G. Kaf va A. de Xaan uzoq vaqt davomida tug'ma qobiliyatlarni o'rganish ustida ishladilar va oxir-oqibat, bolalarning qobiliyatlarini aniqlashga yordam beradigan noyob savolnomani ishlab chiqdilar. Jumladan tasviriy san'at sohasi bo'yicha:

**badiiy qobiliyatning olti belgilari**

- bunday bolalar noto'g'ri so'zlar va his-tuyg'ularni qog'ozga yoki modellashtirish, o'ymakorlik va hokazolar uchun materiallarga tushirishni boshlaydilar;
- ko'pincha taniqli rassomning ishi haqida o'z fikrini ifodalashi mumkin;
- jo'shqinlik bilan va barcha mahsulotlarga jiddiy qaraydi. Ko'pincha ular o'zlarining mavzularini yoki suratlarini qiziqtirgan landshaftlarni tomosha qilishadi;
- agar bola chizmachani tortib olsa, unda kichik narsalarda u ko'rgan hamma narsani aks ettiradi, faqat bir kishini jalb qilishda to'xtamaydi, chizilgan rasmda o'z fikrini yo'qotishga harakat qiladi;
- bunday bolalar foydali va chiroyli narsalarni yaratishga jalb etiladi, masalan, uy uchun hunarmandchilik;
- bu bolalar bo'sh vaqtlarini chizish,  qo'l san'atlari va boshqa san'at turlariga bag'ishlamoqdalar.

O'qituvchi tasviriy san'at darslarida o'quvchilarni dars mavzusiga aktivlashtirish uchun dars mavzusining mazmuni, hayotdagi ahamiyati va uni chizish qoidalarini tushuntirishi zarur. Ba'zida o'qituvchilar tasviriy san'at darslarini tashkil etish uchun o'quvchilarga dars mavzusi yuzasidan savollar berib,

unga berilgan javoblarini toʻldirish kabi vositalardan foydalaniladi. Oʻquvchilar dars va darsdan tashqari vaqtlarda mustaqil ravishda bajarayotgan ishlari vositasi bilimga, malakaga, ijodiy koʻnikmaga ega boʻladilar, oʻqituvchining vazifasi oʻquvchilarning mustaqil ishlariga yordam berishi, ragʻbatlantirish metodi asosida ilhomlantirish, yutuq va kamchiliklarini oʻz vaqtida koʻrsatish, ularni oʻz kuchiga ishonchini mustahkamlashida rahbarlik qilishi zarur.

Insoniyat ma'naviy madaniyatining tarkibiy qismi san'atdir. U musiqa, teatr, kino, badiiy adabiyot, xoreografiya, tasviriy va amaliy bezak san'ati kabi boshqa turlarini oʻz ichiga oladi. San'atning har bir turi oʻz oldiga qoʻyilgan vazifalarni aks ettirishda har xil vositalardan foydalanadi, masalan, adabiyot - so'zdan, musiqa - tovushlardan, tasviriy san'at - rang va chiziqlardan va hokazo. Shu bilan birga, har bir san'at turi oʻz ichida yana xillarga va janrlarga boʻlinadi. San'atni tushunish, uning kishilar hayotidagi roʻlini aniqlash masalasi butun madaniyat tarixi davomida keskin bahs, tortishuvlarga sabab boʻlib kelgan. San'atning eng qadimiy va keng tarqalgan turlaridan biri - tasviriy san'atdir. Odatda real borliqni badiiy obrazlarda, mavjud predmetlarni tabiiy shaklini oʻziga oʻxshatib umumlashtirib ifodalaydi hamda predmetlarning hajmi, oʻzaro fazoviy joylashuvini va hokazolarda aks ettiradi.

San'atkor oʻz asarida voqea, hodisa, holatning ma'lum bir koʻrinishini ifodalab, u tasvir orqali rivojini, mohiyatini ochib berishga intiladi, kishilarning ma'naviy qiyofasi, psixologik holati va boshqa fikrlarni ilgari suradi va tasavvur qiladi. Rassom biror shaxsni rasmini ishlar ekan, u hech vaqt uni faqat oʻziga oʻxshatishga ishtilish bilan chegaralanmaydi. Rassom shu ishlayotgan tasvir orqali avvalo o'zining fikr va tuyg'ularini tomoshabinga yetkazishga harakat qiladi. Ishlamoqchi boʻlgan tasvirida avvalambor gʻoyasiga mos mavzu, syujet tanlaydi, voqea kompozitsiyasini quradi, shu yoʻlda izlanadi, dastlab hayotni oʻrganib, naturani kuzatib, eskizlar chizadi, etyudlar yaratadi. Rassomlik san'atida predmetlarning shakli, hajmi, rangi, ularning oʻzaro muvozanatini toʻgʻri koʻrsatishda rasmni aniq va toʻgʻri ishlashning juda muhim ahamiyati bor. San'atkor oʻz asarida real borliqda uchraydigan, balki inson fantaziyasi mahsuloti

boʻlgan voqea va predmetlar ham aks ettirilishi, hayotda mavjud boʻlgan hodisalarning ayrim jihatlari oʻzgartilib, boʻrttirib koʻrsatishi ham mumkin. Bundan koʻrinib turibdiki, tasviriy san'at asarlari - insondagi ajoyib fazilat - borliqni bilish, uni oʻrganish va sirlarini ochishga boʻlgan ehtiyojlarni qondirishga ta'sir koʻrsatadi. Tasviriy san'at inson ongiga tezda ta'sir etib, unda ezgu hislar uygʻotadigan, kishini ruhlantirib, ma'naviy olamini boyitadigan san'at turlaridan biridir. Shu bilan birga, tasviriy san'at inson shaxsining shakllanishiga va kamolatiga yordam beradigan tarbiyachi hamdir.

Rassomlaming koʻzi oʻtkirligi, idrok va reaksiya tezligi yaxshi ma'lum:

- rassom N. Jukov bilyardda doim gʻolib boʻlishi bilan faxrlangan;
- ertakchi rassom Viktor Vasnetsov gorodkini yuqori mahorat bilan o'ynashi ko'pchilikni lol qoidirgan;
- manzarachi I.Levitan miltiqdan Vilgelm Telldek otgan – "oʻqni oʻqqa" joylagan; - XVI asr italyan zargar va haykaltaroshi Benvenuto Chellini artilleriyachi sifatida janglarda qatnashgan. "Mening rasm chizishim va ajoyib mashgʻulotlarim yozadi u, - va musiqa chalish goʻzalligi, barchasi shu qurollarda "chalishimda" ketdi". Darhaqiqat, koʻz oʻtkirligi talab etiladigan oʻrinlarda rassomlar oson gʻolib boʻlishadi.

Mikelandjelo aytganidek, san'at ularning koʻzlarida sirkul va chizgichni bir paytning oʻzida joylashtirishga oʻrgatgan. Ram chizish nafaqat koʻrish idroki tezligini, balki yaxshi koʻrish xotirasini ham shakllantiradi. Razvedkasi Logann Vays (Sasha Belov) maxfiy hujjatlarning koʻplab sahifalarini bir koʻrishda eslab qolgani koʻpchilikka ma'lum. Moʻjizami. Yoʻq moʻjiza emas, mashq qilishi. Rassomlar hamisha koʻrish xotirasi kuchliligi bilan shuhrat qozonib kelgan.

I. Levitan oʻrtoqlarini lol qoldirgan. Qish tunida bir guruh rassomlar oʻrmonga sayrga otlanishadi. Ular ertaklardagidek goʻzal manzaraga guvoh boʻlishadi - moviy, oy shu'lasi yoritib turgan qorda kul rang-pushti jemovlar va ular uzra qorga oʻrangan qaragʻaylar. Hamma manzaradan bahra olib, uy-uyiga tarqaydi. Oradan bir necha kun oʻtib, rassomlardan biri Levitan ustaxonasida kartinani ko'radi: xuddi oʻsha tungi manzara - moviy qordagi kul rang-pushti

jemovli manzara. Levitan uni, razvedkachi Vays maxfiy hujjatlami eslab qolgani kabi eslab qolgan va xotiradan chizgan. Rassom Ayvazovskiy shunday koʻrish xotirasiga ega ediki, dengiz koʻrinishlarini oʻz ustaxonasiga qamalib olib tasavvuri boʻyicha chizardi. Hikoya qilishlaricha, u Peterburgdagi bir kvartiradan ketayotib, devorda kiyim ilgich ostiga oʻz poʻstinini shunday chizib qoʻyganki, uy egasi ijarachi poʻstinini unutib qoldiribdi, degan xayolga borgan. Faqat yaqinroq kelganidagina, poʻstin chizib qoʻyilganini fahmlagan. Shunday qilib, barchaning san’at va goʻzallik olamini bilishi ta’limning barcha sohalarida jadal rivojlanishga olib keladi.

Tasviriy san’at oʻqitish metodikasi asosiy predmetlari va u oʻz oldiga quyidagi vazifalarni qoʻyadi:

1. Oʻquvchilarga tasvirlash asoslarini oʻrgatish, ya’ni badiiy ijodning psixologik asoslari bilan bogʻliq boʻlgan jarayonlar - qiziqish, diqqat, idrok va sezish, xotira va tasavvurni yaxshi bilishi bolalar badiiy ijodini faollashtirishda foydalanishga oʻrgatish.

2. Oʻquvchilarning badiiy ijodiy qobiliyatlarini oʻstirish, ularning badiiy didini tarbiyalash, borliqdagi va san’atdagi goʻzalliklarni koʻra bilishga oʻrgatish.

3. Boʻlajak oʻqituvchilarni tasviriy san’at darslarini olib borishga tayyorlash va shu bilan birga mashgʻulotlarni hayot bilan bogʻlab oʻtishga oʻrgatish.

4. Sharq mumtoz san’ati, hozirgi zamon oʻzbek tasviriy san’ati, sharq xalqlari va xorijiy mamlakatlar san’atlari haqida qisqacha ma’lumot berish.

Bundan koʻrinib turibdiki, badiiy qobiliyatni aniqlash va rivojlantirishda tasviriy san’atning oʻrni beqiyosdir.

Qobiliyatlar har qanday yoshda oʻzini namoyon qilishi mumkin. Biroq, ular qanchalik tez aniqlansa, ularning muvaffaqiyatli rivojlanishi ehtimoli shunchalik yuqori boʻladi. Shuning uchun ham hozirgi vaqtda ta’lim muassasalarida juda yoshligidanoq mehnat talab etiladi, bu davrda bolalarning qobiliyatlarini rivojlantirish darajalari aniqlanadi. Maktab oʻquvchilari bilan ishlash natijalariga koʻra, ma’lum bir sohaga aniqlangan qobiliyatlarni rivojlantirish uchun mashgʻulotlar oʻtkaziladi. Bunday ishlarni faqat maktab bilan cheklab boʻlmaydi, bu boradagi ishlarda ota-onalar ham faol ishtirok etishlari kerak.

Umumiy va oʻziga xos qobiliyatlarni aniqlash uchun eng koʻp qoʻllaniladigan usullar:

- "Hammaning muammosi", fikrlashning maqsadga muvofiqligini, ya'ni odam oʻz oldiga qoʻygan vazifaga qay darajada diqqatini jamlashi mumkinligini baholash uchun moʻljallangan.

- "Oʻnta soʻzni yodlash texnikasi yordamida xotirani oʻrganish", xotira jarayonlarini aniqlashga qaratilgan.

- "Ogʻzaki fantaziya" - ijodiy qobiliyatlarning, birinchi navbatda, tasavvurning rivojlanish darajasini aniqlash.

- "Nuqtalarni eslab qoling va joylashtiring" - diqqat miqdori diagnostikasi.

- "Kompaslar" - fazoviy fikrlash xususiyatlarini oʻrganish.

- "Anagramlar" - kombinatsion qobiliyatlarning ta'rifi.

- "Analitik matematik qobiliyat" – oʻxshash moyilliklarni aniqlash.

- "Qobiliyat" - muayyan sohadagi faoliyatni bajarish muvaffaqiyatini aniqlash.

- "Sizning ijodiy yoshingiz", pasport yoshining psixologik yoshga mosligini aniqlashga qaratilgan.

- "Sizning ijodingiz" - ijodiy imkoniyatlar diagnostikasi.

Shu usullar yordamida qobiliyatning umumiy va oʻziga xos xususiyatlarini aniqlash va ularni rivojlantirish mumkin. Har bir usul qobiliyatning ma'lum bir turini aniqlashda yordam beradi. Sababi ijodiy, badiiy, matematik, psixologik jihatdan qobiliyatning turlarini oʻquvchilarda qanchalik rivojlanganligini koʻrsatadi.

Oʻquvchilarda qobiliyatni rivojlantirish uchun suhbat, anketa va test metodlaridan foydalanish mumkin. Suhbat va anketa metodi ogʻzaki tarzda, anketa va test metodi esa yozma tarzda olish mumkin.

Buning uchun oʻquvchilarning yosh va psixologik xususiyatlaridan kelib chiqib savollar tuziladi. Savollar majmuasi badiiy qobiliyatni aniqlashga qaratilgan boʻlishi lozim. Bunda oʻquvchilarning qobiliyat darajasini ham aniqlash oson boʻladi.

Qobiliyatning darajasi esa ularning bilim, koʻnikma va malakalarining qay tartibda rivojlantirish mumkinligini koʻrsatadi.

Xulosa qilib aytadigan boʻlsam, zamonaviy texnikalar soning koʻpayib borishi va ularning aniq roʻyxati qobiliyatning rivojlanish tekshiruvining maqsadlariga qarab belgilanadi. Bunday holda, ishning yakuniy natijasi odamning qobiliyatini aniqlash emas. Qobiliyatlarning rivojlanish darajasi doimiy ravishda oshib borilishi, shuning uchun tashxis qoʻyilgandan soʻng, baʼzi fazilatlarni takomillashtirish boʻyicha ishlar olib borilishi kerak. Qobiliyatning rivojlantirishda maʼlum bir metod va usulda toʻxtab qolmasdan, doimo rivojlantirish yoʻllarini qidirish lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Sh.M.Mirziyoyev. Hikmatli soʻzlari.
2. Raxmatova Xayrixon Ashiraliyevna. Pedagogik diagnostika va korreksiya. Darslik. Toshkent – 2021 yil.
3. J.Gʻ.Yoʻldoshev, M.K.Shirinov, F.I.Ochilov. Pedagogik diagnostika oʻquv-metodik qoʻllanma. Toshkent-2014yil.
4. S.F.Abdirasilov. Tasviriy sanʼat oʻqitish metodikasi. - T.: «Fan va texnologiya», 2012 yil.
5. https://uz.modern-info.com/13665509-human-abilities-ability-development-levels-diagnostic-methods-development
6. Internet maʼlumotlari

## HALIMA XUDOYBERDIYEVA SHE'RIYATIDA AYOL TIMSOLI

***Erkinboyeva Dilshoda***
*Namangan davlat pedagogika instituti*
*o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi*

***Annotatsiya:*** *O'zbek adabiyoti shunday chamanzorki, unda gullar ko'p, chechaklar ko'p. Bu bog'da bir-biriga o'xshamaydigan, bir-birini takrorlamaydigan*

*ijodkorlar avlodi qayta-qayta bo'y chozaveradi. Halima Xudoyberdiyeva ana shunday shoirlar avlodidandir. O'zbek she'riyatida ayol obrazida, uning qalb kechinmalari orqali xalqimizning eng yaxshi xususiyatlari ochib berishga harakat qildi.*

***Kalit so'zlar:*** *ijod, ruhiyat, tadqiqotchi, dard, ma'naviy go'zallik*

Ayolga adabiyotda juda muhim va favqulodda rol berilgan.Asarning asosiy qahramoni bo'lmasdan ham u ijod jarayonida qandaydir o'ziga xos belgi bilan keltiriladi.Va shu bilan birga, ayol har doim sir bilan o'ralgan boladi, uning xatti-harakatlari chalkashlik va sarosimaga sabab bo'lishi mumkin. Ayol ruhiyatiga, uning qalbiga kirib borish, uni tushunish Olamning eng qadimiy sirlaridan birini yechish bilan barobar. Chunki ayol timsolida sir yashirin. Bu esa ijodkordan katta mehnatni, fidoyilikni talab qiladi. Mana shunday ruh tarjimonlarining biri Halima Xudoyberdiyadir.

Shoira she'riyatining mavzu va ma'no ko'lami keng va teran.Uning she'rlarida ona Vatan, ota-ona, ayol va bola mavzulari ustunlik qiladi.Shoira ijodining tadqiqotchilardan biri To'xtasin Jalolov shunday yozgan edi: "Hamma-o'zbek ayollar she'riyatda kutilmagan hodisa ungacha bu san'at koshonasida qandaydir bir sukunat, soddalik hukm surib, kishini mudroq bosardi . Halima bu dargohga bo'ron bo'lib, suron bo'lib kirdida, tolib-toshib,oshiqib -shoshiqib baland pardalarda qo'shiq boshladi."

Men shunchaki o'ylagim kelmas,
Hayol-sharob misol qilsin sarxusht, mast.
Men shunchaki kuylagim kelmas,
Ovoz pardalarim chidab bersa bas.

Agar shoiraning ovoz bardalari chidam bersa , u yerni, kokni larzaga keltirub kuylashga tayyor. Bu "mushtipar" ayolning mungli ovozi emas, bu mardona ovoz, bu sher narasi.

Ayol otib borar, sho'x yurib,
Shamollarda soch yoygan ayol.

Ich -ichida yolbars o'kirib,
Sirtdan mayin, jilmaygan ayol

Shoiraning bu she'rida ayol shu darajada tasvirlanganki, ming og'ir dardi bo'lsa ham, ich-ichidan ezilgan bo'lsa ham irodasini yo'qotmagani har qanday holatda ham kuchli ekani mahorat bilan ishlangan.

Halima Xudoyberdiyeva ruhiyati bu ayolning matonati, yashash uchun kurashdagi jasorati! U faqat o'xshatish emas, bu she'riyat ayol qalb nidosi edi.

Onaginam
Dorilamon kunlar keldi, shafaqlari ol
Qayon boqsang , shaylanishar va sozlashar tor.
Olcha gulin ko'zlaringga surtasan behol,
"Bu kunlarga yetganlar bor, yetmaganlar bor"
Solgin-solgin lablaringdan ucharkan shu so'z,
Dorilamon kunlarga qayt , onam, yumib ko'z

To'g'ri, so'z san'atida ota-onaga muhabbat, tabiat go'zalligi, halollik, bolalarni sevish ...kabi o'nlab mavzular bor,bularning har biri ming yillardan beri yuzlab xalqlarning so'z san'atida chuqur, har taraflama ishlangan. Ammo, baribir ularning hech biri ayol tasvirlanganchalik, ulug mavqe' kasb etmaydi.Chunki ayol go'zalligi, uning qalbining qat-qatidagi orzu-intilishlari olamlarga teng.Sodiq va mehribon qalblari, betakror ma'naviy go'zalligi bilan ajralib turadigan bunday go'zal va pokiza ayollar doimo ibrat namunasi sifatida gavdalanishadi:

Oy nimadir, bizlar oy edik
Sohib aql, hur chiroy edik.
Hammadan tik qaytmas boy edik
Toki tirik, toki xiromon -
Cho'lpon ekan onalarimiz
O'q otmasdi ko'kraklarimizdan
Yovlarimiz kelmasdi tizdan
Isinardik ot yoqib muzdan
Toki tirik o'lim bilmas jon

Qalqon ekan onalarimiz

Halima Xudoyberdiyeva she’rlariga teranroq nazar solsak, biron she’ri biroviga o’xshamaydi. Uning she’rlarida qalbdan taralayotgan ayol muhabbati, mehri mujassam

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1.Raxmatova Xayrixon Ashiraliyevna. Pedagogik diagnostika va korreksiya. Darslik. Toshkent – 2021 yil.
2.J.G‘.Yo‘ldoshev, M.K.Shirinov, F.I.Ochilov. Pedagogik diagnostika o‘quv-metodik qo‘llanma. Toshkent-2014yil.

# O’ZBEK BOLALAR O’YINLARINING BOLA AQLIY FAOLIYATINING O’SISHIDAGI O’RNI

***Nazaraliyeva Maftuna***
*Namangan davlat pedagogika instituti*
*O’zbek tili va adabiyoti yo’nalishi talabasi*

***Annotatsiya:****Jamiyatning ma’naviy takomillashuvida ta’lim va tarbiyaning o’rni katta albatta. Shu boisdan ham mamlakatimizda amalga oshirilayotgan say-harakatlar bunga mutlaqo asos bo’la oladi. O’zbek bolalar folklori namunalari yosh avlod aqliy faoliyatining rivojlanishidagi yetakchi omillardan biridir.*

***Kalit so’zlar:*** *pedagogic talqin, o’yin, variant, psixologiya, tabiiy–mavsumiy o’yinlar*

Ta’limdagi yangilanishlar, ta’lim tizimini pedagogik talqin qilish bu jarayonni samaradorligini yanada oshiradi.Biz bu jarayonlarni barcha yoshdagi insonlarning ongiga singdirib borishimiz kerak.Bu jarayonni avvalo bolalarga turli xildagi o’yinlar orqali tushuntirish osonroq va ma’qul variantlardan biri.Haqiqatdan ham o’yin har bir yoshdagi bolaning tevarak atrofdagi hayotni va insonlar o’rtasidagi turli munosabatlarni har tomonlama bilib olishga qaratilgan

faoliyatdir.Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'yin faoliyati mazmunan har kungi vaziyatlarga qarab o'zgarib turadi.O'yinlar doimo o'zgarib turganligi sababidan ham bola o'ynab charchamaydi ham zerikmaydi.Bolalarning kelajakda qanday inson bo'lishini,qanday kasb tanlashini o'yinlar orqali ham bilib olish mumkin.Psixologik nuqtayi nazaridan qaraganda, to'g'ri tashkil qilingan o'yinlar bola shaxsini har tomonlama o'stiradi va shu bilan birga bolaning butun jismoniy holatlarini ya'ni sezishni, idrok qilishini, diqqatini, tafakkur qilishini, xayolini va irodasini ildam rivojlanishiga ancha yordam beradi. O'yin orqali bola olamni, undagi narsa hodisalarni, ularga xos xususiyatlarni o'rganibgina qolmay, so'zlashni, mustaqil fikrlashni, xayol qilishni, ijod qilishni, muomala madaniyatiga kirishni o'rganib oladi.

O'yin so'ziga ilmiy jihatdan qaraydigan bo'lsak, o'yin bu-tarbiyalash va hordiq chiqarish vositalaridan biridir.Biz o'yinlarni deyarli barcha sohalarda uchratishimiz mumkin. Shuningdek sportda, san'atda, harbiy va boshqa mashqlarda.Barchamizga ma'lumki, inson o'z hayotida o'yin , o'qish, mehnat, dam olish kabi mashg'ulotlar bilan band bo'ladi. Inson hayotining dastlabki davrlarida o'yin asosiy faoliyat hisoblanadi,undan so'ng esa o'yin kamayib uning o'rnini o'qish va mehnat egallaydi. Odamzod yaralibdiki, tarixning dastlabki davrlaridan boshlab o'yinlar muhim kasb etgan.Bularga misol tariqasida o'zimizning o'zbek milliy o'yinlarini olishimiz mumkin.

1.Tabiiy mavsumiy o'yinlar; "Yomg'ir yog'aloq", "Oq terakmi-ko'k terak", "Uloq" va boshqalar.

2.Turli  yosh va jinslarga xos o'yinlar; "Podachi", "Chavandoz", "Quloq cho'zma" va boshqalar.

3. Mashg'ulot va mehnat faoliyati bilan bog'liq o'yinlar; "Xirmonxirmon", "Kovushim", "Mashoba" va boshqalar.

4. Harakatli o'yinlar "Tepa kurash", "Qo'riqchi", "Chirkash" va boshqalar.

O'zbek xalq o'yinlari avlodlarni tarbiyalashda hayot maktabi bo'la oladi desak adashmagan bo'lamiz.Ayniqsa, o'zbek bolalar o'yinlari bularga yaqqol misol.Bolalar o'yinlari bolaning har tomonlama kamol topishida katta ta'sir

ko'rsatadi. Bolalar o'yinlarining uch asosiy xususiyati bor. Birinchidan, bola o'yin jarayonini o'z xohishi bilan bajaradi. Ikkinchidan, o'yin jarayonining ijodiyligi va tabiiyligi. Uchinchidan esa o'yin harakatlarining jo'shqinligi ya'ni bola o'yinga qiziqib ketadi, zavqlanadi , unda atrofdagilar bilan o'rtoqlik hisi paydo bo'ladi va hakazo. Bu o'yinlarni turli vaqtlarda amalga oshirish mumkin.Chunonchi, ko'klam kelishi bilan butun yer yuziga iliqlik yuguradi.bunday paytlarda qish bo'yi uylarga berkingan bolalar ko'chaga chiqib o'ynashadi.Biroq oxirgi o'n yillikda bolalar o'ynaydigan barcha xalq o'yinlari smartfon va gadjetlarga ko'chdi va ularda jismoniy harakat asta sekin pasayib boryapti. Gadjetlardagi o'yinlar bolalar tasavvurini kengaytirishi, aqlini charxlashi mumkin ammo kompyuter o'yinlari deyarli harakatsiz o'yinlar sirasiga kiradi. Biroq hozirgi kunda ham O'zbekiston hududida tarixan juda o'zbek milliy o'yinlari ko'p o'ynaladi.Bu o'yinlar avloddan avlodga o'tib kelmoqda.Bular "Oq terakmi-ko'k terak", "Berkinmachoq", "Oshiq", "Boychechak","Xola-xola", "Qorxat" kabi o'yinlar. O'zbek milliy o'yinlari avlodlarni tarbiyalashda muhim o'rin tutadi.O'yinlar yosh avlodni aqlan , ruhan va jismonan barkamol bo'lib yetishishlarida muhim o'rin egallaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O . Safarov. O'zbek bolalar folklori . – Toshkent – 2007. 17 – bet
2. O'zbek folklori 1- kitob . Toshkent , 1939
3. Gulyor . Farg'ona xalq qo'shiqlari. Toshkent, 1967
4. Jahongirov G'. O'zbek bolalar folklori. Toshkent, 1975

## DILOROM ERGASHEVA IJODI POETIKASI

***Shamsiya Egamberdiyeva***
*Namangan davlat pedagogika instituti*
*Tillarni o'qitish metodikasi kafedrasi o'qituvchisi*
***Diyora Nurmuhammaedova***
*Namangan davlat pedagogika instituti*
*O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi*

***Annotatsiya:*** *O'zbek adabiyoti bo'stoniga rango-rang turfa g'azallar bilan hissa qo'shayotgan shoirayi zamonlardan biri bu namanganlik shoira Dilorom Ergashevadir. Dilorom Ergasheva o'zining aruzda bitgan latif g'azallari bilan muxlislari qalbidan joy olgan ijodkordir.Ijodkor g'azallari badiiyati, leksikasining rango-rangligi uning ijodini tadqiq etishga chorlaydi.*

***Kalit so'zlar:*** *uslub, "Payvand", debocha, ohang, nazira, taxmis.*

***Аннотация:*** *Дилором Эргашева, поэтесса из Намангана, одна из поэтов, внесших в мир узбекской литературы красочные газели. Дилором Эргашева – артистка, покорившая сердца поклонников своими прекрасными газелями.*

***Ключевые слова:*** *стиль, «Пайльванд», прелюдия, тон, контраст, тахмис.*

***Annotation:*** *Dilorom Ergasheva, a poetess from Namangan, is one of the poets who contribute to the world of Uzbek literature with colorful ghazals. Dilorom Ergasheva is an artist who has won the hearts of her fans with her beautiful ghazals.*

***Key words:*** *style, "Pailvand", prelude, tone, contrast, takhmis.*

Namangan adabiy muhitida o'ziga xos ohangi, uslubi va so'ziga ega ijodkorlardan biri Dilorom Ergashevadir. Dilorom Ergasheva 1967 yil 8 noyabrda Namangan viloyati Uchqo'rg'on shahrida ziyoli oilada tug'ilgan. 1984 yilda 1-o'rta maktabni bitirib ToshDU o'zbek filologiyasi fakultetiga o'qishga kirdi. 1986 yil oilaviy sharoitiga ko'ra o'qishni yakunlolmay qaytdi. 1984 yildan shu kunga qadar gazeta va nashriyotlarda, Yozuvchilar uyushmasi viloyat bo'limida ishladi.

2006 yildan beri O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi. "Oyning o'n beshi" (1996), "Muhabbat" (2001), "Hech nima diydorga yetmaydi" (2007) she'riy to'plamlari, "Oshiq o'lsang" (2011), "Asror" (2017) devonlari va "Saraxbor -1" (2010) "Saraxbor-2" (2011), "Saraxbor" (2017, qayta nashr) mutoz qo'shiqchilikka oid g'azallar va izohlari to'plami Azizbek Hakimov bilan hammualliflikda kitoblari chop etilgan. Yuzlab badiiy kitoblarga muharrirlik qildi. Shuningdek, viloyat va

respublikamizda chop etilgan oʻnlab bayozlarda, gazeta va jurnallarda she'r va gʻazallari chop etildi. Gʻazal va she'rlari hofizlar va qoʻshiqchilar tomonidan ijro etib kelinmoqda. 2021 yilda Payvand deb nomlangan yangi janrga qoʻl urdi. Turkiya davlati Anqara shahrida Navoiy hazratlari tavalludining 580 yilligiga bagʻishlangan "Payvand" nomli kitobi nashr qilindi. Namangandagi "Mashrab" nomli nashriyotda 2021 yil oʻrtalarida yana "Payvand"ning Oʻzbekistondagi nashri e'lon qilindi. Bir qancha safdoshlari qatori barmoqda ijodini boshlagan shoira aruzning qadim navolari ta'sirida mumtoz adabiyot gulshaniga oshiq bo'ldi. Bugun u aruzda ijod qilayotgan kam sonli shoiralardan biri. Navoiy, Bobur, Mashrab kabi buyuk salaflari izidan borib, ulardan o'rgandi, ta'sirlandi, ergashdi, g'azallariga taxmislar bog'ladi. O'z uslubida yangi g'azallar yaratdi. Shoiraning "Asror" devoni mumtoz adabiyot an'analari asosida yaratildi. Ijodkor o'z debochasida devonning yaratilish maqsadi, uning "Chorbog'", "Taraddud" kabi nomlar bilan atalishini istagani va "Asror" qarorining dalillarini keltiradi.

*Man telbaga lutfing, sanga izhor kerak,*
*Gʻamliqqa kerak may, sanga asror kerak.*
*Vasling bila mast ayla, dilim qulfini och,*
***Asrorima** Sendek oʻzi **asror** kerak.*

Devon an'anaviy Ollohga hamd, Muhammad alayhissalomga na't bilan boshlanadi. "Asror'dagi g'azallar soni –102 ta, murabba – 6 ta, muxammas–10 ta, musaddas–2 ta, tuyuq–5ta, chiston –1 ta, ruboiy –10 ta, masnaviy – 1tani tashkil etadi.

Shoira g'azallarida go'zallikni nozik his qilishi, estetik ma'no va joziba, hayot mohiyatini anglashga intilishi, o'zlikni idrok qilishi va chuqur falsafiy mushohadasi bo'rtib ko'rinib turadi. Mashrabona ohang, tasaffuviy ruh, itoat va isyon ufurib turgan ijod namunalari o'tmish va zamon sarhadlarini birlashtirib yuboradi. G'azallarning hajmi 5 baytdan 9 baytgacha, son va salmoq jihatdan esa 6 baytli g'azallar ko'proq uchraydi. Xuddi Nodira kabi yor obrazida haqiqiy ishq va dunyoviy ishqni birlashtiradi.

Shoiraning radif qo'llash mahorati katta ko'lamda va juda boy. She'rlarda radiflar takroriga deyarli duch kelmaymiz. Holbuki, "Radif she'rning badiiyligini oshiradi. Ikkinchidan esa, u ijodkorning mahoratini ko'rsatib beradi".Shoiraning "Yig'latmagin", "Yo'l", "Mashg'ul", "Muqaddam", "Ko'rsam", "Ayrilsam", "Ichdim", "Ko'zlarim" kabi radifli g'azallari shakl va mazmun jihatdan betakror va bir-birini takrorlamasdir. Ba'zi she'rlarida esa shoira radif keltirib o'tirmaydi. Saralangan qofiyalar g'azalning ohangini, ta'sirchanligini oshirib beradi.

*Chamanning gullari sof **benihoya**,*
*Yuzing gullar yuziga soldi **soya.***
*To'kib bolu parin bulbul chekar oh,*
*Topildi to'tiga shirin **hikoya**.*
*Gahi Oftobu, goho Oy – sifoting,*
*Botib har ikkisi lek bo'ldi **zoya.***
*Soching tundek dedim, yoysang banogoh,*
*Falak yulduzlari izlar **himoya**.*
*Sani Isonafas derlar, va lekin*
*Nafas ursang, erib qum bo'ldi **qoya.***
*«Dilorom, top, – degaylar, – yorga tashbeh!»*
*Qani, oshiqlig'im qilsa **kifoya***

Mumtoz adabiyotda,odatda, g'azal matlasida ijodkor o'z taxallusiga ishora qilib o'tadi. Lekin bu qat'iy qoida hisoblanmay, ijodkor o'ziga ishora qilmasligi ham mumkin. Shoira ham ko'pincha "Dil" "Dilo"," Dilorom " kabi o'z ism va taxalluslarini qo'llasa, ba'zi g'azallarida taxallusini keltirib o'tirmaydi.Shoiraning mahorati shundaki , u o'z taxallusidan ham go'zal poetik bo'yoq yaratishda foydalana oladi. Maqtalarda o'zni "Dil" deb atar ekan, bu so'z bilan bog'liq iyhomni ham yuzaga keltirdi.

*Tikon har maysayu chog'dek botar har tosh oyog'imga,*
*Nechun **Dil** bog'layin dunyogakim, undan guzorim bor.*

Dilorom ismidan ham shoira o'z g'azallari maqtasida maqsadli foydalanadi.

*Berdi oroyish o'ziga , oldi **Dil oromini***

*Barcha oro– husni oro, husni oroyindamas*

Noana'naviy tarzda shoira o'ziga nisbatan "ey" undovini qo'llamaydi. O'rniga go'zal tarzda "Dilo" deb murojaat qiladi o'ziga . Bu ham ijodkorning noyob va faqat o'ziga xos go'zal topilmalaridan biridir.

*Yorni sevmaslar sani sevmas, Dilo,*
*Sevgani rashkdin takallum aylamas.*

Shoira aruzning barcha bahrlarida ijod eta olsa-da, ko'proq ramal va hazaj bahrlaridan foydalanadi.

*Dedim gulga: "Bosay bag'rimga bir, bahorga o'xshaysan!"*
*Dedi: "Haddingda tur, ey andalib, beorga o'xshaysan!"*

v---/v---/v---/v--- (mafoiylun, mafoiylun, mafoiyl) *hazaji musammani solim*da yozilgan bu g'azalda shoira mumtoz adabiyotdagi an'anaviy savol –javob usulidan ham unumli foydalanadi.

Chiqdi yo kun, yoki yorim kulbadan,
Bilmadim ko'zlar qamashdi jilvadan.

-v--/-v--/-v- (foilotun,foilotun, foilun) *ramali musaddasi mahzuf*da bitilgan bu g'azal ham betakror o'xshatishlari-yu, go'zal topilmalari bilan , so'fiyona ohangi bilan ijodkor g'azaliyotida alohida o'ringa ega.

Shoiraning ko'pgina g'azallarida o'z salaflari kabi musiqani chuqur his qilishi, milliy musiqa namunalarini teran anglashini ko'rishimiz mumkin.

" Saraxbor' u "Bayot", "Gulyor"u "Ushshoq"–
Tushar har ko'yga bag'rim tordan ayro

Ollohning ishqini Mashrab-u Nasimiydan meros qilib olgan ijodkor merosida tasaffuviy ruhdagi g'azallar bisyor.

*Xudoning joyidur ko'ksim, manga olamda joy yo'qdur,*
*Maningdek yo'q g'arib, el nazdida, aslinda boy yo'qdur.*
*Mudom ko'ksimda qon, ko'zimda qon, bir silmadi hech kim,*
*Ulusning ko'zi yo'q yoxud vujudim, hoynahoy, yo'qdur.*
*Adam vodiysini ko'z ko'rmadi, topmas oyog'im ham,*
*Nahot, axtarganim yorug' jahonda, voy-voy, yo'qdur?*

*Agar: "Kel! "– desa, o'q yanglig' uchib qoshiga borgayman,*
*Jahonda Dilni rost aylar yana bir boshqa yoy yo'qdir.*

Qalbni Ollohning mulkidir. " Vahdati vujud" ta'limotiga ko'ra olam – Ollohning ko'zgusi, inson qalbi shu ko'zguning markazidir.Inson qanchalik sayqal topsa, u shunchalik Ollohning nurini aks ettiradi. Shoiraning o'ziga xos noyob tashbehi ,""Kel", –desa o'q yanglig uchib qoshiga borgayman" miralarida namoyon bo'ladi. Mumtoz adabiyotda ham, zamonaviy adabiyotda ham qush yanglig', shamol yanglig' uchib bormoq tashbehlari ko'plab uchrasa-da, o'q yanglig' uchib borish, albatta, shoiraning yuksak topqirligi va badiiy tasvir mahoratidan dalolatdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.Ishoqov Yo . So'z san'ati so'zligi .-Toshkent:"O'zbekiston",2014,127-bet
2.Oripov A. Zamon ,shoir va g'azal//"Sharq yulduzi,2015,1-son,100-bet
3. Jumaxo'ja H.Feruz madaniyat va san'at homiysi.–Toshkent:"Fan",1995, B59
4.Ochilov Ergash Navoiy va Ogahiy// "O'zbek tili va adabiyoti ", 2022,4-son B36

## SIROJIDDIN SAYYID IJODIDA VATAN TIMSOLI

***Madina Mehmonjonova***
*Namangan davlat pedagogika instituti*
*O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada o'z elining ardoqli farzandi bo'lgan shoir Sirojiddin Sayyid hayoti va ijodi haqida so'z boradi.Shoir she'riyatida elning zahmat-baxti,Vatan,muhabbat,tabiat tasviri yetakchi o'rin tutgan.Shoirning Vatanga bo'lgan chin muhabbati,Vataniga murojaati,o'ylari haqida so'z yuritiladi.*

***Kalit so'zlar:****Vatan timsoli,faxr,yurtga muhabbat,Vatanparvarlik*

***Annotation.*** *This article talks about the life and work of the poet Sirojiddin Sayyid who was an honored son of his countey.In the poet's poetry,the image of people's work,happiness,homeland,love of nature took the leading place.*

***Key words****:the symbol of homeland, patriotic, love of country, pride.*

Zamonaviy o'zbek she'riyatining atoqli vakili Sirojiddin Sayyid iste'dodli va izlanuvchi shoir.Shoir 1958-yil 30-oktabrda Surxandaryo viloyati,Sariosiyo tumanidagi Kundajuvoz qishlog'ida tug'ilgan. Ilk she'rlar to'plami "Ruhim xaritasi" to'plamidir. Sirojiddin Sayyid she'riyatida o'zbek mumtoz she'riyati bilan birga, xalqchillik, tilning shiraliligi, Surxandaryo shevasiga xos leksik tovlanishlar yetakchilik qiladi.Uning she'rlari Vataniga bo'lgan muhabbati o'zgachaligi bilan ajralib turadi.Shoir o'zining Vatanini "Quyosh ko'rpa yoygan nurli ayvon"ga mengzaydi. Yurtining har faslini sevgan shoir go'zal tashbehlari O'zbekiston yurtining quyoshliligi,shu quyosh nuridan har yernin "nurli"ekaniga ishora qiladi.

Tong quyoshi ko'rpa yoygan nurli ayvonim mening,
Bir diyorga bo'y taratgan dasta rayhonim mening.

Keyingi misralarda shoir o'zining "Quyosh farzandi" ekanidan faxrlanadi. Chunki, quyosh bilan barcha tabiat ne'matlari suyumli bo'ladi va shunday quyoshning nurlari shoirning qalbiga "alanga" misoli tushib,ajib hislar paydo qilgani sezilib turibdi.

Men quyosh farzandiman deb ne uchun zavqlanmayin,
Beshigimni shu'ladin tebratdi osmonim mening.

Har bir inson Vatanini o'zida bor muhabbatining boricha sevadi.Hamma insonning Vatanga bo'lgan munosabati, iftixori har xil bo'lganidek, har bir shoirning o'z Vataniga baxshidalari,Vatan haqida his-tuyg'ulari, madhlari bir-biridan tubdan farq qiladi. O'z o'sgan diyorini Iqbol Mirzo shunday tasvirlaydi:

Tarixlarga savol har bir binosi,
Har qadamda dahosi,avliyosi,
Dardingizni olar Ibn Sinosi,
Avval keling,ko'ring O'zbekistonni.

Shoir shu o'rinda har bir Vatanimizdagi binolarni o'zining tarixi,sir-u asrori borligini qalamga oladi. Darhaqiqat, Samarqanddagi qancha binolar, Amir Temurning va uning avlodlarining qanchadan-qancha tarixiy voqealariga guvoh bo'lgan.Xorazmdagi, Buxorodagi ko'zni quvontiradigan binolarning o'zi bir boshqa

mavzu. Dunyolar ichida o'ziga xos uslub, did bilan yaratilgan-da O‘zbekning har binosi. Shunchalar ko‘p allomalari bor-ki, ularni sanab-sanog'iga yeta olmaysiz.Dunyoni “o’z qalami bilan dunyoni tebratgan” Alisher Navoiy, Beruniy, Al -Xorazmiy, Ibn Sino kabi allomalar bizning diyorda tug‘ilib, elini yuksak darajada ilmli, yuksak darajada o’z nomiga erishishiga, O‘zbekiston deyilganda dunyo taniydigan xalq bo‘lishimizda ularning xizmatlari beqiyos. Shoir shunday Ibn Sinodek avliyolar o‘sgan diyorga o‘zgalarning ham kelishini, ko‘rishini, o‘zining esa “bu mening yurtim"deya faxrlanishini qalamga olgan.O’ziga xos tarzda ajib tuyg‘ular bilan Sirojiddin Sayyid esa

Men Vatanni o’rganmadim zaridan,
O’rganmadim uni hur yo paridan.
Kaftlarning chiziqlari-xati ham
Ajinlari bo'ldi mening xaritam.
Shu xatlarda ko‘rgandim ilk Vatanni,
O’z onamdan o‘rgandim men Vatanni.

Vatanimiz ma'danlarga, oltinlarga boy va tuprog’ining o'zi ham oltindan kam emas.Shunday oltinlarni xalqimiz emas,eng ko‘pi o‘zga bosqinchilar tomonidan talab ketiladi.Shunda ham xalqimiz yurtimizning har ne'matlari oltindan ham a'lo ekanini, ularning oldida oltinning ahamiyatsiz ekanini anglab yetishadi.Shoir ham Vatanini har yaprog‘i, har giyohini sevib yashaydi.Xalqning o'ziga xos chiziqlari, yuziga tushgan “farishta”ajinlarini shoirona xaritalarga o‘xshatadi. Bu ham shoir qalbining o'ziga xos ekanidan dalolat beradi.Shoir Vatanini o‘zgalardan emas, o’z onasidan o‘rganganini qalamga oladi.Barchamiz ilk tug'ilgan chog‘imizda onamizning mehrli quchog‘ini, issiq taftini, shirin so‘zlarini his qilamiz.Onamiz bag‘riga kelganimizdayoq o‘zimizning “kichik Vatanimiz"ni his qilganmiz.Onaning farzandiga mehri qanchalar yuksak bo'lar ekan, farzand ham tinch makonda ekanini qalban his qiladi. Go’dak paytidayoq Vatan-bu “onam mening ilk bag‘riga olgan tinch,osuda makon" deya tasavvurlar orqali o‘sib, kamolga yetadi. Shoir ham o’z qalbining tubida, bolaligidayoq singgan tasavvurlari bilan “ilk marotaba Vatanni onamdan o‘rgandim”deyishi bejiz emas.

Mening Vatan ichra Vatanlarim bor,
Mangu zavol bilmas chamanlarim bor.
Termiziylar yanglig' xazinalarim,
Buxoriylar kabi ma'danlarim bor.

Muhammad Yusuf Vatanini onaga, singlisiga qiyoslaydi. U Vatanini yaqinlaridek, ulardan ham ortiqroq yaxshi ko'radi.

Shodon kunim gul otgan sen,
Chechak otgan izimga,
Nolon kunim yupatgan sen,
Yuzing bosib yuzimga,
Singlim deymi,Onam deymi,
Hamdardu,-hamhonam deymi,
O'zing mening ulug'lardan,
Ulug'imsan,Vatanim.

Ammo,Sirojiddin Sayyid Vatanini hech qachon tubanlikka yuz tutmaydigan, so'lmaydigan chamanga qiyoslaydi. Buyuk ajdodimiz Temiziyni xazinaga o'xshatib xato qilmaydi.Ulardek bizning faxrimiz bo'lgan ajdodlarimiz xazina-yu qimmatbaho ma'danlardan ham bebahodirlar.Biz ham ular yashagan yurtda yashar ekanmiz, har birimiz ulardek Vatanimizga oz bo'lsa-da o'z hissamizni qo'shishimiz, Vatanimizni chin yurakdan sevib yashamog'imiz lozim.Zeroki, bunday "jannatmakon"o'lka dunyoning hech bir go'shasiga o'xshamaydi.

Ba'zan nazar solsang,
O'zga yurtlarga,
Bag'ri to'lib yotar
Olov,dudlarga.
Odamzod ketmoqda xor,
Uyum-uyum,
Bu -sening uyingdir,
Bu-mening uyim.

Shoir shu oʻrinda beixtiyor oʻzining nigohini oʻzga yurtlarga ham qaratadi.Bizning jannatmakon oʻlkamiz tinch, ammo oʻzga yurtlarning hammasi ham bizdek baxtiyor,tinch,gʻam-tashvishsiz yasharmikin? Shoirning qalbida shunday oʻylar kechgani shubhasiz. Ba'zi yurtlarda haligacha urushlar davom etmoqda, ikki davlat oʻrtasida yuzaga kelgan arzimas nizolar ikki yurtning ham tinchini o’g’irlaydi ,kun-u tunning mazmuni yo'q.Onalar farzandlarini urushdan omon qaytishi haqida oʻylaydi, o'zining dilbandi sogʻ boʻlishini Xudodan soʻraydi.Shoir urush boʻlayotgan yerdagi insonlarni “bagʻri to'lib turgan olovlar"deya xitob qiladi.O'ylab koʻrsak,s hoir bu yerda faqatgina ularning bagʻrini otilgan olovlarga toʻlgani emas,ularning yuragi xotirjamliksiz yashashdan, baxtsiz olamidan, “jonim omon qolarmikin?” deya qoʻrquvga toʻlgan hayotidan ulardek butun xalqning bagʻri olovlarga toʻladi. Urush qachondir oʻzining nihoyasiga yetishi mumkin,ammo yo’qotilgan million-million odamlarning,ullarning qadrini hech kim oʻylamaydi.Shoir shu Vatan ham barchamizning uyimizligini she'rning nihoyasida ta'kidlaydi.Barchamiz yurtimiz tinchligi uchun mas'uliyatni yelkamizga olishimiz kerakligini she'r orqali yana bir bora eslatib qoʻyadi.Shoir keyingi yana bir she'ri Vatandagi insonlarga qarata aytilgandek koʻrinadi:

Nom qoldirsang, izingdan
Shavkat ham sha'n qoldirsang.
Tuprogʻiga oringni
Sen tan-batan qoldirsang,
Har bir oʻgil-qizingga
Erku Vatan qoldirsang,
Mardlar mingan otlaring
Nomardlarga xor boʻlmas.

Shoir bu misralari orqali inson oʻzidan buyuk bir nom qoldirish kerakligini aytadi.Xuddi Alisher Navoiy, Mirzo Ulugʻbek kabi bobolarimizni biz haligacha eslab,faxrlanib yurganimizdek bizning ham avlodlarimiz biz bilan gʻururlanib yuradigan boʻlishimiz kerak.Inson buning uchun jasur,oʻzining yurtining sevishi eng muhim jihatdir.Agar barcha insonlar o'z Vatanlarini doimo sevib qadriga

yetsagina, u o'zining avlodlariga erk to'la Vatanni qoldiradi. Ammo,Vatanning vaqtida qadriga yetmas ekanmiz, avlodlarimiz emas o'zimiz ham Vatan nomiga munosib inson bo'la olmaymiz.Biz ozod yurtda yashar ekanmiz, uning qancha himoyasiga otlansak, onamizdek sevsak ,albatta, bizning Vatanimiz hech qachon nomardlarga xor bo'lmaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1."Agar jannat ko'kda bo'lsa" she'riy to'plam. 5-bet Iqbol Mirzo. Sharq nashriyot-matbaasi.Toshkent 2010
2.Sirojiddin Sayyid."Ko'ngil sohili".O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti.Toshkent 2004.
3.Sirojiddin Sayyid."Qaldirg'ochlarga ber ayvonlaringni".Sharq nashriyoti.2005

## РАСПОЛОЖЕНИЕ ТАДЖИКСКОГО НАСЕЛЕНИЯ В КОКАНДСКОМ ХАНСТВЕ

***Ибрахимов Бароткон Ботирович,***
*старший преподаватель Наманганского государственного педагогического института*

***Аннотация:*** *в данной статье пишется об этническом составе населения Кокандского ханства и О расположение таджикского населения в нём.*

***Ключевые слова:*** *Узбеки, Таджики, Киргизы, населения, Кокандское ханства, деятельность, исследовать, Ферганской долины*

## ВЕДЕНИЕ

Об этническом составе населения Кокандского ханства интересные сведения дает академик А. Кун, который пишет: «Главная часть населения ханства составляют Узбеки, Таджики и Киргизы. Первые два из них образуют основную часть страны, оседлых жителей, и последние кочевников, между

которыми более развитыми, хотя не столь многочисленными, являются Кипчаки. Большинство из них ведет полукочевую жизнь, стремясь при этом кочевать поближе к городам и селам. В этнографическом отношении они имеют много общего с горожанами. Таджики, исключительно населяя южную и западную части ханства, редко образуют отдельные поселения, в большинство случаев они живут вместе с Узбеками» [1,63]. Также А. Кун перечисляет кочующих киргиз в округе городов Ош и Узгенда, а также тех малочисленных этнических групп, таких как евреи, цыгане, индийцы и афганцы, которые проживают в долине[1,63].

По собранным статистическим данным конца XIX – начало XX века. и переписи населения, проведенной в 1917 г., основная часть таджиков проживали в западной части Ферганской долины в прибрежной зоне р. Исфарасая, и в основном р. Сыр-Дарьи, Исфаринского, Канибадамского, Аштского, Худжандского районов, современной Согдийской области [2,24]. О таджиках западной части Ферганской долины более подробно можно узнать в письменных, этнографических и статистических сведениях, что касается о таджиках других регионов Ферганы, в частности в восточной части долины, о них тоже имеются сведения в письменных источниках. Мы читаем на страницах письменных источников представителей таджикского народа, которые активно участвовали в политических событиях в Кокандском ханстве. Особенно заметна их роль в период правления Алимхана, Умар-хана и Мадали-хана. Но до колониального периода о точном количестве этнических групп в ханстве, речи не было. Только после покорения ханства Российской империей в 1897 г. была организована перепись населения Ферганской долины. Также о Ферганской долине имелись статистические сведения, собранные К.К. Паленом в колониальный период. С.Н. Абашин правильно считает полным и более достоверным перепись населения, произведенную в 1917 г. В нем содержатся материалы непосредственно отмечающие этнический состав каждого населенного пункта, что является ценнейшим источником при создании представления об этническом составе долины.

## АНАЛИЗ И МЕТОД ЛИТЕРАТУР

Таким образом, в Ошском регионе заметные группы таджиков (от 1.5 до 9 %) были зарегистрированы в четырех волостях: Аимской, Алтынкульской, Кокан-кишлакской и Наукентской, т.е. исключительно по Карадарье, ниже Кугарта. В отмеченных волостях встречались таджикские этнические группы, проживающие компактно – авлод, вместе с узбеками. Также следует отметить, что Кашгар-кишлак в Ошском регионе было единственным селением, где таджики составляли большую часть населения [3,54].

Что касается центральной части Ферганской долины, то здесь таджики составляли - 9.5%, от общего числа населения. Как отмечают источники, таджики более компактно уплотнѐнно проживали в Аувальской волости, составляя 53.5% населения. В Мархаматской, Сегизинской, Чимионской, Шариханской и Язяванской волостях они составляли от 10 до 24% от общего числа населения. А в Алтыарыкской, Ассакинской, Кувинской, Маргеланской и Яккатутской волостях еще меньше - от 2 до 8.5% от общего числа населения региона.

В Наманганском уезде процент таджиков повышен 13.7%., они целиком заселяли Кассанскую волость (97%), также составляли большинство жителей Бабадарханской (76.5%) и Аштской (61.5%) и около половины населения Варзикской волости (48%). Несколько тысяч обосновалось также в Баястанской, Тергаучинской, Чадакской и Чустской волости (от 13.5% до 25%) и в небольшом количестве в Кепинской, Пишкаранской, Тюря-курганской и Ханабадской (от 1.5% до 3.5%). Таким образом, центрами места обитания таджиков в Наманганском уезде являлся «…бассейн среднего течения р. Кассан и долины мелких речек югозападных отрогов Чаткальского хребта» [3,54]. По собранным этнографическим сведениям П.Е. Кузнецова, в Наманганском уезде в конце XIX – начале XX в. существовало 39 селений. В статистических источниках также отмечается, что больше всего таджиков в Ферганской долине после Худжандского округа, находятся в Кокандском уезде (16.5% жителей). Они сосредоточены в трех крупных таджикских оазисах – Сохской волости (96%),

Исфаринской (82.5%) и Канибадамской (73.5%). Крупными поселениями они проживают еще на Ходжентской границе, в Махрамской волости (37.5%)2 и на Ферганской границе – в Риштанской волости (28%). Кроме того, небольшими группами встречаются в кишлаках Бешарыкской, Кенегезской, Кудашской, Яйпанской волостях (от 2 до 8%)[3,54].

## ОБСУЖДЕНИЕ

Материалы переписей представляют место расположения таджикоязычных поселений в Ферганской долине, а также общий объем населения[3,54]. Также мелкие поселения с числом жителей менее 100 человек составляют только 9% всех таджикских селений; преобладают крупные поселения с населением более 500 человек (52.5%), среди последних около половины имеет более 1000 жителей. Крупнейшие селения с числом жителей более 5000 человек очень редки. Это Исфара и Канибадам, Аксу в округе Кассансай, и Уч-курган[3,54].

Большинство таджикских селений округов Намангана и Ферганы расположены в предгорной и долинной части. Единственное таджикское селение Андижанского бекства было расположено по р. Кара-дарье, в Алтын-куле, а Ошского – по Шахрихан-саю, в Кашгар-кишлакской. Границами распространения таджикских селений в Ферганской котловине были: на северо-востоке - р. Нарын, на севере - р. Кара-дарья, на юговостоке – р. Чипе[3,54]. Материалы переписи населения, произведенные в 1917 году, дали возможность объединить все таджикские селения, или селения, где большинство жителей составляли таджики.

Статистические сведения показывают о существовании около 70 (66) таджикских населенных пунктов, а также селений, где большинство населения составляло таджики в восточной и центральной части Ферганской долины в конце XIX – начале XX вв. При образовании таджико-язычных городов и селений Ферганской долины, наравне с аборигенным ирано-язычным населением долины – таджиками долины – т.е. вилояти, активно участвовали горные таджики – галча. Как выше было рассмотрено, при формирование

этнического состава таджико-язычного населения западной части Ферганской долины – в областях Худжанда и Усрушаны активно участвовали таджики Когестана – Фалгар, Кштут, Мача. При формирование этнического состава таджико-язычного населения центральной и восточной части Ферганской долины роль таджиков Каратегина, частично Дарваза, Матчи, Куляба и Гиссара было ощутимо. Особенно каратегинцы активнее других участвовали в этническом процессе региона. Каратегинцы обосновались в южной границе центральной части долины, также частично в окрестностях Намангана.

## РЕЗУЛЬТАТЫ

О таджикских селениях Ташкентского округа имеется ценнейшие этнографические сведения, фиксированные в 70–е годы XIX в. в источниках. «… Таджики встречаются еще в верховьях долины Ангрена, где они живут вместе с кураминцами и в долине Чирчика, в которой попадаются рядом селения сартовская и таджикская. Всего таджиков, вместе с галчами, в Туркестанском крае считается до 71 тысяч.» [4,129]. И здесь же в таблице из числа населения Курамы отмечено 8500 таджиков[4,127]. О селениях данного региона имеется сведения П.Е. Кузнецова, который перечислял таджикские селения и расположенных в нем дворов, и тем самым подтвердил сведения А. Буняковского.

По собранным этнографическим сведениям, П.Е. Кузнецова, в регионе имелось десять таджикских селений. В них находилось 1800 дворов с населением 8,5 тысяч человек обоего пола. Автор выделил численность населения каждого селения, по его сведениям в с. Богустан было 160 дворов, в котором проживали 1000 жителей, в с. Нанай имелось 194 дворов с 800 человек жителей, в с. Бискен имелось 49 дворов с 200 чел. жителей, в с. Юкари Нанае имелось 36 дворов и 150 жителей, в с. Бтич-муллан (возможно Бирчмулло – Т.Б.) 500 дворов с 1500 жителями, в с. Зарканте 177 дворов с 2000 жителями. В с. Невич было 170 дворов, проживало 750 человек. В с. Наудак 163 дворов с 700 человек жителей, в с. Шаугазе 10 дворов с 70 человек жителями, в с. Аблык 200 дворов с 700 чел. жителями, в с. Баксук 63 дворов, 200 человек жителями[5].

## АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Кун. А. Очерки Коканского ханства. (Читано в общем собрании 4 февраля). //ИРГО. - СПб., 1876. Т.12. Вып.1. – С. 63.

2. Некоторые исследователи справедливо отмечает объективность Переписи населения 1917 г. См.: Зотова Н.А. История расселения таджиков на территории Северо-Западной Ферганы. АКД. – М., 2003. – 24 с.

3. Материалы Всероссийских переписей. Перепись населения Туркестанской Республики. Вып. IV-й. Сельское население Ферганской области по материалам переписи 1917 г. – С. 54

4. Буняковский А. О пространстве и населения Туркестанского края.// Русский Туркестан. Сборник изданный по политической выставки. Выпуск первый. География и статистика./Под редакцией Н.А. Маева. – М.: Катков и К, 1872. - С.129.

5. Кузнецов П.Е. О таджиках Ташкентского уезда.//http://comunicom.ru/history/792-kuznecov-tajiks.html 30.03.16

6. Н. И. Веселовский как исследователь Средней Азии Б. Ибрахимов Interpretation and researches 1 (4)

7. From the history of the research of historical and architectural monuments of Central Asia B. Ibrahimov Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10 (6), 1197-1200

8. Политические условия демократии и общественное доверие Б. Б. Ибрахимов Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 1 …

9. Описание городов Ферганы в средневековых исторических источниках Б. Б. Ибрахимов Современные научные исследования: актуальные вопросы, 32

10. О произведении Сайида Мухаммада Тахира ибн Абул Касима Касани «Ажойиб ат-табакат» Б. Б. Ибрагимов Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 1 …

11. Народная одежда Средней Азии (XVIII-первая половина XIX веков)

Б. Б. Ибрахимов Ученый XXI века, 37-40
12. Особенности развития социально-этической мысли в Средней Азии и Иране в XIV-IV вв. Б.Б. Ибрагимов Молодой ученый, 745-748
13. Народная одежда–одно из проявлений материальной культуры в Средней Азии (XVIII–первая половина XIX веков) Б.Б. Ибрахимов Молодой ученый, 812-814
14. Общественно-философская мысль в Средней Азии (XVI–XVII в.) Б.Б. Ибрахимов Молодой ученый, 1002-1005
15. Внешние и внутренние отношения бухарского ханства с Россией Б. Б. Ибрахимов Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов, 129-131

## XOSIYAT RUSTAMOVA SHE'RIYATIDA TABIAT TASVIRI

***Mahliyo Abdullajonova***
*Namangan davlat pedagogika instituti*
*O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi*

***Annotatsiya:*** *O'zbek she'riyatiga o'ziga xos ovozi va uslubiga ega ijodkor sifatida qadam qo'ygan Xosiyat Rustamova ijodi olam va odamni anglash sirlarini anglashga urinayotgan bugungi kun o'quvchisi uchun chinakam yangilik bo'ldi. She'riyatga ko'ngil tarjimoni deb qaragan shoira o'z his-tuyg'ularini tabiat bilan hamohang tasvirlaydi.*

***Kalit so'zlar:*** *ssenariy, metaforik, lirik qahramon, tashbeh, voqelik*

***Аннотация:*** *Хосият Рустамова, вошедшая в узбекскую поэзию творцом с неповторимым голосом и стилем, явилась настоящей новинкой для сегодняшнего студента, пытающегося постичь тайны познания Вселенной и человека. Поэтесса, считающая поэзию переводчиком души, описывает свои чувства в гармонии с природой.*

***Ключевые слова:*** *сценарий, метафорический, лирический персонаж, аллегория, реальность.*

***Annotation:*** *Khosiyat Rustamova, who entered Uzbek poetry as a creator with a unique voice and style, was a real novelty for today's student who is trying to understand the secrets of understanding the universe and man. The poetess, who considers poetry as a translator of the soul, describes her feelings in harmony with nature.*

***Key words:*** *script, metaphorical, lyrical character, allegory, reality*

O'zbek she'riyati sahifalariga o'zining nafis ijod to'lqinlarini muhrlashga ulgurgan modern adabiyot vakilasi Xosiyat Rustamova 1971-yil 19-martda Namangan viloyati Chust tumanining Olmos qishlog'ida dunyoga kelgan. Shoira, tarjimon, bir necha ssenariylar muallifi, "Shuhrat" medali va "Oltin qalam" milliy mukofoti sohibasidir. Hozirda kitob dunyosi gazetasida bosh muharrir lavozimida faoliyat ko'rsatmoqda. Londonda "Herdfordshire Press Awards" adabiy mukofotini topshirish marosimida uning "Rangli ko'z yoshlar" she'ri "PCritics Choise Awards" nominatsiyasi g'olibi deb topilgan.Xosiyat Rustamova ayni paytda O'zbekiston hamda Ozarbayjon yozuvchilar uyushmasining a'zosidir.

Shoiraning "Osmondagi uy"(1997), "Najot"(2003), "Rido"(2004), "Devor"(2006), "Avgust"(2008) singari mashhur she'riy to'plamlari mavjud bo'lib, ularda she'rlarning mavzulari turfa xil, jumladan, ishq, Vatan, tabiat haqida, shuningdek, so'fiyona ruhdagi she'rlari ham talaygina. Uning she'rlarini tahlil, mushohada qilish kishidan anchagina bilim va ko'nikma talab qiladi. Sababi shoira she'rlari kitobxonni uzoq o'yga toldiradi, uning tuyg'ulariga ta'sir qilib, o'z dunyosiga qamrab oladi. "Devor" to'plamidan o'rin olgan she'rlarida ham tabiat tasviri turfa xil bo'yoqlarda so'z ila bezanadi.

Derazang kitobday ochilar ma'yus,
Dasturxon qoqqani chiqar
Bir juft yeng.

Bu yerda qizning oddiygina dasturxon qoqish uchun tashqariga chiqqanidagi holati tashbih va sinekdoha orqali ifodalanmoqda. Shoira hali hech bir ijodkor qo'llamagan o'xshatishdan foydalanadi, ya'ni derazaning ochilishi kitobning ma'yus

varoqlanishiga tashbih qilinmoqda.Bu yerda metaforik ma'no ko'chishi harakat o'xshashligi asosida amalga oshmoqda. Bir juft yeng timsolida bir inson tasviri gavdalanadi, qism orqali ifodalangan ma'no ko'chishi sinekdohani yuzaga keltirmoqda.Keyingi satrlar esa asta-sekin mavzu mohiyatini ochib beradi:

Sening ham uyingni topib keldi kuz,
Ayni shu lahzada qayerdasan sen? -
Anuv kitobdagi qo'llar kimniki -
Silkinib-silkinib qo'yar baxtiyor.
Ular chinqirmoqda: "Bolsang meniki -
Bahor, yoz, kuzak va yog'adigan qor. [X.Rustamova. "Devor"49-bet Toshkent]

Go'zal satrlar.Bir qaraganda nafis va bejirim libosga o'xshaydi. Shoiraning "men"i tabiat bilan uyg'un tarzda. Misralar orqali kuz fasli kirib kelgani anglashiladi.She'rdagi syujetda har birimiz o'z qalbimiz ifodasini topishimiz mumkin. Shu bilan birgalikda daraxtdan yerga barg tushishi bilan insonning qalbi qorga intiqa boshlaydi. Shoira "qish" so'zi o'rniga "qor" istiorasini qo'llab, insonning qalbi oshiqqan tuyg'ularga ham ishora qiladi. " Bahor, yoz, kuzak va yog'adigan qor" satrlari orqali badiiy san'atning namunasi bo'lgan iltizom yuzaga kelmoqda. Iltizom - sanash ohangi asosiga quriladigan san'at turidir.[ ]

Uzoqlab ketaman
Kuz
Shamol
Havo.
Kezaman notanish qumtepalarni
Nahotki shu qo'llar o'qir bexato
Men o'qiy olmagan sahifalarni.

Asta-sekinlik bilan kuz tasvirining yanada yorqinroq namoyishi ko'z oldimizda gavdalanishni boshlaydi. Kuz, shamol, havo singari tabiat unsurlari orqali bu jumlalar namoyon etiladi.Shoira o'zining qo'llarida kitobni tutar ekan, kitobni o'qiyotgan men emas, balki mening qo'llarimdir deya e'tirof etadi. Xuddi shu fikrlar kitobxonga aynan nima uchun kitobni qo'llar orqali tutib o'qilishining

sababini izohlayotganday tuyuladi. Zamonamiz talabi bo'lgan audio kitoblardan ko'ra, ko’pincha, kishilarning kitob sahifalarini qalban his qilib o'qishni sevishlari bu bizga yot tushuncha emas.

Umuman olganda Xosiyat Rustamova she'riyatida tabiat tasviri yetakchi motivdir. "Maktub"* she'rida ham mavzu tabiat tasviri asosida ochib beriladi.[X.Rustamova "Devor"4-bet Toshkent]

Dalalar ham bo'lgan unut,
Xotiramdan o'chgan bog'.
Esdan chiqqan yomg'ir, bulut
Esdan chiqib ketgan tog'.

Go'yoki o'zining suyuklisidan bir mujda kutayotgan inson uchun barcha narsalar muhimligini yo'qotadi. Dala, bog', bulut, yomg'ir, tog' obrazlari lirik qahramon uchun muhimligini yo'qotgan obrazlardir.

Sen bormiding qayda bo'lsam
Men qo'rqmadimmi yoki
Biror itdan qo'rqqan bo'lsang
Tashlab qochgansan, balki
U-v-v-v, yo'llardan
(Meni kechir)
Nahot sen ham o'tgansan?
Qachonlardir O, qachondir
Unutilib ketgansan.

U kutayotgan maktub, balki huv yo'llarda qolib ketgandir.Shu ma'noni ifodalangan satrlarda biz fonetik sathdan og'ish holatini ko'rishimiz mumkin: "U-v-v-v, yo'llardan". Bu shunday san'atki, ma'noni kuchaytirib ifodalashga yordam beradi, ta'sirchanligini va emotsiya kuchini oshiradi. Lirik qahramon o'z maktubini tushib qolgan deya gumon qilib, o'ziga tasalli beradi. Bu yerda it obrazi ham bevosita voqealarga aralashadi.

Tarvuz yorilmoqda paydar-pay,
Poliz pardoz bilan ovunar.

Ko'proq ichib qo'ygan odamday
Dumalashib yotar qovunlar.

Juda ham quvnoq, ko'tarinki ruh bag'ishlaydigan, qilingan tashbihlar hazil-mutoyibaga va yumorga boy.Biz bu yerda poliz ekinlarining va polizning obrazlarini ko'ramiz.Tarvuzning yorilishi hamda qovunning pishib yotishi ajoyib o'xshatish tarzida ifodalanmoqda. -day qoshimchasi tashbihning sodda ko'rinishini ifodalab kelgan. Polizdagi holat shoiraning qarashida muhim bir voqelik, ya'ni u bu jarayonlarni chetdan turib kuzatgan holda hayratlanadi.

Dehqonlarning bilgani-bilgan,
She'r g'ami yo'q.Mizg'ir peshinda
Men ko'zimni yumushim bilan
Itlar talab chiqar tushimda.

She'r dardi - bu shunday tushunchaki, u shoirning qalbida tug'ilib, butun tanasida qandaydir og'riqli holni yuzaga keltiradi.Uning qachon va qay holda kelishi faqat Yaratganga ayon. Haqiqiy she'r yurakdan yoziladi, qalban his etiladi va uni eshitganingizda butun tanangiz seskanganligini his etasiz. She'r dardini his etgan shoira bu misralarda xuddi shu jarayonga ishora qilmoqda. It bu yerda allegoric (ramz) obraz bo'lib, ramziy ma'no tashiydi. U salbiy obraz sifatida gavdalangan. She'riyat kishisining tuyg'ulari hatto uxlashga ham qo'ymaydi, lirik qahramon oddiygina dehqon kishining hayotiga havas qilmoqda.

O'zini tabiatdan ayri tasavvur qilmaslik, tabiatning bir unsuri ekanligini his qilish, tabiat va inson tushunchasini anglash Xosiyat Rustamova she'riyatidagi o'ziga xos jihatlardan biridir.Xosiyat Rustamova - iste'dodli shoira, uning ijodida hech kimnikiga o'xshamaydigan shoiraning "men"i yashaydi. Uning ijodi takrorlanmas xotiralarni va go'zal his-tuyg'ularni yuzaga keltiradi. Shu jihatlari bilan uning she'rlari hamon muxlislari safini kengaytirmoqda.

ILG‘OR MILLIY VA XALQARO TAJRIBALAR;

# TABIATDAGI MAJUD RANGLARNI KO‘RISH VA AJRATISH USULLARI

***Abduqaxxarova Xushro‘ybegim Shezodjon qizi***
*Namangan davlat pedagogika instituti talabasi*

***Annotatsiya:*** *Rangshunoslikning amaliyotdagi ilmiy – nazariy holatini o‘rganish bo‘yicha mavjud darslik, o‘quv-uslubiy adabiyotlarni taxlil qilinganligi hamda oliy o‘quv yurtlaridagi rangtasvir mashg’ulotlari samaradorligini oshirish uchun rangshunoslikdan zarur bo‘lgan uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilganligida namoyon bo‘ladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *issiq ranglar, faol ranglar, sovuq ranglar, botgan ranglar, kolorit, kontrast ranglar, lokal rangi, mahalliy rang.*

Tabiatdagi majud ranglarni o‘z vaqtida issiq va sovuq ranglarga ajratish mumkin. Ranglarning ushbu xususiyatlari ham ularning asosiy xossalaridan biri sanaladi. Olovni, quyoshni, qizigan jismlarni eslatuvchi sariq, zarg’aldoq, qizil va ularning aralashmasidan hosil bo‘lgan ranglar “issiq ranglar” deb yuritiladi. Barcha issiq ranglarni shartli ravishda bo‘rtgan yoki “faol ranglar” deb atash ham mumkin.

Ko‘k, zangori, yashil, birnafsha kabi to‘q tusdagi ranglar “sovuq ranglar” hisoblanadi. Sovuq ranglar muz, suv, yer, osmonni eslatadi va ular shartli ravishda “botgan ranglar” deb ham ataymiz.

Tabiatda mavjud bo‘lgan har bir  buyumning rangi uni fizik xossalariga, ya’ni yorug’lik nurlarini qaytarish, sindirish va o‘tkazish xossalariga bog’liq bo‘ladi. Natijada yorug’likni yuzaga tushayotgan nurlari qaytgan, singan va yuzadan o‘tgan nurlarga bo‘linadi. Jism yoki buyumlarning ko‘zimizga rangli bo‘lib ko‘rinishida ularni tarkibidagi yupqa qavatning ta’siri juda kuchli hisoblanadi. Quyoshning spektral nurlari ushbu yupqa qatlamdan o‘tganda jilolanadi va undan orqaga qaytadi.

Rang ohangi - bizning ongimizda rang ohanglari taniqli narsalarning rangi bilan bog’liq. Koʻp rang nomlari oʻziga xos rangga ega boʻlgan narsalardan keladi: qum, dengiz toʻlqini, zumrad, shokolad, mercan, malina, gilos, qaymoq va boshqalar. Rang nomi (sariq, qizil, koʻk va boshqalar) bilan belgilanadi va uning spektrdagi oʻrniga bog’liqligini taxmin qilish oson. Insonning koʻzi kunduzi 180 ta rang ohangini va toʻyinganlikning 10 darajasigacha (gradasiyasini) ajratib turishini bilish qiziq. Umuman olganda esa rivojlangan inson koʻzi 360 ga yaqin rangni ajrata oladi.



**Asosiy ranglar asosida qoʻshimcha ranglar hosil qilish.**

Yorug’lik va rang farqlari. Obyektning rangi joylashgan sharoitiga qarab ham doimo oʻzgarib turadi. Bunda yorug’lik katta ahamiyat kasb etadi. Agar narsadagi yorug’lik sovuq boʻlsa, uning soyasi iliq koʻrinadi va aksincha. Yorug’lik va rangning kontrasti shaklning "uzilishida", ya’ni obyektlar shakli burilish joyida, shuningdek, qarama - qarshi fon bilan aloqa chegaralarida aniq seziladi.

Yengil kontrast. Rassomlar tasvirdagi narsalarning har xil tonalligini ta’kidlab, kontrastni yengillikda ishlatadilar. Yengil narsalarni qorong’i narsalarning yoniga qoʻyib, ular ranglarning kontrastini va ohangdorligini oshiradi va shaklning ifodaliligiga erishadi. Qora va oq fonda bir xil kulrang kvadratlarni solishtiring. Ular sizga boshqacha boʻlib tuyuladi. Kulrang qora rangda ochroq, oq rangda quyuqroq koʻrinadi. Bu hodisa yorug’lik kontrasti yoki yengillik kontrasti deb ataladi.

Kontrast ranglar – (kontrast -qarama-qarshilik) ranglarning oʻzaro qarama-qarshiligi hisoblanadi. Bir rangni yonida ikkinchi boshqa bir rangni yanada

yorqinroq, chiroyliroq bo'lib ko'rinishidir. Xuddi shu narsa asosiy ranglar bilan ham sodir bo'ladi. Misol uchun, qizil pomidor mayonez yonida yanada qizg'ish, binafsha baqlajon esa sariq sholg'om yonida yanada yorqinroq ko'rinadi. Ko'k va qizil ranglarning qarama-qarshiligi sovuq va iliqlik ranglar kontrastining yorqin namunasi hisoblanadi. Tasvirdagi ranglarning qarama - qarshiligi umuman badiiy fikrlashning asosiy usuli hisoblanadi, deb ta'kidlaydi mashhur rus rassomi va olimi N. Volkov.

Kontrastlar hayotimizning deyarli har qadamida uchraydigan hodisa. Bu tushuncha ikki holatning qarama – qarshiligidan, ya'ni tun va kunduz, yoz va qish, yaxshi – yomon, katta – kichik, o'tkir – o'tmas, yumshoq – qattiq, yachchiq – chuchuk, kulgu – qayg'u, oq – qora, qizil va yashil kabi boshqalar har doim yonma – yon bo'lib, bir butun kontrastlilikni hosil qiladi.

Ana shu ziddiyatlar asosida tuzilgan naqsh, rangtasvir asari, shakllar jozibali, ta'sirchan, esda qolarli bo'ladi. Rangtasvirda yorqin ranglar va to'q-qoramtir ranglar kontrastida, shuningdek, obrazlar kontrastida ko'rinishi mumkin. Kontrastlardan foydalanish – bu kompozisiyada ichki kurashni hosil qilish, jonlantirish va qarama – qarshiliklar uyg'unligini hosil qilishdan iborat.

Kolorit – san'at asaridagi ranglar birikmasi, ularning uyg'unlashib ko'rinishi. XVIII asr boshlarida tasviriy san'at leksikasiga kirib kelgan atama bo'lib, lotincha "color" – "rang" va "bo'yoq" ma'nosini anglatadi.

Biz obyektlarning rangini atrofdagi foniga taqqoslab, solishtirib ham yaxshiroq xis qilamiz. Oq dasturxonga agar oq apelsin qo'yadigan bo'lsak, oq dasturxon ko'k rangda, yashil olma bo'lsa pushti rangda ko'rinadi. Buning sababi shundaki, fon rangi obyektlar rangidan qo'shimcha rang olishidadir. Qizil obyekt yonida kulrang fon, ko'k va yashil yonida esa iliq fon paydo bo'ladi.

Quyidagi tajribada uchta bir xil och kulrang kvadratlarni uch xil xromatik ranglar foniga joylashtirilgan. Fonning tusi qanchalik issiq bo'lsa, kulrang shunchalik to'q ko'rinadi. Aksincha bo'lib, fonning tusi to'q bo'lgan taqdirda kulrang kvadratlar och tusda xis qilinadi. Barcha uchta kulrang kvadratlar bir xil, ko'k fonda kulrang to'q sariq, sariq - binafsha, yashil - pushti rangga aylanadi, ya'ni fon

rangiga qo'shimcha rangning soyasini o'ziga oladi. Och fonda, obyektning rangi quyuqroq, qorong'i fonda esa yorug'roq ko'rinadi. Rang kontrasti fenomeni shundaki, rang atrofdagi boshqa ranglar ta'sirida yoki ilgari kuzatilgan ranglar ta'sirida o'zgaradi.

Borliqdagi barcha narsalar nafaqat muayyan shaklga, balki o'zining rangiga ham ega. Uni odatda buyum yoki narsalarning "lokal rangi" deb ataladi. Ayrim manbaalarda buyumlarning lokal rangini "mahalliy rang" deb yuritiladi va tashqi ta'sirlarni hisobga olmaganda, obyektning asosiy rangi hisoblanadi. Obyektning mahalliy rangi monoxromatik bo'lishi mumkin, lekin, u har xil soyalardan tashkil topgan bo'lishi ham mumkin. Biz atirgullarning asosiy rangi oq yoki qizil ekanligini yaxshi bilamiz, lekin har bir gulda mahalliy rangning bir nechta xil soyasini sanashimiz mumkin.

Yorug'lik, havo va shu kabi boshqa hodisalar ta'sirida mahalliy rang boshqa ranglar bilan birlashganda, soyada va yorug'likda butunlay boshqacha tus oladi. Quyosh nurida obyektlarning rangi yaxshiroq ko'rinadi. Obyektlarning mahalliy rangi to'liq soyada bo'lgan joyda kamroq ko'rinadi. Yorqin nurda u oqarib ketadi va rangini yo'qotadi. Oddiy odam buni ko'rmasligi ham mumkin. Lekin rassomlar narsalarning go'zalligini yaxshi his qiladi, yorug'lik va soyada mahalliy rang o'zgarishini aniq aks ettiradilar. Masalan, qizil olmaning soyasida qizil rangga qo'shimcha rang sifatida, albatta, yashil bo'ladi. Bundan tashqari, har bir soyada obyektning rangidan bir oz quyuqroq tus va ko'k rang bo'ladi.



**Soyaning rangini olish sxemasi**

Shuni unutmaslik kerakki, obyektning mahalliy rangiga uning muhiti ta'sir qiladi. Sariq olma yonida yashil ro'molcha paydo bo'lganda, unda rangli refleks paydo bo'ladi, ya'ni olmaning o'z soyasi albatta yashil rangga ega bo'ladi.

"Rang" atamasi qizilni sariq va koʻkdan ajratib turadigan rangning asosiy xususiyatini tavsiflaydi. Rang, yorug'lik va toʻlqin uzunligiga bog'liq. Masalan, koʻrinadigan yorug'lik diapazoni infraqizil (~ 700nm toʻlqin uzunligi) va ultrabinafsha (~ 400nm toʻlqin uzunligi) oʻrtasida.



Diagrammada bu koʻrinadigan yorug'lik chegaralarini aks ettiruvchi ranglar spektri, shuningdek "ohanglar oilalari" deb nomlangan ikkita rang guruhi (qizil va koʻk) koʻrsatilgan. Spektrdan olingan har qanday rangni oq, qora va kulrang bilan aralashtirib, mos ohanglar oilasining ranglarini olish mumkin. E'tibor beradigan boʻlsak, ohanglar oilasida har xil yorqin, xromatik va toʻyingan ranglari mavjud.

## Foydalanilgan adabiyotlar.

**1.** Oʻ. Abdullaev. Rangshunoslik.Darslik. –T: "Innovatsiya-Ziyo", 2022.14-b.

**2.** R. Xudayberganov. Rangshunoslik va kompozitsiya asoslari. –T.: 2019. 24-b.

**3.** Sh. Abdurahmonov. Rangshunoslik. – N.: "NamPQI", 2007, 33-b.

**4.** B. Jabbarov. Rangshunoslikka oid ayrim atama va iboralarning izohli lugʻati. –N.: 2001. 7-b.

**5.** Boltaboev Azizbek Hasanboy ugli, Heoretical basis of the development of the spatial perspective imagery in the performance of pencil and draft in the process of student educational process. Solution Of Social Problems In Management And Economy: 2 pp. 12-17 (2).

**6.** Boltabayev Azizbek Khasanboy. (2021). In Painting Natyurmort It'sWorking Methods And Peculiarities. The American Journal of Applied Sciences, 3(01), 123-127.

# RANGLARNI FARQLASH XUSUSIYATLARI RANGTASVIRNING ILMIY OMILI SIFATIDA

***Boltaboyev Azizbek Xasanboy o'g'li***
*Namangan davlat pedagogika instituti o'qituvchisi.*
*E-mail: azizbekboltaboyev1994@gmail.com Tel- 943082603*
***Abduqaxxarova Xushro'ybegim Shezodjon qizi***
*Namangan davlat pedagogika instituti talabasi.*

***Annotatsiya:*** *Rangshunoslikning amaliyotdagi ilmiy – nazariy holatini o'rganish bo'yicha mavjud darslik, o'quv-uslubiy adabiyotlarni taxlil qilinganligi hamda oliy o'quv yurtlaridagi rangtasvir mashg'ulotlari samaradorligini oshirish uchun rangshunoslikdan zarur bo'lgan uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilganligida namoyon bo'ladi.*

***Kalit so'zlar:*** *Axromatik, xromatik, rang tusi, svetlota, yorqinlik, yorqinlik kuchi, valyor*

Iliy rangshunoslikda tabiatdagi mavjud bo'lgan barcha ranglarni ikki qismga: axromatik va xromatik ranglarga ajratib o'rganiladi. Axromatik rang – grekcha "tussiz" (rangsiz) demakdir. Ular oq va qora ranglar hamda ularni turlicha ko'rinishi bo'lib, bir-biridan yorug'lik kuchi bilan farq qiladi. Axromatik ranglarga oq, kulrang va qora ranglar hamda ularni har xil nisbatlarda aralashtirishdan hosil bo'lgan barcha rang tuslari kiradi. Spektrda esa axromatik ranglar qatnashmaydi. Axromatik ranglar yorug'lik nurlarini tanlamay yutish va qaytarish xususiyatiga ega hisoblanadi.

Axromatik ranglardan boshqa barcha ranglar, ya'ni biror rang tusiga ega bo'lgan ranglar "xromatik ranglar" deyiladi. Quyosh spektrining barcha ranglari va ularni bir-birlari bilan aralashtirishdan hosil bo'lgan qo'shimcha ranglar xromatik ranglar jumlasiga kiradi. Shuningdek, oq ranglar bilan qo'shilishdan hosil bo'ladigan rang tuslari ham xromatik ranglar hisoblanadi. Agar biror rangga oq

rang qoʻshilsa, mazkur rang tusining toʻlqinlar uzunligi oʻzgarmaydi. Chunki, oq rang qoʻshilganda faqatgina rang yorqinligi oʻzgaradi va u esa qaytarish koffisenti bilan ifodalanadi.

Xromatik ranglarning axromatik ranglardan farqi faqatgina yorug’lik kuchlarida emas, balki nomlari, tuslari jihatdan ham ajralib turishi hisoblanadi. Masalan, sariq rang qizil rangdan ham yorug’lik kuchi, ham ranginig tusi bilan keskin farq qiladi. Ranglarning nomini ifodolovchi, ya’ni ularning birini qizil, ikkinchisini koʻk, uchinchisini binafsha va hokazo deb atalishiga asos boʻlgan belgisi esa “rang tusi” deyiladi. Biror xromatik rangga ozroq kulrang qoʻshsak, uning shoʻxchanligi pasayib, nursizlanadi.

Rang tusi - ranglarning toʻlqin uzunligiga qarab belgilanadi. Rangning bu xossasiga koʻra biz  qizil, sariq, zangori va shu kabi boshqa spektral ranglarni koʻramiz hamda idrok qilamiz. Lekin, rang tuslari ularga qoʻyiladigan rang nomlariga qaraganda ancha koʻproq hisoblanadi. Millionlab rang turlari boʻlsa, biz ulardan sanoqligining nominigina bilamiz xolos. Unda ham ularning nomlanishini tushunib yetmasligimiz mumkin.

Bunga misol qilib,  Sherzod  Abdurahmonov oʻquv qoʻllanmasidagi bitta rang nomini keltirib oʻtishimiz mumkin. “Rummoni(y) - Rum (Vizantiya) imperiyasi a’yonlari oʻta hurmat qilgan yoqut mineralining bir turi va shu tur rangining nomi. Ruschadagi “Rumyanыy” rang nomi ham shu soʻzga aloqador; sersuv nafis ravshan qizil shol”. Ushbu rang nomi misolida nafaqat oʻquvchilar, balki oʻqituvchilarning oʻzlari ham ranglar va ularning nomlanishi xususida yetarli bilimga ega emas desak hato boʻlmasa kerak. Bu esa navbatdagi tadqiqot ishlari uchun dolzarb mavzu ekanligini koʻrsatib turibdi.



**Axromatik ranglar.**



**Xromatik ranglar.**

Rang yorqinligi - xromatik ranglarning asosiy xossalaridan biri bo‘lib, tushayotgan yorug’lik nurini o‘zida ko‘p yoki oz miqdorda aks ettirishi xususiyatidir. Agar biror narsa yoki buyumda yorug’lik nurlari ko‘p aks etsa, biz ularning ranglarini och tusda idrok qilamiz. Masalan: och yashil olma, och qizil pomidor va shu kabilar. Ranglarni bu xossasi barcha xromatik ranglar uchun ham axromatik ranglar uchun ham umumiy hisoblanadi. Shuning uchun ham ranglarni yorqinligi jihatdan bir-birining yorqinligiga mos tushadigan xromatik tusni tanlab olish oson kechadi. Rang tuslari spektr ranglariga qanchalik yaqinlashsa ularning yorqinligi, ya’ni ravshanligi, tiniqligi ham shunchalik yaxshi bo‘ladi.

Rang to‘yinganligi - ikkala rang guruhiga ham xos narsa bo‘lib, axromatik ranglarda ko‘proq kulranglar shkalasiga, xromatik ranglar esa spektr ranglarga solishtirish yo‘li bilan aniqlanadi. Rang tuslarining to‘yinganligi turlicha bo‘ladi. Masalan, birorta sariq rangni yorqinligi bo‘yicha unga teng keladigan och kulrang bilan aralashtirilsa, unda rang tusining to‘yinganligi bir muncha pasayadi oqishroq bo‘ladi.

Biror xromatik rangga ochroq kulrang qo‘shsak, uni yorqinligi, jozibaliligi pasayib, nursiz holatga tushib qoladi. Bu hol rangning kam to‘yinganligidan, ya’ni uning tarkibida bo‘yoqning kamayganligidan darak beradi. Demak, rangning to‘yinganligi yoki to‘yinmaganligi deganda kul rangga nisbatan rangdorlik darajasi, tozaligini tushunish kerak bo‘ladi.

Rang yorqinligi, tusi va to‘yingaligi asosiy xususiyatlari bo‘lib, odatda uni rassomlar ruscha “svetlota” iborasini qo‘llash orqali ifodalashadi. Rang haqidagi fanda rassomlar “yorqinlik” iborasini “yorqinlik kuchi” bilan almashtirib ishlatadilar. Rang tusi tushunchasini rassomlar rang deb ataydilar.

Tasvir ochiq ranglarda bo‘yalgan deyishganda, birinchi navbatda, ular ranginingyorqin munosabatlarini bildiradi va rangi kulrang-oq, pushti-sariq, bir so‘z bilan aytganda, ochlilik hisoblanadi. Bu turdagi farqlarni rassomlar “***valyor***” deb atashadi. Har qanday rang va soyalarni yengillik jihatidan solishtirish mumkin: och yashil bilan to‘q yashil, pushti ko‘k, qizil binafsha va boshqalar. Qizig’i

shundaki, qizil, pushti, yashil, jigarrang va boshqa ranglar ham ochiq, ham quyuq ranglar boʻlishi mumkin.

Biz atrofimizdagi narsalarning ranglarini eslaganimiz uchun ularning yorqinligini tasavvur qilamiz. Misol uchun, sariq limon koʻk dasturxonga qaraganda yengilroq va sariq koʻkdan yorqinroq. Axromatik ranglar, ya'ni kulrang, oq va qora faqat yengilligi bilan ajralib turadi. Yorqinlikning farqi shundaki, ba'zi ranglar quyuqroq, boshqalari ochroq. Har qanday xromatik rangni yorqinlikda axromatik rang bilan solishtirish mumkin.

Agar biz kartondan doira qirqib olsak va uni spekrt ranglari tartibida qizil, zarg'aldoq, sariq, yashil, havorang, zangori,binafsha ranglarga boʻyab chiqib, ventilyator oʻqiga oʻrnatib oʻz oʻqi atrofida tez aylantirsak, umumiy koʻrinishdagi kulrang tusni kuzatamiz. Yana xuddi shu usulda uchta asosiy ranglar - qizil, sariq va zangori ranglarni aylantirganimizda esa yanada yorug'roq boʻlgan och kulrang hosil boʻladi.

Shu yetti xil rangni palitrada aralashtirib koʻrsak qoramtir tusdagi koʻrimsiz aralashma hosil boʻladi. Spektrni sinchiklab kuzatsak, uning chekkasidagi qizil va binafsha ranglari orasida oʻxshashlik alomatini sezamiz. Ikkala rang bir-biriga qoʻshilsa, ularning oralig'ida qirmizi rang hosil boʻladi.



Rang toʻyinganligini oʻzgartirish.

Oq yorug'lik murakkab tuzilgan, u koʻpgina oddiy nurlardan tashkil topgan. Bu nurlarning bizga turli rangda koʻrinishiga sabab shuki, koʻz toʻrpardasidagi shakllari boʻyicha kolbacha va tayoqchalar deb atalagan yorug'likka sezgir toʻrlari yorug'likni har xil qabul qiladi. Kolbachalar (ular 7 mln. atrofida) ranglarni va juda mayda buyumlarni ajratish xususiyatiga ega. Har bir xromatik rang uchta asosiy

xususiyatga ega ekanligini ko'rib chiqqanmiz. Bundan tashqari, rangning yengilligi va kontrasti kabi xususiyatlarini bilish, obyektlarning mahalliy rangi konsepsiyasi bilan tanishish va rangning fazoviy fazilatlarini his qilish juda muhimdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. O'. Abdullaev. Rangshunoslik.Darslik. –T: "Innovatsiya-Ziyo", 2022.14-b.

**2.** R. Xudayberganov. Rangshunoslik va kompozitsiya asoslari. –T.: 2019. 24-b.

**3.** Sh. Abdurahmonov. Rangshunoslik. – N.: "NamPQI", 2007, 33-b.

**4.** B. Jabbarov. Rangshunoslikka oid ayrim atama va iboralarning izohli lug'ati. –N.: 2001. 7-b.

**5.** Boltaboev Azizbek Hasanboy ugli, Heoretical basis of the development of the spatial perspective imagery in the performance of pencil and draft in the process of student educational process. Solution Of Social Problems In Management And Economy: 2 pp. 12-17 (2).

**6.** Boltabayev Azizbek Khasanboy. (2021). In Painting Natyurmort It'sWorking Methods And Peculiarities. The American Journal of Applied Sciences, 3(01), 123-127

# O'ZBEK XALQ MUSIQA IJODINING O'ZIGA XOS TOMONLARI HAMDA ASOSIY MUSIQIY AN'ANALAR

***Axmedov Baxodirxon Syfiddinovich***

*Namangan davlat pedagogika institute amaliy, jismoniy tarbiya va sport fanlarini o'qitish kafedrasi o'qituvchisi*

***Mirzajonov Omonjon Shermatjon o'g'li***

*Musiqa ta'limi yo'nalishi 2 kurs talabasi*

***Annotatsiya:*** *O'rganilayotgan mavzularni talablar darajasida bajarilsa, o'ylaymanki, yosh avlodni musiqani sevadigan, ardoqlaydigan, har tomonlama yetuk inson bo'lib voyaga yetishida o'zimizni munosib hissamizni qo'shgan bo'lamiz.*

***Kalit so'zlar****: Xonanda, sozanda, tovush, kuy, opera, simfoniya, yor-yorlar,*

*kelin salom, musiqiy tovushlar, ijrochilik, san`at, Shashmaqom, talaffuz, musiqa faoliyatlari, musiqa tinglash.*

XIX asr oxirlariga kelib, o'zbek musiqiy madaniyatida o'zgarishlar davri boshlandi. Turkiston o'lkasini Rossiya tomonidan istilo qilinishi bilan bog'liqdir. Bu borada ikki tomonlama qarash bilan o'rganmoq zarur bo'ladi. Chunki ba'zi bir hollarda milliy musiqa madaniyatimizga salbiy ta'sirini kuzatsak, ikkinchi tomondan, o'ziga xos rivojlanish davri bo'lganligini ham e'tirof etish zarur bo'ladi. Chunki nota yozuvining kirib kelishi, o'lkamizda milliy musiqa san'atimizni ilmiy ravishda o'rganish, folklor va etnografiya sohasidagi rivojlanishga sezilarli ta'sir etdi.

Bu borada V.A.Uspenskiy, Ye.Romanovskaya, N.N.Mironov singari musiqashunos va etnograf olimlarning mehnatlarini aytib o'tish zurur bo'ladi. Ilyos Akbarov, Mutal Burxonov, Yunus Rajabiy, Tolibjon Sodiqov, Muxtor Ashrafiy singari musiqamiz darg'alari ulardan saboq oldilar. Bundan tashqari, jahon musiqiy madaniyatining durdonalari sanalmish fortopiano sozi, simfonik ijro, jahon klassik musiqiy sozlarining kirib kelishi musiqiy madaniyatimizning har tomonlama serqirra rivojiga salmoqli hissa qo'shdi. Natijada, o'zbek xalq musiqalari, qo'shiqlari, maqomlari joy olgan 20 jilddan ortiq kitoblar dunyo yuzini ko'rdi.

So'nggi 130 yil ichida musiqiy madaniyatimiz murakkab, keskin ziddiyatlarga, ijobiy va salbiy ko'rinishlarga to'la tarixiy davrni boshidan kechirdi. Ana shu holatlarga qaramay, o'tgan davrlar mobaynida ilm fan, san'at, jumladan, musiqiy madaniyat sohasida faxrlanishga arzigulik ishlar amalga oshirilganligini ehtirof etish zarur. Yaqqol misol sifatida musiqa ijodiyoti, musiqa ilmi, tahlili singari sohalarni olish mumkin.

Shu o'tgan davrlarning salbiy oqibatlari sifatida hayotimizning o'ta siyosiylashtiriluvi, milliy qadriyatlarimizni mensimaslik, uning toptalishiga yo'l qo'yilishi, xalqchil yo'nalishlarga bepisandlik munosabatida bo'lish, azaliy xalqaro

madaniy aloqalar rivojlanishiga sun’iy to‘siqlar qo‘yilishi kabilarni ko‘rsatish mumkin.

Hozirgi zamon o‘zbek musiqa ijodiyoti serjabha va ko‘lami keng, usluban boy va rivojlangan va shiddatli jarayon sifatida gavdalanadi. Zotan, musiqiy madaniyatimiz juda qadim, betakror va noyob an’analarga ega bo‘lgani holda, zamona zayli bilan yangidan-yangi yo‘nalish, shakl, janr, uslublar bilan yanada boyib bormoqda. Demakki, asrlar osha bizgacha yetib kelgan ardoqli navobaxsh merosimiz qatori bir necha avlod ijodkorlarining ko‘rkam musiqiy an’analari madaniy-ma'naviy mulkimizga aylandi. Har qanday san’at turi har xil vositalar orqali hayotiy voqealikni aks ettirishga qodir ekan, so‘nggi yuz yillik mobaynida O‘zbekiston musiqasining rivojlanishi nechog‘lik murakkab va o‘zgaruvchan ijtimoiy sharoitlarda kechganini yaqqol tasavvur qilish mumkin. Xususan, 1920-yillardan ehtiboran kompozitorlikka xos ifoda vositalarining izchil joriy etila boshlanishi musiqiy madaniyatimizda musiqa ijodkorligining yangi tizimi barpo etilishidan dalolat berdi.

Tabiiyki, tez orada o‘zbek xalq ijodiyoti, an’anaviy bastakorlik hamda havaskorlik singari o‘zaro chambarchas bog‘liq qatlamlar bilan uzviy bog‘liq ravishda milliy qadriyatlarimizga, «noan’anaviy» kompozitorlik ijodkorligi muhim tarmoq sifatida qo‘shiladi. Umumbashariy madaniy taraqqiyotga mos ravishda mazkur jabha o‘lkamizda tarixan juda qisqa muddat ichida uzil-kesil shakllanib, samarali rivoj topganini alohida ehtirof etish lozim.

G‘arbiy va Sharqiy Ovrupa mamlakatlari tajribasidan unumli foydalanibgina qolmay, o‘zgacha yaratuvchanlik qonun-qoidalarini o‘zlashtirish, uni o‘zbek xalq musiqasining boy imkoniyatlari bilan mohirona payvand qilish maqsadida ilg‘or kompozitorlarimiz balki Sharq mintaqasi doirasida ulkan yutuqlarni qo‘lga kiritishga muvaffaq bo‘ldilar.

Yangicha musiqiy uslubda noyob zamonaviy asar yaratish, jahon xalqlari musiqasi rivojlanishini hisobga olib, tobora yangidan - yangi ijodiy ufqlarni ochib berish bilan tavsiflanuvchi baynalminal jarayonga O‘zbekiston o‘z munosib ulushi bilan dadil kira oldi. Kasbiy ulg‘ayish bosqichlarini tezkorlik bilan o‘tab, har

tomonlama yetuklik pallasiga ko'tarilishi bilan "O'zbek kompozitorlik maktabi" dunyo musiqa madaniyatida o'ziga munosib o'rinni egallashga intildi.

Asosan XX asrning ikkinchi yarmida vujudga kelgan ana shunday ijodga moyillik darajasi ilgari ayricha holda bo'lgan ikki toifadagi musiqiy tafakkur an'analarining o'lkamizda uzviy mushtarakligiga erishilganligi bilan ham xarakterlanadi. Shu boisdan ko'p ovozlik uslub ila bunyod etilgan turli janrlardagi badiiy jihatdan barkamol, mumtoz asarlar ma'naviy qadriyatlarimizning jahonshumul salohiyatini yanada oshirdi.

**Og'zaki an'anadagi professional musiqa**

Qadimiy san`atlardan bo'lmish musiqa o'zining shakllanishi jarayonidan hozirgi davrimizgacha insoniyatning ijtimoiy hayoti bilan bog'liq holda shakllanib rivojlangan. Hayot tizimining turli shart-sharoitlariga asoslangan holda musiqiy namunalar bunyod etilgan. O'zining ravnaqi yo'lida yirik-yirik asarlar vujudga kelishiga zamin yaratilgan. Musiqiy merosimizning murakkab va mukammal jihatlari, boy imkoniyatlari musiqa san`atining insoniyat hayotida muhim ahamiyat kasb etganligidan dalolat beradi. Har bir musiqa asarining yaratilishi va uning tinglovchilarga manzur bo'lib, avloddan-avlodga o'tishida taniqli olim B. Asafev ta`kidlagan "uchlik" ahamiyatlidir. Bu esa ijodkor, ijrochi va tinglovchilarning mutanosibligidir. Har bir asar ana shu jarayon mutanosibligini ta`minlasa, u albatta musiqiy meros namunalari qatoridan joy olishi, ustozona musiqa ijodiyoti talablariga javob berishi muqarrar.

Mazkur "uchlik"ning har bir tarmog'i o'ziga xos muhim omillar bilan bog'liqdir. Lekin, ijrochi mas`uliyatini qolganlariga nisbatan, doimo vaziyat va talqini bilan bog'liq omillar keskinlashtirib kelgan. Zeroki, azaldan ijrochilar turli toifada faoliyat ko'rsatib kelganlar. Xususan, bu jarayonni taniqli musiqashunos olim T.G'ofurbekov quyidagicha talqin etadi: O'tmishda (bir ovozli) monodik asarlar ijrochilarini uch toifaga bo'lishgan:

a) tinglovchilarga u yoki bu kuyni eslatadigan (ya`ni, o'zgartirmay ijro etadigan);

b) taniqli xonanda va sozandalar ijro uslubiga taqlid etadigan (ya`ni, taqlidchilar):

v) shaxsiy ijro talqiniga ega boʻlgan namoyondalar.

Har uchala toifaga kirgan sozanda yoki xonandalar keng ma`noda-ijrochilardir. Lekin, ularning ijrochilikka boʻlgan munosabatlari ana shu uchlikning kelib chiqishiga sabab boʻladi. Ma`lumki, musiqaning negizini tovush tashkil etadi. Tovush esa koʻp jihatli jarayondir. "Tovush"-bu zohiriy koʻrinish. Unga turli vosita, harakatlar bilan erishish mumkin. Ulardan ma`lum balandlikka ega boʻlganlari musiqiy tovush hisoblanadi. Musiqiy tovushlarni ma`noli, his-tuygʻular orqali mukammal tarannum etishga eng avvalo inson ovozi qodir. Ularning barcha xususiyatlaridan foydalanib, turli bezaklar yordamida ijodiy yondoshib, tinglovchi qalbiga oʻzgacha ta`sir ettirish ana shu uchinchi toifa namoyandalari talqiniga xosdir. Bu albatta, birinchi va ikkinchi toifalarga taalluqli xonandalarni kamsitish yoki ularni nomukammal degan fikr emas. Zeroki, har bir xonanda yoki sozanda ijrosi insonlarga, ruhiy ozuqa olishida oʻz ta`sirini koʻrsatar ekan, u talqin mukammaldir. Ijrochilar toifalarga boʻlingani ilmiy nuqtai nazardan, ularning ijro paytidagi ijod bilan bogʻliqligi jihatidan desak mubolagʻa boʻlmas. Vaholanki, ularning boy imkoniyatlari, ijrolari va yaratgan asarlari yozma manbaalarda oʻtmishdan oʻz ifodasini topib kelgan. Bu jarayonni ilk koʻrinishlari afsonaviy Borbad timsolida oʻtmishning buyuk allomalari Firdavsiy, Nizomiy Ganjaviy, Jomiy, Alisher Navoiy asarlarida keng yoritilgan. Shu bilan birga ular an`anaviy musiqa tarkibini turli janrlar, rang-barang asarlar bilan boyishiga samarali hissa qoʻshgan. Hozirda mavjud barcha maqomlar, maqom yoʻlida yaratilgan asarlar, yirik janrlarga xos kuy va ashulalar oʻtmish sozanda, xonanda va bastakorlarning ijodiga mansubligiga shubha yoʻq.

Odatda "ijrochilik"-musiqiy namuna talqini bilan bogʻliq bir qator ichki xususiyatlarni oʻzida mujassam etadi. Iste`dod, bilim, har tomonlama mukammal ovoz, sozandalik san`ati, joʻr boʻlish mahorati, badihagoʻylik mahorati, saboq, ijodiy yondoshish, toʻgʻri soʻz talaffuzi, izlanish va doimiy mashq kabi xususiyatlar va sifatlar shular jumlasidandir. Musiqa ijrochiligida bu sifat xususiyatlarga ega

boʻlgan san`atkorgina ustozona musiqa namunalarining mukammal talqiniga erishadi.

Ijrochi uchun iste`dod musiqani qalban his etib, mazmunli ifoda etish boʻlsa, bilim- shu iste`dodni musiqa ilmi (musiqiy namunalar, janrlar, ularning tuzulishi va metroritmik jihatlari, ijro texnikasi, ijrochilik mahoratlari) bilan sugʻorishdir. Musiqashunos olim I.Rajabov ta`biri bilan aytganda: "Shashmaqom va boshqa katta formadagi xalq musiqa asarlarini ijro etishda cholgʻuchi va hofiz maxsus malaka hosil qilgan boʻlishi, maqomlarning ijro etish texnikasini yuksak egallagan boʻlishi lozim", ya`ni musiqa ijrochiligi ilmini puxta oʻzlashtirishi lozim. Ijro talqini esa xonandadan chiroyli, latif va keng diapazonli mukammal ovozni talab etadi. Bunda bor ovozdan oqilona foydalanib, toʻgʻri idroklash muhimdir. Shu bois ayni paytda maqom yoʻllari ijrosi uchun hofizda keng diapazon, yoqimli ovoz va yuksak ijro texnikasi boʻlishi shart qabilidagi talab oʻrinlidir.

Sozandalik san`ati-ustozona musiqa ijrochiligining muhim omillaridan biridir. "Har bir musiqachi biladiki, u ragani kuylay oladi, buning uchun u ma`lum darajada teran his eta bilsa bas. Lekin, raga hissiyotini ularga "kuylash" emas, balki ragalarda bunyodga keladigan nazokat, mung, hayrat kabi hislarni ifodalovchi cholgʻu in`om etadi deb mashhur hind musiqashunos olimi R.Mennon ta`riflaydi.

Darhaqiqat, xonanda oʻz cholgʻu talqinining birinchi ijrochisi va birinchi tinglovchisi hamdir. Zeroki, ijrochi oʻz mahoratini cholgʻu talqinida tarannum etib, xonishi bilan boyitadi. Sozanda cholgʻuda qanchalik mahorat bilan musiqiy asarning mukammal ifodasiga erishsa va mutanosib tarzda xonishga ta`sir ettira olsa, shunchalik joʻr boʻlish mahorati sirlariga ega boʻladi. Uning asosiy xususiyatlari ziyraklik, sezgirlik, badiha, oqilona talqin va doimiy nazorat kabi jihatlarda namoyon boʻladi.

Badihagoʻylik-odatda "maxsus tayyorgarliksiz bir zumda yaratilgan she`r (musiqa yoki qoʻshiq), yoki voqea, hodisa munosabati bilan toʻsatdan aytilgan musiqiy asardir" . Musiqiy ijodiyotda maxsus "badihagoʻylik"ka asoslangan "aytishuv" janr, baxshilar san`atiga xos namunalar mavjud. Ustozona musiqa

namunalari ijrochiligida "Badihago'ylik" o'ziga xos ko'rinishda shakllanib, ijro jarayonidagi talqin bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Shuningdek, xonanda yoki sozandaning ijro vaqti, vaziyati doirasida kuyga yoki ashulaga o'zgacha yondashish va namudlar qo'shishi bilan xarakterlanadi. Bunda asosiy mezon ijrochilik amallaridan asoslangan holda olgan sabog'i, badiiy va musiqiy meros an`analari negizidagi teran bilimi, amaliy jarayon talqinidagi mahorati va ijro etayotgan musiqiy namunaga nisbatan ijodiy yondoshishi hisoblanadi.

Ijrochilik sabog'i an`anaga ko'ra ustoz-shogird qabilida amalga oshirilgan. Odatda, har bir shogird ko'p yillar davomida (ijrochilik sirlarini puxta o'zlashtirguncha) o'z ustozi tarbiyasida bo'lgan. Soz chertish, ashula aytish, musiqiy merosni o'rganish, davralarda o'zini tutish kabi eng zarur jihatlarni mukammal o'zlashtirgan shogird ustozlarning o'ziga xos imtihonlaridan so'ng mustaqil faoliyat ko'rsatishga ijozat olganlar.

Hayotda har bir sohani egallashda o'ziga xos ruhiy, ishqiy, ilmiy-amaliy pog'onalarni bosib o'tish taqozo etiladi. Bu o'rinda an`anaviy ijrochilikni o'zlashtirish va mohirlikka erishish jarayonini ramziy ma`noda tasavvuf ta`limotiga xos insonning ma`naviy kamolotga erishish yo'li asoslari bilan taqqoslab ko'rish mumkin. Biz O'rta Osiyo tasavvufining musiqa bilan hamnafas jihatlari misolida fikr yuritishni lozim ko'rdik.

So'fiylikka qadam qo'ygan har bir murid (yoki solih) Shariat, Tariqat, Haqiqat (ba`zan Ma`rifat-Haqiqat) kabi maqomlar silsilasidan o'tishi lozim bo'lgan. Bunda shariat tushunchasi ma`lum diniy qonun-qoidalar majmuasi hamda so'fiylikka boshlovchi dastlabki ruhiy holatni anglatgan. Bu holatni esa Tangriga bo'lgan ishq belgilaydi. Keyingi bosqich-tariqatda esa ma`lum xatti-harakatlar amalga oshirilishi ko'zda tutiladi. Tariqatda asosan 7 pog'ona mavjud bo'lib, ularni murid o'z piri-murshidining yo'l-yo'riqlari asosida o'tishi lozim bo'ladi. Xuddi ana shu 7 pog'ona esa arab tilida "maqam" (maqom) deb ataladi. "Tariqat maqomlari" iborasi ham shu asosdan kelib chiqqandir. Binobarin, Ilohiy ma`rifat va haqiqatga erishmoq uchun ushbu maqomlarni bosib o'tishi shart bo'lgan". Bundan kelib chiqadiki, I-daraja har tomonlama tayyorlanish, sozlanish-shariat, II-daraja saboq

jarayonini-Tariqat (yoki ma`rifat Tariqat), III-daraja mukammallik, yetuklikni mustaqil faoliyat-Haqiqat-tarzida sharhlash oʻrinli boʻlsa kerak.

Musiqa ijrochiligi egallash jarayonini (sun`iy tarzda va nazariy tarkiblash maqsadida) bosqichlarga boʻlganimizda quyidagi manzaraning shohidi boʻlamiz. San`atning ilk qadamlarini inson qalbida shu sohaga "ishq" paydo boʻlishi va bu ishq san`atni ongli ravishda tushunish, unga qalban amal qilishga boʻlgan ishtiyoq, ularning asosida ma`lum harakatlar, anglash jarayoni sifatida aniqlab, uni Shariat, ya`ni I-bosqich bilan bogʻlasak boʻladi. Boʻlajak ijodkorning ushbu sohada ma`lum tushuncha hosil qilib, oʻz faoliyatini san`atga bagʻishlab, shogirdlikni ravo koʻrib, ma`lum ustozdan saboq olishga jazm etishi, ya`ni ustoz-shogird (murshid-murid amali) sabogʻi davri II-bosqichga toʻgʻri keladi. Yuqorida keltirilgan yetuklik-III-bosqichga haqiqat jarayonini, ya`ni mustaqil faoliyatda hofizlikning barcha sir-asrorlarini idroklagan holda mukammal ijro etish, "Hofizlik" bilan bogʻlash mumkin. Bu jarayon bir qator omillarni oʻzida mujassam etadi. Ulardan ayrimlarini quyidagi tartibda tasavvur etish mumkin.

A) Shariat Tariqat Haqiqat

B) Ishq Shogirdlik Hofizlik

C) Sozlanish Tayyorlanish Mukammallik

D) Kirish-anglash 7 bosqichni oʻtish Ijod-faoliyat

Ijrochilikning barcha ichki va tashqi xususiyatlaridan kelib chiqqan holda lozim boʻlgan amallarni quyidagicha yondoshish bilan izohlashga urinib koʻramiz:

1. Soʻz talaffuzi (she`riyatni bilish, kuy usuli va she`r vazni), ya`ni aruz ilmi.

2. Sozandalik san`atini egallash (cholgʻu ijrochiligi, talqin mahorati).

3. Xonandalik san`ati (ovozdan toʻgʻri va oqilona foydalanish. Tovushqatorning har bir pardasida lozim va xos sayqal va jilo berishga erishish. Hamnafaslik.)

4. Joʻr boʻlish san`ati (oʻz-oʻziga joʻr boʻlish, oʻzga xonandaga ma`lum cholgʻuda joʻr boʻlish va joʻrnavozlik).

5. Ijro san`ati (har qanday shart-sharoitdagi ijro paytida o‘zni idora qila bilish, an`anaviylik va badihago‘ylik imkoniyatlaridan foydalanish tartiblari, ijro vaziyatini to‘g‘ri baholash).

6. Merosni o‘rganish (saboq, og‘zaki an`anadagi musiqa merosini o‘zlashtirish, uni ilmiy idroklash, mavjud an`anaviy ijro uslublar bilan tanishish).

7. Talqin-tahlil, taqlid va talqin (mavjud an`analar bilan sug‘orilgan xususiy o‘ziga xos talqin yaratish).

Ustoz-shogird an`analarida bu bilan birga odob-axloq, o‘zini tutish va amal qilish lozim bo‘lgan yoki sharoit taqozo etadigan o‘ziga xos "amal"lar mavjud. Ustoz-shogird va shogirdlarning saboq jarayoni haqida qator olimlarning fikr-mulohazalari mavjud. Xususan, XVasrda Hirotda yashab ijod etgan, Sharqning mashhur allomalaridan biri, axloq, tarix, tasavvuf, nujum, riyoziyot kabi sohalarda samarali ijod etgan Husayn Voiz Koshifiy o‘zining "Futuvatnomai Sultoniy" nomli risolasida bu jarayonning (so‘fiylar ijodi-amali misolida) ko‘p qoida nizomlarini, murid-murshid, Pir-murid, ustoz-shogird amallarini yoritib bergan. Unda har bir tadbirning rukni, sujudi (sajdalari), farqi, intihosi, ma`nosi, odobi, axloqi, odati, shartlari, sarmoyasi, vazifasi, qonuni, ziynati, xislatlari, sifatlari kabi lozim bo‘lgan o‘nlab amallari haqida bayon etiladi. Ana shu manbaadan bir namud,-shogirdlikning amallari haqida quyidagicha yozadi: "Agar shogirdlikning binosi nimani ustiga quriladi, deb so‘rasalar, irodat ustida, deb javob bergin. Agar irodat nimadir, deb so‘rasalar, samo‘ va toatdir, deb aytgin. Agar samo‘ (eshitish) va toat nimadir deb so‘rasalar, nimaiki ustoz aytsa, uni jon qulog‘i bilan qabul qilish va vujud a`zolari orqali amalda ado etishdir, deb ayt. Agar shogird uchun nima yaxshi, deb so‘rasalar, pok e`tiqod deb ayt, chunki faqat e`tiqod kishini murodiga yetkazadi".

Ustoz-shogird an`analarining ko‘p jihatlari ijrochilik san`atini egallash jarayonida tasavvuf ilmi bilan umumiy ekanligining guvohi bo‘lamiz. Shu bilan birga ijrochilik san`atini egallashning izlanishlar bilan birga o‘ziga xos tomoni ham mavjud. Chunonchi, shogird doimo amaliy izlanishda bo‘lishi, muntazam mustaqil ijroga o‘rganib borishi, doimiy tarzda davralarda ishtirok etishi, ustozi yonida,

kerak vaqtda hamnafas yoki jo'rnavozlik qilishi taqozo etiladi. Ana shu mezon keyingi bosqich-mustaqil ijod davrida asos sifatida muhimdir. Musiqa esa she`riyatning murakkab uslublaridan hisoblangan, o'ziga xos ritmik tarkibga ega bo'lgan aruz vaznidagi namunalar bilan ijro etishga asoslangan. Asarning negizida so'z (aruz) vaznning kuy usuli bilan uzviy mushtarakligi va hamohangligi muhim omillardan biridir. Qolaversa-musiqiy kuy ma`lum she`riy asarga bog'lanadi, bastalanadi. Albatta uning mukammal tarkib topishida she`rning ham vazni, mazmuni kabi xususiyatlari asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi.

Ijrochilik azaldan musiqiy merosimizning turli janr xususiyatlari asosida, o'ziga xos shakldа yuzaga kelgan. Ularni ruhiy ta`siri, musiqaviy jonli ifodasi, tarkibiy va ijroviy jihatlaridan kelib chiqib, ijrochilik an`analarini F.M.Karomatov 3 guruhga bo'ladi. "Bular folklor (asliy xalqiy), xalq professional va og'zaki an`ananing eng rivojlangan professional ko'rinishi" Ustozona musiqa tarkibiga kiruvchi qismi-"og'zaki an`anadagi professional musiqa guruhi hamma joyda (kontsertlarda) aytiladigan, bir ovozli ko'rinishga ega bo'lgan, tarkibiy-kuy jihatidan nisbatan eng rivojlangan, aytim (vokal)-cholg'u asarlari, (alohida o'zining ifodali ta`siridagi-monumental-yirik) turkumli asarlarni o'z ichiga oladi".

Yuqorida zikr etilgan barcha guruhlar bir-biri bilan uzviy bog'liq holda zamon nafasi bilan hamohang rivojlanish jarayonini o'tagan. Ijrochilar atalmish "an`analar"ning davomchilari musiqa san`atining rivojiga o'z ta`sirlarini ko'rsatganlar. Ijrochilikning tarixiy rivojlanish jarayoni mahalliy zonalar miqyosida, ma`lum guruhlar doirasida va mustaqil ijod asosida vohaviy, guruhiy va shaxsiy ijrochilik yo'llari-uslublari shakllanishiga zamin yaratgan. Lokal zonalarga xos ijro uslublarda sheva, an`ana, janrlar kabi u yoki bu mahalliy yo'nalishning xarakterlovchi turli jihatlari asosiy omil sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Shaxsiy ijro uslublarining yuzaga kelishida esa, ko'proq yetuk sozanda yoki xonandaning ijro talqini bilan bog'liq imkoniyatlari (ovoz, ijodiyot, badihago'ylik, ijro) tarbiyalanib, yetishib chiqqan ijrochilik maktabi an`analari, mahalliy uslublari va istiqomat qilib turgan joyning turli musiqiy va ijtimoiy an`analari muhimdir.

O'zbek musiqa ijrochiligida ana shunday mezonlarni o'tab, xalqimiz ardog'ida yashab, musiqiy merosimizda o'rnak bo'la oladigan Ota G'iyos , Ota Jalol, Domla Halim Ibodov, Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Hamroqul Qori, Madrahim Yoqubov, Erka Qori Karimov, Sodirxon Hofiz, Hojixon Boltaev, Jo'raxon Sultonov kabi bir qator ustozlar o'tgan. Ijrochilik san`ati, hofizlik darajalarining muqobil ko'rinishini ushbu ustoz san`atkorlarning ijodiy faoliyatida ko'rish mumkin. Shu bois ham ular va ularning ijodi doimo o'rnak va namunadir.

Tovushning barcha o'ziga xos xususiyatlari, turli sifatlari bilan bog'liq rang-barang jihatlari musiqa ilmining bilimdonlari tomonidan o'tmish risolalarida, zamonaviy tadqiqotlarda mushohada etilgan. Xususan I.Rajabov tovushni (nag'ma iborasi bilan atab) qavliy va fe`liy xilga ajratib zikr etgan. Bu haqida qator adabiyotlarda ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. I.Rajabov "Maqomlar masalasiga doir" T. 1963y.
2. R.Zoxrabov, Azerbaydjanskie zerbi mugamo'. Baku. "Isho'g", 1986 g.
3. O.Ibrohimov. Maqom va tasavvuf xususida. -Rajabiyxonlik ilmiy anjuman materiallari. T., 1994 y.
4. Koshifiy Husayn Voiz. Futuvatnomai Sultoniy.
5. Yoxud javonmardlik tariqati. "Pandnoma" T., 1994 y.
6. Kultura Srednego Vostoka. "Muzo'kalnoe, teatralnoe iskusstvo i folklor", T., "Fan" 1992 g.
7. Ragxava R.Menon. "Zvuki Indiyskoy muzo'ki" M.,1989 g.

# RISHTON KULOLCHILIGINING XALQ BADIIY HUNARMANDCHILIKDAGI AHAMIYATI HAMDA MILLIY QADRIYATLARIMIZGA TA'SIRI

***Maxsutaliyev Jahongir***

*Namangan davlat universiteti talabasi*

***Ubaydullayeva Shahnoza***

*Andijon davlat universiteti talabasi*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada xalq badiiy hunarmandchiligi haqida nazariy va amaliy ma'lumotlar asosida Rishton kulolchiligi maktablarini yanada rivojlantirishni, ustoz-shogird an'analarini davom ettirishni rivojlantirish omillari va milliy qadriyatlarimizni rivojlantirish uning tarixini o'rganish mashg'ulotlari to'g'risida so'z yuritilgan.*

***Kalit so'z:*** *Badiiy kulolchilik, loy, feruza rang, mis, ganjkorlik, texnika, arxeologiya, usul, usta-shogird.*

***Аннотация:*** *В данной статье на основе теоретических и практических сведений о народном декоративно-прикладном искусстве, дальнейшем развитии риштонских гончарных школ, факторах развития продолжения традиции мастера-подмастерья и развитии наших национальных ценностей, о изучение его истории z продолжается.*

***Ключевые слова:*** Художественная керамика, глина, бирюзовый цвет, медь, горное дело, техника, археология, метод, мастер-подмастерье.

***Abstract:*** *In this article, on the basis of theoretical and practical information about folk arts and crafts, the further development of Rishton pottery schools, the development factors of the continuation of the master-apprentice tradition, and the development of our national values, about the study of its history z is maintained.*

***Key words:*** *Artistic pottery, clay, turquoise color, copper, mining, technique, archeology, method, master-apprentice.*

Bizga tarixdan ma'lumki o'zbek xalq amaliy bezak san'ati o'zining qadimiyligi, madaniyatining bebaho hamda serqirraligi bilan butun dunyoda o'z o'rniga ega bo'lib kelmoqda. Buni albatta hozirgi kungacha o'z me'moriy obidalarini saqlanib qolgan qadimiy shaharlardagi har bir tarixiy obida, har bir xalq amaliy bezak san'ati namunasi ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan takrorlanmas, bebaho san'at asarlari bo'lib, jahon madaniyati durdonalari qatorida o'z o'rniga ega. Jumladan ko'p asrlar mobaynida orttirilgan moddiy, madaniy va ma'naviy boyligimiz, xususan, o'zbek xalq amaliy bezak san'atining eng ko'p rivojlangan

naqqoshlik, ganchkorlik, yog'och o'ymakorligi, toshtaroshlik, suyak o'ymakorligi, kandakorlik, pichoqchilik, zargarlik, kashtachilik kabi turlari saqlanib qolganligini guvohi bo'lamiz.

O'lkamizning ko'hna qal'alari, qo'rg'on va xarobaga aylangan tepaliklardan A.A.Asqarov va uning yo'ldoshlari kovlab topgan ibtidoiy ov qurollari, ishlab chiqarish, ro'zg'or buyumlari qadimiy Farg'onada qadim davridan boshlangan hunarmandchilik madaniyat izlari hunarmandchilik tarixining naqadar uzoq o'tmishga borib taqalishini isbotlagan. Ma'lumki insonlar ishlab chiqarish faoliyatini mehnat taqsimoti: ovchilik, chorvachilik, dexqonchilik, hunarmandchilikdan boshlaganlar[1]. Natijada ovchilik uchun kamon, pichoq, nayza, dexqonchilik uchun o'roq, bolta, bel-kurak, bug'doy-don yanchish uchun tegirmon (xoroz) hunarmandchilik uchun nina bigiz, po'stin – telpak uchun xayvon terisi, osh tuzi kabilar asta-sekin takomillasha borganligi sababli ularni jamoa tarzida ishlab chiqarish ustaxonalari oddiy bo'lsa ham boshlang'ich fabrikalar kasbhunarmandlar uyushmasi-markazlari hosil bo'lgan. Shu tariqa Yevropa va Osiyo mamlakatlarida shamol tegirmonlari, suv tegirmonlari, qo'l tegirmonlari, ot, eshak, tuya bilan xarakatlantiriladigan tegirmonxorozlarda don yanchilgan-un hosil qilingan yoki juvoz yog'i ishlab chiqarilgan. Tarixiy taraqqiyot jarayonida daryo, dengiz okean bo'yi mamlakatlarida qayiq, kemalar yasalgan va qo'shni yerlarni o'zlashtirish, bosib olish (XVII-XIX) asrlarda paydo bo'lib-kapitalistik tuzum paydo bo'lgan. O'rta Osiyo xususan O'zbekiston, Farg'ona zabt qilinganidan so'ng ming yillardan buyon davom etib kelayotgan sopol hunarmandchiligi uy-shaharsozlik, kiyim-kechak, zargarlik, chetga sotish biroz kasod topsa ham yo'q bo'lib ketmagan. XX asrning 20-30 yillarida Farg'ona, Quva, Marg'ilon kabi shahar va tumanlarda hunarmand artellari ochilgan va ustoz-shogird usuli bilan Chust do'ppi va pichoqsozligi, Marg'ilon ipak va atlaschilik, temirchilik, misgarlik, duradgorlik, sangarlik (marmarga naqsh o'yish) uyushmalari ochilgan[2].

San'at juda qadim zamonlarda, mehnat jarayonining taraqqiyoti natijasida paydo bo'ldi. Mehnat jarayonida inson tafakkuri kamol topdi, go'zallik hissi ortdi, voqelikdagi go'zallik, qulaylik va foydalilik tushunchalari kengaydi[3].

San'at faoliyatning yetakchi faoliyatga aylanishi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga, kishilarning ma'naviy ongi rivojlanishiga bog'liq. Bu kulolchilik san'atini puxta o'rganish uchun insonda, avvalo, iste'dod bo'lishi kerak, - deydi usta kulol. – Mana shu hunar sir-asrorlarini qunt bilan, erinmay o'rgatgan ustozim, rahmatli usta kulol Umar Jo'raqulovdan bir umr minnatdorman[4]. Albatta, ushbu san'atni o'rganish mumkin, ammo o'z yo'li, uslubiga ega bo'lish juda murakkab jarayon. Xalq xunarmandchiligi va amaliy san'atining tur va shakllari haqida ham ayrim ma'lumotlarga ega bo'lish biz uchun zaruratdir. Bizning davrimizga kelib katta-katta shaharlardagi aholining ko'pchilik qismini hunarmandlar tashkil etmokda. "Hunar-hunardan unar" qabilida yoshlarimiz uchun maxsus san'at maktablari va boshka turdagi o'quv yurtlarining tashkillanishi ham asosiy omillardan biriga aylanib kelmoqda. Bu masalada davlatimiz olib borayotgan ijtimoiy-maishiy turmush tarzimizni yuksaltrishga qaratilgan ishlarning mohiyatini baholash ancha quvonarli holdir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. S.Bulanov. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. T., 1991 yil.
2. M.Rahimov. O'zbekiston badiiy keramikasi. T., 1961 y.
3. A.Turg'unov.O'zbek kulolchilgi san'atining hududiy xususiyatlari.T. 2001.
4. Q.Usmonov., M.Sodiqov., S.Burxonova. O'zbekiston tarixi.-Toshkent: Sharq, 2005.-49 b
5. N.A.Dmitriyeva, L.I.Akimova. Qadimgi dunyo madaniyati. - M.: Bolalar kutubxonasi, 1998-25 b
6. N.Abdullayev. Madaniyatlar tarixi.-Toshkent: O'qituvchi, 1986.-118 b

## STEAM-ОБРАЗОВАНИЕ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ

***Хайдарова Мадинабону Баходиржон кизи***

*Магистрант Наманганского Государственного Педагогического Института*

*направление: Теория и методика образования и воспитания*

*(начальное образование) khaydarova5598@gmail.com*

O'quvchilar bilan ishlashda asarning obrazli ma'nosiga emas, balki uning ritmik tomoniga so'zlarning aniq talaffuziga va lad-tonallik tuzilmasiga e'tibor berish kerak. O'quvchilar o'zbek musiqasiga yaqin intonatsiyali asarlarni osonroq tushunadilar. Bunday asarlar ko'plab bastakorlarimiz tomonidan yaratilmoqda. Masalan, bolalar kompazitorlari Dilorom Omonullaeva, Avaz Mansurov, Fattoh Nazarov, Xabibullo Rahimov, Shermat Yormatovlar tomonidan yaratilgan zamonaviy musiqa tili bolalarga yaqin, uning g'oyaviy mazmuni esa ijobiy axloqiy fazilatlarni tarbiyalaydi. O'qituvchi maktabda sinfdan tashqari mashg'ulotlarini ham olib borishi jarayonida o'quvchilar bilan musiqa haqida suhbat o'tkazishi va ularning diqqatini asarning so'zlarini uyg'unlashuviga, ritmik harakat mazmuniga qaratishi kerak. O'quvchilarning musiqiy tafakkuri rivojlanishining muhim ahamiyati, ular kompozitor va bastakorlarimiz yaratgan asarlardagi ritmik harakatlarni yo'lga qo'yish, so'zlarning musiqa ohangiga mos kelishi hamda gimnastik mashg'ulotlarni to'g'ri bajarishda intonatsion tuzilmalarning xalq milliy harakterini ochib berib, o'zlashtirib borishi maqsadga muvofiqdir. Hozirgi zamon kompazitorlari va bastakorlari asarlarida yangi musiqiy obrazlar yaratilgan bo'lib, musiqiy obrazlar, ya'ni: intonatsiya, talaffuz, diksiya, lad, ohangdoshlik, ritm va tembr yangilanishiga va yangi musiqiy ifodalash vositalarining vujudga kelishiga ham sabab bo'lib, intonatsion tuzilmaning yangicha bayon qilinishi zamonaviy musiqa tilining muhim vositasidir. Intonatsiya – asarda kompazitor ko'rsatgan musiqiy mazmunni ko'rsatishi sababli unda talaffuzni ifodalashning yangi musiqiy-badiiy vositalarining belgilari hisoblanadi. Hozirgi kompazitorlarning asarlarida musiqiy obrazlarni intonatsiyali yoritish uchun musiqiy ifodalilikning hamma vositalaridan foydalaniladi, ya'ni: xalq qo'shiq va kuylarida necha asrlardan buyon o'ziga xos barqaror tovushlar, so'zlar, intonatsiyalar shakllangan bo'ladi, shuning uchun zamonaviy kompazitorlar ularga murojaat qilishlariga to'g'ri keladi va uni xis etib yangi asarlar yaratib kelmoqdalar. O'zbek musiqasi ham O'rta Osiyodagi boshqa halqlarning musiqalari singari uzoq davrlar mobaynida faqat qo'shiq, vokal

janrlariga tayangani sababli u milliy folklor va xalq ohanglari asosida rivojlangan, keyin bastakorlar qayta ishlab chiqib xalqqa taqdim etishgan. Yevropa musiqa madaniyatining ta’siri o‘zbek qo‘shiqlariga so‘z ohanglariga o‘z ta’sirini o‘tkazib kelmoqda va bu jarayon uzoq davom etganligi sababli, hozirgi zamon kompazitorlari va bastakorlari o‘zbek musiqasining rivojlanishida yuksalish yuz bergani va bastakorlarining ijodiy obro‘-e’tibori ortgani shubhasizdir. Shu boisdan musiqa mashg‘ulotlarini olib borishda unli tovushlarni tug‘ri talaffuz qilish orqali mashg‘ulotlarini olib borishda, o‘zbek milliy ohanglari va ritmi turli janrlarda ifodalanishini talabalar ongiga singdirishi muhim omil vositasini ta’minlaydi. Bugungi kunda innovatsiyalardan muammoli va axborotli ma’ruza, vizual o‘qitish (turli fan o‘qituvchilaring) ketma-ketlikda bir mazvu bo‘yicha darslarning tashkil etilishi hamda majburiy konferensiyalaridan foydalanish tajribasi asosida ish ko‘rilmokda. Buni biz musiqiy fanlar bilan kuchli darajada bog‘liq fanlar jumlasidan tarix, til va abadiyot va jismoniy ma’daniyat fanlari orqali amalga oshirishimiz mumkin. Masalan tarix fani mavzusi O‘rta - Osiyoda xonliklari davri (XVI-XIX asrlar) bo‘lsa, musiqiy fanlar mavzusini ham xonliklar davri xalq musiqalari yoki xonliklar davrida shashmaqomning shakllanishi yoki o‘zbek qo‘shiqchilik san’atida uch yo‘nalishning paydo bo‘lishi va uning O‘rta-Osiyoda uch xonlik mavjud bo‘lgan davrga bog‘liqligi, shuningdek jismoniy tarbiya darslarida milliy sportimiz taraqqiyoti, jumladan kurash sporti, ko‘pkari, dorbozlik, tosh ko‘tarish, ot poygasi, qiz quvdi kabi sport o‘yinlari mavjud bo‘lganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar orqali o‘quvchilarning tarix faniga doir bilim va malakalarini mustaxkamlashga ko‘maklashishi mumkin. Buning uchun darslarni rejalashtirish jarayonida ushbu fandan dars beruvchi o‘qituvchi murabbiylarning hamkorligi zarur bo‘ladi. Hozirgi davrda ta’lim metodlari xilma – xil uslublardan tarkib topdi, ayni vaqtda pedagogikada quyidagi faol metod va uslublar ko‘proq qo‘llanilmoqda; Jumladan,

Mikro ta’lim - o‘quv materiali bo‘limlarining kichik qismlarini ketmaketlikda faoliyatga tatbiq etish. Mazkur ta’lim tarafdorlari ko‘pqirralikni, dars kirish qismining muhim elementi sifatida tavsiya etadilar. Bu metodni musiqa

darslarining musiqa savodi faoliyat turida va cholg‘u sozlari ijro etish hamda ritmik harakatlar faoliyat turlariga tadbiq etishimiz mumkin. Masalan: musiqa savodi faoliyat turida biz notalar balandligi mavzusini o‘rganayotgan bo‘lsak, avval do notasi, keyin re notasi, so‘ngra mi notasi, balandliklarini ketma-ketlikda o‘rganish; cholg‘u sozlari chalish faoliyat turida esa o‘rganilayotgan asarning avval 1 frazasini (4 takt), so‘ngra 2 frazasini; musiqali ritmik harakat faoliyati turida esa, o‘rganilayotgan musiqa asarining avval bir jumlasi (8 takt), so‘ngra 2 jumlasiga musiqali raqs harakatlarini o‘rgatishimiz mumkin. Xuddi shunday, bu metod qo‘shiq kuylash faoliyat turiga ham tadbiq qilinishi mumkin. Ya’ni qo‘shiqning avval birinchi kupleti, so‘ngra ikkinchi kupleti alohida-alohida o‘rganilishi va ular ketma-ketlikda amalga oshirilishi mumkin. Ta’lim modul texnologiyasi (bayonning didaktik bir – biriga teskari) musiqa darsini tashkil qilishda qo‘llanilmagan musiqiy faoliyat turlari (musiqa tinglash, ashulla aytish, cholg‘u sozlarini chalish, musikali ritmik harakatlar bajarish, musika savodi va boshqalar) ning bir mavzuga yo‘naltirilishi didaktik birlik hisoblanadi. Bu metod musiqa mashg‘ulotlari va darslarida muvafaqqiyat bilan qo‘llanilib kelmoqda.

Mavzular mazmuniga muvofik bilimlarni majmualash – (birinchi dars axboratli, ikkinchi dars muammoli, uchinchi dars amaliy, to‘rtinchi dars mustahkamlash) bu metod ham musiqa darslarini rejalashtirish jarayonida o‘z aksini topib, yillik mavzu asosida rejalashtirilgan choraklik mavzularini yoritishda qo‘llaniladi.

Ilg‘or vositalar yordamida o‘quv matnlarini qismlarga bo‘lib o‘rganish – muayyan ketma-ketlikda va uzluksiz ravishda. Bu metod ham musiqa darslarini rejalashtirish jarayonida hisobga olinadi va yil bo‘yicha o‘tilgan darslar, avvalo o‘tilgan oraliq mavzularni hamda shu orqali yillik mavzularni o‘zlashtirishga qaratilgan. Ishbilarmonlik o‘yinlarini qo‘llash – (Misol uchun: “Labirint”, “muammolar maydoni” va boshkalar). Bu metod musiqa darslarida musiqali topishmoqlar shaklida qo‘llaniladi.

Muhokamali ta’lim metodlari (o‘zlashtirilishi zarur bo‘lgan bilimlar hajmini aniqlash – muammolar tahlili, fanlararo aloqalarni o‘rganish, muammolarni

mustaqil hal etishga tayyorlash) - bu metod musiqa darslarining musiqa tinglash faoliyat turida qo'llash uchun mos keladi masalan: Shoir Alisher Navoiy, yoki Bobur Mirzo g'azallari asosida kuylangan mumtoz ashulalar, yoki maqomlar tinglash uchun berilgan bo'lsa asar to'g'risida tushuncha berishdan oldin uning mualliflari, ya'ni sheriy matn muallifi va musiqa bastalagan bastakor to'g'risida tushuncha berish lozim. Shunday ekan Alisher Navoiy yoki Bobur ijodi to'g'risidagi o'quvchilarning adabiyot, tarix fanlaridan olgan bilimlarini sinash va mustahkamlash maqsadida yuqorida nomlari ko'rsatilgan yoki boshqa mualliflar hayoti va ijodiga oid savollar og'zaki kartochkalar shaklida yoki test shaklida o'quvchilarga tarqatilib, berilgan javoblar orqali o'quvchilar bilimini aniqlash mumkin, lekin, shuni aytish kerakki, musiqa tinglash faoliyat turi uchun ajratilgan 5-7 minut vaqt musiqa asrini tinglash asar mualliflari, asar mazmuni to'g'risida o'quvchilarga tushuncha berish uchun etarli emas.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RUYXATI:

1. J.G'.Yo'ldoshev, S.A.Usmonov. Pedagogik texnologiya asoslari. – T.: "O'qituvchi" nashriyoti. 2004-yil.

2. O'.Q.Tolipov, M.Usmonboeva. Pedagogika texnologiyalarning tadbiqiy asoslari. – T.: "Fan" nashriyoti. 2006-yil.

3. V.N.Maksimova. Mejpredmetыe svyazi v protsesse obucheniya. –M.: "Prosvishenie". 1988-god.

4. T.E.Solomonova. O'zbek musiqasi tarixi. –T."O'qituvchi" nash. 1981-yil.

5. B.S.Abdullaeva. Fanlararo aloqadorlik turlari haqida. Uzluksiz ta'lim. – T.: 2005-yil. №1-son.

6. Nizomiy nomli TDPU (Res.ilm.anjuman). Uzluksiz ta'lim tizimida musiqa fanlarini o'qitish masalasi. –T.: 2009-yil.

7. A. Qodiriy nomli JDPI (Res.ilm.anjuman). Yoshlar ongiga milliy istiqlol g'oyasini singdirishda ijtimoiy-gumanitar fanlarning vazifalari. –J.:2006-yil.

8. G.Sharipova. Musiqa va uni o'qitish metodikasi. –T.: "Turon-Iqbol" nashriyoti. 2003-yil.

Namangan davlat pedagogika instituti "Ta'lim va taraqqiyot" ilmiy-uslubiy jurnali
2023-yil 6-son. ISSN: 2992-9008. UDK: 37

# TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA O'QUVCHILARNI KREATIV QOBILIYATLARINI ANIQLASHDA 4 K MODELI

***Aliyeva Matluba Jakbaraliyevna***

*Namangan davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

*Tel: +998941521147*

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada kreativ qobiliyat, ularni aniqlash usullari, oʻquvchilarni tasviriy san'at darslarida kreativ fikrlashga boʻlgan qiziqishlarini oshirishda 4 k modelining ahamiyatini bilib olish mumkin.*

***Аннотация:*** *В данной статье можно узнать значение модели 4 k для повышения креативных способностей, методов их определения, интереса учащихся к креативному мышлению на уроках изобразительного искусства.*

***Abstract****: In this article, you can learn the meaning of the 4 k model to increase creative abilities, methods for determining them, students' interest in creative thinking in visual arts lessons.*

***Kalit so'zlar****: 4 k modeli, kreativ, kommunikativ, kritik (tanqidiy), fikrlar, san'at, texnologiya, qobiliyat.*

***Ключевые слова:*** *4 к модели, креативные, коммуникативные, критические (критические), мысли, искусство, технологии, способности.*

***Key words:*** *4 to model, creative, communicative, critical (critical), thought, art, technology, ability.*

*Erishilgan yutuqlarga mahliyo bo'lib o'tirish taraqqiyot*
*yo'lidagi eng katta g'ovdir.*
***Sh. Mirziyoyev***

Rasm chizishni oʻrganish uchun alohida iqtidor, iste'dod kerakmi?! Agar astoydil istasa, har kim, qobiliyatidan qat'i nazar savodli chizishga oʻrgana oladi.

Chizishni oʻrganish, savodli yozish yoki maktab matematika kursini oʻzlashtirishga qaraganda murakkab emas. Faqat intilish va asosiysi - yaxshi iroda, rasm istalgan kasb, istalgan mashgʻulot egasiga zarurligini tushunish kerak. Chizishni bilgan san’atning barcha turlarini tushunadi, unga avval odatiy koʻringanlarning barchasida goʻzallikni koʻra biladi: uning fikrlash doirasi keng, ma’naviy dunyosi boy, u qiziqarli va shodon hayot kechiradi.

Tasviriy san’atni oʻqitish ishi bilan odamlar qadimdan shugʻullanib kelganliklari koʻproq qadimgi Misr manbalarida saqlanib qolgan. Misr maktablarida rasm ishlashga oʻrgatish muntazam ravishda chizmachilik bilan bogʻliq holda amalga oshirilgan. Tarixiy ma’lumotlarga qaraganda maktabni tugallab chiqayotgan yoshlar ma’lum maydon yuzasini oʻlchash va uni qogʻozga tushura oladigan, bino planini chiza oladigan, ariq va kanallarning sxemasini tasvirlay oladigan boʻlishlari talab etilgan. Rasm bolalarni yozish savodini chiqarishda ham katta ahamiyatga ega boʻlgan. Masalan, harfni oʻrgatish uchun narsalarning tasviri chizdirilgan. Bolalarni rasm chizishga oʻrgatishda qoʻlni erkin harakat qilishiga alohida e’tibor berilgan. Erkin, yengil, ravon chiziqlar chizish doskada yoki papirus qogʻozlarda bajarilgan.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovichning “Biz Yangi Oʻzbekistonni bunyod etishda sogʻlom va barkamol yoshlarimizni hal qiluvchi kuch deb bilamiz. Shu maqsadda ularning bilim, madaniyat, san’at va sport boʻyicha salohiyatini roʻyobga chiqarish, tadbirkorlik faoliyatini ragʻbatlantirish borasida ham yangi tizim yaratamiz. Takror va takror aytaman: Yangi Oʻzbekistonning asosiy ustuni – bilim, ta’lim va tarbiya boʻladi!” degan fikrlari mana bugungi kun talabi bilan hamohangdir.

Yangi avlod darsliklari taqdimotida tanishtiriladigan oʻquv-metodik komplekslar (OʻMK) asosini Tanqidiy fikrlash, Jamoaviy ishlash, Ijodkorlik (Kreativlik) va Muloqot qilish koʻnikmalarini rivojlantirish (4K) tamoyili tashkil etadi. Ularni ishlab chiqishda xalqaro dasturlar tomonidan oʻquvchilarning muvaffaqiyatlarini baholashda qoʻllaniladigan namunaviy topshiriqlar oʻrganib chiqildi va asos qilib olindi.

E'tiborlisi, 1-3 sinflar uchun taqdim etilgan darsliklarning bir qismi, xususan, tasviriy san'at, o'zbek tili va musiqiy savodxonlik bo'yicha kitoblar kengaytirilgan reallik texnologiyalaridan foydalanilgan holda ishlab chiqilgan.

Ta'limda **4K** nima degani? ekanligini bilib olishimiz zarur.

4K yondashuvi o'z nomi bilan 4 ta tamoyilni o'z ichiga oladi:

**Kollaboratsiya:** Darsliklar o'quvchilarning jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan tarzda tuzilgan. Bu o'quvchilarga hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o'zaro qo'llab-quvvatlash ko'nikmalarini o'rganishga ko'maklashadi.

**Kommunikativlik:** O'quvchilar o'z fikrlarini aniq, ravshan ifodalashga, suhbatdoshni tinglashga va tushunishga, ma'lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishga o'rganadi.

**Kreativ fikrlash:** O'quvchilar o'z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo'llashni o'rganadi, innovatsion yechimlarni ishlab chiqadilar va ijodiy muammolarni hal qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi.

**Kritik (tanqidiy) fikrlash:** Ushbu metodologiya o'quvchilarning axborotni tanqidiy baholash, o'z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko'nikmalarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. O'quvchilar muammolarga tahliliy nuqtayi nazardan yondashishni o'rganadi va mantiqiy fikrlash asosida o'z nuqtayi nazarini shakllantiradi.

Yangi innovatsion yondashuvni O'zbekiston maktablarida joriy etishdan oldin xorijiy tajribalar ham o'rganildi. Singapur, Xitoy, Angliya, Finlandiya, Estoniya kabi ta'limi ilg'or mamlakatlar o'quvchilarda 4K tamoyilini o'z ichiga olgan XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishga asosiy e'tibor qaratadi. PISA, PIRLS kabi xalqaro reytinglarda yuqori o'rinlarni egallagan davlatlar ta'limida o'quvchilarda "4K"ni o'z ichiga olgan muloqot, tadqiqot, yaratuvchanlik kabi ko'nikmalarga alohida urg'u berilgan va shuning uchun ham ular xalqaro reytinglarda katta natijalarga erishishyapti.

**Yangi model yaxshi ishlashi uchun qanday sharoit kerak?**

"4K" modeliga asoslangan innovatsion yondashuv maktablarda qoʻllash uchun alohida sharoitlar talab etmaydi. Masalan, oʻquvchilarda tanqidiy fikrlash qobiliyati savol-topshiriqlar bilan, muloqot koʻnikmasi esa savol-topshiriqlar va mashgʻulotlar orqali rivojlanadi. Maktablarda bu usullarni ishlatish uchun sharoit yoʻq deb aytish notoʻgʻri.

Tasviriy san'at darslarida 4k modelini qoʻllash orqali ularda kerativ firklash ya'ni kreativ qobiliyatlarini aniqlash mumkin. Tasviriy san'at darslarida 4 k modelini qanday foydalanamiz?. Bunda yoz va qish fasllarini tasvirlash orqali ulardagi kreativ qobiliyatni aniqlash mumkin. Oʻquvchilarni jamoaga boʻlamiz bu 4 k modelini "**Kollaboratsiya"** jarayoniga toʻgʻri keladi. Bunda oʻquvchilar jamoa boʻlib tasvirlanayotgan fasllarning bir-biriga bogʻliqligi va farqlari haqida hamkorlikda fikr almashishlariga yordam beradi. Masalan, bir oʻquvchi fasllar haqidagi fikrini jamoadagi qolgan bolalar toʻldirishi yoki yangi fikr berishi mumkin. Endi "**Kommunikativlik"** jarayonini koʻrib chiqamiz. Bunda oʻquvchilar fasllar toʻgʻrisidagi fikrlarini bildirib boʻlganlaridan soʻng, ikkinchi jamoa bolalarining fikr-mulohazalarini tinglaydilar, bu esa fikrlarni aniq va ravshan bayon etishga, raqib jamoani fikrlarini hurmat qilishga oʻrgatadi. 4 k modelining "**Kreativ fikrlash"** jarayonida oʻquvchilar oʻzlarining tasvirlayotgan fasllar uchun yangicha ijodiy yondashadilar. Ular fasllarning bogʻliqliklari yoki farqlarini tasvirlashda yangicha yechimlar qidiradilar. Modelning **"Kritik (tanqidiy) fikrlash"** oʻquvchilarning yangi mavzuga oid ma'lumotlarni tanqidiy baholash, oʻz fikri va mulohazalarini shakllantirish koʻnikmalarini rivojlantirishni oʻz ichiga oladi. Bunda oʻquvchilar fasllarga oid bilim, koʻnikma va malakalarini tahlil qiladilar.

Yosh avlodni barkamol shaxs qilib tarbiyalashda oʻqituvchi-pedagogning oʻrni beqiyosdir. Sababi bola misoli oq qogʻozga oʻxhsaydi uni bezash pedagogning bilim va malakasini natijasi hisoblanadi. Chunki, boshlangʻich sinf oʻquvchilari oʻzlarining ilk ustozlari aytgan hamma soʻz va bergan tarbiyasini rivojlanish yoʻlida shakllantirib boradi. Ana shu oq qogʻozni vatanimiz ravnaqiga munosib hissa qoʻshadigan yetuk shaxs qilib tarbiyalash oʻqituvchilarning mahoratiga bogʻliq.

Tasviriy san'atni hamma umumiy ta'lim maktablarida o'qitilishining foydali ekanligi buyuk chex pedagogi Ya.A.Komenskiy tomonidan uning «Buyuk didaktika» asarida rivojlantirildi. Umumiy ta'lim tizimida rasm ishlashni takomillashtirishda fransuz olimi J.J.Russoning fikrlari diqqatga sazovordir. U o'zining «Емил или воспитание» nomli kitobida borliqni bilishda naturaga qarab rasm ishlashning ahamiyati katta ekanligini isbotlab bergan. Uning fikricha rasm chizishni ko'proq tabiat qo'ynida amalga oshirish samaralidir. Chunki, bolalar tabiat qo'ynida narsalami haqiqiy rangi, perspektiv qisqarishlarini ko'rgazmali ravishda o'z ko'zlari bilan ko'radilar, uning qonunlarini ongli ravishda tushunib yetadilar.

Tasviriy san'at darslarida o'quvchilarni kreativ qobiliyatlarini aniqlashda ularning fanga bo'lgan qiziqishlaridan kelib chiqish maqsadga muvofiqdir. Chunki maktab o'quvchilari, ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari bir hil dars mashg'ulotlaridan zerikadilar. Ularga o'zlari qiziqqan fan yoki narsa buyumlarga nisbatan fikr –mulohazalarini tinglashda, eshitishda, o'zaro fikr almashishda, tahlil qilishda 4 k modelini pedagog-o'qituvchi o'z o'rnida qo'llay olishi kerak. Pedagogning mahorati qanchalik yangi davr talabiga mos ravishda bo'lsa ta'lim jarayonini boshqarish shunchalik oson va qiziqarli bo'ladi. Agar pedagog an'anaviy metoddan foydalansa buning aksi. Bugungi kunda aksariyat boshlang'ich o'quvchilar ham zamonaviy texnika vositalaridan foydalanishni kattalarga nisbatan ko'proq biladilar, bu esa ularning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishda ustunlik qiladi.

Yangi yondashuvni qo'llay olish asosan o'qituvchilarga bog'liq. Yangi innovatsion yondashuv natijasini o'quvchining dunyoqarashi, fikrlashi o'sishida ko'rish mumkin. XXI asr o'quvchisi portretida XXI asr ko'nikmalari bo'lishi kerak. Innovatsion yondashuvni qo'llashdan asosiy maqsad ham shu.

Masalaning ikkinchi tomini ham mavjud agar o'qituvchi 4 k modeliga o'zi to'liq tushunmasa va dars mashg'ulotlari jarayonida to'g'ri foydalana olmasa bu modelning natijasi samarasiz bo'lib qoladi. Bundan ko'rinib turibdiki, avvalo pedagog-o'qituvchilar zamonaviy bilim va malakaga ega bo'lishlarini talab etadi. 4 k modeli asosida o'qituvchi o'quvchilarning kreativ qobiliyatlarini aniqlashda va uni

rivojlantirishda yangi pedagogik texnologiyalar, xalqaro ta’lim tajribalaridan ham oqilona foydalanish mumkin. Qolaversa, ta’limning asosiy maqsadi – o‘quvchilarga nafaqat bilim berish, balki olgan bilimlarini hayotda qo‘llay olishga o‘rgatishdan iborat.

Modelning yana bor o‘rinli jihati shundaki, o‘quvchilarning fikrlarini ifoda etishlari, tahlil qilishlari, jamoa bo‘lib ishlashlari, hamma o‘quvchining o‘z fikrini aniq va ravshan bayon etishlarida alohida ahamiyatga ega.

O‘quvchilar mavzuni o‘zlashtirishda yangicha yondashuv, yangi model, yangi innovatsiya, ya’ni yangicha g‘oyalarni tasvirlash orqali ham ifoda eta oladilar. Bundan tashqari o‘quvchilarda fanlarga bo‘lgan qiziqish ortadi, qaysi fan bo‘lishidan qat’i nazar unga yangicha yondashadilar.

Bugungi kunda yaratilayotgan maktab darsliklari ham mana shu 4 k modeli asosida yaratilganligi ham buning isbotidir.

**Xulosa.** XXI asr yoshlariga mana shu davrga xos bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashlari uchun, zamonaviy axborot-kommunikatsiya asriga mos ravishda olib borish lozim. yoshlarga ta’lim-tarbiyani yangi innovatsion yondashuv asosida berish esa pedagog-o‘qituvchilarning kasb mahoratlariga bog‘liqdir. Mahoratli o‘qituvchi o‘quvchilarga bilim berishda yangi bilim, yangi metod, yangi usullar, yangi g‘oyalarni qidirib topadi hamda ularni yetkazib berish ko‘nikmasini egallaydi. Har bir sohada bo‘lgani kabi ta’lim tizimida ham islohotlar amalga oshirilayotgan bir paytda pedagog eski an’anaviy usullar bilan ta’lim berishi esa o‘quvchilardagi badiiy, kreativ va boshqa qobiliyatlarini aniqlashda ham uni rivojlantirishga ham to‘sqinlik qiladi. Bu esa ta’lim tizimi sifatining samarasiz bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.M.Mirziyoyev. Hikmatli so‘zlari.
2. S.F.Abdirasilov. Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi. - T.: «Fan va texnologiya», 2012 yil.
3. https://xabar.uz/uz/talim/ozbekistonda-4k-bolajak-talim-tamoyili

4. https://kun.uz/uz/news/2023/08/17/xxi-asr-oquvchisi-uchun-zarur-konikmalarini-orgatuvchi-model-4k-haqida
5. www.ziyouz.com kutubxonasi
6. Internet ma'lumotlari

# BOSHLANG'ICH SINFLARDA MASSA VA SIG'IM O'LCHOV BIRLIKLARINI O'QITISH METODIKASI

***Muslima Mamadjanova***
*NamDPI Talim tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlanģich ta'lim) magistranti*

***Annotatsiya.*** *Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini massa (gramm, kilogramm, sentner, tonna) va sig'im (litr) birliklari bilan ishlashga o'rgatish metodikasi masalalari ko'rib chiqiladi. Boshlang'ich maktab o'quvchilari tomonidan ushbu materialni o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar tahlil qilindi. Ularning massasi va sig'imini o'lchash, vizualizatsiyadan foydalangan holda tegishli amaliy malaka va ko'nikmalarni rivojlantirish bo'yicha dastlabki g'oyalarni shakllantirish usullari ochib berilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *matematikani o'qitish metodikasi, boshlang'ich maktab, o'lchov birliklari, massa, sig'im.*

***Аннотация.*** *В статье рассматриваются вопросы методики обучения учащихся начальных классов работе с единицами измерения массы (грамм, килограмм, центнер, тонна) и емкости (литр). Проанализированы трудности усвоения данного материала младшими школьниками. Раскрыты приемы формирования у них первоначальных представлений об измерении массы и емкости, отработки соответствующих практических умений и навыков с использованием наглядности.*

***Ключевые слова:*** *методика преподавания математики, начальная школа, единицы измерения, масса, емкость.*

***Abstract.*** *The article discusses the issues of teaching primary school students to work with units of mass (gram, kilogram, hundredweight, ton) and capacity (liter). The difficulties of mastering this material by younger schoolchildren are analyzed. The techniques of forming their initial ideas about measuring mass and capacity, working out appropriate practical skills using visualization are revealed. A comprehensive approach to teaching units of measurement is justified, including work on mathematics, the world around us, and technology.*

***Keywords:*** *methods of teaching mathematics, elementary school, units of measurement, mass, capacity.*

Boshlang'ich maktab o'quvchilarida dastlabki matematik bilim va ko'nikmalarni shakllantirish ularni keyingi o'qitish uchun katta ahamiyatga ega. Eng muhim va shu bilan birga assimilyatsiya qilish qiyin bo'lgan bo'limlardan biri bu massa va sig'im qiymatlarining "o'lchov birligi" mavzusidir. Ushbu birliklar bilan ishlashni muvaffaqiyatli o'rganish yosh o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda samarali usullar va didaktik vositalardan foydalangan holda tizimli yondashuvni amalga oshirishni o'z ichiga oladi. Maqolaning maqsadi ushbu sohadagi mavjud tajribani tahlil qilish va mavzu bo'yicha materialning yuqori sifatli assimilyatsiyasini ta'minlaydigan optimal o'quv metodologiyasini aniqlashdir.

Massa va sig'imni o'lchash birliklarini o'qitishning samarali metodologiyasini ishlab chiqish uchun nazariy va empirik usullar to'plami - tadqiqot muammosi bo'yicha psixologik va pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish; ilg'or pedagogik tajribani umumlashtirish; o'quv jarayonini modellashtirish; pedagogik kuzatuv; guruhlarda muhokama qilishdan foydalanildi.

Pedagogik adabiyotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarini miqdorlarni o'lchash birliklariga o'qitish metodikasi bo'yicha ma'lum tajriba to'plangan. Bir qator mualliflar boshlang'ich maktab o'quvchilarida obyektlar bilan harakatlar asosida o'lchovlar haqidagi g'oyalarni shakllantirishning umumiy muammolarini ko'rib chiqadilar [1, 2]. Boshqa nashrlar alohida o'lchov birliklari bilan ishlashning xususiy usullariga bag'ishlangan [3]. Shu bilan birga, boshlang'ich maktab

o'quvchilariga massa va sig'imni o'lchash operatsiyalarini o'qitishning barcha jihatlarini qamrab oladigan keng qamrovli tadqiqotlar deyarli mavjud emas, bu ushbu maqolaning yangiligi va dolzarbligini belgilaydi.

Kuzatishlar natijalariga ko'ra, mavzuni o'zlashtirishning asosiy qiyinchiliklari quyidagilar bilan bog'liq:

1. Miqdorlarning umumlashtirilgan g'oyasini yetarli darajada tushunmaslik. Masalan, o'quvchilar massa, hajm, harorat kabi qiymatlarni chalkashtirib yuborishadi.

2. Massa va sig'im birliklarini aralashtirish. Obyektlar va o'lchov birliklarini o'zaro bog'lash bo'yicha vazifalarni bajarish jarayonida bolalarning atigi 23 foizi vazifani xatosiz to'liq bajardilar (1-jadval).

**Jadval 1. Obyektlar va o'lchov birliklarining o'zaro bog'liqligi bo'yicha topshiriq natijalari**

| **Predmet** | **O'lchov birligi** | **To'g'ri javoblarning nisbati, %** |
|---|---|---|
| Bir shisha sut | litr | 56 |
| Bir paket shakar | kilogramm | 38 |
| Chamadon | kilogramm | 79 |
| Bidon benzin | litr | 61 |

3. Asboblardan foydalangan holda qiymatlarni amaliy o'lchashdagi qiyinchiliklar - tarozilar, stakan va boshqalar.

Talabalarning massa va sig'im o'lchov birliklarini o'rganishda odatiy qiyinchiliklarini o'rganish asosiy muammoli fikrlarni aniqlashga imkon berdi.

Birinchidan, boshlang'ich maktab o'quvchilarida obyektlarning miqdoriy xususiyatlari sifatida miqdorlarni umumlashtirilgan tushunishning yetarli darajada shakllanmaganligi qayd etilgan. Massa, hajm, harorat kabi qiymatlarni

ajratish bo'yicha vazifalarni bajarishda bolalarning atigi 35 foizi muvaffaqiyatli ish olib borishdi.

Ikkinchidan, talabalar massa birliklari (gramm, kilogramm va boshqalar) va sig'im (litr) o'rtasida chalkashliklarga duch kelishadi. Muayyan obyektlarning xususiyatlarini va tegishli javob birliklarini o'zaro bog'lash testlarida 38-79% to'g'ri javoblar mavjud.

Uchinchidan, o'lchov asboblari yordamida miqdorlarni amaliy o'lchash va olingan qiymatlarni belgilangan o'lchov birliklariga o'tkazish qiyinchiliklarga olib keladi.

Boshlang'ich maktab uchun mavzuni o'qitish metodikasini ishlab chiqishda ta'kidlangan muammoli fikrlarni hisobga olish zarur.

Shunday qilib, qiyinchiliklarni tahlil qilish mavzuni o'qitish metodikasini maqsadli ravishda yaratishga imkon beradi.

Tavsiya etilgan o'qitish metodikasi

Odatda qiyinchiliklarni hisobga olgan holda, o'qitish metodikasi ishlab chiqilgan, shu jumladan:

- Obyektlarning o'ziga xos xususiyatlarini o'lchash bo'yicha amaliy harakatlar asosida miqdorlarning umumiy g'oyasini shakllantirish.
- Amaliy faoliyat jarayonida har bir o'lchov birligi bilan ishlash ko'nikmalarini bosqichma-bosqich ishlab chiqish.
- Ular orasidagi nisbatni tushunishni ta'minlash uchun o'lchov birliklarining vizual xaritasidan foydalanish.

Massa va sig'im birliklari bilan ishlashda talabalarning odatiy xatolarini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, eng katta qiyinchiliklar obyektlarning xususiyatlari sifatida miqdorlar haqidagi umumlashtirilgan g'oyalarni yetarli darajada tushunmaslik bilan bog'liq. Masalan, bolalarning faqat bir qismi vazifalarni bajarishda massa, hajm, harorat kabi qiymatlarni ajrata olishdi.

Yana bir keng tarqalgan muammo-massa birliklarini (kilogramm, gramm va boshqalar) va sig'imni (litr) aralashtirish. Muayyan obyektlarning xususiyatlarini (bir paket shakar, sut idishi, chamadon va boshqalar) tegishli o'lchov birliklari bilan

o'zaro bog'lash uchun testlarni o'tkazishda to'g'ri javoblarning ulushi mavzuga qarab atigi 38-79% ni tashkil etdi.

Bundan tashqari, bir qator talabalar o'lchov asboblari yordamida og'irlik yoki hajmni amaliy o'lchashda qiyinchiliklarga duch kelishadi.

Shunday qilib, maqsadli o'qitish metodikasi ushbu muammoli joylarni hisobga olishi kerak.

Aniqlangan qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun massa va sig'im birliklari mavzusini o'qitishning quyidagi metodologiyasi taklif qilinishi mumkin:

1. Turli xil obyektlarni miqdoriy va sifat xususiyatlariga ko'ra taqqoslash va solishtirish asosida bolalarda miqdorlar to'g'risida umumlashtirilgan g'oyalarni shakllantirish.

2. Haqiqiy obyektlar va o'lchash vositalari bilan amaliy harakatlar orqali har bir o'lchov birligi (gramm, kilogramm, litr va boshqalar) bilan izchil va bosqichma-bosqich tanishish.

3. O'lchov birliklarini bir-biri bilan taqqoslash va qiymatlarni bir birlikdan boshqasiga o'tkazish uchun vizual modellashtirishdan keng foydalanish.

Maxsus-amaliy faoliyatga asoslangan bunday kompleks yondashuv boshlang'ich maktabda ushbu mavzuni o'zlashtirish jarayonini optimallashtirishi mumkin.

Boshlang'ich maktab o'quvchilarida o'lchov birliklari bilan ishlash bo'yicha bilim va ko'nikmalarni shakllantirishning samarali metodologiyasi keng qamrovli fanlararo xarakterga ega bo'lishi kerak, shu jumladan matematika, texnologiya, atrofdagi dunyo bo'yicha muvofiqlashtirilgan ta'lim.

Belgilangan yondashuvni amalga oshirish boshlang'ich maktabda ushbu mavzuni o'qitish sifatini oshiradi.

Taklif etilayotgan metodologiyani kompleks yondashuv asosida amalga oshirish, shu jumladan aniq amaliy faoliyat, vizualizatsiyadan foydalanish, qiymatlarni taqqoslash ko'nikmalarini rivojlantirish boshlang'ich maktabda massa va sig'im birliklari bilan ishlashni o'rganish jarayonini optimallashtirishga imkon

beradi. Keyingi tadqiqotlar belgilangan metodologiyani qo'llab-quvvatlaydigan didaktik materiallar tizimini ishlab chiqishga qaratilgan bo'lishi mumkin.

Ushbu tadqiqot doirasida o'tkazilgan tahlil quyidagi asosiy xulosalarni shakllantirishga imkon beradi:

Boshlang'ich maktab o'quvchilarini massa va sig'im o'lchov birliklariga o'rgatish jarayonida asosiy muammoli nuqtalar quyidagilardir: miqdorlarni umumiy tushunishning yetarli emasligi, turli o'lchov birliklarining aralashishi, obyektlarning xususiyatlarini amaliy o'lchashdagi qiyinchiliklar.

Ushbu mavzuni o'rganishni optimallashtirish uchun talabalarning aniq-amaliy faoliyati, vizual modellashtirish, har bir o'lchov birligini oddiydan murakkabgacha bosqichma-bosqich o'zlashtirishga asoslangan metodologiyani yaratish tavsiya etiladi.

## REFERENCES

1. Anisimova T. N., "Boshlang'ich maktab o'quvchilariga qiymatlar bilan to'g'ri ishlashni o'rgatish metodikasi", // boshlang'ich maktab. 2004. No 4. 12-15 betlar.
2. Petrova T., "Boshlang'ich maktabda miqdorlarni o'lchash birliklariga o'qitish", / / boshlang'ich ta'lim. 2001. No 1. 45-51 betlar.
3. Kuzmina M. I., "Boshlang'ich maktab o'quvchilarida obyektlarning massasi to'g'risida g'oyalarni shakllantirish", / / pedagogik mahorat: VIII xalqaro materiallar. ilmiy. konf. M.: Buki-Vedi, 2016. 56-60 betlar.
4. A'zamova D., "Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'lchov birliklari haqidagi tasavvurlarni shakllantirish", // boshlang'ich ta'lim.No3, 2021. B. 16-19.
5. Igamberdieva D.J. "Oliy matematikadan amaliy mashg'ulotlar", O'quv qo'llanma.– Toshkent, 2006.
6. Maxmudov M., Axmedova S. "Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'lchashga o'rgatish metodikasi". Tashkent, 2015.

# NEGA YETISHMAYAPTI NAVOIY, BOBUR, TEMUR-U BUXORIYLAR

***Olimboyeva Maftunaxon Muhammadsobir qizi,***
*Namangan davlat universiteti*
*filologiya fakulteti amaliy filologiya yoʻnalishi 2-kurs talabasi*
*Ilmiy rahbar:* ***Yuldashev Otabek Toshpoʻlat oʻgʻli,***
*filologiya fanlari boʻyicha falsafa doktori PhD, katta oʻqituvchi*

Bugungi kunda juda koʻp salbiy natijalarni yuzaga keltiradigan holatlarga "Texnologiyalar asri" deb nomlanmish 21-asrni, zamonni, ijtimoiy tarmoqlar-u zamonaviy texnikalarni sabab qilib koʻrsatish orqali suvdan quruq chiqishga harakat qilamiz, lekin yaxshilab oʻylab koʻrilsa bu qurilmalardan yaxshilik yoʻlida ham foydalanish mumkin. Shunday ekan, bizning muammoyimiz, kamchiligimiz boshqa yerda, ya'ni ayol va qizlarda...

Shunday insonlar borki, qiz bolaga oʻqishni nima keragi bor, oʻqib olim boʻlarmidi, baribir uyda oʻtiradi deyishadi. Toʻgʻri, ular oʻqib olima boʻlmas, lekin kelajakdagi professor, dotsent, akademik, bankir, injiner, yurist, hokim va hatto prezidentlarning onasi boʻlishadiku, buning uchun avvalo ayollarning oʻzlarida yetarlicha bilim va koʻnikmalar boʻlishi kerak. Prezidentimiz tashabbuslarida aytilganidek koʻp kitob oʻqishi, oʻz ustida muntazam ishlab bilimlarini oshirishi, shaxsiy fikri, keng dunyoqarashi, hayotning past-balandini anglashi muhimdir. Shunday ayollar bor, oliy ta'lim muassasalarida taxsil olmagan boʻlsa ham farzandiga tarbiya berish bobida mana-man degan professor ayollarni ham ortda qoldirishadi, lekin shunday vaqtlar keladi ular farzandlariga maslakdosh boʻla olmay qolishadi. Aytaylik, farzand buyuk ishlarni boshlashga qaror qildi, ona uni tushunmaydi, maslahat soʻrasa ayta olmaydi, farzand ham 2 marta soʻrar, 3 marta soʻrar, keyin xafsalasi pir boʻladi, soʻraganim bilan hech narsani bilmaydilar deb boshqalardan yordam olishni boshlaydi, vaholanki bu yoʻlda doimo faqatgina yaxshi maslahatchilarga duch kelinavermaydi, qarabsizki, qoqiladi, adashadi, yiqiladi, keyinchalik orzulariga erishish uchun harakat qilish u yoqda tursin, orzu ham

qilmaydigan, fikr-u hayoli oʻyin-kulgi, mayishatdan iborat, kim nima desa qilib ketaveradigan manqurtga aylanadi qoladi.

Hozirgi kunda ham buyuk allomalar yetishib chiqishini istasak avvalo Alisherning, Buxoriyning onalari kabi onalarni yetishtirishimiz kerak. "Murad buildings", "Nest one" kabi osmonoʻpar binolar asoschisi Murod Nazarov aytganidek qizlar ham huddi yigitlar kabi, kerak boʻlsa ulardan ham koʻproq bilimlarga ega boʻlishi, til oʻrganishi, imkon boʻlsa chet davlatlarda ta'lim olib turli harakterli insonlar bilan suhbatlashish madaniyatlarini ham oʻrganishi lozim.

Shu qatorda otalar ham onalarga hamfikr, ularga yelkadosh boʻlishi, qoʻllab-quvvatlashi kerak. Toʻgʻri, erkak kishining asosiy vaqti uyidan, oilasidan uzoqda oʻtadi, lekin uyga kelganida uylar tartibsiz, yoki kechki taom tayyor emas holatda boʻlsa ayoliga ishlab kelganini, charchaganini roʻkach qilish oʻrniga unga yordam bersa, koʻproq vaqtini oilasi bilan oʻtkazsa farzandlari ham qush inida koʻrganini qiladi deganlaridek ulardan oʻrnak olib xurmat, mehr-shavqat tuygʻulari bilan ulgʻayadi. Bir necha kasb egalarining oyoqlariga maxsus asbob oʻrnatilib aniqlanishicha bir kunda eng koʻp harakat qiladiganlar uy bekalari ekan, kamiga farzand tarbiyasi ham shu shoʻrliklarning zimmasida, shuni bilgandan soʻng, ishdan kelgan erkak ayoliga bir ogʻiz shirin soʻz aytish orqali kun davomidagi charchoqlarning unitilishiga, barcha ishlarni chin dildan, beminnat bajarilishiga va eng asosiysi farzand tarbiyasida doim-u qoim boʻlib mehr-muhabbat bilan ulgʻaytirishiga sabab boʻladi.

### Adabiyotlar

7. Anisimova T. N., "Boshlang'ich maktab o'quvchilariga qiymatlar bilan to'g'ri ishlashni o'rgatish metodikasi", // boshlang'ich maktab. 2004. No 4. 12-15 betlar.
8. Petrova T., "Boshlang'ich maktabda miqdorlarni o'lchash birliklariga o'qitish", / / boshlang'ich ta'lim. 2001. No 1. 45-51 betlar.

Namangan davlat pedagogika instituti "Ta'lim va taraqqiyot" ilmiy-uslubiy jurnali
2023-yil 6-son. ISSN: 2992-9008. UDK: 37

# BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING MATEMATIKA FANI BO'YICHA KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI

***Shermatova Munavvarxon Abduqaxxor qizi***
*Namangan davlat pedagogika instituti*
*Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ( boshlang'ich ta'lim) yo'nalishi*
*TTB-AU-23-guruh 1-bosqich magistranti*

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematika fani hamda fan boyicha kompetentligini takomillashtirish metodikasi haqida so'z boradi.*

***Kalit so'zlar.*** *Pedagog, ta'lim, texnologiya, kompetentlik, jamiyat, zamonaviy yondashuv, umumiy ta'lim.*

XXI asrning boshlari, avvalambor, bilim va yangi texnologiyalarga asoslangan, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning eng muhim omili boʻlgan va jamiyatning butun hayot tarzini belgilaydigan texnologik taraqqiyotning misli koʻrilmagan darajada qurilgan jamiyatiga oʻtish davrini belgiladi. Zamonaviy jamiyatda roʻy berayotgan global ijtimoiy-iqtisodiy oʻzgarishlar odamdan dunyoqarashini kengaytirish, ijodiy qobiliyatlarini, tobora oʻsib borayotgan axborot oqimini anglash qobiliyatini, yangi texnologiyalarni oʻzlashtirish, mustaqil ravishda qaror qabul qilish va ijtimoiy hayotning doimiy oʻzgarib turadigan ijtimoiy sharoitlariga tez moslashishni talab qiladi. Umumiy ta'limning bilim olish tizimini oʻzlashtirishga an'anaviy yoʻnalishi zamonaviy ijtimoiy buyurtma talablariga javob bermaydi, bu esa jamiyatning mustaqil, faol va mas'uliyatli a'zolarini tarbiyalashni talab qiladi, ular ijtimoiy, ishlab chiqarish va iqtisodiy muammolarni hal qilishda oʻzaro hamkorlik qilishga qodir. Ta'lim natijasi sifatida bilim va koʻnikmalar zarur, ammo axborot jamiyatida muvaffaqiyat qozonish uchun etarli emas. Bugungi kunda maktab oʻquvchilarining mustaqil faoliyatini kuchaytirish, shaxsiy fazilatlari va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, tez oʻzgaruvchan dunyoda yangi bilimlarni

mustaqil ravishda o'zlashtirish qobiliyati, olingan bilimlarni amalda hayotiy muammolarni hal qilishda qo'llash qobiliyatini kuchaytirish ob'ektiv zaruratga aylanib bormoqda. Maktab nafaqat mamlakatning intellektual salohiyatini qayta tiklashi, balki erkin, tanqidiy fikrlaydigan, o'z qobiliyatlarini anglaydigan va rivojlantiradigan, hayotda o'z o'rnini topa oladigan va o'zini anglay oladigan shaxsni shakllantirish uchun sharoit yaratishi kerak.

Yurtimizda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik kompetentligi doimiy o'zgarib borayotgan sharoitda ilg'or xorijiy tajribalarni o'rgangan holda, oliy ta'lim muassasasida ularning metodik kompetentligini rivojlantirish texnologiyasini, didaktik asoslarini ishlab chiqish, pedagogik shartsharoitlari, mazmuni va tuzilmasi, takomillashtirish mezonlari va shakllanganlik darajalari, shakl, metod, vositalari, modeli, o'qitish sifatining samaradorligini oshirish, shuningdek, pedagogika oliy ta'lim muassasasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida metodik kompetentlikni rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Erkin va faol fikrlash, ta'lim-tarbiya jarayonini modellashtirish, ta'lim berish va tarbiyalashning yangi g'oya va texnologiyalarini ishlib chiqish va amalga oshirish qobiliyatlariga ega bo'lgan bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetentlik darajasini oshirish muammosi zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda dolzarb hisoblanadi. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning asosiy sharoitlari quyidagilardan iborat:

1) tashkiliy-boshqaruvchanlilik (o'quv reja, o'quv jarayoni grafigi, dars jadvalini tuzish, kompetentlik darajasini aniqlash mezonini ishlab chiqish, ta'lim jarayonini moddiy-texnik ta'minlash);

2) o'quv-uslubiy (mashg'ulotlar mazmunini tanlash, turli kurslarning integrasiyasi, yetakchi g'oyalarni ajratish);

3) texnologik (nazorat-baholash, o'qitishning faol shakllarini tashkil etish, kompetentlikka kiruvchi bilimlar guruhlarini aniqlash, innovatsion texnologiyalarni qo'llash);

4) psixologik-pedagogik (talabalarning rivojlanish tashxisini amalga oshirish, oʻqitishga motivatsiyani ragʻbatlantirish, kompetentlikning mezonini aniqlash, talabalarni hamkorlikda ishlashga yoʻllash).

Boʻlajak oʻqituvchining kasbiy kompetentligi tuzilmasi uning pedagogik koʻnikmalari orqali, koʻnikmalar (nazariy bilimlarga asoslangan va pedagogik masalalarni yechishga yoʻnaltirilgan bilimlar) esa, bosqichma-bosqich rivojlanuvchi harakatlar majmuasi orqali aniqlanadi.

Matematika bo'yicha boshlang'ich sinf o'qituvchilarining malakasini oshirish uchun qo'llanilishi mumkin bo'lgan ba'zi metodikalar quyidagilardan iborat:

1. Oʻqitish boʻyicha qoʻllanma va dasturlarga muvofiqligi: Oʻquv qoʻllanmalari va oʻquv dasturlarini koʻrib chiqish orqali oʻqituvchilar qaysi fanlar qaysi bosqichlarda oʻqitilishi va qaysi koʻnikmalar shakllanishi kerakligini aniqlashi mumkin. Bu talabalarga matematikaga oid asosiy ko'nikmalarni egallashga yordam beradi.

2. Tasviriy va manipulyatsiya vositalari: Boshlangʻich sinf oʻquvchilari mavhum tushunchalarni tushunish uchun aniq materiallardan foydalanishlari mumkin. O'qituvchilar raqamlar, shakllar va munosabatlar kabi tushunchalarni ko'rsatish yoki manipulyatsiya vositalaridan foydalanish orqali talabalarga amaliy tajribalar berishlari mumkin. Bu oʻquvchilarning matematik fikrlash koʻnikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

3. O'quv o'yinlari va mashg'ulotlari: Matematikani o'rganish uchun o'yinlar va mashg'ulotlar o'quvchilarning faol ishtirokini rag'batlantiradi va qiziqarli muhitda matematik ko'nikmalarni rivojlantirishga imkon beradi. O'qituvchilar guruhlarda ishlash, muammoni hal qilish, boshqotirma, karta o'yinlari va boshqalardan foydalanishlari mumkin. kabi tadbirlarni tashkil etish orqali oʻquvchilarning matematik fikrlash va qayta ishlash koʻnikmalarini oshirishi mumkin.

4. Kontekstli ta’lim: Matematik tushunchalarni real hayotiy vaziyatlar bilan bogʻlash oʻquvchilarga ularning matematik koʻnikmalarini yaxshiroq tushunish imkonini beradi. O'qituvchilar kundalik hayot misollari, hozirgi voqealar yoki talabalar qiziqishlari asosida kontekstli matematika faoliyatini loyihalashlari mumkin.

5. Hamkorlikda oʻrganish: Siz oʻquvchilarga bir-birlari bilan hamkorlik qilib, matematik tushunchalarni tushunishlariga yordam bera olasiz. O'qituvchilar guruh loyihalari, muhokamalar va muammolarni birgalikda hal qilish kabi hamkorlikda o'rganish usullarini qo'llash orqali talabalarni bir-biridan o'rganishga undashlari mumkin.

6. Fikr-mulohaza va baholash: Oʻqituvchilar oʻquvchilarning matematika koʻnikmalarini baholash va yaxshilash uchun fikr-mulohazalarini bildirishlari mumkin. Ular oʻquvchilarning zaif va kuchli tomonlarini aniqlash va shunga mos ravishda oʻqitish strategiyalarini oʻzgartirish uchun rasmiy va yashirin baholash usullaridan foydalanishlari mumkin.

Ushbu metodologiyalar boshlang'ich sinf o'qituvchilariga matematika bo'yicha malakalarini oshirishga yordam beradi va o'quvchilarga matematika ko'nikmalarini yanada samarali o'rganishga yordam beradi. O'qituvchilar o'quvchilarning turli ta'lim uslublari va ehtiyojlariga moslashish uchun ushbu usullarni moslashuvchan tarzda qo'llashlari mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Matematika o'qitish metodikasi: Matematika bakalavr ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darslik S. Alixonov. — T.: Choʻlpon nomidagi nashriyotmatbaa ijodiy uyi, 2011. — 304 b. ISBN

2. Abdullayeva B. S., Saidova M. J., Dilova N. G. Matematika oʻqitish metodikasi. Darslik. 2021, - 300 b

3. Ларионова Г. А. Компетенции в профессиональной подготовке студентов вузов: знания, действия, деятельность, самоопределение: монография. - Челябинск. - 2004. - 171 с.

4. Махмудов А.Х. Таълим тизимида компетентлик асосида ёндашувнинг дидактик жихатлари // «Укитувчиларнинг касбий махоратини оширищда инновация технологияларининг ахамияти» мавзусидаги Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. - Тошкент. - 2012. 44-47 бетлар.

# BOSHLANGICH TA'LIMDA TA`LIM SIFATINI OSHIRISH UCHUN QO'LLANADIGAN INNOVATSION METODLAR

***Ismoilova Xonzoda Baxtiyor qizi***
*Namangan davlat pedagogika instituti*
*Ta'lim va tarviya nazariyasi va metodikasi*
*(boshlang'ich ta'lim)* magistranti

***Anotatsiya**: ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilaridagi bilim, ko'nikma va malakalarni oshirish uchun qo'llanadigan innovatsion ta'limiy metodlarning boshlang'ich ta'lim uchun qo'llash usullari haqida so'z yuritilgan.*

***Аннотация**:в данной статье говорится о методах применени инновационных учебно-тренировочных методов начального образования which которы используются для совершенствования знаний умений и навыков учащихся начальных классов.*

***Abstract**:this article talks about the methods of applying innovative educational and training methods for primary education, which are used to improve the knowledge, skills and abilities of primary school students.*

***Kalit so'zlar**:innovatsiya, metod, boshlang'ich ta'lim, pedagogik texnologiya, interfaol, pedagog.*

***Ключевые слова**:инновация, метод, началное образования, технологическое, образование, интерктив, педагог.*

***Key words**:innovation, method, primary education, technological, education, interactive.*

Hozirgi kunda boshlang'ich maktablarda darslarni noan'anaviy shaklda tashkil qilish ta'lim sifatini oshirishga katta hissa qo'shmoqda.Darslarni noan'anaviy shaklda tashkil etishimiz uchun har xil innovatsion metodlar va pedagogik texnologiyalardan foydalanishimiz davr talabi bo'lmoqda. "Innovatsiya" so'ziga to'xtaladigan bo'lsak, innovatsiya inglizcha so'z bo'lib, "innovationas" — kiritilgan yangilik, ixtiro degan ma'nolarni anglatadi.

Innovatsiya atamasini nafaqat boshqa sohalarda balki ta'lim sohasida ham keng ifodaga ega. Hukumatimizning 2020-yil 7-aprelda qabul qilingan "Innovatsion faoliyat to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining qonuni, "2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risidagi"gi Prezident Farmoni qabul qilindi.Bu farmoyishida ta'lim sohasiga alohida urg'u berilganni bunga misol bo'la olishi mumkin.

Bilamizki, hozir texnologiyalar rivojlanayotgan bir paytda o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirish, dars sifatini yaxshilash va o'quvchilarning diqqatini darsga jalb qila olishimiz uchun birinchi navbatda o'qituvchidan darslarni innovatsion metodlar va texnologiyalardan foydalangan holda tashkil etish talab qilinmoqda.Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari innovatsion va interfaol metodlardan foydalangan holda darslarni tashkil qilish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. Chunki, O'quvchi ilk maktbaga qadam qo'yganda, boshlang'ich ta'lim jarayoniga kirib boradi, shu paytda o'quvchida ta'limga bo'lgan qiziqishni uyg'ota olish kerak. Albatta, bu katta mahoratga va bilimga ega bo'lgan o'qituvchiga bog'liq bo'ladi. Birinchi navbatda, yuqorida aytilganidek, agar o'qituvchi mahoratli pedagog bo'lsa, ya'ni o'quvchilarni darsga qiziqtira olsa va o'zi bilgan metodlarni dars davomida qo'llay olsagina biror bir natijaga erishish mumkin.

Yuqoridagi fikrlarning isboti sifatida, o'qituvchi maktabda o'quvchilarga ta'lim va tarbiya berish bilan birga o'zining pedagogik mahoratini oshirib boradi ya'ni boshqa pedagoglarnibg darslarini kuzatish va nazariy olgan bilimlarini amalda qo'llay olish orqali. Har xil pedagoglarning darsini kuzatish davomida dars kuzatayotgan o'qituvchi darslarni bir-biridan farqlaydi, o'ziga kerakli bo'lgan xulosalarni chiqaradi, biladiki, bir soatlik dars davomida an'anaviy dars shaklidan qochib, darslarda innovatsion metodlar va pedagogik texnologiyalardan foydalangan o'qituvchining bir soatlik dars samarasi yuqoriroqligini va shu metodlarni o'zining darsida qo'llaydi. Ko'ryapmizki, bir soatlik darsda qo'llangan innovatsion metodlar nafaqat bitta o'qituvchi uchun darsini samarali tashkil

etishiga koʻmak beryapti, balki boshqa pedagoglar va oʻquvchilarning bilim koʻnikmasini oshirishda ham foyda boʻlmoqda.

Pedagoglar istalgan fan yuzasidan qoʻllay olishi mumkin boʻlgan ba’zi bir foydali innovatsion metodlar va pedagogik texnologiyalarni koʻrib chiqamiz.

1.“Case-study” metodi. Bu metodning nomi inglizcha “case-study” so’zlaridan olingan. Bunda “case” – yashik, quti, gilof, jild, “study” – oʻrganish, tadqiq qilish, ilm bilan shugʻullanish, oʻquv fani, saboq olish, oʻqish ma’nolarini bildiradi

“Case-study” metodi bo’yicha o’rganilayotgan har bir muammo, vaziyat yoki mavzu yuzasidan amalga oshiriladigan ishlar rejasi, ularni bajarish tartibi, natijalar va xulosalar yigʻindisi alohida keysni tashkil qiladi. Bu metod yordamida oʻquvchilar ta’lim jarayonida hayotiy vaziyatlardagi holatlarda qanday yoʻl tuta olishni oʻrganishadi. Bu esa, hozirgi kunlarda ta’lim sohasidag asosisiy yechish kerak boʻlgan muammolardan biri hisoblanadi. Ushbu muammoni yechimini topish imkonini berishi bu metodning alohida ahamiyatga ega ekanligini ko’rsatib turibdi.

2.“Reklama” metodi. “Reklama” metodini biz darsning istalgan qismida qoʻllashimiz mumkin. Oʻqituvchi oʻquvchiga mavzuga oid boʻlgan tarqatmali materialdan tarqatiladi. Oʻquvchi esa mavzuga oid boʻlgan tarqatma orqali boshqa oʻquvchilarga shaxs yoki narsaga oid bolgan xatti-harakatlar va harakaterlarni reklama qilib beradi. Bu metodning foydali jihati shundaki,agar bu metod yangi mavzu bayoni qismiga kirishdan avval qoʻllansa, oʻquvchida yangi mavzuga kirishdan avval yangi mavzu haqida tushuncha paydo boʻladi.

3.“Qiziqarli krossvord” metodi. Bu metoddan darsning ikki qismida foydalanishimiz mumkin. Oʻtgan mavzuni mustahkamlash va yangi mavzuni mustahkamlash qismida.“Qiziqarli krossvord” metodidan foydalanganda oʻquvchilar guruhlarda ishlaganlari ma’qul. Chunki bu orqali oʻquvchilarda tezkor fikrlash , chaqqonlik va aqliy yondashish sifatlari rivojlanadi shu bilan birga musobaqa tarzida boʻlganligi uchun dars qiziqarliroq boʻladi.

Yuqorida aytilgan va boshqa innovation metodlar va pedagogik texnologiyalarni kerakli vaqtda va kerakli joyda oʻqituvchi qoʻllay olishi kerak.

Darsning mavzusidan kelib chiqqan holda va oʻquvchilarning yoshi va qiziqishini inobatga olgan holda toʻgʻri metod tanlay olish kerak.

Xulosa qilib aytganda, agar oʻqituvchi oʻquvchilarining bilim saviyasini oshirishga oddiy dars oʻtish shakli orqali harakat qilaversa biror bir samaraga erishishi qiyin. Shu sababli oʻqituvchi innovatsion, interfaol metodlar va pedagogik texnologiyalardan foydalanishi oʻquvchilarning xotirasini oshiradi, strategik fikrlashga oʻrgatadi, qoʻl va koʻzni muvofiqlashtiradi, raqobatni oshiradi, jamoada ishlashga oʻrgatadi, motivatsiyani oshiradi, depressiyani oldini oladi va eng asosiysi yangi bilim olishga koʻmak beradi. Agar bir oʻqituvchiga jamiyatning bir boʻginini tarbiyalovchi va oʻzida bor bilimni oʻquvchilariga beruvchi shaxs sifatida qarasak, oʻqituvchining zimmasida katta ma'suliyat borligini sezishimiz mumkin. Bu zimmani oʻqituvchining oʻzi ham his etgan holda darslarini samarali tashkil etishi kerak.

**Foydalanilgan adabiylar roʻyxati:**

1.S.Q.Qahharov, U.H.Hayitov."Boshlangʻich sinf matematika darslarida innovatsion texnologiyalar". "Durdona" nashri, Buxoro-2022.
2.https.//cyberleninka sayti.
3.https://www.pedagoglar.uz sayti.

# MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH YOSHIDAGI BOLALARGA CHET TILINI O'RGATISHDA INGLIZ MUHITINI YARATISH

***Nizomiddinova Dilfuza Xoshimjon qizi***
*Namangan davlat pedagogika instituti Ijtimoiy-gumanitar fanlarni òqitish metodi fakulteti Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda Xorijiy til yo'nalishi 2-bosqich talabasi*
*Tel: +998932004909*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada maktabgacha va boshlang'ich yoshidagi bolalarga xorijiy tilni o'rgatishning oson usullari, turli xil*

*metodlari,va,shuningdek,xorijiy muhitni yaratish va bu jarayonda qaysi jabhalarga kòproq e'tibor beriishi kerakligi haqida sòz boradi.*

***Kalit so'zlar:*** *chet tili,metod,ingliz muhiti,pedagog,ta'lim,usul,bolalar.*

***Annotation:*** *This article talks about easy ways to teach a foreign language to children of preschool and elementary age, various methods, as well as, creating a foreign environment and what aspects should be paid more attention to in this process.*

***Key words:*** *Foreign language, method, English environment, pedagogue, education, children.*

***Аннотация:*** *В данной статье рассказывается простых способах обучения иностранному языку детей дошкольного и младшего возраста, различных методах, а также о создании иноязычной среды и на какие аспекты следует обратит больше внимания в этом процессе.*

***Ключевые слова:*** *Иностранный язык, метод, английская среда педагог, дети.*

Bugungi kunda chet tilini o'rgatish rivojlanishning eng uzoq bosqichlaridan biriga aylanib bormoqda. Buning asosiy sababi tilni bilish, o'rganish, dunyoni anglashga imkon yaratishi orqali ma'naviyatning yuksalib borishidadir. Shu sababdan, boshqa chet davlatlari singari bizning mamlakatimizda ham so`ngi yillarda chet tili oliy va umum ta`lim, hamda, maktabgacha ta`lim tashkilotlarida ta`limning asosiy tarkibiy qismiga aylanib ulgurdi.avvalari, faqatgina otm larda chet tili o`rgatilgan bo`lsa, endilikda barcha ta`lim muassasalari va tashkilotlarida ham o`rgatilmoqda. Shuningdek, davlatimizda chet tilini bilish ayrim sanoqli sohalarda talab qilingan bo`lsa, endilikda har bir sohada kamida 1 ta chet tilini bilish talab etilmoqda. Kundan-kunga til o`rganishga bo`lgan talab jamiyatda ham ilm toliblari orasida ham ortib bormoqda.shunday ekan, tilni o`rganish va o`rgatishga katta e`tibor qaratishga zarurat tug`iladi. Meni fikrimcha, til o`rganishda ham o`rgatishda ham talabaning yoshi, albatta, muhim.bilamizki, bolalar o`rgatish uchun birmuncha qulayroqdir.chunki, bollar, ayniqsa,

maktabgacha yoshidagi bolalarda atrofga, atrofdagi voqea-hodisalarga, umuman, hamma narsaga qiziqish juda kuchli bo`ladi.ular hamma narsa haqida bilgisi, o`rgangisi, ushlab ko`rgisi keladi va shuning uchun ham ularning kuchli qiziqishi tufayli bolalarga o`rgatish birmuncha oson va bolalar uchun ham maroqlidir Shuningdek, bolalarga til o`rgatishda pedagogning roli juda ham katta.albatta, biz pedagoglar bolalarni til o`rgatishga qiziqtira olishimiz va ularga til o`rgatishda turli metodlardan foydalana bilishimiz zarur. Bolalarga ingliz tilini o`rgatishda ingliz muhutini yaratib olish asosiy bosqich deb o`ylayman.masalan, qishloq joylardagi maktabgacha va boshlang`ich yoshidagi bolalar odatda ingliz muhitidan ancha uzoq bo`lgan sharoitda o`sishadi va bolalarning fikrlashi mavhum shaklda qolaveradi, bolalarning yangi bilimlarni o`zlashtirish jarayoni doimo hissiyotlarga tayangan holda kechadi.shuning uchun, bolalarga har hil o`yinlar, turli rangli buyumlar va yoki kartochkalar tarqatib oson usulda o`rgatish lozim. Meni fikrimcha, avvalo, ingliz tilini o`zgachaligini, u boshqa til ekanligini bolalrga anglatish va qiziqtirish maqsadida alohida ingliz tili xonasi ajratilishi kerak.chunki, har ingliz tili darsida bu xonaga kirib dars o`tishlarini bilib, bu darsga o`zgacha qiziqish bilan qarashadi, o`sha qiziqarli xonaga yana kirishni, yana yangi inglizcha so`zlarni o`rganishni hohlashadi. Albatta, xonaga turli xil ranglarda rasmlar chizilgan, hayvon va qush rasmlari ostiga ularning inglizcha nomlari yozilgan bo`lishi, xonadagi har bir jihozlar turli-xilranglarda bo`lishi, xonaga ingliz bolalarining, ingliz binolaringing suratlari osilgan bo`lishi kerak. Bundan tashqari, bolalar xonaga kirishi bilan inglizcha qo`shiq qo`yib jo`r bo`lib kuylash ham bolaga o`zgacha kayfiyat bag`ishlaydi.shuningdek, bolalar ingliz tili darsida boshqa darslardan farqli ravishda stulda o`tirmasdan dars o`tishsa ya`ni o`yinchoqlari atrofida bemalol o`tirib, bir vaqtning o`zida ham o`ynab ham o`rganishsa bu ham bollar uchun albatta juda maroqli bolar edi. Maktabgacha yoshidagi bolalar , shubhasiz, o`yinqaroq bo`lishadi.shuning uchun, ham pedagog til o`rgatishda turli usullardan foydalanishi maqsadga muvofiq bo`ladi.masalan, tana harakatlarini o`rgatayotganda faqat so`zni aytib, takrorlash orqali emas, so`zni aytib orqasidan o`sha harakatni o`zi ham ko`rsatib, bajarib o`rgatish yaxshiroq.masalan,

"come"kelmoq so`zini qo`llar orqali chaqirib, da`vat qilib come, come deb ham aytib ham harakat bilan aytib takrorlansa, bu, albatta, bolalar tushunushlari va eslab qolishlari uchun oson bo`ladi. Shuningdek, meva yoki sabzavot nomlarini o`rgatayotganda ham sabzavotlarni qo`lda ko`rsatib va shu o`rinda ularning rangini ham aytib o`rgatib ketish to`g`ri bo`ladi.va bu usullar bolani o`ziga jalb qilmay qo`ymaydi.men o`zimning dars o`tish uslubimdan kelib chiqib aytadigan bo`lsam, haftaning har dushanba kuni ingliz tili darslari uchun o`zimga yangi inglizcha ism tanlayman va hafta davomida bolalar meni ana o`sha ism bilan chaqirishadi.haftaning har dushanba kuni esa rasmli qoidalar olib kelaman.bolalar avvaliga rasmni bo`yashadi, keyin esa undagi o`zlari har doim amal qilib yurushlari kerakbo`lgan qoidalarni yodlashadi.odatda, rasmlarda hayvonlar tasvirlanadi va o`sha hayvonlarni o`z ismi bo`ladi.u hayvonlarga bolalarga nimalar qilishlari kerakligi haqida aytadi.masalan, "zenna zebra says:always listen to your dad and mum".buning tarjimasi:zenna ismli zebra aytadiki;dadanga va oyinga doim quloq sol.haftaning so`ngi kunlarida esa bollar bilan qo`shiq aytamiz va yangi so`zlarni yodlaymiz.albatta, mening bu kabi dars o`tish uslubim o`z natijasini bermoqda.chunki, bolalar har hafta yangi ismim qanday bo`lishini kutishadi, yangi rasm bo`yashni, yangi qo`shiq yodlashni hohlashadi.bu usul orqali ularni ingliz tiliga, umaman til o`rganishga bo`lgan qiziqishiyanada ortadi.shubhasiz, bu kabi usullar juda ham ko`p, faqatgina pedagog eng samaralilaridan o`rinli foydalana bilsa bo`lgani.

**Xulosa** qilib aytadigan bo`lsam, bolalarga chet tilini o`rgatishda muhitni yaratib bera olish , qiziqtirish pedagoglarning asosiy va ma`sulyatli vazifasiga aylanishi, muhitga alohida e`tibor qaratilishi lozim deb o`ylayman.har bir pedagoglarimiz o`z vazifasini sidqidildan bajargan, kasbini yaxshi ko`rgan holda, har hil qiziqarli usullardan foydalanib ta`lim berishda davom etsa, ko`zlangan natijalarga, albatta, erishiladi va kelajagimizni buyuk tilshunoslar barpo qilishadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

**1.**https://cyberleninka.ru/article/n/maktabgacha-yoshdagi-bolalarga-ingliz-tilini-orgatish-usullari/viewer

**2.** R.Madieva.Yangi O'zbekiston. https://yuz.uz/uz/news/yurtimizda-10-ta-xorijiy-til-boyicha-35-xil-sertifikat-mavjud-qaror-va-ijro-

**3.** I.A.Karimov "Oʻzbekiston Mustaqillik va taraqqiyot yoʻlida". Toshkent 1993 y. 67-bet.

**4.** Karimov I.A. "Tarixsiz kelajak yoʻq". Toshkent 1997y.47-bet.

**5.** Karimov I.A. "Barkamol avlod – Oʻzbekiston taraqqiyotining poydevori". 1998y, 68-72-betlar.

## YANGI KONSTITUTSIYA - TARAQQIYOT QOMUSI

***Chuboyeva Ozodaxon Quvonbekovna***
*Namangan Davlat universiteti Davlat huquqi va boshqaruvi kafedrasi kata oʻqituvchisi.*
***Alimatov Elsevar Boqijon oʻgʻli***
*Namangan davlat universiteti Yuridik fakultet Yurisprudensiya yoʻnalishi talabasi*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada Oʻzbekiston uchun muhim voqea boʻlgan mamlakat yaqinda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayoni doirasida yangi Konstitutsiyani qabul qildi. Yangi Konstitutsiyaning qabul qilinishi mamlakatimizda qonunchilik bazasini modernizatsiya qilish, inson huquqlari va demokratik tamoyillar himoyasini ta'minlash borasidagi sa'y-harakatlarning muhim bosqichi boʻlgani haqida ma'lumotlar berilgan.*

***Kalit soʻzlar:*** *Konstitutsiya, salohiyatlar, islohotlar, boshqaruv, taraqqiyot, demokratik, oʻzgarishlar, yuksaltirish.*

***Аннотация:*** *В этой статье, важное событие для Узбекистана, недавно в стране была принята новая Конституция в рамках процесса реформ. Была дана информация, что принятие новой Конституции стало важным шагом в усилиях по модернизации правовой базы в нашей стране, по обеспечению защиты прав человека и демократических принципов.*

***Ключевые слова:*** *Конституция, возможности, реформы, управление, развитие, демократия, изменения, продвижение.*

***Abstract:*** *In this article, an important event for Uzbekistan, the country has recently adopted a new Constitution as part of the reform process. Information was given that the adoption of the new Constitution was an important step in the efforts to modernize the legal base in our country, to ensure the protection of human rights and democratic principles.*

***Key words:*** *Constitution, capacities, reforms, management, development, democratic, changes, promotion.*

So'nggi yillarda O'zbekistonda Prezidentmiz Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida muhim siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatni modernizatsiya va taraqqiyotga erishish yo'lidagi hal qiluvchi qadam sifatida e'tirof etilgan yangi Konstitutsiyaning qabul qilinishi ushbu o'zgarishlarning muhim bosqichi bo'ldi. 2023 yilning 30 aprel kuni xalqimiz hayotida o'ziga xos voqelikka ega bo'lgan kun sifatida tarixga muhrlandi. Sababi, ko'p millatli xalqimiz ko'nglidagi o'zgarish va islohotlarga zamin yaratib berishi bilan ahamiyatli bo'lgan yangi Konstitutsiya qabul qilindi. Ko'p ovoz bilan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingani unda xalqimizning Yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha orzu-umidlari va intilishlari o'z aksini topganidan dalolat bermoqda. Yangi Konstitutsiya taraqqiyotimiz asoslarini yaratuvchi qonundir! O'zbekiston respublikasida yangi konstitutsiya yoshlarni birlashtirish, ularni har tomonlama yuksaltirishga hamda mamlakat taraqqiyotiga xizmat qiladi. O'zbekiston respublikasi yangi konstitutsiyasi yangi o'zbek mo'jizasini yaratadi. Konstitutsiyada millatning, xalqning, jamiyatning va davlatning orzu umidlari hamda maqsad-mudaolari batafsil keltiradi. Bir so'z bilan aytganda yangi konstitutsiya - bu yangi kuch! Yangi Konstitutsiya - bu yangi Taraqqiyot, Yangi konstitutsiya - bu yangi kelajak demakdir! Biz aniq ishonch bilan ayta olamizki O'zbekistonning kelajagi va dunyoning uchinchi renasans poydevori ushbu yangi Konstitutsiya bilan yaratiladi va bunyod etiladi! "2022-yilning may oyi xalqimiz hayotida o'ziga xos voqelikka ega bo'lgan oy sifatida tarixga muhrlanmoqda. Boisi 17-may kuni mamlakatimiz parlamentida eng ko'p deputatlik

oʻrniga ega boʻlgan ikki siyosiy partiya – Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – Oʻzbekiston Liberal-demokratik partiyasi va “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi fraksiyalari tashabbusi bilan Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga oʻzgartish va qoʻshimchalar kiritish tashabbusini ilgari surishga qaratilgan qoʻshma yigʻilish boʻlib oʻtdi. Shuningdek, 20-may kuni Senat va Qonunchilik palatasi kengashlarining qoʻshma majlisi oʻtkazilib, yigʻilishda Konstitutsiyaga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish boʻyicha takliflarni shakllantirish va tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirish katta kuch va mas’uliyat talab qilishi bunda har bir fuqaro fikrlarini tinglash zarurligi qayd etilib, ushbu vazifalar bilan shugʻullanuvchi Konstitutsiyaviy komissiya tashkil etildi.”[1]

Yangi konstitutsiyaning asosiy xususiyatlaridan biri parlament rolini kuchaytirish va hokimiyatni markazsizlashtirishga qaratilgan vakolatlarni qayta taqsimlashdir. Prezidentlik respublikasidan parlamentli respublikaga oʻtish hukumat ichidagi oʻzaro nazorat va muvozanatni mustahkamlash, shuningdek, qarorlar qabul qilish jarayonini yanada keng qamrovli va ishtirok etishni ragʻbatlantirish yoʻlidagi muhim qadam sifatida koʻrilmoqda. Bundan tashqari, yangi konstitutsiya inson huquqlari, soʻz erkinligi va qonun ustuvorligi tamoyillarini mustahkamlab, yanada ochiq va plyuralistik jamiyatni rivojlantirishga sodiqlikdan dalolat beradi. Yangi konstitutsiya bilan kiritilgan eng e’tiborli oʻzgarishlardan biri hukumatning iqtisodiy va ijtimoiy siyosatini amalga oshirishni nazorat qilish vazifasi yuklangan Taraqqiyot qoʻmitasining tashkil etilishidir. Oʻzbekistonning investitsiyalarni ragʻbatlantirish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash va mamlakatning xalqaro raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni oʻz ichiga olgan ulkan islohotlar dasturini ilgari surishda muhim rol oʻynashi kutilmoqda. “Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahriri 2023 yil 1 maydan e’tiboran kuchga kirdi. Bunga 30 aprel kuni boʻlib oʻtgan referendum natijasiga koʻra 11 ta moddadan iborat tegishli qonunning qabul qilinishi asos boʻldi. Bu qonunning 1-moddasiga Konstitutsiyaning yangi tahriri ilova qilingan. Bunga qadar 1992 yildan buyon konstititutsiyaga jami 15 marta oʻzgartish kiritilgan edi. Bu safar esa oʻzgarishlar

ko'lami kattaligi sabab hujjatning yangi tahriri qabul qilindi. Yangilanish natijasida, bosh qomusdagi moddalar soni 128 tadan 155 taga, undagi normalar esa 275 tadan 434 taga oshdi. Umuman, rasmiylarga ko'ra, konstitutsiya 65 foizga yangilangan"[2]

Iqtisodiyotni rivojlantirish nuqtai nazaridan, yangi konstitutsiyada xususiy mulk huquqlarini himoya qilish va tadbirkorlikni rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratilib, biznes va sarmoya uchun yanada qulay muhit yaratish maqsad qilingan. Bu, o'z navbatida, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishi va yangi ish o'rinlari yaratish uchun imkoniyatlar yaratishi, pirovardida O'zbekiston fuqarolarining turmush darajasini oshirishi kutilmoqda. Qolaversa, yangi konstitutsiya O'zbekistonning inson huquqlari va qonun ustuvorligini ta'minlashga sodiqligini yana bir bor tasdiqlaydi. Unda asosiy huquq va erkinliklar, jumladan, so'z, yig'ilishlar va diniy e'tiqod erkinligi mustahkamlangan hamda barcha uchun tenglik va adolatni ta'minlash muhimligi ta'kidlangan.

"Shu jumladan ta'lim soxasiga oid bo'lgan 50-51-52 moddalari ya'ni 50-modda.

Har kim ta'lim olish huquqiga ega. Davlat uzluksiz ta'lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojlanishini ta'minlaydi. Davlat maktabgacha ta'lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Davlat bepul umumiy o'rta ta'lim va boshlang'ich professional ta'lim olishni kafolatlaydi. Umumiy o'rta ta'lim majburiydir. Maktabgacha ta'lim va tarbiya, umumiy o'rta ta'lim davlat nazoratidadir. hamda yangi qo'shilgan XXIV bob. Advokatura muhim axamiyat kasb etadi.

141-modda.

Jismoniy va yuridik shaxslarga malakali yuridik yordam ko'rsatish uchun advokatura faoliyat ko'rsatadi.

Advokatura faoliyati qonuniylik, mustaqillik va o'zini o'zi boshqarish prinsiplariga asoslanadi.

Advokaturani tashkil etish va uning faoliyati tartibi qonun bilan belgilanadi.

142-modda.

Advokat oʻz kasbiy vazifalarini amalga oshirayotganda uning faoliyatiga aralashishga yoʻl qoʻyilmaydi.

Advokatga oʻz himoyasidagi shaxs bilan moneliksiz va xoli uchrashish, maslahatlar berish uchun shart-sharoitlar ta’minlanadi.

Advokat, uning sha’ni, qadr-qimmati va kasbiy faoliyati davlat himoyasida boʻladi va qonun bilan muhofaza qilinadi. Deya ta’kidlanagan”[3]

Oʻzbekistondagi konstitutsiyaviy islohotlar jarayoni hukumatning oʻzgarishlarni qabul qilib, modernizatsiya va taraqqiyot yoʻliga kirishga tayyorligini koʻrsatadi. Taraqqiyot qoʻmitasining tashkil etilishi va yangi konstitutsiyaning qabul qilinishi bilan Oʻzbekiston xalqaro hamjamiyatga yanada inklyuziv, oshkora va farovon jamiyat yaratish tarafdori ekanligi haqida aniq signal bermoqda. Ushbu ishlanmalar haqida ma'lumot berish jamoatchilikni o'zgarishlardan xabardor qilish va amalga oshirish jarayonida ishtirok etishni ta'minlash uchun juda muhimdir. Hukumat qarorlarini qabul qilish jarayonida shaffoflik va mas'uliyatni oshirishga qaratilgan sa'y-harakatlar bilan bir qatorda jamoatchilik ishtiroki va fikr-mulohazalari uchun yangi yo'llar yaratilmoqda. Qolaversa, hukumat xalqaro hamkorlar bilan faol hamkorlik qilib, yanada demokratik va rivojlangan Oʻzbekistonga oʻtishga koʻmaklashishda ularning yordami va tajribasini izlab kelmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining farmoyishi, 16.11.2023 yildagi F-72-son “2023-yil 30-aprel kuni boʻlib oʻtgan umumxalq referendumida xalqimiz oʻzining yuksak siyosiy ongi, huquqiy madaniyati va dunyoqarashini namoyon etib, yangi tahrirdagi Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qildi. Yangi tahrirdagi Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi davlatchilik, ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va sud-huquq sohalarini bundan keyin ham barqaror rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratdi”.[4]

Yangi Konstitutsiya Oʻzbekistonda boshqaruvning yangi davri uchun zamin yaratar ekan, uning qoidalari, oqibatlari va umidlarini samarali bayon etish muhim ahamiyatga ega. Hukumat aniq va oshkora muloqot orqali fuqarolar oʻrtasida

ishonch va konsensusni oʻrnatishi, mamlakat kelajagiga umumiy qarashni rivojlantirishi mumkin. Bu nafaqat an'anaviy media kanallari orqali ma'lumot tarqatishni, balki jamiyatning turli darajadagi manfaatdor tomonlari, jumladan, fuqarolik jamiyati tashkilotlari, yoshlar guruhlari va xususiy sektor bilan hamkorlikni ham oʻz ichiga oladi. Mamlakat yangi konstitutsiyani hayotga tatbiq etish yoʻlida olgʻa siljib borayotgan bir paytda, islohotlarning keng qamrovli va aholi ehtiyojlariga mos kelishini ta'minlash uchun hukumatning fuqarolar, fuqarolik jamiyati tashkilotlari va xususiy sektor bilan ochiq muloqotga kirishishi juda muhim. Hamkorlik madaniyatini yuksaltirish orqali Oʻzbekiston barqaror rivojlanish va uzoq muddatli farovonlikka erishish uchun oʻz xalqi va resurslaridan foydalanishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Oʻzbekistonda yangi Konstitutsiya taraqqiyot va taraqqiyot yoʻlidagi hal qiluvchi qadamdir. Oʻzgarishlarni samarali yetkazish va jamoatchilikning keng ishtirokini ta'minlash yanada demokratik, ochiq va farovon Oʻzbekiston gʻoyasini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu sa'y-harakatlar orqali hukumat o'z xalqi va resurslarining salohiyatidan foydalanishi, barqaror va inklyuziv o'sish uchun asos yaratishi mumkin. Yangi konstitutsiya va Taraqqiyot qoʻmitasining tashkil etilishi, shubhasiz, Oʻzbekistonda amalga oshirilayotgan oʻzgarishlarning muhim bosqichidir. Mamlakat kattaroq siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish sari oʻz yoʻlini belgilashda davom etar ekan, barcha manfaatdor tomonlar oʻz fuqarolarining imkoniyatlarini kengaytiradigan va kelajak avlodlar farovonligini ta'minlovchi kuchli va mustahkam jamiyat qurish uchun birgalikda harakat qilishlari juda muhim.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:**

1. Inomjon QUDRATOV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Yangi Oʻzbekistonning Yangi Konstitutsiyasi xalqimiz muallifligida yaratiladi https://constitution.uz/oz/pages/Yangi_O%E2%80%98zbekistonning_Yangi_Konstitutsiyasi
2. Yangi konstitutsiya. 10 ta asosiy oʻzgarish https://kun.uz/uz/news/2023/05/02/yangi-konstitutsiya-10-ta-asosiy-ozgarish

3. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI Mazkur yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan. Kuchga kirish sanasi 01.05.2023 https://lex.uz/docs/-6445145

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoyishi, 16.11.2023 yildagi F-72-son, O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMOYISHI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI KUNI BAYRAMIGA TAYYORGARLIK KO'RISH VA UNI O'TKAZISH TO'G'RISIDA Kuchga kirish sanasi 16.11.2023

3. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2016.

4. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.–T.:O'zbekiston, 2017.

5. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. – T.:O'zbekiston, 2017.

# PIRLS XALQARO BAHOLASH DASTURI ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI O'QISH VA MATNNI TUSHUNISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

***Ahmadjonova Gulasal Yunusali qizi***

*Namangan davlat pedagogika instituti magistranti*

*ahmadjonovagul99@gmail.com 995129009*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada PIRLS tadqiqotlari doirasida turli ta'lim tizimiga ega bo'lgan davlatlar 4-sinf bituvchilarining o'qish sifati va o'qilgan matnni tushunish darajasi o'rganiladi. Bu tadqiqotlarga 4-sinf o'quvchilarining tanlanishi shu bilan e'tiborliki, aynan o'qishning to'rtinchi yilida o'quvchilar o'qishning yuqori darajasiga ega bo'lishi, ularning keyingi ta'limda bilimni egallash*

*qobiliyatini shakllantirish va shu orqali hozirgi zamonga muvaffaqiyatli moslashuviga yordam beradi.*

***Kalit so'zlar:*** *o'qish savodxonligi, PIRLS tadqiqoti, xalqaro baholsh.*

***Abstract:*** *As part of the PIRLS research, the quality of reading and the level of understanding of the read text of the 4th graders of countries with different educational systems are studied. The choice of 4th grade students for these studies is important because it is precisely in the fourth year of study that students have a high level of learning, to form their ability to acquire knowledge in further education, and thus to modern times. helps in successful adaptation.*

***Key words:*** *reading literacy, PIRLS research, international assessment.*

***Абстрактный:*** *В рамках исследования PIRLS изучается качество чтения и уровень понимания прочитанного текста учащимися 4-х классов стран с разными системами образования. Выбор учащихся 4-х классов для этих занятий важен, поскольку именно на четвертом году обучения у учащихся формируется высокий уровень обучаемости, формируется их способность к получению знаний в дальнейшем обучении, а значит и к современности. приспособление.*

***Ключевые слова:*** *грамотность чтения, исследование PIRLS, международная оценка.*

Hozirda yosh kelajak avlodning faolligini shakllantirish nafaqat bir mamlakat uchun balki, xalqaro hamjamiyatimiz uchun ham e'tiborli masala hisoblanadi. Shu boisdan, globallashuv jarayoni kelajak egalari sifatida yosh avlodni tayyorlashda dunyo xalqlarining maqsadlarini birlashishiga olib keldi. Yer kurrasida 227 tadan ortiqroq davlat bo'lsa barchasi shuni biladiki , ta'limning jamiyatimiz taraqqiyoti va har bir inson rivojlanishida muhim o'rni bordir, shuning uchun ham ta'lim sifatiga keng miqyosdagi e'tibor qaratilgan. Hozirgi kunda ta'lim sifatini yanada chuqurlashtirish , rivojlantirish va baholash kabi masalalar bilan ko'pgina xalqaro tashkilotlar davlatlarida ta'lim sohasini baholashning

PIRLS,TIMSS,PISA ,TALIS,PIAAC, ICCS, SITES, IALS, ALL kabi baholash dars turlari amaliyotga tatbiq etilgan.

Boshlang’ich sinf o’quvchilari o’yinqaroq , ko’proq kompyuter o’yinlari ,telefon o’ynashni yoqtirishadi, ota- onalari bolalarini kitob o’qishlarini xohlashdi. Ota-onalar bolalariga zamonaviy texnologiyalardan foydalanib audio ertaklar, rasmli kitoblar quyib berishlari maqsadga muvofiqdir. Statistika ma'lumotlariga qaraganda, kitob o'quvchilarsoniga qaraganda kitob o'qimaydiganlar soni juda ham ko'p. Bunga juda ko'p narsalarni sabab qilib ko'rsatishimiz mumkin. Shiddat bilan rivojlanib borayotdan axborot asrida yashayapmiz. Har qadamimizda kompyuter, telefon, dron va shu kabi ko'plab gadjetlarga duch kelamiz. Bularning barchasi hayotimizga shu darajada shiddat bilan kirib kelyaptiki, ularsiz hayotimizni tasavvur eta olmaymiz xatto. Gadjetlar turmush tarzimizni yengillashtirdi. Buni tan olishimiz kerak. Ammo, ularning zararli oqibatlari ham juda ko'p. Eng achinarlisi "kitobxonlik"ning sezilarli darajada kamayib ketganidir. Biz pedagoglarning kelajagimiz bolmish yosh avlodni talim-tarbiya olishlari uchun shart-sharoit yaratish, sog-salomat ulgaytirish, ularga ota-ona kabi mehr berish oliy maqsadimiz. Bolaning barkamol shaxs bo'lib ulg'ayishida ularning hayotida kitobning hayoti beqiyosdir. Ular qachon kitobga mehr beradi degan savolga yagona javob bor. Qachonki bolalarga o'zlarining dunyo qarashi va yoshiga mos kitob tanlay olsak, bolada kitobga muhabbat uyg'otadi.Aslida, tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yosh o'quvchilar o'z adabiyotlarini to'g'ri tanlaganlarida, ular yaxshi o'qiydiganlar bo'ladi. O'qituvchilarning asosiy vazifasi, o'quvchilarning qaysi turdagi kitoblarni o'qishlariga yordam berishini aniqlaydi. O'qituvchi bolalarning xarakteri, qiziqishlarini inobatga olib ularga, sarguzasht, komedia, sheriy, drama, rivoyat va h.k tavfsiya qilish mumkin. Bolalarni kitob o'qishga qiziqishtirishning yana bir usuli kitob o'qishni yaxshi ko'radigan, ularga yaxshi tanish bo'lgan buyuk shaxslarni, asr qahramonlari hayotini, yutuqlarini misol keltirishdir.

Jamiyatimizda kitobxonlik masalasiga yondoshuv turli davrlarda turlicha bo`lgan. Har bir davrning o`z ehtiyojidan kelib chiqib, kitobxonlik darajasi belgilangan. Binobarin, har qanday davlatning kuch-qudrati o`z fuqarolarining

ongliligi bilan belgilanar ekan, bunda albatta kitobxonlik masalasiga alohida e`tibor berilgan. Bugungi kunda "Mutolaa madaniyati", "Kitobxonlik madaniyati", "O`qish madaniyati" kabi atamalar bilan qo`llanilib kelayotgan ijtimoiy hodisalar axborot olish madaniyatining tarkibiy qismlaridir.

O`qish – axborot olish madaniyati bo`lib, badiiy adabiyotni to`g`ri tushunish, undan estetik zavq olish, shuningdek, ilmiy adabiyotlar, barcha turdagi resurslar bilan ishlash, ma`lumot-bibliografiya va barcha turdagi axborot materiallaridan o`zini qiziqtirgan ma`lumotlarni qidirib topish, cheksiz axborot oqimlari orasidan kerakli, muhim bo`lgan ma`lumotlarni ola bilish, o`z kasbiy malakalarini oshirishda foydalanish, axborot-kutubxona muassasasidan to`g`ri foydalanish yo`llarini o`rganish ham axborot olish madaniyati tushunchasi doirasiga kiradi. Boshlang`ich sinf o`quvchilarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning bir qancha usullari, yo`llari mavjud bo`lib, shu kunlarda O`zbekiston yoshlari, boshlang`ich sinf o`quvchilari ilk bor qatnashayotgan PIRLS tadqiqotining o`rni beqiyosdir. PIRLS - (inglizcha –Progressin International Reading Literacy Study) matnni o`qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot bo`lib, maqsadi turli xil ta`lim tizimidan iborat bo`lgan davlatlardagi boshlang`ich sinf o`quvchilarining matnni o`qish va qabul qilish bo`yicha tayyorgarligi hamda o`quvchilarning har xil yutuqlarga erishishga sabab bo`luvchi ta`lim tizimidagi o`ziga xos xususiyatlarni aniqlash va baholashdan iborat.

PIRLS tadqiqotida o'qish savodxonligining darajalari quyidagicha tavsiflanadi;

• Eng yuqori daraja( 625 ball va undan yuqori )- O'quvchilar matnni yaxlit o'zlashtira oladi va ayni patda uning alohida qismlarini bir -biri bilan bog'liq xolda tushunadi. Muallifning g'oyasini izohlashda o'z fikrini izohlash uchun matnga tayana oladi.

• Yuqori daraja( 550ball)- O'quvchilar matnning ahamiyatli xabarlarini tushunadi, matnga asoslanib o'z xulosalarini chiqaradi, matn mazmuniga ham , shakliga ham baho bera oladi, uning til xususiyatlariga e'tibor qarata oladi.

• O‘rta daraja(475 ball)-O‘quvchilar matndan axborot topa oladi, matn shakli va tilining ba‘zi xususiyatlaridan foydalanib, matnga asosan o‘z xulosalarini chiqaradi.
• Quyi daraja( 400 ball)-O‘quvchilar matnda aniq berilgan va cheklash oson bo‘lgan xabarni ajratib oladi.

PIRLSda o`qish savodxonligining asosi matnlar bilan to`liq ishlash uchun zarur bo`lgan o`qish qobiliyatlarini shakllantirish hisoblanadi. Bu o`quvchi tomonidan kerakli ma`lumotlarni topish va tarqatish, matnning ma`lum qismi bo`yicha xulosalar chiqarish, asosiy belgilarning harakatlarini sharhlash, matn namunalari va matn tuzilishini dastlabki tahlil qilish bilan tasdiqlash kabilardir. PIRLS tadqiqotida o`quvchilarga ikki turdagi matn taqdim etiladi, badiiy matn va axborotli matn. Shuning uchun o`quvchilar bilimi quyidagi ikki mezon asosida baholanadi:

1. Adabiy kitobxonlik malakasini egallash maqsadida o`qish.
2. Axborotni o`zlashtirish va foydalanish maqsadida o`qish.

PIRLS tadqiqotlari quyidagi muammolarni hal qilishga qaratilgan:

- Ta’lim sohasidagi dunyo ustuvorliklarini aks ettiruvchi ob’ektiv o‘lchovlar va vositalarni ishlab chiqish;
- Mamlakat o‘quv jarayonini tashkil etish samaradorligini qiyosiy baholash;
- Tadqiqot natijalariga ta’sir ko‘rsatgan kontekstual omillarni aniqlash;
- Xalqaro hamjamiyat tomonidan tan olingan dalillarga asoslangan ma’lumotlarga ega bo‘lish.

Tadqiqot obyekti boshlang‘ich maktab bitiruvchilarining o‘quv yutuqlari hisoblanadi, chunki bu to‘rtinchi o‘quv yilida o‘qitish bo‘yicha barcha bilim va ko‘nikmalarni to‘playdi. Shu yoshda, o‘quvchilar o‘qishni yaxshi o‘zlashtirishi kerak, shunda ular asosiy maktabda o‘qishni muvaffaqiyatli davom ettirish uchun tarkibiy va formatdagi turli xil matnlardan foydalanadilar.

PIRLS xalqaro tadqiqotining asosiy vazifasi – boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matnni o‘qib tushunish malakasini takomillashtirishdan iboratdir. PIRLS tadqiqotlarida, asosan 4-sinf o‘quvchilari ishtirok etadi. Bu tadqiqotlarga 4-sinf o‘quvchilarining tanlanishi shu bilan e’tiborliki, aynan o‘qishning to‘rtinchi

yilida oʻquvchilar oʻqishning yuqori darajasiga ega boʻlishi, ularning keyingi ta'limda bilimni egallash qobiliyatini shakllantirish va shu orqali hozirgi zamonga muvaffaqiyatli moslashuviga yordam beradi. Tadqiqotlarda qoʻllaniladigan matnlarni turli joydagi maktab oʻqituvchilari oʻquvchilarning bilimi va qiziqishlarini inobatga olgan holda tavsiya qilishadi. Matnlar odatda, ulardan anglashilgan mazmunni turli usulda shakllantirish yordamida, ularda aks etgan fikr-mulohazalarni qay tartibda tashkillashtirilgani va taqdim etilganiga qarab farqlanadi. PIRLS tadqiqotlarida tavsiya etilgan matnlarni oʻqish va matn yuzasidan berilgan savollarga javob berish natijasida oʻquvchi matndan anglashilgan ma'noni tez ilgʻab oladigan, matn ustida mulohaza yuritadigan, samarali oʻqish strategiyasidan xabardor va oʻqish ustida tafakkur qiladigan shaxs sifatida gavdalanadi. PIRLS tadqiqoti uchun tavsiya etilgan matnlar oʻquvchilarni ongli fikrlashga, oʻz fikrlarini kengaytirgan holda mushohada yuritishga xizmat qiladi. Tadqiqot uchun tanlangan matn oʻquvchilar uchun unchalik tanish boʻlmasligi lozim. Har bir tanlangan matn oʻquvchilarning yosh doirasi hamda fikrlash qamrovini hisobga olgan holda tanlanadi.

Adabiy kitobxonlik malakasini egallash maqsadidagi oʻqish uchun quyidagi mahorat tavsiflari belgilangan:

- matnning muayyan qismlarini ajratib ko`rsatish va ulardan oddiy xulosalarni ifodalashda foydalanish;
- voqealar o`rtasidagi o`zaro aloqalarni ko`rsatish;
- matnning umumiy g`oyasini aniqlash;
- matn tarkibining elimentlarini ochib berish;
- qahramonlar xatti-harakatiga izoh berish;
- asar qahramonlarining xatti-harakatlari va his –tuyg`ularini taqqoslash va qiyoslash;
- matnda qo`llangan til vositalarining xususiyatlari ustida birlamchi tahlil o`tkazish;
- matnning asosiy g`oyasini tushunish, yashiringan axborotlarni aniqlash va umumlashtirish;

-matndagi savollarga qahramonlarni asosiy tavsiflari, ularning intilishlari va his-tuyg`ularini izohlash orqali javob berish;

- matndan misollar keltirgan holda, javoblarni asoslash.

Axborotni o'zlashtirish va foydalanish maqsadidagi o'qish uchun quyidagi mahorat tavsiflari belgilangan:

- matnda keltirilgan dalillarni aniqlash va tasvirlash;
- kerakli axborotni o`zida mujassamlashtirgan gapni ajratish;
- xulosalarni izohlash uchun olingan axborotdan foydalanish;
- matnda yaqqol taqdim etilgan axborotga muvofiq xulosa chiqarish;
- matnning turli qismlarini tahlil qilish va kerakli axborotni ajratish;
- matnda yashirin berilgan axborotni aniqlash;

matndagi alohida gaplar o`rtasidagi mazmuniy aloqalar asosida xulosalarni ifodalash;

- matn mazmunini izohlab berish;
- turli tipdagi matnlardan foydalanish va alohida tavsiflarni belgilash;
- matnning turli qismlaridagi murakkab ma`lumotlarni anglash va asoslash;
- matndagi ma`lumotlarni tushunish uchun aniq va noaniq elimentlarni baholash va ahamiyatini tushuntirish;
- matnlar, xaritalar, illuystrasiyalar, diagrammalar va rasmlar kiritilgan materiallar asosida turli matnlardagi ma`lumotlarni umumlashtirish.

PIRLS tadqiqotida belgilangan mahorat tavsiflaridan ko`rinib turibdiki, o`quvchilar matnni nafaqat tushunishadi balki, matnda berilgan ma'lumotlarni tushuna olish va ularga o`zining shaxsiy munosabatini bildira olish ko'nikmasi, olgan ma'lumotlaridan hayoti davomida to'g'ri foydalana olishi, bilim va imkoniyatlarini oshira olish layoqati ham shakllanib, rivojlanib boradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashga mo'ljallangan axborotnoma 1-son. Toshkent-2020

2. Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning matematik savodxonligini baholash. A.A.Ismoilov, N.A.Karimov, B.Q.Haydarov, Sh.N.Ismailov. "Sharq". Toshkent-2019

3. Моркович А.Г.Беседы с учителями математики: Учеб- метод. Пособие\ А.Г.Мордковичю – 2-е изд, доп. И перераб. – М: ООО «изательство Оникс»: ООО «Издательство Мир и Образование»б 2008. -336с

4. B.Toshmurodov. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishni takomillashtirish. Toshkent, O'qituvchi 2000 yil

5. L.P.Stoylava, A.M.Pishkalo. Boshlang'ich matematika asoslari. –Toshkent. O'qituvchi, 1991

6. Saidahmedov N. pedagogik mahorat va pedagogik texnalogiya. Monografiya Toshkent, 2003

7. Фундаментальное ядро содержания обшего образования. Проект. (2009-2010). – М: Просвещениеб 2010 – 48с

## MUSIQA O'QITISH METODLARINING MAQSAD VAZIFALARI HAMDA MUSIQA MADANIYATI FANINI YANGI DASTUR ASOSIDA O'QITISH

***Odashaliyeva Fotima Odiljon qizi***

*Namangan davlat pedagogika instituti*

*Musiqa ta'limi va san'at mutaxasisligi 1-bosqich magistranti*

*odashaliyeva99@gmail.com*

***Annotatsiya:*** *ushbu maqolada musiqa o'qitish metodlarining maqsad vazifalari hamda musiqa madaniyati fanini yangi dastur asosida o'qitish hamda musiqa ta'limiga oid texnologiyalar muhokama qilinadi. Maqola musiqa ta'limi jihatidan keng ochib berilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *didaktik protseduralar, pozitsiya, pedagogika, texnologiya, musiqa ta'lim, innovatsiya, jarayonlar, aqliy rivojlanish.*

***Аннотация:*** *в данной статье рассматриваются цели и задачи методики преподавания музыки и преподавания науки музыкальной культуры на основе новой программы, а также технологии, связанные с музыкальным образованием. В статье широко раскрыта тема музыкального образования.*

***Ключевые слова:*** *дидактические процедуры, позиция, педагогика, технология, музыкальное образование, инновации, процессы, психическое развитие.*

***Abstract:*** *this article discusses the goals and objectives of music teaching methods and the teaching of the science of music culture based on a new program, as well as technologies related to music education. The article is widely disclosed in terms of music education.*

***Key words:*** *didactic procedures, position, pedagogy, technology, music education, innovation, processes, mental development.*

Musiqa o‘qitish metodikasi, pedagogika fani sifatida tajribada sinalgan ishlami nazariy qismlarini umulashtirib, amaliyotda samarali natijalar bergan o‘qitish metodlarini takdim etadi. Metodika asosan, pedagogika, psixologiya, estetika va san’atshunoslikning tadqiqot natijalariga asoslanadi. U, musiqa o‘qitishning qonun - qoidalarini ta’riflab beradi, kelajak yosh avlodni tarbiyalashda qo‘llanadigan zamonaviy metodlami belgilaydi. Metodika, ta’lim - tarbiva jarayonida o‘qituvchining o‘quvchilar bilan ishlash usullarining, mazmunini anglatadi. Musiqa o‘qitish metodikasi o‘qituvchidan iste’dod, qobiliyatlar va ishtiyoqlar mavjud bo‘lishini talab etadi, chunki, san’at pedagogikasi mashakqatli va juda mas’uliyatli sohadir. Xozirgi kunda musiqa o‘qitish metodikasi birdaniga kelib shakllangan fan emas, balki bunta qadar mazkur fanni shakllanishi ijodiy va murakkab tarakkiyot yulini bosib o‘tgan.

Respublikamizda musiqa o‘qitish metodikasini shakllantirishda maxaliiy olimlar, metodistlar, tajribali o‘qituvchilamingqator izlanishlari, o‘quv qo‘llanmalariniig ahamiyati katta bo‘ladi. Badiiy pedagogikaning metodika sohasidagi sunggi yutuqlari talabalami pedagogika faolivatiga tayyorlash,ulami metodik bilim va maqoratlar bilan qurollantirish, musiqa o‘qitish metodikasini bu maqsadga erishish uchun amaliy mashg‘ulotlar mobaynida uzoq ijtimoiy mehnat qilish talab etiladi.[1]

Umum ta'lim maktablaridagi musiqa madaniyati darslarida o'qituvchining pedagogik mahorati yuqori darajadagi bo'lishi lozim. O'qituvchining cholg'u ijrochiligi, yuksak kasbiy mahorati, nutq madaniyati, musiqa savodxonligi bo'yicha to'g'ri ko'rsatmalar berishi "Ta`lim to'g'risida" gi qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», "Davlat Ta`lim Standarti"ni teran anglashi zarur. Shundagina uning dars o'tish tamoyillari, tadbirlarni mazmunli tashkil etish ijodkorligi ortib boradi. Shu bilan birga pedagoglar musiqa san`atidan to'g'ri foydalangani xolda darsda musiqa tinglash, xor bo'lib qo'shiq kuylash, musqa savodi, musiqaga ritmik jo'r bo'lish va musiqa bilan harakat kabi yo'nalishdardan darsda oqilona foydalanishi zarur.

Musiqa o'qitish metodikasi vazifalarini amalga oshirishda musiqa o'qitishning qator metodlari bilan birgalikda, pedagogikani amaliy yo'nalishini unumli foydalanishga bog'liq. Unumli-metod biror bir fanning amaliy va ijodiy ishlarini mazmunini va mavzusini keng yoritib berish va mustahkamlashda musiqa rahbari va bola faolitiga o'zaro aloqadorligini va bolalarni bilim jarayonida izlashga undovchi metoddir. Unumli metodlar o'qtish faoliyati va maqsadiga qarab to'rtga bo'linadi.

Mashg'ulotlarning musiqiy umumlashtiruvchi metodi. Bu metod bolalarni musiqa idroki, mantiqiy va badiiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgandir.

- Musiqa rahbari mashg'ulotlarida hal qilinishi lozim bo'lgan konkret vazifalarni vujudga keltiradi;
- musiqa rahbari va bola o'zaro hamkorlikda masalani yechadi;
- bolalar tomonidan yakuniy xulosalar chiqaradi.

O'tiladigan mashg'ulotlarga oldindan "yugurib" bog'lab o'tish va ilgari o'tilganlarga qaytish metodi. Bunda oldinga "yugurib o'tish", ya'ni ilgari o'tilgan materiallardan foydalanib, bolalarni yangi material o'zlashtirishga tayyorligini sinab ko'rish va bunda oldin egallagan bilimlarga suyanish uchun foydalaniladi.

Mashg'ulotlar mazmunining emotsional dramaturgiyasi metodi. Emotsional dramaturgiya metodi bilan mashg'ulotlarning mantiqiy yaxlitligiga erishiladi. Bunda chorak mavzusi asosida mashg'ulotlar rejasi uchun asarlar

tanlanadi. Tanlangan mavzular ham maqsadga muofiq bo'lib, boshlanishi va yakunlanishiga bog'liqdir.

Mashg'ulotlarning pedagogik jihatdan kuzatilishi va bilimlarning baholanishi metodi. Bu maqsadga qarab bir necha turlarga bo'linadi. Bolalarni bilish faoliyatini tashkil etuvchi va amalga oshiriuvchi turi;

bilim faoliyatini rag'batlantirish tanbehlash talablarini qo'yish;

o'qish, bilish faoliyatini samaradorligini boshqarish va nazorat qilish.

O'quvchilarga musiqaning rivojlanish printsiplari to'g'risidagi tasavvurlarini shakllantirish, qobiliyatlarining rivojlantirilishi natijasida ular yana musiqiy tushunchalarni bilib olishadi. Musiqa tarbiya metodikasi tarbiya jarayonida ko'pgina omillarga bog'liq ekanligini e'tirof etadi. Kishilarning musiqiy madaniyati faqatgina maktabning ta'siri ostidagina shakllanmaydi. Uyda albatta tevarak atrof, ommaviy axborot vositalari yaxlit xildagi ijtimoiy vositalar tizimi ham katta rolь o'ynaydi. Musiqa tarbiyasi metodikasi ta'lim metodlarini tashlashda ham pedagogika ravnaqi metodlarini ishlab chiqishda quyidagi muammolar mavjud jumladan:

A) metodlarning musiqa tarbiyasi, mazmunini sinovi, ijro bog'liqligi.

V) o'quvchilarda musiqiy va ijodiy qobiliyatlarning rivojlanishi.

S) musiqiy qobiliyat va ovozning rivojlanishi, musiqani idrok etishning yosh va yakka tartibdagi xususiyatlari.

D) o'quvchilarning rivojlanishida musiqiy faoliyatlarning turli shakllarda foydalanish imkoniyatlari bilan bog'liqligi.

Metodikaning vazifalariga esa o'quv tarbiya jarayonini turlicha shakllantirish yanada rivojlantirish musiqa darslaridan tashqari musiqa mashg'ulotlari, sinfdan va maktabdan tashqari ishlariga to'garaklar, bayramlar, ko'ngil ochish kechalari kiradi. Musiqa tarbiyasi metodikasi musiqa faniga yaqin bo'lgan adabiyot va tasviriy san'at, tarix bilan bog'liq holda o'rganishni taqozo etadi. Bu esa o'quvchilarning tarbiyasini har tomonlama samarali amalga oshirishga muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Musiqa ta'lim tarbiyasining maqsad va vazifalarini amalga oshirishda dars yetakchi omil hisoblanadi.

Chunki o'quvchilarning ommaviy tarzda jalb etilishi maktabda musiqa fani boshqa fanlardan o'zining badiiyligi va qiziqarliligi, zavq-shavq uyg'otishi bilan ajralib turadi.

Eng muhimi musiqa bolalarning aqliy, axloqiy sifatlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Musiqa aqlni peshlab, tafakkurni charxlaydi. Musiqa darslari va mashg'ulotlarida o'quvchilar tarbiya va milliy madaniyatimizni o'rganib, bilim saviyasini kengaytirib borishni egallaydi.[2]

Shunday qilib, musiqa o'qitishning xususiy metodlaridan tashqari boshqa turlari ham mavjud.

-Musiqa o'qitishning og'zaki metodlari.

-Ko'rgazmali o'qitish metodlari.

-Amaliy o'qitish metodlari.

-O'yin metodlari.

-Taqqoslash metodlari.

-Musiqa o'quvi, musiqiy eshitish qobiliyati bo'lgan bolalar bilan ishlash metodlari.

Musiqa o'qitishning og'zaki metodlari. Bunda musiqa mashg'ulotlarida musiqa rahbarining so'z mahoratiga alohida talab qo'yiladi. Musiqa rahbari o'zining asar haqidagi badiiy kirish so'zi bilan bolalarni ajoyib va sehrli musiqa olamiga kiradi va qiziqarli hikoya yoki suhbat yo'li bilan bolalar diqqatini jalb qilib musiqani badiiy idrok etishlariga erishadi.

Qiziqarli so'z ifodasi -bu musiqa rahbarining musiqa asari haqida jonli, emotsional yorqin bayoni. Hikoya qisqa, obrazli, jonli, qiziqarli bo'lib uning maqsadi bolalarni asarni badiiy idrok etishga o'rgatish". Suhbat- musiqa rahbari va bolalar orasidagi dialog shaklidagi faoliyatlan iborat bo'lib, bolalarni mustaqil fikrlashga undaydi.

Ko'rgazmali o'qitish metodlari. Ma'lumki, musiqa harakatlanuvchi kuy va garmonik tovushlardan iborat bo'lgan san'atdir. Uni faqat eshitish organi orqali tinglab idrok etish mumkin. Ko'rgazmali o'qitishni esa, nota yozuvlarini, plakatlar,

rasmlar, musiqa rahbarining so‘z, dirijyorlik ifodalari, raqs harakatlari, bolalar cholg‘u asboblari, musiqani jonli va aniq ijrosi, texnik vositalaridan foydalaniladi. Demak, musiqani jonli yangrashi mashg‘ulotlarda asosiy ko‘rgazma bo‘lib xizmat qiladi. Musiqa ta’limidagi ko‘rgazmalilik turlari:

Tabiiy ko‘rgazmalar (tabiatdan olingan).

Grafik ko‘rgazmali qo‘llanmalar(chizma, sxema, jadvalar).

Tasviriy ko‘rgazmalar (suratlar, fotosurat, vidiofilg‘mlar).

Muayyan belgilarni ifodalaydigan ramziy ko‘rgazmalar.

Musiqa ta’limida ilyustratsiya metodi asosan plakatlar, cholg‘u-asboblari, stend, chizmalar, kompazitorlarning suratlari, jadvallar kabilarni ko‘rsatishni o‘z ichiga olsa, namoyish etish metodlariga asl holdagi tabiiy ob’ektlarni ko‘rsatish mashg‘ulotlar jarayonida esa texnik namoyish, ya’ni zamonaviy kompuyuter, axborot kommunakatsiya tarmoqlari yordamida, kompakt disk elektron kitoblaridagi mavzularni ekranda yoritish, mavzuga oid kino va vidiofilmlar, audio va vediomateriallar kiradi.

Amaliy o‘qitish metodlari. Amaliy metodlar vositasida bolalar vokal-xor malakalarini, musiqaning tuzilishi hamda ifoda vositalarini tahlil etish, uning janr va shakllarini aniqlash va nota yozuvini o‘rganish malaka-ko‘nikmalarining shakllantirishi uchun foydalaniladi. Amaliy metodlar, vokal-xor malakalarini rivojlantirishda muhim vosita bo‘lib hisoblandi.

O‘yin metodi-asosan boshlangiya guruhharida ko‘proq yaxshi natija beradi. Yangi dastur asosida yaratilayotgan qo‘llanma va mashg‘ulotlarda o‘yin va uning elementlari keng joriy etiladi. Boshlang‘ich guruh bolalari serharakat va o‘yinga moyil bo‘ladilar. Mashg‘ulotlarda qo‘llaniladigan musiqali o‘yinlar bolalarning musiqa o‘quvini o‘stiradi, musiqiy qobiliyatini rivojlantiradi.

Taqoslash metodi. Musiqa mashg‘ulotlari jarayonida taqqoslash metodi keng qo‘llaniladi. U vokal-xor ishlarida musiqa rahbari , bolalar ijrosi va magnit yozividagi ijrolarini taqqoslashda, musiqa asarining tahlili va janrlarni belgilashda keng qo‘llaniladi.

Musiqa uquvi va musiqiy eshitish qobiliyati bo'sh bo'lgan bolalar bilan ishlash metodi. Musiqa uquvi bo'sh bo'lgan bolalar bilan mashg'ulotlar jarayonida differintsial guruhlarga bo'lib va mashg'ulotlardan keyin vaqt ajratib, yakka (individul) tarzda ish olib boriladi. Differentsial guruh deganda bolalarning musiqiy qobiliyati, uquvi va ovoziga qarab tabaqlashtirish yoki guruhlarga bo'lish tushiniladi.

Birinchi guruhga ovozi jarangli, yaxshi musiqiy qobiliyatga ega bo'lgan bolalar kiradi.

Ikkinchi guruhga ovozi, musiqiy qobiliyati o'rtacha bo'lgan, ya'ni musiqa rahbarining ovoziga ergashib, tayanib kuylaydigan bolalar kiradi.

Musiqa ta`limining davlat standartlari asosida yangi dastur ishlab chiqildi. Yangi dastur mazmunida milliy musiqa meroslaridan to'laqonli foydalanish, ommaviy xalq kuylari va qo'shiqlari, maqom, shashmaqom, dostonlar va bugungi zamonaviy musiqa o'z aksini topgan. Mazkur dasturning o'quv jarayoni, musiqa o'qitish metodikasi. Darslarning yil, chorak mavzulari, taxminiy rejasi, namunaviy darslar ishlanmasi, mahalliy musiqa va dars faoliyatlari dars mavzusining ajiralmas bir kismi bo'lib, umumiy mavzuga bo'ysunadi va mantiqan uzviy birlashib mazmunan bir butunlikni tashkil etadi. Bu xozirda ishlayotgan o'qituvchilardan ish mazmuni va uslubida yangilanish jarayonini talab etadi. Bunday talablar mazkur qo'llanmalar, tavsiyanomalar majmuasida va nashr etilayotgan o'quv- metodik qo'llanmalarda keng ma`noda yoritilmoqda. Yangi dasturlarni o'ziga xos yana xususiyatli tomoni shundan iboratki, musiqa madaniyati fanini asosi bo'lgan musiqa savodxonligini tarkib toptirish lozim bo'lgan, qator musiqiy qonuniyatlar jumladan, musiqa nutqi, musiqa ifoda vositalari, musiqa shakillari, musiqaning tuzilishi va rivojlanishi, musiqaning zamonaviyligi kabilar chuqur, mukammal o'rgatilishi kerak. Demak, yangi dastur mazmunida dars o'tish uchun, musiqa o'qituvchisi o'zining musiqiy-nazariy bilimlarini takomillashtirishi lozim.

Uchinchi guruhga esa, ovozi uncha yaxshi bo'lmagan, musiqiy qobiliyati bo'sh bo'lgan bolalar kiradi.

Musiqa mashg‘ulotlari jarayonida bu bolalarni quyidagi tartibda joylashtirish kerak: birinchi qatorga musiqa rahbarining ovoziga tayanib kuylaydiganlar, ikkinchi qatorga musiqiy uquvi bo‘sh, yaxshi musiqiy qobiliyatga ega bo‘lmagan bolalar, uchinchi qatorga qobiliyatli ovozi jarangdor bo‘lgan bolalar o‘tiradilar. Bunda ikkinchi qatordagi bolalar musiqa ohanglarini atroflaridan eshitib, ularning ovoziga ergashib, chiroyli, ifodali, to‘g‘ri kuylashga harakat qiladilar.

Shu uslub bilan bolalarni musiqiy uquvini o‘stirish mumkin. Ba’zi musiqa uquvi bo‘sh bo‘lgan bolalar bilan mashg‘ulotlardan keyin alohida, yakka tartibda shugullanib, topshiriqlar beriladi va ovozlari sozlanib qo‘shiqlar alohida o‘rgatiladi. Shu tariqa bolalarda  musiqaga qiziqish, qo‘shiq kuylash, musiqa tinglash ishtiyoqi, musiqiy qobiliyati, musiqiy uquvi, qo‘shiq kuylash malakalari hosil bo‘ladi. Shu bilan birga kayfiyatlari ko‘tariladi.

Musiqa bilan ta’sir ko‘rsatish metodi. Bu metod musiqa tinglashfaoliyatida qo‘llaniladi. Bolalar musiqani turlicha tushinadilar. Masalan, G‘.Qodirovning “Qushlar” asarini tinglab, uni nomini bilmay turib, turlicha fikr yuritadilar. Ayrimlarin tabiat manzariga, boshqalar kushning kuylashini, qolganlari esa boshqacha xarakter xis etib aytadilar. Ba’zi birlarida esa yaxshi kayfiyat tug‘iladi. Shuning uchun musiqa rahbari bolalarga asarning mazmunini tushintirib beradi. U bolalar diqqatini musiqaning ifoda vositalariga qaratadi. Bololar esa kuylovchi qush obrazini yaratadilar. Bu musiqa bilan ta’sir qilish metodidir. Bolalarning musiqaga qiziqish, musiqa tinglashda taqqoslashga o‘rganish kuylashda, raqsda, turli cholg‘ular ijrosida o‘rgatiladi. Musiqa rahbari ushbu faoliyatlarni ketma-ket olib borganda maqsadga erishadi.

Umuman olganda, “Bolalar bog‘chasi mashg‘ulotlaridagi o‘qitish jonligi va bolalarning do‘lvorligi, usul va harakatlarning rang barangligi, o‘qitish mazmunining mo‘jazligi, bolalar tarbiyasiga suyanishi, yorqin ko‘rgazmali asosga ega ekanligi bilan, ta’limning o‘yin va qiziqarli usullaridan foydalanishi bilan ta’limning bolalar kundalik hayotiga har tomonlama aloqasi bilan ifodalanadi”.

“Bahs-munozara”. Bunda biror bir musiqiy mavzu bo‘yicha o‘quvchilarning fikr-mulohazalari navbat bilan eshitiladi. Ko‘p fikrlilik ta’minlanadi (masalan,

musiqa idroki bo‘yicha). Quyida “bahs-munozara” uslubiga kengroq to‘xtalib o‘tamiz. Musiqa darslarida qo‘llash uchun mo‘ljallangan bahs-munozara uslubi o‘quvchilarning mantiqan o‘zaro bir-birlariga ta’sir etish muloqotga asoslanadi.

Interfaol (interaktiv) so‘zi inglizcha atama bo‘lib, u “interaction” – “o‘zaro ta’sir” degan ma’noni bildiradi. O‘zaro ta’sir faqat bahs-munozara tarzidagina emas, balki bu jarayonda savol-javob, muomala, savollarni to‘g‘ri shakllantirish, javoblarga aniqlik kiritish, javoblarni to‘ldirish kabi usullardan ham foydalaniladi. Shuningdek, ma’lum masala yuzasidan o‘zaro fikrlashib, maslahatlashib, jamoa bilan hamkorlikda xulosa chiqarish ham fikrning aniqligiga erishishda muhim rol o‘ynaydi.

Bugungi kunda musiqa san’atini rivojlanishi va unga bo‘lgan e’tibor davlat e’tiborida bo‘lar ekan, iqtidorli yoshlarning kelajagi uchun katta imkoniyatlar eshigini ochadi. Ayniqsa, 2008 yilda yurtboshimizning “Musiqa maktablari faoliyatini yuksaltirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori bizlar uchun ham faxr, ham quvonchdir. Bundan quvongan yosh avlod va ularga murabbiylik qilayotgan pedagoglarning imkoniyatlari yanada kengayadi, bajarayotgan ishidan unum topadi. O‘zbek bolalar folklor namunalaridan yanada kengroq foydalanish ta’lim-tarbiyaning yuksalishida muhimdir. Ayniqsa, bolalarni tabiatni sevishga, kattalarni xurmat qilishga, mehnatsevarlikka undovchi kuy-qo‘shiqlar musiqa madaniyati darsida o‘rganilayotgan har bir qo‘shiqqa asos bo‘la oladi yoki boshqacha aytganda qo‘shiqning mazmunini yuqoridagi sifatlar bilan bog‘lab o‘quvchi yoshlarni tarbiyalash mumkin.

O‘quvchi yoshlarga dars jarayonida folklor san’ati namunalaridan foydalanish orqali o‘qituvchilar quyidagi sifatlarni shakllantira oladilar ezgu niyatli bo‘lish,yaxshilik qilish,kiyinish madaniyati,muomala madaniyati,ma’naviy dunyoqarashining keng bo‘lishiga erishish,odob-axloq qoidalariga ega bo‘lish (va hokazo). Ko‘plab o‘quvchi-yoshlar musiqa darsiga qiziqib ishtirok etadilar. He Milliy musiqa san’atidagi ohanglarni to‘g‘ri kuylashni, o‘z aybini sezishni o‘rgatadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak bunday darslar faqat qiziqarli emas, balki , agarda mustaqillik haqidagi qo‘shiqlarni o‘rgatadigan bo‘lsak, talabalarni Vatan,

vatanparvarlik (haqidagi) ruhida tarbiyalashda qo'l keladi. Boshqa fanlardan farqli o'laroq musiqa darslari avvaldan erkin holda o'tilgan, Chunki fizika – matematika yoki himiya – biologiya fanlarida o'quvchilar ko'proq o'zlarini bilimga bag'ishlaydi, bu yerda esa ular o'zini xuddi qo'shiqchiday tutadi, ovozini qo'yib qo'shiq kuylaydi, miyasi dam oladi, qo'shiq mazmuniga e'tibor beradi. O'qituvchisiga notalar haqida savol beradi, o'quvchilar mustaqil mutoala ham tahlil ham umumlashtirish ham mantiqiy xulosa chiqara olishi hamda notalar bilan kuylash ko'nikmasiga ega bo'ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Musiqa o'qitish metodikasining maqsad va vazifalari// https://azkurs.org/musiqa-oqitish-metodikasining-maqsad-va-vazifalari.html.
2. Musiqa madaniyatining maqsad va vazifalari// https://fayllar.org/i-bob-musiqa-madaniyati-darslarining-maqsad-va-vazifalari-i-mu.html?page=6.

## TA'LIMDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

***Jaxongirova Muslima***
*Namangan davlat pedagogika instituti talabasi*

***Annotatsiya:*** *Ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga bo'lgan ehtiyoj va bu ehtiyojni qondirish uchun amalga oshirilishi kerak bo'lgan vazifalar haqida fikrlar keltirib o'tilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *kompetentlik, AKT, kommunikatsiya, elektron darslik, didaktika, motivatsiya, funktsional savodxonlik, innovatsionlik, intellektual rivojlanish.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 iyuldagi PF-5763-son "Oliy va o'rta maxsus ta'lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari

to‘g‘risida”gi Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida bir qancha muhim masalalar belgilab berildi. Farmonda belgilangan masalalardan:

– *zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari* va chet tillarini chuqur o‘zlashtirgan kadrlarni tayyorlashning yuqori darajasi va sifatini ta’minlash;

– ta'limning yangi pedagogik texnologiyalari va o‘qitish uslublarini joriy etishning xalqaro amaliyotga muvofiq ta’lim jarayonini tashkil etish, o‘quv rejalari va fan dasturlarini takomillashtirish, o‘qitishning zamonaviy shakllari va axborot-kommunikatsiya texnologiya vositalarini joriy etgan holda o‘quv jarayonini sifat jihatidan yangilash;

– zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish orqali talabalar, o‘qituvchilar va yosh tadqiqotchilarning jahon ta’lim resurslari, ilmiy adabiyotlar elektron katalogi va ma’lumotlar bazasidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish;

– o‘quv va ilmiy laboratoriya bazalarini modernizatsiya qilish, zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlash, sport-sog‘lomlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

– bu vazifalarni ta’limda qo‘llash, jamiyatnng yuqori darajalarga chiqishiga zamin yarartadi[1].

Ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o‘quv jarayonidagi barcha ishtirokchilarning axborot texnologiyalariga bo‘lgan kompetentligini shakllantirish, shu bilan birga, ijodiy, maqsadga muvofiq va samarali bo‘lishini ta‘minlash uchun hal qilinishi kerak bo‘lgan ko‘plab savollarni o‘z ichiga oladi[5].

Zamonaviy mutaxassislarni o‘qitish, tarbiyalash va rivojlantirish bugungi *“axborotga boy”* davrda amalga oshirish bir muncha jiddiy va dolzarb masala sifatida qolmoda.

Shulardan kelib chiqqan holda, jamiyatni, qolaversa bugungi kun ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya jarayonini axborotlashtirish, zamonaviy pedagogik dasturiy vositalar bilan boyitish hamda dars jarayonida hosil bo’ladigan, qayta ishlanishi kerak bo‘lgan axborotlar hajmi ortib bormoqda. Bu esa, zamonaviy

kompyuter va telekommunakatsion texnologiyalari vositalari tez sur'atlar bilan mukammalashib va takomillashib borayotganligini anglatadi[3].

Demak, axborot texnologiyalari o'qituvchining kasbiy-pedagogik fazilatlariga, o'qitishda axborot - kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning uslubiy va tashkiliy jihatlariga yangi talablarni belgilab beradi.

Bugungi kunda har qanday o'qituvchi o'quv jarayonida: axborot texnologiyalarini - Internetdagi ma'lumotlarni, elektron darsliklarni, lug'atlar va ma'lumotlarni, taqdimotlarni, dasturlarni, turli xil axborot tizimlari – internet kontentlar, forumlar, bloglar, elektron pochtalarni ishlatishning ko'plab telekonferentsiyalar, veb-seminarlar kabi imkoniyatlariga ega[4].

Bu esa, mashg'ulotlarning mazmuni yangilanishiga, o'quv jarayoni ishtirokchilari o'rtasida tezkor axborot almashinuvini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ta'lim beruvchi nafaqat ta'lim oluvchini o'qitadi, rivojlantiradi, balki yangi texnologiyalarni joriy qilish bilan u o'zini-o'zi nazorat qilish, kasbiy o'sish va ijodiy rivojlanishi uchun kuchli turtki beradi. Bundan tashqari, o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish pedagogga quyidagi didaktik vazifalarni hal qilishda amaliy yordam beradi[2]:

- barqaror motivatsiyani shakllantirish;
- talabalarning fikrlash qobiliyatini faollashtirish;
- passiv talabalarni mehnatga jalb qilish;
- ta'lim jarayonining intensivligini oshirish;
- boshqa mamlakatlar va madaniyat vakillari bilan jonli aloqani ta'minlash;
- o'quv jarayonini zamonaviy materiallar bilan ta'minlash;
- talabalarni turli xil ma'lumot manbalari bilan mustaqil ishlashga o'rgatish;
- ta'limga shaxsga yo'naltirilgan va tabaqalashtirilgan yondashuvni amalga oshirish;
- o'quv jarayonini faollashtirish, talabalarni tadqiqot faoliyatiga jalb qilish imkoniyati;
- o'quv jarayonining moslashuvchanligini ta'minlash.

Pedagogik amaliyotda oʻqituvchining axborot-kommunikatsion kompetensiyasining ikki darajali modeli taklif etiladi:

1) funksional savodxonlik darajasi (faoliyatga tayyorlik):

- matnli, raqamli, grafik, tovushli, videokompanentlarni qayta ishlash uchun kompyuter dasturlari bilimlariga ega boʻlish;
- Internetda ishlash, uning xizmatlaridan foydalanish qobiliyati;
- multimedia qurilmalari, skaner, printer va boshqalar kabi uskunalardan foydalanish qobiliyati.

2) faollik darajasi (amalga oshirilgan faoliyat):

- yuqori natijalarga erishish uchun taʻlim faoliyatida AKT sohasidagi funksional savodxonlikdan samarali va muntazam foydalanish.

Faoliyat darajasini quyi darajalarga ajratish mumkin:

- innovatsionlik;
- maʻlum bir oʻquv mavzusining mazmuni va metodikasi talablariga muvofiq ishlab chiqilgan ixtisoslashtirilgan media-resurslarni oʻquv faoliyatiga kiritish;
- ijodiylik;
- oʻzlarining taʻlim elektron vositalarini rivojlantirish.

Taʻlim tizimi natijalarida sifat oʻzgarishlariga olib kelishi mumkin boʻlgan faoliyat darajasi mavjud boʻlib, bunda oʻqituvchini funksional savodxonlik darajasidan qanday qilib faoliyat darajasiga koʻtarish mumkin degan savol tugʻiladi. Bularni oʻqituvchilarning axborot-kommunikatsiya salohiyatini oshirish alohida ta'lim muassasasi doirasida amalga oshirilishi kerak boʻladi. Oʻqituvchilar oʻzlarining kasbiy faoliyatlarida axborot texnologiyalaridan foydalanishni oʻrganishlari mumkin boʻlgan turli loyihalar, kontentlar, masofaviy ta'lim va malaka oshirish kurslari mavjuddir. AKTdan foydalanish boʻyicha metodik yordam, AKTdan foydalanish boʻyicha pedagogik tajribani seminarlar, mahorat darslari, vebinarlar va kurslar orqali umumlashtirish va rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Oʻquv faoliyatida yuqori natijalarga erishish uchun pedagog, toʻplangan bilimlaridan samarali va tizimli ravishda foydalanishning zaruriy sharti shundaki,

ichki motivatsiya, oʻqituvchi kasbiy kompetensiyasidan foydalangan holda dars oʻtkazishga boʻlgan ehtiyoji va tayyorligi, olingan nazariy bilimlarni ongli ravishda oʻquvchilarga uzatishidir. Bunda amaliy koʻnikmalar amaliy pedagogik faoliyatga, ta’lim jarayonida tayyor multimedia dasturlaridan, internetdagi ta’lim manbalaridan, ijtimoiy tarmoq xizmatlaridan foydalanish hamda mavjud dasturiy mahsulotlar, oʻquv saytlaridan unumli foydalanish zarur.

Ta’limning barcha shakllarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish qator salbiy oqibatlarga olib kelishi ham bugungi kunda uchrab turgan muammolardan hisoblanadi. Shu jumladan, psixologik-pedagogik xarakterdagi bir qator salbiy omillar, yoshlarning fiziologik holati, psixikasi va sogʻligiga salbiy ta’siri kabilardir. Ayniqsa, bugungi kunda yoshlarning kompyuterga va kompyuter oʻyinlariga, internetga qaramlik kabi jiddiy muammolar ham paydo boʻldi.

Koʻpincha, axborot texnologiyalaridan foydalangan holda ta’lim olishning afzalliklaridan biri ta’limni individualizatsiya qilish deb ataladi. Biroq, afzalliklar bilan bir qatorda, umumiy individualizatsiya bilan bogʻliq boʻlgan katta kamchiliklar ham mavjud. Individualizatsiya oʻquv jarayonida oldindan mavjud boʻlmagan ta’lim jarayonining ishtirokchilari – oʻqituvchi va talabalar hamda talabalararo muloqotni jonli ravishda qisqartiradi va ularga “kompyuter bilan dialog” shaklida muloqot uchun yondoshuvni taklif qiladi.

Ta’lim jarayonida zamonaviy talaba juda koʻp miqdordagi ta’lim ma’lumotlari bilan shugʻullanishi kerak. Natijada, oʻquvchining ruhiy va jismoniy salomatligi uchun xavfli boʻlgan ortiqcha ma’lumot va hissiy qoʻzgʻalish ham paydo boʻladi.

Internetda nashr etilgan axborot resurslaridan foydalanish koʻpincha salbiy oqibatlarga ham olib keladi. Koʻpincha, bunday axborot texnologiyalaridan foydalanganda, barcha tirik mavjudotlarga xos boʻlgan energiyani tejash prinsipi ishga tushiriladi. Jumladan, tayyor loyihalar, hisobotlar va internetdan olingan ma’lumotlar muammo echimlariga aylandi, hamda ular ta’lim va tarbiya samaradorligini oshirishga kata hissa qoʻshishi ma’lum.

Kompyuterda uzoq muddatli ishlash bola tanasining koʻplab funksiyalariga salbiy ta'sir qiladi: jumladan, yuqori asabiy faoliyat, endokrin va immunitet tizimlari, koʻrish va mushak-tayanch tizimlariga.

Tashqi salbiy ta'sirlar esa oʻz navbatida kompyuterlarda ishlashdan paydo boʻladi, jumladan:

- bolalar hayol qilishni toʻxtatadilar, oʻzlarining vizual tasvirlarini yarata olmaydilar, ma'lumotni umumlashtirish va tahlil qilishda qiynaladilar;
- kompyuter bolalarning aqliy va intellektual rivojlanish sohasida uzoq muddatli buzilishlarni keltirib chiqarishi, ayrim turdagi xotiralar faoliyatini kamaytirishi, hissizlik, mas'uliyatsizlikning oʻsishiga olib kelishi mumkin;
- virtual haqiqat tabiiy xavf hissi yoʻqolishiga olib keladi.

Shunday qilib, oʻqituvchilar oʻqitish jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishda sanitariya-gigiena talablariga, ijodiy, kasbiy faoliyat me'yorlariga qat'iy rioya qilishlari kerak boʻladi.

Ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish oʻquv jarayonidagi barcha ishtirokchilarning axborot kompetensiyasini shakllantirish ogʻriqli va muammoli emas, balki ijodiy, maqsadga muvofiq va samarali boʻlishini ta'minlash uchun hal qilinishi kerak boʻlgan koʻplab savollarni oʻz ichiga oladi. Shu bilan birga, kompyuter texnologiyalari hech qachon oʻqituvchining oʻquvchi bilan jonli muloqatining oʻrnini bosa olmasligini unutmaslik kerak. Bugungi kunda zamonaviy oʻqituvchi yosh avlod bilan ishlaydi va uni hayotga tayyorlaydi, demak u oʻzi ham zamon bilan hamnafas boʻlishi talab etiladi.

Oʻqituvchilarning yangi texnologiyalar va metodlarni ishlab chiqishdagi muvaffaqiyat darajasi koʻp jihatdan kasbga sadoqat, yangi narsalarni oʻrganishga boʻlgan intilish va oʻz-oʻzini tarbiyalashga boʻlgan xarakati bilan bogʻliqdir. Shu bilan birga, oʻqituvchining oʻquvchi bilan jonli muloqoti, kreativ fikrlashini, kasbiy kompetentlik faoliyati, oʻquvchilar faolligini baholash va ragʻbatlantiruvchi vosita ekanligi, xar qanday zamonaviy kompyuterlar, axborot texnologiyalari bilan almashtirib bo'lmasligini unutmaslik kerak.

**Adabiyotlar:**

1. https://lex.uz/docs/-4415388

2. Захарова И. Г. Информационные технологии в образовании. — М.: Издательский центр «Академия», 2010. — 192 с.

3. Aminov I.B, To'g'izbaev F.U., The Role of Modern Information Technology in the Formation of Professional Competencies of Primary School Teachers. Spanish Journal of Innovation and Integrity. Special Issue. http://sjii.indexedresearch.org/index.php/sjii/article/view/516/671

4. И.Б.Аминов, Т.Оқазаров, Ф.Тугизбоев. Таълим-тарбия жараёни самарадорлигини оширищда ахборот-коммуникацион технологияларидан фойдаланиш ўрни. 29-апрель 2018 йил Самарқанд шаҳри. СамДУ хузуридаги ХТХҚТМОХМ

5. Omonov A. RAQAMLI TA'LIM ISHTIROKCHILARI KOMPETENTLIGI OSHIRISH MUAMMOLARI. PEDAGOGS jurnali, 2(1), 150-153. https://doi.org/10.5281/zenodo.5919934 2.

## UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA MUSIQA FANINI ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TASHKIL ETISH

***Anvarova Muslima Shermatjon qizi***

*Namangan davlat pedagogika instituti*

*Musiqa ta'limi va san'at yo'nalishi 1- bosqich magistratura talabasi*

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqola umumta'lim maktablarida musiqa fanini tashkil etishda zamonaviy texnologiyalarning integratsiyasini o'rganadi. Bu texnologiyaning pedagogika, o'quv dasturlarini ishlab chiqish va talabalarning musiqa ta'limi bilan shug'ullanishiga ta'sirini o'rganadi. Tadqiqot o'rta maktab musiqa dasturlarida raqamli manbalar va aralash ta'limni kiritish*

*samaradorligini baholash uchun adabiyotlarni tahlil qilish va empirik tadqiqotlarni birlashtirgan aralash usullardan foydalanadi.*

***Kalit so'zlar:*** *musiqa ta'limi, umumta'lim maktablari, zamonaviy texnologiyalar, Pedagogika, aralash ta'lim, raqamli manbalar, musiqa fanlari, o'quv dasturlarini ishlab chiqish.*

Musiqa ta'limi o'rta maktab o'quv dasturlarining ajralmas qismi bo'lib, o'quvchilar orasida ijodkorlik, kognitiv rivojlanish va hissiy ifodani rivojlantiradi. Texnologiyalarning rivojlanishi bilan zamonaviy vositalar va resurslarni birlashtirish orqali musiqa fanini rivojlantirish imkoniyati mavjud. Ushbu maqola o'rta maktablarda musiqa ta'limining hozirgi manzarasini o'rganib chiqadi va 21-asrda o'quvchilarning rivojlanayotgan ehtiyojlarini qondirish uchun texnologiyani birlashtirgan yangilangan yondashuv zarurligini aniqlaydi.

Adabiyotlar tahlili musiqa ta'limida texnologiyaning integratsiyasi bo'yicha mavjud tadqiqotlarni o'rganadi. Bu interaktiv dasturiy ta'minot, virtual asboblar va onlayn platformalar kabi zamonaviy texnologiyalarni o'z ichiga olgan foyda va muammolarni ta'kidlaydi. Bundan tashqari, sharh musiqa fanlari kontekstida texnologiyaning talabalar motivatsiyasi, mahoratini rivojlantirish va umumiy ta'lim natijalariga ta'sirini o'rganadi.

Umumta'lim maktablarida zamonaviy texnologiyalarning musiqa ta'limiga ta'sirini baholash uchun aralash metodlardan foydalanildi. Musiqa o'qituvchilariga ularning hozirgi amaliyoti va texnologiya integratsiyasi haqidagi tasavvurlari to'g'risida tushuncha to'plash uchun so'rovlar o'tkazildi. Musiqa fanini takomillashtirishda raqamli manbalar va aralash ta'lim samaradorligini o'lchash uchun sinf kuzatuvlari va talabalarni baholash ham o'tkazildi.

O'rta maktablarda zamonaviy texnologiyalarga yo'naltirilgan musiqa ta'limini tashkil etish o'rganish, ijodkorlik va faollikni oshirish uchun raqamli vositalar va platformalarni o'z ichiga oladi. Bu erda bir nechta jihatlarni hisobga olish kerak:

Raqamli Audio Ish Stantsiyalari (Davs):

- Dovlarga kirish: talabalarga musiqa ishlab chiqarish va kompozitsiya uchun Ableton Live, Logic Pro yoki GarageBand kabi dasturlardan foydalanishni o'rgating.

- Multitrack yozish: talabalarga turli xil asboblar treklarini qatlamlash va tahrirlash imkonini berish uchun multitrack yozish va tahrirlash asoslarini o'rganing.

Ta'rifi va maqsadi:

A raqamli Audio ish stantsiyasi (dov) a dasturiy ta'minot audio fayllarni yozish, tahrirlash va ishlab chiqarish uchun ishlatiladi. Bu musiqachilar, prodyuserlar va ovoz muhandislari uchun musiqani yaratish, aralashtirish va boshqarish uchun keng qamrovli platforma bo'lib xizmat qiladi.

Mashhur Dovlar:

1. Ableton Jonli:

- Jonli ijro qobiliyatlari bilan tanilgan.

- Chiziqli bo'lmagan musiqa yaratish uchun noyob seans ko'rinishi mavjud.

2. Mantiq Pro:

- MacOS foydalanuvchilari uchun eksklyuziv.

- Virtual vositalar va ovozli kutubxonalarning keng assortimentini taklif etadi.

3. GarageBand:

- MacOS va iOS uchun kirish darajasi.

- Foydalanuvchilar uchun qulay interfeys, yangi boshlanuvchilar uchun mos.

Interfeysga Umumiy Nuqtai:

- Treklar va kanallar: har bir trek kompozitsiyaning alohida elementini (masalan, vokal, baraban, gitara) ifodalovchi treklar tushunchasini tushuning.

- Xronologiya: musiqiy elementlarning joylashuvi sodir bo'ladigan vaqt jadvalida harakat qilishni o'rganing.

MIDI va Audio treklar:

- MIDI treklari: MIDI ma'lumotlari yordamida virtual asboblar va sintezatorlarni boshqarish.

- Audio treklar: jismoniy asboblar yoki vokallarning audio yozuvlarini yozib oling va boshqaring.

Asosiy Boshqaruv Elementlari:

- Transport elementlari: Play, to'xtatish, rekord, va loyiha orqali harakat.

- Mikser: ovoz balandligini sozlang, panjara qiling va alohida treklarga effektlarni qo'llang.

O'rnatish va Sozlash:

- Audio interfeyslar: o'quvchilarni asboblar va mikrofonlarni kompyuterga ulash uchun audio interfeyslar bilan tanishtirish.

- Kirish marshrutizatsiyasi: har bir trek uchun kirish manbalarini sozlang.

Yozib Olish Texnikasi:

- Single va Overdubbingni oladi: yaxshiroq boshqarish va moslashuvchanlik uchun har bir asbobni alohida yozib olishning afzalliklarini muhokama qiling.

- Kirish/chiqish: butun trekka ta'sir qilmasdan aniq qismlarni qayta yozib olishni o'rganing.

Tahrirlash Asoslari:

- Kesish, nusxalash, joylashtirish: segmentlarni kesish, nusxalash va joylashtirish orqali yozib olingan ovozni boshqaring.

- Vaqt va balandlikni Sozlash: yozib olingan audio vaqtini va balandligini sozlash vositalarini o'rganing.

Avtomatlashtirish:

- Tovush va panni avtomatlashtirish: vaqt o'tishi bilan hajm va panning o'zgarishini avtomatlashtirishni namoyish eting.

- Effektlarni avtomatlashtirish: dinamik o'zgarishlar uchun effektlar parametrlarini avtomatlashtirishni namoyish eting.

Hamkorlik va eksport:

- Fayllarni boshqarish: talabalarni loyiha fayllarini tashkil etishga va samarali hamkorlik qilishga o'rgating.

- Eksport va almashish: yakuniy kompozitsiyalarni eksport qilish uchun turli xil fayl formatlari va sozlamalarini muhokama qiling.

Virtual Asboblar va dasturiy ta'minot sintezi:

- Virtual Asboblar kutubxonalari: talabalarni jismoniy asboblarga ehtiyoj sezmasdan tovushlarning keng doirasi uchun virtual asboblar kutubxonalari (masalan, Kontakt, Sharqiy) bilan tanishtiring.

- Dasturiy ta'minot sintezi: sarum, massiv yoki FM8 kabi dasturlardan foydalangan holda sintez tamoyillarini o'rgating.

Musiqa Notasi Dasturi:

- Sibelius yoki final: o'quvchilarni musiqa notasi dasturidan kompozitsiya va aranjirovka uchun foydalanishga o'rgatish. Ushbu vositalar oson almashish va hamkorlik qilish imkonini beradi.

- Ballarni tahrirlash: ballarni tahrirlash, transpozitsiya va tartibga solish xususiyatlarini o'rganing.

Raqamli varaq musiqasi va elektron o'quvchilar:

- Raqamli ballar: qog'ozdan foydalanishni kamaytirish va keng musiqa kutubxonasiga oson kirishni ta'minlash uchun raqamli nota musiqasi va elektron kitobxonlardan foydalanishni joriy eting.

- Izohlar: o'quvchilarga shaxsiylashtirish va talqin qilish uchun raqamli ballarni izohlashni o'rgating.

Onlayn Hamkorlik Platformalari:

- Hamkorlik vositalari: Soundtrap, BandLab yoki kabi platformalardan foydalaning Flat.io talabalarga masofadan turib birgalikda loyihalarda ishlashga imkon beradigan hamkorlikda musiqa yaratish uchun.

- Haqiqiy vaqtda hamkorlik: o'quvchilarga musiqani sinxron ravishda yaratishga imkon beradigan Real vaqtda hamkorlikni ta'minlaydigan vositalarni o'rganing.

Musiqa ishlab chiqarish va aralashtirish texnikasi:

- Aralashtirishning asosiy tamoyillari: talabalarga Pro Tools, FL Studio yoki Cubase kabi dasturlardan foydalangan holda aralashtirish va o'zlashtirish asoslarini o'rgating.

- Effektlar va ishlov berish: effektlar, EQ, siqish va boshqa ishlov berish usullaridan foydalanishni o'rganing.

Raqamli Musiqa Nazariyasi Manbalari:

- Interaktiv ilovalar: musiqa nazariyasini qiziqarli va interaktiv qilish uchun interaktiv ilovalar va onlayn resurslarni qo'shing.

- Quloqni o'rgatish vositalari: quloqni o'rgatish mashqlari va eshitish qobiliyatini oshirish uchun dastur va dasturlardan foydalaning.

Elektron musiqa va Beat qilish:

- Elektron musiqaga kirish: elektron musiqa janrlari va ularning texnologiyasini o'rganing.

- Urish: talabalarga dasturiy yoki apparat baraban mashinalari yordamida urish asoslarini o'rgating.

Podkasting va ovozli dizayn:

- Podkasting: talabalarni podkasting bilan musiqa bilan bog'liq mavzularni o'rganish yoki audio kontent yaratish vositasi sifatida tanishtiring.

- Ovoz dizayni: kino, o'yinlar yoki boshqa multimedia loyihalari uchun ovozli dizayn tamoyillarini o'rganing.

Onlayn Musiqa Platformalari:

- Oqim xizmatlari: oqim xizmatlarining musiqa sanoatiga ta'sirini muhokama qiling va rassomlarning ushbu platformalardan tarqatish uchun foydalanish usullarini o'rganing.

- Musiqa marketingi: talabalarga marketing asoslarini o'rgating va musiqalarini onlayn targ'ib qiling.

Kodlash va musiqa dasturlash:

- Musiqa kodlash tillari: musiqiy dasturlash va algoritmik kompozitsiya uchun Sonic Pi yoki Max/MSP kabi kodlash tillarini joriy qiling.

- Interaktiv installyatsiyalar: interaktiv installyatsiyalar va spektakllar orqali musiqa va texnologiya chorrahasini o'rganing.

Raqamli baholash va fikr-mulohazalar:

- Onlayn portfellar: talabalarni musiqiy loyihalari va yutuqlarini namoyish etadigan raqamli portfellarni yaratishga undash.

- Aloqa vositalari: musiqiy kompozitsiyalar va spektakllar bo'yicha o'qituvchilarning sharhlari va mulohazalari uchun onlayn platformalardan foydalaning.

Kasbiy Rivojlanish:

- Seminarlar va vebinarlar: talabalarni musiqa sanoatida texnologiyaning Real qo'llanilishi bilan tanishtirish uchun soha mutaxassislari bilan seminarlar va vebinarlarni tashkil qiling.

- Karyera tadqiqotlari: musiqa texnologiyalari, ishlab chiqarish, ovoz muhandisligi va tegishli sohalardagi martaba haqida ma'lumot bering.

Zamonaviy texnologiyalarni musiqa ta'limiga integratsiya qilish talabalarning mahoratini, ijodkorligini va tez rivojlanayotgan musiqiy landshaftga moslashuvchanligini oshiradi. Asosiysi, an'anaviy musiqiy tamoyillarni innovatsion yondashuvlar bilan muvozanatlash, talabalarni raqamli asrda turli xil imkoniyatlarga tayyorlashdir.

Musiqa fanlari o'quv dasturi davomida zamonaviy texnologiyalarni birlashtirib, talabalar amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishlari va musiqa va texnologiya o'rtasidagi kesishishni chuqur tushunishlari mumkin. Ushbu yondashuv ularni nafaqat musiqa sanoatidagi potentsial martaba uchun tayyorlaydi, balki musiqiy kompozitsiya va ishlab chiqarishda ijodkorlik va innovatsiyalarni rivojlantiradi.

Muhokama bo'limi tadqiqot natijalarining umumta'lim maktablarida musiqa fanini tashkil etishga ta'sirini o'rganadi. U cheklangan resurslar, talabalarning xilma-xil ehtiyojlari va inklyuziv musiqa ta'limini rivojlantirish bilan bog'liq muammolarni hal qilishda texnologiyaning rolini o'rganadi. Bundan tashqari,

bo'lim texnologiyani qabul qilishdagi potentsial to'siqlarni ko'rib chiqadi va ularni bartaraf etish strategiyasini taklif qiladi.

**Xulosalar:**

Xulosa qilib aytganda, umumta'lim maktablarida musiqa fanini tashkil etishda zamonaviy texnologiyalarning integratsiyasi o'quvchilarning ta'lim natijalari va faolligini oshirish uchun katta va'da beradi. Ushbu tadqiqotning ijobiy natijalari musiqa ta'limini raqamli asrga moslashtirish muhimligini ta'kidlaydi. Biroq, potentsial muammolarni hal qilish va barcha talabalar uchun texnologiyadan adolatli foydalanishni ta'minlash juda muhimdir.

Kelajakdagi tadqiqotlar uzoq vaqt davomida texnologiya integratsiyasining barqaror ta'siriga qaratilishi kerak. Bundan tashqari, raqamli savodxonlik ko'nikmalarini oshirish uchun musiqa o'qituvchilarining malakasini oshirish imkoniyatlarini kengaytirish kerak. Siyosatchilar va maktab ma'murlari texnologiyadan adolatli foydalanishni ta'minlash, barcha o'rta maktab o'quvchilari uchun inklyuziv va boyitilgan musiqa ta'limi tajribasini rivojlantirish uchun resurslarni ajratishni o'ylashlari kerak.

**Adabiyotlar.**

1. BAUER, W. I., REESE, S. & MCALLISTER, P. A. (2003) Transforming music teaching via technology: the role of professional development. Journal of Research in Music Education, 51 (4), 289–301.
2. BECKSTEAD, D. (2001) Will technology transform music education? Music Educators Journal, 87 (6), 44–49.
3. BECTA (2004) ImpaCT2: The Impact of Information and Communication Technologies on Pupil Learning and Attainment. London: British Educational Communications and Technology Agency. Retrieved 1/2/08 from http://publications.becta.org.uk/display.cfm?resID=25841

4. EDWARDS, M. (2005) Music technology: Enthusing and empowering students to compose their own music. Retrieved 9/10/07, from http://www.efellows.org.nz/efellows05cd/elearning/reports/edwards/ START.html
5. GOUZOUASIS, P. (2005) Fluency in general music and arts technologies: is the future of music a Garage Band mentality? In Action, Criticism and Theory for Music Education, Vol. 5, (pp. 1–18). Edwardsville, IL: Southern Illinois University Edwardsville.
6. BERKLEY, R. (2001) Why is teaching composing so challenging? A survey of classroom observations and teachers' opinions. British Journal of Music Education, 18 (2), 119–138.
7. BERKLEY, R. (2004) Teaching composing as creative problem solving: conceptualising composing pedagogy. British Journal of Music Education, 21, 239–263.
8. BOLTON, J. (2008) Technologically mediated composition learning: Josh's story. British Journal of Music Education, 25, 41–45.

## INKLYUZIV TA'LIMNING MAQSAD VA VAZIFALARI

***O'rmonjonov Azizbek Muhammadjon o'g'li***
*Namangan davlat pedagogika instituti*
*Musiqa ta'limi va san'at mutaxasisligi 1-bosqich magistranti*
*azizbekormonjonov2@gmail.com*
***Ilmiy rahbar: Tajiboyev Elmurod Maxmudjonovich***
*Namangan davlat pedagogika instituti o'qituvchisi,*
*Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD)*

***Annotatsiya:*** *ushbu maqolada inklyuziv ta'limning maqsad va vazifalari hamda imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'limga jalb etishning huquqiy asoslari, inklyuziv ta'limga ehtiyoji bor o'quvchilar bilan olib borilishi zarur bo'lgan ishlar va ularning ahamiyatli tomonlari borasida fikrlar bayon etilgan. Maqolada*

*inklyuziv ta'limning maqsad va vazifalari hamda kelajakdagi istiqboli rejalari haqida ma'lumotlar berilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *inklyuziv, strategiya, konvenitsiya, deklaratsiya, segregatsion individual, ijtimoiy-siosiy, shaxs, jamiyat, fe'l atvor.*

***Аннотация:*** *в данной статье описаны цели и задачи инклюзивного образования и правовые основы вовлечения детей с ограниченными возможностями в инклюзивное образование, работа, которую необходимо проводить с учащимися, нуждающимися в инклюзивном образовании, и ее важные аспекты. В статье представлена информация о целях и задачах инклюзивного образования и планах его дальнейших перспектив.*

***Ключевые слова:*** *инклюзивность, стратегия, конвенция, декларация, сегрегация личности, социально-политическая, личность, общество, характер.*

***Abstract:*** *in this article, the goals and tasks of inclusive education and the legal basis of involving children with disabilities in inclusive education, the work that needs to be done with students who need inclusive education and their important aspects are described. The article provides information about the goals and objectives of inclusive education and plans for its future prospects.*

***Key words:*** *inclusive, strategy, convention, declaration, segregation individual, socio-political, person, society, character.*

*"Tarbiya biz uchun yo hayot – yo momot,*
*Yo najot-yo halokat,*
*Yo saodat – yo falokat masalasidir"*
***Abdulla Avloniy***

*Inklyuziv ta'lim* - (ingliz tilidan olingan bo'lib, inclusive, inclusion-uyg'unlashmoq, uyg'unlashtirish, qamrab olmoq, qamrab olish ma'nolarini bildiradi) nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni (diskriminatsiyani) bartaraf etish, maxsus ta'limga muxtoj bolalar, (ayrim sabablarga ko'ra nogiron

bo'lgan) o'smirlar rivojlanishida uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat'iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimidir.

***Inklyuziv ta'limning mazmun-mohiyati.*** Alohida yordamga muhtoj bolalar va o'smirlarga nisbatan g'amxo'rlik, ularning huquqlarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ta'lim-tarbiya jarayonini bu bolalarning ehtiyoji va qobiliyatiga mos ravishda tashkil etish, sog'lom jamiyatga tenglashtirish ishlari bugungi kunning o'ta dolzarb masalalardan biridir. Hozirgi kunda Respublikamizda maxsus maktabgacha ta'lim muasasalari va maktab-internatlar mavjud bo'lib, ushbu ta'lim muasasalarida imkoniyati cheklangan bolalar uchun barcha shart-sharoitlar mavjud. Ammo ko'plab sabablarga ko'ra ayrim imkoniyati cheklangan bolalar uyda yakka tartibda o'qishmoqda yoki ayrimlari esa batamom ta'limdan chetda qolib ketmoqdalar. Bundan tashqari maxsus maktabgacha ta'lim va tarbiyaning korreksion-pedagogik ish sifati yuqori darajada bo'lsada, biroq aynan alohida ehtiyojli bolalarning sog'lom muhitda ta'lim-tarbiya olmayotganliklari sababli ijtimoiy hayotimizga moslashishlarida ko'plab qiyinchiliklar va muammolarga duch kelmoqdalar. Shuning uchun ham imkoniyati cheklangan bolalarning yopiq-segregatsion ta'lim tizimida o'qitilishining ko'plab salbiy oqibatlarni yuzaga keltirishi jahon hamjamiyati tomonidan ham tan olindi. Zero, BMT tomonidan 1949 yilda qabul qilingan "Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi"da "Ta'lim olish har bir insoning asosiy va ajralmas huquqi" ekanligi alohida e'tirof etilgan.

Shuningdek, BMT 1975 yilda "Nogiron shaxslar huquqlari to'g'risida"gi Deklaratsiyani qabil qildi. Mazkur Deklaratsiyada ta'kidlanishicha: "Nogironlar shaxsiyatini hurmat qilish huquqi ularda tug'ilishi bilan mavjud bo'ladi. Nogironlikning kelib chiqishi, tabiati va jiddiylik darajasidan qat'iy nazar, fuqaro o'z yoshidagi tengdoshlari bilan bir xil huquqlarga egadirlarkim, shu bilan birga ular mumkin qadar to'laqonli yaxshi hayot kechirish huquqiga ham ega" ("Nogiron shaxslar huquqlari to'g'risida"gi Deklaratsiya (3-modda). BMT tomonidan 1989 yilda qabul qilingan "Bolalar huquqlari to'g'risidagi Konvenitsiya" barcha

bolalarning huqularini hamma joyda amalga oshirish maqsadida ishlab chiqarilgan inson huquqlari borasidagi halaro shartnoma hisoblanadi [1].

Inklyuziv ta'limning yana bir maqsadi-alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar uchun maktabda maxsus vosita va metodlarni qo'llash orqali maxsus pedagoglarni jalb etgan holda to'siqsiz moslashtirilgan ta'lim muhitini yaratish, ularning jamiyatga samarali moslashuvi hamda to'laqonli uyg'unlashuviga xizmat qiladigan sifatli umumiy o'rta ta'lim berishni ta'minlashdan iborat. Maktablar alohida ta'lim olish ehtiyoji bo'lgan bolalar va ularning ota-onalariga korreksion pedagogik yordam olishida va kasbga yo'naltirishda har tomonlama yordam ko'rsatadi.

*Inklyuziv ta'limning vazifalari:*

- rivojlanishning turli imkoniyatlariga ega bo'lgan o'quvchilar uchun har qanday kamsitilishni istisno qiladigan, barcha bolalarga teng munosabatda bo'lishni ta'minlaydigan yagona moslashtirilgan ijtimoiy muhitni yaratish;

- jamoatchilik hamda ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar muammolariga nisbatan bag'rikenglik munosabatini shakllantirish;

- ta'lim jarayonida sog'lom bolalar bilan bir qatorda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning aqliy va ijtimoiy salohiyatlarini rivojlantirish;

- barcha o'quvchilar uchun davlat ta'lim standartlariga muvofiq umumiy o'rta ta'lim dasturlarini o'zlashtirish uchun imkoniyat yaratish;

- o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishi, emotsional-irodaviy sohasi, bilish faoliyatini faollashtirish, ijtimoiy ko'nikma va salohiyatini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga maslahat yordami berish hamda ota-onalarni farzandlariga ta'lim-tarbiya berish, pedagogik texnologiyalar, ta'lim-tarbiya metod va vositalarini qo'llash sohasida xabardorlik darajasini oshirish, ularni psixologik-pedagogik jihatdan qo'llab-quvvatlash hisoblanadi.

Hozirgi kunda inklyuziv ta’limga jalb etish global muammolardan biri hisoblanadi. Inklyuziv ta’limning asosiy qismi - bolalarga bilim olish uchun do‘stona munosabat va o‘qishga imkon beruvchi muhitni yaratishdir. Maxsus ehtiyojli bolalarning hayotiga ilk yoshdan ya’ni 6 yoshgacha e’tibor berilsa, ancha yuqori samaralarga erishish mumkin. Jamiyatda insonlar orasida nogiron bolalar haqida bilimlarning yetishmasligi oqibatida maxsus ehtiyojli bolalar ta’limdan chetda qolib ketmoqdalar. Bundan tashqari nogiron bolaning qobiliyatlari, huquqlari va ehtiyojlari muntazam ravishda qadrlanmasa, bolalarda o‘ziga va qobiliyatlariga nisbatan salbiy munosabat shakllanib boradi. Qisqa qilib aytganda, bolaning hayotiga ertaroq e’tibor berilsa, natijasi bolaning keyingi rivojlanishida samarali ta’sir ko‘rsatadi. Bolada o‘ziga ishonch va o‘zini qadrlash hissini rivojlantirishda kattalarning qiyofasi juda muhim. Lekin juda ko‘p maxsus ehtiyojli bolalar o‘sib, ulg‘ayayotgan bir paytda o‘zlariga o‘xshagan maxsus ehtiyojli katta odamlarni uchratmaydilar va katta bo‘lish qandayligini tasavvur ham qila olmaydilar. Shuning uchun ham maxsus ehtiyojli kattalar maxsus ehtiyojli bolalarning ta’limida doimiy ishtirok etishlari kerak. Chunki katta yoshdagi maxsus ehtiyojli insonlar ota-onalarga farzandiga ta’lim berish muhimligini tushintirishi mumkin. Buning uchun esa maxsus ehtiyojli kattalarni maktablarga taklif etish kerak. Shunda ular o‘zlarining hayotda erishgan yutuqlari haqida gapirib beradilar. Buning natijasida inklyuziv ta’limni targ‘ib qilishda katta imkoniyat yaratiladi. “Inklyuziv ta’lim imkoniyati cheklangan bolalarga nima beradi?”-degan savol tug‘iladi. Tajribalarimiz asosida shuni aytishimiz mumkinki, avvalo, o‘z imkoniyatini o‘zi uchun kashf etish imkonini beradi, o‘quvchining dunyoqashi kengayadi, hayotiy tajribasi oshadi. O‘qishga bo‘lgan ishtiyoqi va qiziqishlari ortadi. O‘zini barcha bilan bir xil his qila boshlaydi. Ilgari sezilmagan imkoniyatlari ochiladi. Yotsirash, yakkalanish kabi xususiyatlari yo‘qoladi.

Inklyuziv ta’limning yana bir vazifalaridan biri bolalarning qobiliyatlari va holatidan qat’iy nazar, ularning barchasiga sifatli ta’lim taqdim etishdan iborat. Shu bilan birga, inklyuzivlik tamoyili imkoniyatlari cheklangan bolalar ijobiy ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo‘lishlari uchun oilada yashashlari va o‘z tengdoshlari

bilan birga oddiy maktabda bilim olishlari lozimligini nazarda tutadi. Inklyuziv ta'lim tizimi nogironlar aravachasidagi bola yaqin atrofda joylashgan har qanday maktabda ta'lim olishi, o'zlashtirishda qiynalayotgan bo'lsa, o'qish va yozishga o'rganish uchun maxsus yordamga ega bo'lishi, darslarga qatnamay qo'ygan bolaga esa maktabga qaytish uchun tegishli yordam ko'rsatilishini kafolatlaydi.

Inklyuziv ta'lim jarayonida ota-onalar bilan ishlash juda muhim. Ta'kidlash joizki, alohida ehtiyojli ota-onalarga ularning farzandlari jamiyatning bir bo'lagi bo'lish, huquqiga ega ekanligini tushuntirish, bu ishonchni ularning ongiga yetkazish, barcha oila a'zolarining (jismoniy, ijtimoiy, ma'naviy, axloqiy, intellektual) shaxsiy rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, har tomonlama ijtimoiy va psixologik yordam ko'rsatish, shuningdek, bola va uning atrofini turli xil omillarning shaxsiy rivojlanishiga salbiy ta'siridan himoya qilish.

Nogiron bolani tarbiyalayotgan oilaga yordam berishning eng samarali usullaridan biri bu "ota-onalarning birlashmasi" sifatida o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi:

-o'z farzandining ota-onasi tomonidan yetarlicha tasavvurni shakllantirish: "kasallik" tushunchasidan uzoqlashish va "rivojlanishning maxsus qonunlari" tushunchasiga o'tish muhimdir;

-bolaning shaxsiy, ijodiy va ijtimoiy resurslarini maksimal darajada oshkor qilish uchun oilada qulay mikroiqlimni shakllantirish;

-ota-onalar va bilimlarning o'zaro munosabati va bir-birini to'ldirishini amalga oshiradigan muassasalar, tajribani boyitish bo'yicha sheriklik munosabatlarini shakllantirish.

Mamlakatamiz ta'lim tizimida bu masalaga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2020-yil 13- oktabrdagi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-sonli qarori [2] hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga

ta’lim-tarbiya berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 638- sonli [3] qarorlari bunga bir misoldir.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, bugungi kunda respublikamizda barcha bolalarning sifatli ravishda ta’lim olishlarida inklyuziv ta’limning o‘rni beqiyosdir. Albatta inklyuziv ta’limni rivojlantirish sabr-toqat va bag‘rikenglik, izchillik, uzluksizliklarni bosqichma-bosqich talab qiladi. Bola shaxsini, yani barkamol avlodning shakllantirishda axloqiy va ma’navity ta’sir etish usullarini maqsadga muvofiq qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o‘rinda texnologiya ta’limi mashg‘ulotlariga alohida etibor bilan qarash maqsadga muvofiq.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Inklyuziv ta’limning mazmun-mohiyati. https://fayllar.org/inklyuziv-talimning-maqsad-va-vazifalari-reja.html.
2. Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2020-yil 13- oktabrdagi “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4860-sonli qarori. https://lex.uz/docs/-5044711.
3. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 638- sonli qarori. https://lex.uz/docs/-5679836.

## YANGI KONSTITUSIYA TARAQQIYOT QOMUSI

***Axmatov Akbarjon Ilxom o‘g‘li***
*Namangan Davlat universiteti Yuridik fakulteti Yurisprudensiya yo‘nalishi YU-CU-23 guruh talabasi.*
*Ilmiy rahbar: Namangan davlat universiteti Davlat huquqi va boshqaruvi kafedrasi katta o‘qituvchisi Chuboyeva Ozodaxon Quvonbekovna*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada O‘zbekiston uchun muhim voqea bo‘lgan mamlakat yaqinda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayoni doirasida yangi Konstitutsiyani qabul qilindi. Yangi Konstitutsiyaning qabul qilinishi*

*mamlakatimizda qonunchilik bazasini modernizatsiya qilish, inson huquqlari haqida ma’lumotlar berilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *Konstitutsiya, islohotlar, boshqaruv, taraqqiyot, demokratik, salohiyatlar.*

***Аннотация:*** *В этой статье, важное событие для Узбекистана, недавно в стране была принята новая Конституция в рамках процесса реформ. Принятие новой Конституции дало информацию о модернизации правовой базы в нашей стране и правах человека.*

***Ключевые слова:*** *Конституция, реформы, управление, развитие, демократия, потенциал.*

***Abstract:*** *In this article, an important event for Uzbekistan, the country has recently adopted a new Constitution as part of the reform process. The adoption of the new Constitution provided information about the modernization of the legal base in our country and human rights.*

***Key words:*** *Constitution, reforms, management, development, democratic, potentials.*

Hammamizga ma‘lumki, konstitutsiya davlatning asosiy qonunidir. O‘zbekiston Respublikasi har tamonlama ya‘ni iqtisodiy, ijtimoiy, ma‘naviy va siyosiy jihatdan rivojlangan davlatlar qatoriga qo‘shilayotganligi tufayli 2022-yil 17-may kuni O‘zbekiston liberal-demokratik va “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi fraksiyalari tashabussi bilan O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasiga qo‘shimcha va o‘zgarishlar kiritish loyihasini ilg‘or surishdi. Bu loyihada esa, yangi konstitutsiya xalqimiz tomondan qabul qilinganligi bizga ayon. 2023-yil 30-aprel kuni mamlakatimiz hayotida ulkan tarixiy voqea bo‘lib o‘tdi. Birinchi marta umumxalq referendumi asosida yangilangan konstitutsiyani qabul qildik. Referendumdan keyingi yillarda xalqimizning huquqiy ongi, huquqiy madaniyati va dunyoqarashi yuksalishiga amalda ko‘rsatdi. Konstitutsiyaning yangilanishi natijasida, bosh qomusimizdagi moddalar soni 128 tadan 155 taga, undagi normalar esa 275 tadan 434 taga oshdi. Umaman, rasmiylarga ko‘ra konstitutsiya 65 foizga

yangilandi. Eski konstitutsiyamizda huquqiy davlatni barpo etishni oldimizga reja qilib qoʻygan edik. Hozirgi yangi konstitutsiyamizda esa 1-moddaga eʻtibor bering! "O'zbekiston Respublikasi boshqaruvning respublika shakliga ega boʻlgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat. Davlatning "Oʻzbekiston Respublikasi" va "Oʻzbekiston" degan nomlari bir xil maʻnoni anglatadi. Oʻzbekiston Respublikasi boshqaruvning respublika shakliga ega boʻlganligi, davlat hokimiyatining oliy organlari xalq tomonidan muayyan muddatga saylanishini anglatadi. Buda esa, Oʻzbekiston Respublikasida demokratiya yaʻni xalq hokimyatchiligining yanada yuqori darajaga yetganligini koʻrishingiz mumkin. Demokratiya esa xalq hokimiyatini ifoda etib, davlat boshqaruvida saylanish va oʻz vakillarini saylash orqali barchaning teng huquqli ishtiroki taʻminlanishini koʻzda tutadi. Oʻzbekiston oʻzini ijtimoiy davlat deb eʻlon qilishi bilan, har bir fuqarosiga munosib turmush kechirishi uchun shart-sharoit yaratish majburiyatini olmoqda. Bu – mavjud prinsipillarni ijtimoiy adolat tamoyillari asosida taqsimlash, jamiyatda kuchli tabaqalanish yanada yuqoriga chiqishga yoʻl qoʻymaslik, eng zaif jihatlari uchun ham sifatli taʻlim va tibbiyot kafolatlanishi, samarali ijtimoiy himoya dasturlari ishlashi, imkoniyati cheklangan va qoʻllovga muhtoj fuqarolarni qoʻllab-quvvatlash, adolatli mehnat qonunchiligi va yuqori pensiya tizimi kabilarni anglatadi. Oddiyroq aytganda, eng kambagʻal oilaning bolalarida ham sogʻ-salomat oʻsishi va yaxshi taʻlim olib, farovonlikka erishish imkoniyati boʻlishi kerak. Bundan tashqari, ijtimoiy ijtimoiy davlat bu siyosiy tashkilot tom maʻnoda aytganda davlatdir. Ijtimoiy davlat oʻz siyosatida ijtimoiy adolat tamoyillaridan kelib chiqib, faoliyat yuritadi. Asosiy maqsad – jamiyatda yaratilayotgan moddiy va maʻnaviy boyliklarni ijtimoiy adolat tamoyili asosida qayta taqsimlashdan iboratdir. Shu bilan birga, yangilangan konstitutsiyadigi oʻzgarishlar bir qator siyosiy isloxotlarni ham nazarda tutadi.Bu borada parlament faoliyatida muhim oʻzgarishlar amalga oshirilmoqda.Xususan, qonunchilik palatasining mutloq vakolatlari amaldagi 5 tadan 12 tagacha, senat vakolatlari esa 14 tadan 18 taga yetkazildi. Ayni paytda palatalariga ham aniqlik kiritilgan.Shu jumladan, hukumatni shakillantirish, uning faoliyati ustidan parlament nazoratini amalga oshirish masalalari

qonunchilik palatasining vakolatiga kiritilgan. Senatning faoliyati esa hududlar bilan bogʻliq masalalarni hal qilish, mahalliy kengashlarga har tomonlama koʼmaklashish, joylarda, ayniqsa mahallalarda qonunlarni amalga oshirishni ta’minlashga yoʻnaltirish zarur. Endilikda ular oʻz vazifalarini pastga tushib, koʻproq xalqimiz bilan uchrashib, ularning muammolarini eshitsa, vazirlar va hokimlar bilan birgalikda har bir masala boʻyicha aniq yechimlar topsa, bunda barcha ishimizga faqat foyda boʻladi- deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev. Endilikda xalq ovozi va fikrini jamoatchilikka va davlat organlariga yetkazadigan eng yaxshi usul bu ommaviy axborot vositalari va jurnalistlar faoliyati hisoblanadi. Jamiyatimizdagi boʻlayotgan islohotlarning ochligini taminlashda ommaviy axborot vositalarining erkinligi va axborot olish, foydalanish va ularni tarqatishga boʻlgan huquqlari qaʻtiy kafolatlanadi. Shuningdek, eskisidan farqli oʻlaroq yangi konstitutsiya toʻgʻridan toʻgʻri amal qiladi. Bu sarlovhani oʻqib nima eski konstitutsiya toʻgʻridan toʻgʻri amal qilmaydimi degan savol tugʻlishi mumkin. Javobi esa ha. Eski konstitutsiyamizda haqiqatdan ham toʻgʻridan toʻgʻri amal qilish mexanizmi yoʻq edi. Yangi konstitutsiyamizdagi qulayliklar quydagilardan iborat: Birinchidan, mamlakatimizning butun hududida oliy yuriduk kuchga ega ekanligi, Ikkinchidan, toʻgʻridan toʻgʻri amal qilishi, Uchunchidan, yagona huquqiy makonning asosini tashkil etishiga taalluqli konstitutsiyaviy normalar mustahkamlab qoʻyildi.Eski tahrirtagi normalarda bunday mexanizim yoʻq edi. Bosh qomusimizning “Konstitutsiya va qonuning ustinligi” bobidagi 15-16-moddalarning yangi va eski matindagi normalar oʼzaro qiyoslansa, bu fikrlar qanchalik haqqoniy ekani oʻz tastigʻini topgan. Yangi tahrirdagi konstitutsiyaning 15-moddasiga muvofiq:” Oʻzbekiston Respublikasida Oʻzbekiston Respublikasi konstitutsiyasi va qonunlari soʻzsiz tan olinadi. Oʻzbekiston Respublikasi konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, toʻgʻridan toʻgʻri amal qiladi, huquqiy makonni tashkil qiladi. Yangi tahrirdagi konstitutsiya oliy yuridik kuchga ega ekanligidan kelib chiqib, davlat organlari va tashkilotlar, shu jumladan, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida toʻgʻridan toʻgʻri va soʻzsiz amal qoʻllaniladi. Bu nima degani, buni bitta oddiy misol orqali

ko’rib o‘tsak. Hammaga ma‘lumki, sud qarorlari tegishli kodekslar normalari bilan amalga oshiriladi. Sud qarorlari ichida bevosta konstitutsiya normalari asosida chiqarilgan qarorlarni uchratish qiyin edi. Yangi konstitutsiyaning to‘g‘ridan to‘g‘ri amal qilish mexanizimi esa, endilikda sudyalar konstitutsiyaning birorta moddasiga yoki normasiga binoan bevosita qarorlar chiqarishlari mumkin. Va bu bu hozirda sudyalar faoliyatiga kiritilmoqda. Ayni vaqtda yurtimizda demokratiya hukmron. Har bir demokratik mamlakatning asosi bu unda yashaydigan har bir insonning erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqidir  Bu qoida esa Yangi konstitutsiyamizning 27-moddasida yaqqol namoyondir. Chunki ushbu moddada shaxsiy daxlsizlik va erkinlik mustahkamlab qo‘yilishidan qat’iy nazar uning ikkinchi qismida hech qaysi shaxsning asossiz holatda hibsga olinishi, qamoqda olinishi va saqlanishi va shaxslarning ozodligi har qanday yo‘l bilan cheklanishi mumkin emasligi qat’iy belgilab qo‘yilgan. Ushbu konstitusiya yangilanmasdan oldin ushbu jumlalarni biz faqat Jinoyat protsessual kodeksining tegishli moddalarida ko‘rishimiz mumkin edi. 2023-yildagi Konstitutsiyamizga kiritilgan o‘zgarishlardan so‘ng yuqoridagi jumlalar amaldagi moddalarga qo‘shildi va davlatimizning bosh qonunida qayd etildi. Biz ushbu holatda mamlakatimizda demokratiyani yanada rivojlanib, mukammallashayotganini ko‘rishimiz mumkin.

Yangi konstitusiyamizning 28-moddaning 2-qismida quyidagi satrlar bitilgan “Aybdorlikka oid barcha shubhalar, agar ularni bartaraf etish imkoniyatlari tugagan bo‘lsa, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining yoki mahkumning foydasiga hal qilinishi kerak” Bu satr ham fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va shaxsiy daxlsizliklari yanada yuqoriga chiqganini ko’rishimiz mumkin. Eslatib o‘tamiz, prezident Shavkat Mirziyoyev konstitutsiya islohoti haqida 2021 yil 6 noyabr kuni, ikkinchi prezidentlik muddatiga kirishishi yuzasidan inauguratsiya marosimidagi nutqida birinchi marta aytib o‘tgan edi. Davlat rahbari o‘sha yili dekabr oyida, konstitutsiya bayrami arafasida xalqqa yo‘llagan tabrigida: “konstitutsiyani yangilashdek g‘oyat muhim, strategik vazifani hal etishda yetti marta emas, yetmish marta o‘ylash” zarurligini ta‘kidlagan edi. 2022 yil may oyida konstitutsiyaviy komissiya tuzilib, hujjatni yangilash

jarayoni boshlandi. Rasmiylarga koʻra, konstitutsiya qabul qilingan kun sifatida bundan keyin ham 1992 yil 8 dekabr sanasi eʼtirof etiladi, 8 dekabr – bayram sanasi oʻzgarmaydi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:**

1. Yangi konstitutsiya. 10 ta asosiy oʻzgarish https://kun.uz/uz/news/2023/05/02/yangi-konstitutsiya-10-ta-asosiy-ozgarish
2. OʻZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI Mazkur yangi tahrirdagi Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yil 30-aprel kuni oʻtkazilgan Oʻzbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan. Kuchga kirish sanasi 01.05.2023 https://lex.uz/docs/-6445145
3. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining farmoyishi, 16.11.2023 yildagi F-72-son, OʻZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMOYISHI OʻZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI KUNI BAYRAMIGA TAYYORGARLIK KOʻRISH VA UNI OʻTKAZISH TOʻGʻRISIDA Kuchga kirish sanasi 16.11.2023
4. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik Oʻzbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: Oʻzbekiston, 2016.

# МАКТАБ ФИЗИКА КУРСЛАРИДА ЎҚУВЧИЛАРНИ ЎҚИТИШДА ЭНЕРГИЯ ТЕЖАМКОРЛИГИГА ЙЎНАЛТИРИБ БОРИШНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

***Турғунпўлат Исманов***

*Наманган давлат педагогика институти*

***Аннотация.*** *Ушбу мақола ўрта мактабларда физика дарсларида ўқувчиларни энергия тежамкорлигига йўналтириб бориш услубларин такомиллаштиришга қаратилган бўлиб, асосий эътибор кўргазмали жиҳозлар орқали ўқувчилар онгида келажакдага кундалик турмуш тарзида энергияни тежамкорлигига эътибор қаратишга йўналтирилган. Шунингдек*

*инновацион ўқитиш усулларининг самарадорлигини ошириши орқали ўрта мактаблалар физика курсининг молекуляр физика, электр бўлимларида энергияни тежаш тушунчаларини ривожлантиришга қаратилган. Тадқиқотда ҳозирги ўқитиш амалиёти бўйича мактаб физика фани дарсликларини таҳлил қилинган, янги ўқитиш услубларини таклиф этилган ва натижаларини муҳокама қилинган.*

***Калит сўзлар:*** *Физика таълими, энергия, энергия тежамкорлиги, ўқувчиларни жалб қилиш, ўқитиш стратегияси, ўқув дастурларини ишлаб чиқиш, фаол ўрганиш.*

***Аннотация.*** *Данная статья направлена на совершенствование методов обучения учащихся энергосбережению на уроках физики в общеобразовательных школах, а также акцентирование внимания на энергосбережении в повседневной жизни в будущем в сознании учащихся посредством демонстрационного оборудования. Также за счет повышения эффективности инновационных методов обучения направлено на развитие представлений о сохранении энергии в разделах молекулярной физики и электротехники школьного курса физики. В ходе исследования были проанализированы школьные учебники по физике в соответствии с современной практикой преподавания, предложены новые методы обучения и обсуждены результаты.*

***Ключевые слова:*** *Образование в области физики, энергетика, энергосбережение, вовлечение учащихся, стратегия преподавания, разработка учебных программ, активное обучение.*

***Annotation.*** *This article aims to improve the methods of teaching students about energy conservation in physics lessons in secondary schools, as well as focusing on energy conservation in everyday life in the future in the minds of students through demonstration equipment. Also, by increasing the efficiency of innovative teaching methods, it is aimed at developing ideas about energy conservation in the sections of molecular physics and electrical engineering of the school physics course. The study analyzed school textbooks on physics in accordance*

*with modern teaching practices, proposed new teaching methods and discussed the results.*

***Keywords:*** *Physics education, energy, energy conservation, student engagement, teaching strategy, curriculum development, active learning.*

Бугунги кунда нафақат мамлакатимизда, балки бутун дунёда энергия тақчиллиги энг катта долзарб муаммолардан бири бўлиб турибди. Хозирги кунда дунё тажрибаси шуни кўрсатмоқдаки, мамлакатнинг иқтисодини юксалтириш ўша мамлакатда ахоли жон бошига нисбатан нечоғли кўп энергия ишлаб чиқаришгагина эмас, балки бу ҳосил қилинган энергияни ахолини тежамкорлик маданиятини шакллантириш орқали тежаб ишлатишга қаратилган. Бу тушунчалар эса инсонларга мактаб ўқучилик пайтилариданоқ тушунтириб борилиши керак. Шу маънода энергияни тежаш бутун бир жамиятимиздаги муҳим тушунчалардан бўлиб, иқлим ўзгариши ва хом ашё ресурсларнинг камайиши каби глобал муаммоларни ҳал қилишда катта аҳамиятга эга. Бироқ, ананавий ўқитиш усулларида энергия тежамкорлигига катта урғу берилмаган. Мактаб физика дарсликларида энергия, иш, қувват деган тушунчалар ўтилади. уларга таърифлар берилади, лекин тежамкорлик ҳақида жуда қисқа гапириб ўтилади. Шу маънода ушбу мавзуларни ўқувчиларга ўтаётганда нафақат энергия ишлаб чиқаришни, балки мазкур ишлаб чиқарилган энергияни тежаш бўйича ҳам тушунчаларни бериб бориш лозим. Масалан электр энергиясини узатишда асосий исроф электр энергиясини иссиқликка айланиб кетиши хисобига бўлади. Жоуль-Ленц қонунига кўра ажралиб чиққан иссиқлик миқдори $Q=I^2Rt$ яъни вақт бирлиги ичида ажралиб чиққан иссиқлик миқдори ўтказгичдан ўтаётган ток кучининг квадрати ва ўтказгич қаршилигига тўғри пропорцианал. Ўқитувчи бу тушунчаларни ўқиувчига тушунтираётганда демак ажралиб чиққан иссиқлик ток кучи ва қаршиликка боғлиқ экан, ток кучини бутун махаллага берилаётган ток ўзгармас деб қарасак, асосий параметр қаршилик бўлиб қолади. Қаршилик эса ўтказгичнинг турига, кўндаланг кесим юзасига ҳамда ўтказгич узунлигига

боғлиқ. Демак уйингизни электромонтаж қилиш чоғида имкон кадар солиштирма қаршилиги кичик бўлган материал, масалан мисдан тайёрланган электр симларидан, шунингдек бу симни йўғонроғидан олиб ишлатсангиз, бу электромонтаж узоқ йиллар сизга хизмат қилишини хисобга олсангиз энергияни бир неча баробар тежаган бўласиз деган тушунчаларни ўқувчиларга тушунтириб кетиш керак бўлади.

Шунингдек молекуляр физика бўлими ўқитилаётган вақтда Физика дарсларида конвекция, иссиқлик ўтказувчанлик, нурланиш каби тушунчалар ўтилади. Ушбу мавзуларни шунчаки ўтиб кетмасдан балки уни ҳаётга боғлаб тушунтирилса ўқувчиларда  энегргия тежамкорлиги тушунчаси янада ортади. Масалан, уй-жойларни қиш фаслида иситиш энг катта муаммолардан бири хисобланади. Келажакда уй жой, офис, шунга ўхшаш бирон бир  биноларни қураётган вақтингизда қуёш яхши тушадиган томонга кенг юзали икки ёки уч қаватли ойнаклардан фойдаланиш мақсадга мувофиқ, Чунки нурланиш мавзусида кўриб ўтилганидек қуёшдан бизга иссиқлик нурланиш орқали келади. Ушбу қуёш нурлари шаффоф ойнаклардан бемалол деярли исроф бўлмасдан ўтади, бунинг исботи қуёшда турган ойнакни ушлаб кўрсангиз иссиқ эмас, лекин унинг ортида турган бирор бир буюм исиб кетган бўлади. Уй ичига нур киргандан кейин ушбу нурлар ютилиб, иссиқликка айланади.  Қайтиб чиқишда эса иссиқлик ўтказувчанлик ходисаси орқали ташқарига чиқади. Иссиқлик ўтказувчанлик ходисаси эса заррадан-заррага узатилиши орқали рўй беради. Бундан кўринадики, Материал ёки қурулма оралиғи нечоғли вакуумга яқинлашса шунчалик иссиқлик ўтказувчанлик  ёмон бўлади. Яъни нурланиш орқали уйга кирган иссиқлик дераза ойналари оралиғи  икки ёки уч қаватли бўшлиқ бўлганлиги хисобига ташқарига чиқиб кетолмайди. Парник эффекти рўй беради. Шуни хисобига қиш фаслида ҳам қуёшнинг озгина вақт чиқиб туриши хисобига уйларни табиий йўл билан иситиш мумкин бўлади.

Яна қиш фаслида  киядиган кийимларимиз ҳам вакумга яқинлашса, масалан хозирги кунда ҳаво дамланадиган курткалар бор, ёки шунга ўхшаш

енгил материал билан қопланган кийимларни кийилса, одам ишлаб чиқарган иссиқлигини ташқарига чиқармайди, иссиқ юриши мумкин.

Шунингдек бино ва иншоотларни иссиқлик ўтказувчанлиги ёмон бўлган материаллар билан қопланса иссиқлик алмашинуви ёмон бўлиши хисобига қиш фаслида уйлар иссиқ, ёзда эса салқин бўлишини ўқувчиларга тушунтириб кетилса, ўқувчиларни энергия тежамкорлиги тушунчалари ортиб боради, ва бу албатта келажакда ўз самарасини беради.

Ушбу мақола физикани ўқитишда энергияни тежашга урғу берадиган янада динамик ёндашув зарурлигини ўрганади ва бу бўшлиқни бартараф этишнинг инновацион усулини тақдим этади.

Адабиётлар таҳлили аноанавий ўқитиш усулларидаги камчиликларни ва парадигма ўзгариши зарурлигини таъкидлаб, физика таълимидаги мавжуд амалиётларни ўрганади. У ўқувчиларни жалб қилиш ва энергияни тежаш тушунчаларини тушунишга ёрдам беришда фаол ўрганиш, Реал дастурлар ва технология интеграциясининг таъсири бўйича тадқиқотларни кўриб чиқади.

Тадқиқотда миқдорий ва сифат таҳлилларини ўз ичига олган аралаш усулли ёндашув қўлланилади. Экспериментал гуруҳ амалий тажрибалар, интерактив симуляциялар ва Реал амалий тадқиқотларни бирлаштирган ўқув дастури билан таништирилади, назорат гуруҳи эса аноанавий маорузаларга асосланган кўрсатмаларни олади. Янги ўқитиш ёндашувининг самарадорлигини баҳолаш учун ўқувчиларнинг фикр - мулоҳазалари билан бирга баҳолашдан олдинги ва кейинги чора-тадбирлар йиьилади.

Физика курсларида ўқувчиларнинг энергияни тежашга йўналишини яхшилаш энергия тежашнинг аҳамияти ва долзарблигини таокидлайдиган қизиқарли ва интерактив ўқув муҳитини яратишни ўз ичига олади. Бу эрда ўқитувчилар учун ўқувчиларнинг энергия тежашни тушуниши ва қадрлашини ошириш учун баози стратегиялар ва маслаҳатлар мавжуд:

- Ҳаётий мисоллар: энергияни тежашнинг ҳақиқий ҳаётий мисолларини дарсларингизга қўшинг. Энергияни тежаш тамойиллари кундалик ҳаётда, саноатда ва технологияда қандай қўлланилишини кўрсатинг.

Бу талабаларга назарий тушунчаларни амалий сценарийлар билан боьлашга ёрдам беради.

- Амалий машьулотлар: энергияни тежаш тамойилларини кўрсатадиган амалий машьулотлар ва тажрибаларни қўшинг. Бунга оддий машиналар, энергия ўзгаришлари ёки ҳатто қайта тикланадиган энергия манбалари билан тажрибалар кириши мумкин. Интерфаол тажрибалар мавзуни янада аникроқ ва эсда қоларли қилади.
- Экскурсиялар: энергияни тежаш амалиёти самарали амалга ошириладиган жойларга саёҳатларни ташкил қилинг. Бу қайта тикланадиган энергия обоектига, самарали энергия тизимларига эга ишлаб чиқариш заводига ёки экологик тоза бинога ташриф бўлиши мумкин. Ушбу тушунчаларни амалда кўриш илҳомлантирувчи ва тарбиявий бўлиши мумкин.
- Меҳмон маорузачилар: талабалар билан суҳбатлашиш учун энергия тежаш соҳасидаги мутахассисларни ёки мутахассисларни таклиф қилинг. Ушбу тамойилларни ўз карераларида қўллайдиган одамлардан эшитиш қимматли тушунча ва мотивация бериши мумкин.
- Лойиҳага асосланган таолим: талабалардан энергия тежайдиган ечимларни ўрганиш ва амалга оширишни талаб қиладиган лойиҳаларни белгиланг. Бунга энергия тежайдиган қурилмаларни лойиҳалаш, уларнинг уйлари ёки мактабларининг энергия текширувларини ўтказиш ёки мавжуд тизимларни такомиллаштиришни таклиф қилиш киради.
- Интерфаол технологиялар: ўқувчиларга энергия тежаш тушунчаларини динамик ва қизиқарли тарзда ўрганишга имкон берадиган таолим технологиялари воситалари, симуляциялар ва виртуал лабораториялардан фойдаланинг. Интерактив дастурий таоминот мавҳум тушунчаларни янада қулай ва қизиқарли қилиши мумкин.
- Кўп тармоқли ёндашувларни ўз ичига олади: энергияни тежаш масалаларини математика, экология ва иқтисодиёт каби бошқа мавзулар билан боьланг. Ушбу фанлараро ёндашув талабаларга энергия тежаш ва унинг турли соҳаларга қўшилишининг кенгроқ оқибатларини кўришга ёрдам беради.

- Синф муҳокамалари: энергия истеомолининг ижтимоий ва атроф-муҳитга таосири ҳақида очиқ мунозараларни раьбатлантириш. Энергияни тежаш, иқлим ўзгариши ва барқарор амалиёт билан боьлиқ долзарб воқеаларни муҳокама қилинг. Бу талабаларга катта контекстда энергия тежашнинг долзарблигини тушунишга ёрдам беради.
- Баҳолаш усуллари: ўқувчиларнинг энергияни тежаш ҳақидаги тушунчаларини эслаб қолишдан кўра амалий қўлланмалар орқали баҳолайдиган дизайн баҳолари. Бунга муаммоларни ҳал қилиш машқлари, амалий тадқиқотлар ва танқидий фикрлашни талаб қиладиган лойиҳалар киради.
- Ижобий ўқув муҳитини яратиш: ўқувчилар савол бериш, фикр билдириш ва хато қилишда ўзларини қулай ҳис қиладиган ижобий ва қўллаб-қувватловчи синф муҳитини яратинг. Ҳамкорликдаги ва раьбатлантирувчи муҳит ўқувчиларнинг мавзу билан фаоллигини ошириши мумкин.

Ушбу стратегияларни амалга ошириш орқали ўқитувчилар нафақат билим берадиган, балки талабалар орасида энергия тежаш бўйича масоулият ва хабардорлик ҳиссини уйьотадиган физика ўқув дастурини яратиши мумкин.

Муҳокама натижаларни шарҳлайди, энергия тежашни янада чуқурроқ тушунишга ёрдам берадиган фаол таолим усулларининг таосирини таокидлайди. Ушбу топилмаларнинг кенгроқ физика таолими учун таосирини ўрганиб чиқади, бу эса кўпроқ интерактив ва дастурга йўналтирилган ўқитиш амалиётига ўтиш ўқувчиларнинг барқарор тамойилларга йўналишини ошириши мумкинлигини англатади.

**Хулосалар:**

Ушбу тадқиқот физика таолимида аноанавий ўқитиш ёндашувларини қайта баҳолаш муҳимлигини таокидлайди. Фаол таолим стратегияларини ўз ичига олган ҳолда, ўқитувчилар ўқувчиларнинг энергия тежашга бўлган йўналишини самарали равишда ошириб, янада барқарор ва экологик онгли жамиятга ҳисса қўшишлари мумкин.

Келажакдаги тадқиқотлар физика таолимига фаол таолим усулларини киритишнинг узоқ муддатли таосирини ўрганиши ва турли хил таолим шароитларида ушбу ёндашувларнинг кўламини баҳолаши керак. Бундан ташқари, ўқувчиларнинг барқарорликка бўлган муносабати ва уларнинг энергия тежаш тамойилларини реал сценарийларда қўллаш қобилиятига таосирини ўрганиш ўқув дастурларини ишлаб чиқиш учун қимматли тушунчаларни беради.

**Адабиётлар.**

1. Захидов И., Абдуллажонов Б., Бекмирзаев С. МАКТАБДА ЭЛЕКТР ТОКИ ҚОНУНЛАРИНИ ЎҚИТИШДА ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ИЛМИЙ БИЛИШ ҚОБИЛИЯТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ //Ссиенсе анд инноватион. – 2022. – Т. 1. – №. Б8. – С. 1013-1016.

2. П.Ҳабибуллаев, А.Бойдедаев, А.Баҳромов "8-синфлар учун физика" Тошкент 2019-йил. 139-бет

3. Солбес Ж, Тарı´н Ф (2004) Ла сонсервасио´н де ла энергı´а: ун принсипио де тода ла фı´сиса. Уна пропуеста й унос ресултадос. Энсен Сиенс 22(2):185–194

4. Тарı´н Ф (2000) Эл принсипио де сонсервасио´н де ла энергı´а й сус имплисасионес дида´стисас, Пҳ.Д. Тҳесис, Университат де Вале`нсиа

5. Маликова, Д., & Зиядуллаева, М. (2023). ИНФЛАТИОН: ТҲЭОРЭТИСАЛ АСПЭСЦ АНД АНАЛЙСИС ОФ ПРИСЭ ЧАНГЭС ИН УЗБЭКИСТАН. Галахй Интернатионал Интердиссиплинарй Ресеарч Жоурнал, 11(2), 204-207

6. Маликова, Д., & Абдуганиева, Ф. (2023). Тҳе Роле оф Сонсултинг ин тҳе Модерн Эсономй. Глобал Ссиентифис Ревиеw, 12, 1-4.

## INKLYUZIV TA'LIMNI JORIY ETISH VA RIVOJLANTIRISHNING MUHIM MASALALARI: MUAMMOLAR VA MAVJUD IMKONIYATLAR

***Adashaliyeva Mexribonu Mirzoxid qizi***

*Namangan davlat pedagogika instituti talabasi*

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada inklyuziv ta’lim tushunchasi, uning mazmun-mohiyati, inklyuziv ta’limni rivojlantirish masalalari, huquqiy asoslari, alohida ehtiyoji bo‘lgan bolalar ta’limi muammolari, ularning yechimlari, mavjud imkoniyatlar, buyuk mutafakkirlarimizning bu boradagi qarashlari, inklyuziv ta’limni rivojlantirish tamoyillari, inklyuziv ta’limni joriy etishda ta’lim muassasalarida ota-onalar bilan ishlashni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish kabi masalalar bayon etilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *Maxsus pedagogika, ta’lim, inklyuziv ta’lim, bola, alohida ta’lim ehtiyoji, aqliy faoliyat, tamoyil, ota-ona.*

Bugungi kunda zamonaviy ta’limning muhim masalalaridan biri – inklyuziv ta’limni rivojlantirish va bu sohadagi ilg‘or tajribalarni ommalashtirishdir. Statistik ma’lumotlarga qaraganda, bugungi kunda jami aholining taxminan yetti-o‘n foizigacha bo‘lgan qismini tashkil etadigan alohida ta’lim ehtiyoji bor bolalarga tarbiya berish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Kelajak avlod ta’lim-tarbiyasi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish hamda mavjud imkoniyatlarni takomillashtirishda alohida ta’lim ehtiyojlari mavjud bo‘lgan bolalar muammolariga ham alohida e’tibor qaratish talab etiladi.

Inklyuziv ta’lim – bu asosiy maktablarda alohida ehtiyojli bolalarni o‘qitish jarayonini tavsiflash uchun ishlatiladigan atama. Inklyuziv (fransuzcha inklyuziv – shu jumladan, lotincha inklude-men xulosa qilaman, shu jumladan) yoki inklyuziv ta’lim – bu maxsus ehtiyojga ega bolalarni umumiy ta’lim (ommaviy) maktablarida o‘qitish jarayonini tavsiflash uchun ishlatiladigan atama.

Inklyuziv ta’lim – bu bolalarga nisbatan har qanday kamsitishlarni istisno qiluvchi, barcha bolalarga teng munosabatni ta’minlaydigan, ammo maxsus ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun alohida shart-sharoit yaratilishini talab etadi. Inklyuziv ta’lim hamma bolalarning bir xil maktab va bir xil sinfxonada, bir xil sharoitda ta’lim olishini anglatadi, ya’ni imkoniyati cheklangan bolalar sog‘lom bolalar bilan bir xil e’tiborda o‘qiy olishi lozim.

Eng avvalo ta’kidlash joizki, mamlakatimizda bolalarni ijtimoiy himoya qilish, jismoniy imkoniyatlari cheklangan shaxslarga ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish tizimi mukammal ishlab chiqildi. Shuningdek, Respublikamizda inklyuziv ta’limni rivojlantirish borasida mustahkam huquqiy asoslar yaratildi hamda mavjud qonun-hujjatlari takomillashtirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi va 2020-yil 15-oktabrdagi “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni va 2020-yil 13-oktyabrdagi “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4860-son Qarorlarining qabul qilinishi mamlakatimizda inklyuziv ta’limni yangi bosqichga olib chiqish uchun dasturulamal bo‘ldi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev BMTning Inson huquqlari bo‘yicha Kengashi 46-sessiyasidagi ma’ruzalarida ham strategik yo‘nalishlar, jumladan, nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyani ratifikatsiya qilish masalasiga alohida e’tibor qaratdilar. Butun dunyoda qariyb 1 milliardga yaqin nogironligi bo‘lgan shaxslarning mavjudligini inobatga oladigan bo‘lsak, Prezidentimizning tashabbuslari naqadar muhim ahamiyatga ega ekanligini anglash qiyin emas.

O‘zbekistonda ham inklyuziv ta’lim tizimini keng joriy qilishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda, xalqaro va milliy ish tajribalarni o‘rganish bo‘yicha davlat va nodavlat miqyosida hamkorlik loyihalari bajarilmoqda. Inklyuziv ta’lim imkoniyati cheklangan bolalar o‘zlari istiqomat qilayotgan hududlaridagi umumta’lim maktablarida yoshlariga muvofiq sinflarda asosiy o‘quv dasturi bilan birgalikda, maxsus dasturlar asosida maxsus ta’lim olishlarini, sinfdagi tadbirlarda tengdoshlari bilan teng ishtirok etishlarini bildiradi. Bunda o‘quv jarayonini osonlashtirish uchun bolalarga defektologik, ruhiy va ijtimoiy-pedagogik yordam tizimi joriy etiladi. O‘qituvchi-defektolog esa bola bilan tarbiyaviy ishlarni olib

boradigan va muvofiqlashtiradigan yetakchi mutaxassis sifatida faoliyat olib boradi.

2020-yil 13-oktyabrda qabul qilingan «Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4860-sonli Prezident qarorida bu boradagi asosiy muammolar sanab o'tilgan:

- alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan bolalar o'qitiladigan ayrim ta'lim muassasalarida ular uchun to'siqsiz muhit va imkoniyatlar yaratilmagan;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar o'qitiladigan ta'lim muassasalari zarur adabiyotlar, metodik qo'llanmalar, turli kasblarga o'qitishga mo'ljallangan uskuna va jihozlar bilan to'liq ta'minlanmagan;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning bilim olish huquqi, inklyuziv ta'lim tizimining mazmun-mohiyati haqida jamoatchilik o'rtasida tushuntirish ishlarini olib borish yo'lga qo'yilmagani natijasida ota-onalar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan farzandlarini umumta'lim muassasalarida o'qitishi mumkinligi haqida yetarli ma'lumotga ega emas;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'limga jalb qilish bilan bog'liq muammolarni hal etish masalalariga mahalliy ijro hokimiyati organlari tomonidan yetarli e'tibor qaratilmayapti;

- pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari o'quv dasturlariga inklyuziv ta'lim berish metodikasiga oid fanlar kiritilmagan;

- pedagogika va metodika fanlariga oid darsliklarda inklyuziv ta'lim dasturlari kiritilmagani, shuningdek, bo'lajak pedagoglarning alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar jalb qilingan ta'lim muassasalarida amaliyot o'tamayotgani ularning kasbiy tayyorgarlik sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Inklyuziv ta'lim haqida gap ketganda, uning rivojlanishida buyuk mutafakkirlarimizning fikr-mulohazalariga ham quloq tutish o'rinlidir. Buyuk allomalarimizning aksariyati o'z asarlarida va qarashlarida bola tarbiyasi va uning kamol topishida ota-ona, ustoz, oilaning o'z o'rni borligini ko'rsatib berishgan. Bir necha asrlar ilgari yozilgan asarlar, boy tarixiy meroslarimizda keltirilgan

qimmatli fikrlar bugungi kunda ham oʻz ahamiyatini yoʻqotmagan. Bunda tarbiyaning halollik, rostgoʻylik, poklik, insonparvarlik, vatanparvarlik, mehribonlik kabi asosiy sifatlari namoyon boʻladi. Juda koʻplab allomalarning bolalarni yoshligidan tarbiyalash, ularning har bir hatti-harakatiga, nuqson va kamchiliklariga jiddiy e'tibor qaratish lozimligi hozirgi kundagi inklyuziv ta'limni tashkil etishda ham oʻzining ijobiy samarasini bermoqda.

Buyuk mutafakkirlarimizdan Abu Nasr Farobiyning "Fozil odamlar shahri" hamda "Ilm va san'atning fazilatlari haqida", Abu Ali Ibn Sinoning "Tadbir ul-manozil", Abu Rayhon Beruniyning "Qonuni Mas'udiy", Muhammad ibn Muso al-Xorazmiyning "Al-jabr val muqobala", Yusuf Xos Hojibning "Qutadgʻu bilik", Adib Ahmad Yugnakiyning "Hibatul haqoyiq", Alisher Navoiyning "Majolisun nafois", Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud ahloq" kabi asarlarida ta'lim-tarbiyada har qanday kamsitishlarga yoʻl qoʻymaslik, teng munosabatlarni ta'minlash, har bir bolaning oʻziga xos xususiyatlari, imkoniyatlari mavjudligi, unga jiddiy e'tibor qaratish zarurligi kabi masalalarga alohida ahamiyat qaratib oʻtganlar. Bugungi kunda ularning qarashlarini tushunishimiz hamda faoliyatimiz davomida qoʻllashimiz uchun inklyuziv ta'limni mohiyatini bilishimiz lozim.

Abu Ali ibn Sino: "Bola baquvvat boʻlib, soʻzlashuv nutqini yaxshi tushuna boshlagandan soʻng, u savod oʻrganishga qobil boʻladi, shundan soʻng savodga oʻrgata olish mumkin" – deydi. Abu Rayhon Beruniy esa: "Har bir insonning bir ishga qobiliyati boʻladi, har bir halqning bir hunarga ishtiyoqi ziyod boʻlur" – deya aytgan hikmatli soʻzlari bilan insonlardagi ularning koʻrinmas qobiliyatlarini yuzaga chiqarib, ularning aqliy qobiliyatlariga ishora qiladi.

Abu Nasr Forobiy oʻz asarlarida bilish shakllari, insonning ruhiy holati, jon va tananing oʻzaro munosabati, mantiqiy fikrlash toʻgʻrisidagi mulohazalarini bildiradi. Uning aytishicha, insonning bilish, ruhiy qobiliyatlarini miya boshqaradi, yurak esa barcha a'zolarni hayot uchun zarur boʻlgan qon bilan ta'minlovchi markaz vazifasini bajaradi. Forobiy tabiatni bilishning cheksizligini, bilim bilmaslikdan bilishga, sababiyatni bilishdan oqibatni bilishga qarab borishni uqtiradi. Forobiy aqlni, bir tomondan, ruhiy quvvat, ya'ni tugʻma, ikkinchi

tomondan, ta’lim tarbiyaning mahsuli ekanligini ta’kidlaydi. Forobiy kishilararo munosabatda, axloq-odob qoidalariga rioya qilishda, ta’lim-tarbiyada aql hukmidan kelib chiqqan holda harakat qilish kerak, deb hisoblaydi.

Jahon ilm-ma’rifatining buyuk namoyandasi Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy ta’limda bilimlarni egallashda ko‘rgazmali vositalardan foydalanish, mantiqiy tafakkur, shaxsiy kuzatish va tajribalarga tayanish, savol-javob, bahs-munozara kabi ta’lim usullaridan keng foydalangan holda talabalarda mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, ularda olgan bilimlarini amaliyotga tatbiq eta olish malaka va ko‘nikmalarini tarkib toptirish to‘g‘risida to‘xtalib: “sezgi orqali bilish, bu qisman bilish bo‘lsa, mantiqiy bayon, aqliy bilish esa haqiqiy bilishning muhim tomonini bayon etadi. Insonning xulq-atvori, hatti-harakati mantiqiy fikrlashga asoslangandagina mukammal shakllanishi mumkin” – deydi.

Shuningdek, ayrim G‘arb mutafakkirlarining ham fikrlari qimmatli ahamiyatga ega. Ayniqsa, mashhur olim Yu.Z.Gilbux o‘zlashtirishdagi qiyinchiliklarni quyidagi pedagogik toifalarini ajratib ko‘rsatadi:

- umumiy o‘zlashtirmaslik (bunda bola nafaqat tilni, balki matematikani o‘zlashtirishga ham ulgurmaydi);
- xususiy o‘zlashtirmaslik (bunda bola qaysidir fanni o‘zlashtirishda qiyinchilik sezadi);
- o‘quv faoliyatidan umuman chetda bo‘lish (bunda bolada imkoniyatlar yetarli namoyon bo‘lmaydi).

Kar va zaif eshituvchi bolalarning aqliy faoliyati – fikrlash qobiliyatini rivojlantirish jarayoni tizimlilik, uzviylik, ketma-ketlilik tamoyillariga asoslanadi. Ayniqsa, mazkur toifa bolalar eshitmaganliklari uchun har bir yangi o‘quv materialni alohida kichik-kichik harakatlar orqali egallaydilar. Aksincha bo‘lsa, ular darsning oddiy passiv ishtirokchisi bo‘ladilar, xolos.

Shu o‘rinda, yana bir olim P.Ya.Galperin tomonidan ilgari surilgan nazariyani ham keltirib o‘tish joiz: “Bola fikrlash faoliyatini tayyor holda egallamaydi, u aniq bir ketma-ketlikdagi harakatlar yordamida fikrlashga

o'rganadi. O'qituvchilarning vazifasi esa, mana shu harakatlarni nafaqat nazorat qilish, balki ular uchun sharoit yaratishdan iboratdir".

Inklyuziv ta'limni rivojlantirishda uning alohida tamoyillarini e'tiborga olish maqsadga muvofiqdir. Bular:

- insonning qadr-qiymati uning qobiliyatlari va yutuqlariga bog'liq emas;
- har bir inson his qilish, bilish va tinglash huquqiga ega;
- barcha odamlar bir-biriga muhtoj;
- haqiqiy ta'lim faqat haqiqiy munosabatlar sharoitida amalga oshirilishi mumkin;
- barcha odamlar tengdoshlarining qo'llab-quvvatlashi va do'stligiga muhtoj;
- barcha o'quvchilar uchun muvaffaqiyatsizlikka qaraganda, ular qila oladigan narsalarga erishish ehtimoli ko'proq.

Inklyuziv ta'limni joriy etishda va bevosita ta'lim muassasalarida ota-onalar bilan ishlash ham alohida ahamiyat kasb etadi. YUNISEFning inklyuziv ta'lim bo'yicha tavsiyalarida ham: "Oilaning imkoniyati cheklangan bolalar ta'limida butun hayoti, ayniqsa, rivojlanishining ilk davrlaridagi ishtiroki muhim rol o'ynashi", "ota-onalar va mahallaning jalb etilishi sinfda va sinfdan tashqarida ham inklyuziv ta'limning sifati uchun muhim" ekanligi va "ota-onalar va maktab o'rtasidagi ijobiy munosabatlarning bolalarning hayotiy pozisiyasi va ta'lim sohasidagi yutuqlariga ta'sir etishi", "bu nafaqat imkoniyati cheklangan bolalar, balki ota-onalar, sinfdoshlar, pedagoglar va maktab uchun ham foydali" ekanligi kabi qator omillar inklyuziv ta'lim sharoitida maktab va ota-onalar hamkorligining dolzarbligidan dalolat beradi.

Ilmiy jihatdan olib qaraganda ham ota-onalar inklyuziv ta'limni joriy etish va rivojlantirishda olib boriladigan ishlarda faol sub'yekt sifatida qaraladi. Ular inklyuziv ta'lim bo'yicha bilim va tasavvurlar darajasini aniqlashda, munosabatlarni o'rganish maqsadida sosiologik, psixologik va pedagogik so'rovnomalar o'tkazishda, mahallalarda inklyuziv ta'limning mazmun-mohiyati, maqsad va vazifalari yuzasidan tushuntirish, targ'ibot ishlarini olib borishda, imkoniyati cheklangan bolalarni aniqlashda, ularni inklyuziv ta'limga jalb etishda,

"Inklyuziv ta'lim maslahatxonasi" faoliyatini yo'lga qo'yishda kabi jarayonlarda ishtirok etadilar.

Xulosa sifatida quyidagilarni alohida ta'kidlab o'tish joiz:

- Inklyuziv ta'lim – imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim sohasidagi huquqlarini to'laqonli ro'yobga chiqarishga xizmat qiluvchi ta'lim shakli hisoblanadi.

- Buyuk mutafakkirlarimizning bolalar ta'lim-tarbiyasi bilan jiddiy shug'ullanish, bolalarni yoshlikdan to'g'ri tarbiyalash, ularning har bir hatti-harakati, nuqson va kamchiliklariga e'tibor qaratish lozimligini haqidagi qarashlari hozirda inklyuziv ta'limni tashkil etishda o'zining ijobiy samarasini beradi.

- Inklyuziv ta'limni rivojlantirishda uning alohida tamoyillarini e'tiborga olish maqsadga muvofiqdir.

- Inklyuziv ta'limni tizimli, samarali joriy etish ota-onalar bilan olib boriladigan ishlarning shakllari, usullari, ko'lami va sifati bilan uzviy bog'liq.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktyabrdagi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-son Qarori.

2. "Inklyuziv ta'limning dolzarb masalalari: muammo va ularning yechimlari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. Toshkent – 2021 yil.

3. O.Bekmirzayeva. Inklyuziv ta'lim – istiqbolli kelajak. "Mahalla va oila" jurnali, 2022 yil, mart-aprel, 3-4-son.

4. Axmadjanovna, B. O. (2022, December). PROSPECTS OF INCLUSIVE EDUCATION. In *Conference Zone* (pp. 272-277).

5. Участие родителей, семьи и сообщества в инклюзивном образовании. Технический путеводитель. ЮНИСЕФ, 2014. https://www.unicef.org/eca/sites

# NAVIGATING CHALLENGES IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING: CURRENT ISSUES AND INNOVATIVE SOLUTIONS

***Mamadaliyeva Sarvinoz Azamat qizi***
*Namangan State Pedagogical Institute*
*Faculty of social and humanitarian sciences, Foreign language and literature: English major, student of XTA-AR 22 group*
*e-mail: mamadaliyeva0509@gmail.com*
*Namangan State Pedagogical Institute, teacher of the Department of Foreign Language Teaching Methodology* ***Umarkhanova Nigora***

***Annotation.*** *This article delves into the contemporary challenges faced by English language educators and learners, offering innovative solutions to enhance the efficacy of language instruction. The identified issues range from limited access to quality resources and diverse learning styles to the complexities of remote learning, language proficiency gaps, and the need for continuous professional development. The proposed solutions advocate for leveraging digital platforms, personalised learning approaches, interactive online tools, proficiency-based groupings, and comprehensive professional development programs. By adopting this multifaceted approach, educators can navigate the current landscape of English language teaching, creating inclusive and dynamic learning environments that prepare students for effective global communication.*

***Key words:*** *English language, innovative solutions, remote learning, language proficiency gaps, digital platforms, personalised learning approaches, interactive, multifaceted approach, inclusive, global communication.*

***Аннотация.*** *В этой статье рассматриваются современные проблемы, с которыми сталкиваются преподаватели и изучающие английский язык, и предлагаются инновационные решения для повышения эффективности обучения языку. Выявленные проблемы варьируются от ограниченного доступа к качественным ресурсам и разнообразным стилям обучения до*

*сложностей дистанционного обучения, пробелов в знании языка и необходимости постоянного профессионального развития. Предлагаемые решения предусматривают использование цифровых платформ, персонализированных подходов к обучению, интерактивных онлайн-инструментов, группировок на основе навыков и комплексных программ профессионального развития. Приняв этот многогранный подход, преподаватели смогут ориентироваться в современной ситуации в преподавании английского языка, создавая инклюзивную и динамичную среду обучения, которая готовит учащихся к эффективному глобальному общению.*

***Ключевые слова:*** *английский язык, инновационные решения, дистанционное обучение, пробелы в владении языком, цифровые платформы, персонализированные подходы к обучению, интерактивный, многогранный подход, инклюзив, глобальная коммуникация.*

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqola ingliz tili o'qituvchilari va o'quvchilari duch keladigan zamonaviy muammolarni o'rganib chiqadi va tilni o'qitish samaradorligini oshirish uchun innovatsion echimlarni taklif qiladi. Aniqlangan muammolar sifatli resurslardan foydalanishning cheklanganligi va turli xil ta'lim uslublaridan tortib, masofaviy ta'limning murakkabligi, tilni bilishdagi kamchiliklar va uzluksiz kasbiy rivojlanish zaruratigacha. Taklif etilayotgan yechimlar raqamli platformalar, shaxsiylashtirilgan ta'lim yondashuvlari, interaktiv onlayn vositalar, malakaga asoslangan guruhlar va keng qamrovli kasbiy rivojlanish dasturlaridan foydalanishni targ'ib qiladi. Ushbu ko'p qirrali yondashuvni qo'llash orqali o'qituvchilar ingliz tilini o'qitishning hozirgi manzarasini yo'naltirishlari mumkin, bu esa talabalarni samarali global muloqotga tayyorlaydigan inklyuziv va dinamik ta'lim muhitini yaratishi mumkin.*

***Kalit so'zlar:*** *ingliz tili, innovatsion yechimlar, masofaviy ta'lim, tilni bilish bo'yicha kamchiliklar, raqamli platformalar, shaxsiylashtirilgan ta'lim yondashuvlari, interaktiv, ko'p qirrali yondashuv, inklyuziv, global muloqot.*

## INTRODUCTION

"We set the goal of becoming a competitive state. From now on, every graduate of a school, lyceum, college and university must be fluent in at least two foreign languages. The head of each educational institution must turn this requirement into its main principle, create conditions and popularize the study of foreign languages in the field," President Shavkat Mirziyoyev said, announcing the creation of the Agency for the Promotion of Foreign Language Learning under the Cabinet of Ministers. After this decree, the study of a foreign language became even more rapid.[1]

English language teaching faces several contemporary challenges that impact both educators and learners. This article explores these challenges and proposes innovative solutions to enhance the effectiveness of English language instruction.

*Challenge: Resistance to change in methodologies and materials.*

It can sometimes seem that English language teachers have to do and have to be a lot more than in the past. For example, many institutions are asking teachers to modify traditional methodologies and implement blended or completely online learning. Teachers must be proficient in a variety of information processing activities, as well as have the know-how to effectively teach the type of 21st-century global communication required of an international language. These new technologies challenge not only pedagogical certainties but also professional identities as teachers become discouraged and frustrated if the software or skill required has a high degree of complexity.

Now, one could argue that the communicative language approach continues to be the dominant ELT method and that print textbooks are still default learning materials in most learning institutions. But because the concept of communication itself has shifted and print media continues to decline as digital increases, the 21st-century demands change. For most, change brings up a mixture of negative and positive feelings. On the one hand, it tends to bring up fear, defiance, and even panic. On the other, it can excite and energize. For ELT professionals, change does all this and more[2].

## SOLUTIONS

While formidable, there are many effective ways to address this challenge. An important starting point is the understanding that methods are not mutually exclusive. Teachers have been conditioned to believe they have to choose: It's accuracy versus fluency; teacher-centered versus student-centered; a focus on productive skills versus receptive. As a result, many view digital technologies as 'other:' a choice of analog versus digital. But rather than hold steadfast to these opposing dichotomies, believing teaching must be one or the other, programs and teachers can gradually incorporate new methods and materials into the ELT classrooms on their own terms, considering what is relevant and appropriate for their unique teaching context.

In order to make these decisions, it's important that learning institutions include teachers in their planning processes: a move that also increases teacher recognition and therefore decreases resistance to change. They should also offer more relevant support services, such as paid professional development opportunities that are not only skills-based but also involve case studies and roundtable discussions that analyze these 21st-century challenges. Additionally, teachers can schedule in-house sessions to exchange and validate a variety of skills. For instance, one group trains colleagues in best practices with handwritten error correction symbols, while another teaches how to give writing feedback via a learning management system (LMS)[3].

*Limited Access to Quality Resources:*

*Problem:* Many educators struggle with inadequate access to up-to-date and engaging teaching materials, hindering the delivery of effective lessons.

*Solution:* Embrace digital platforms and open educational resources, facilitating easy access to diverse materials, interactive content, and authentic language examples.

*Adapting to Diverse Learning Styles:*

*Problem:* Learners possess varied learning styles, making it challenging for teachers to cater to individual needs within a traditional classroom setting.

*Solution:* Implement personalized learning approaches, such as differentiated instruction, adaptive technologies, and flexible lesson plans to accommodate diverse learning preferences. Challenges of Remote *Learning:*

*Problem:* The rise of remote learning presents obstacles in maintaining student engagement, effective communication, and providing real-time feedback.

*Solution:* Utilize interactive online tools, video conferencing platforms, and gamified learning experiences to enhance student participation and create a dynamic virtual classroom environment.

*Language Proficiency Gaps:*

*Problem:* Students often face disparities in language proficiency levels, leading to difficulties in maintaining a cohesive learning pace.

*Solution:* Implement proficiency-based groupings, peer collaboration, and targeted language support strategies to bridge gaps and ensure a more equitable learning experience.

*Professional Development for Educators:*

*Problem:* Teachers may lack opportunities for ongoing professional development, hindering their ability to adapt to evolving teaching methodologies and technologies.

*Solution:* Establish regular training programs, mentorship initiatives, and collaborative communities to empower educators with the skills and knowledge necessary for effective English language instruction.

## CONCLUSION

Addressing the current challenges in English language teaching requires a multifaceted approach that combines technological integration, personalized learning strategies, and ongoing professional development. By embracing these solutions, educators can create an inclusive and dynamic learning environment that fosters language proficiency and prepares students for effective communication in the globalized world.

## REFERENCES

1. Tashbaeva, F. B. Problems of teaching and features of learning English / F. B. Tashbaeva, Z. A. Abdulmatova, Davron Turgunov. — Text: neposredstvennyy // Molodoy uchenyy. — 2018. — No. 50 (236). — S. 371-373. — URL: https://moluch.ru/archive/236/54891/.

2. https://www.onestopenglish.com/professional-development/challenges-in-elt-elt-in-the-21st-century/555943.article.

3. Challenges in ELT: ELT in the 21st century | Article | Onestopenglish https://www.onestopenglish.com/professional-development/challenges-in-elt-elt-in-the-21st-century/555943.article.

## ILM-FAN TARAQQIYOTIDA TEXNOLOGIYANI O'RNI

***Mamadjanov Muhammadali Halimboy o'g'li***

*Namangan davlat pedagogika instituti*

*Pedagogika fakulteti, Texnoilogik ta'lim yo'nalishi talabasi*

***Annotatsiya:****ilm-fan rivojida albatta texnologiyani o'rni kata va beqiyosdir. Ammo har bir vaziyatta haf va unga yechimlar ham mavjud. Hozirgi kun texnologiyalari ham aynan shu savollarga javob boladi.*

***Kalit so'zlar:*** *Harakatlar strategiyasi, tashkiliy-moliyaviy infratuzilma Ilm-fan muammolari, Texnik masalalarni*

***Аннотация:*** *в развитии науки место техники безусловно велико и бесподобно. Но в каждой ситуации есть проблемы и решения. Сегодняшние технологии также отвечают на эти вопросы.*

***Ключевые слова:*** *Стратегия действий, организационная и финансовая инфраструктура, Научные проблемы, Технические вопросы.*

***Abstract:*** *in the development of science, the place of technology is definitely great and incomparable. But every situation has problems and solutions. Today's technologies also answer these questions.*

***Key words:*** *Action strategy, organizational and financial infrastructure, Scientific problems, Technical issues.*

Dunyo miqyosida keskin tus olib borayotgan shiddatli raqobatga faqat zamonaviy ilm-fan, yuqori texnologiyalar va innovatsiya yutuqlarini keng joriy etish orqaligina munosib javob bera olishimiz mumkin.

Bugungi globallashuv vaqtida rivojlangan va rivojlanish bosqichida bo'lgan barcha davlatlar dunyo miqyosida o'zining iqtisodiy-ijtimoiy holatini yanada yaxshilash, jahon bozorida tutgan rolini mustahkamlashni o'z oldiga maqsad qilib olgan. Shuningdek, yildan yilga yuksalib borayotgan mamlakatlar qatorida yurtimizda ham ilm-fan, ta'lim, iqtisodiyot, sanoat, sport, san'at, madaniyat singari barcha sohalarda o'sishga erishish va buning natijasida ilmiy salohiyatini oshirish, aholi turmush tarzini bundanda yaxshilash maqsadida tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, 2017-2021-yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini keltirishimiz mumkin. Hozirda yurtimizni bosqichma-bosqich bozor iqtisodiyotiga olib chiqish va undagi rolini mustahkamlash maqsad va muddaomizga aylangan. Ayni paytda dunyo miqyosida keskin tus olib borayotgan shiddatli raqobatga faqat zamonaviy ilm-fan, yuqori texnologiyalar va innovatsiya yutuqlarini keng joriy etish orqaligina munosib javob bera olishimiz mumkin. Chunki dunyodagi rivojlangan mamlakatlar o'z oldiga nafaqat mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish va ularni bozorga olib chiqishni, balki chuqur bilim hamda ilmiy yutuqlarga asoslangan innovatsion iqtisodiyotga o'tish vazifasini qo'ymoqda. Ya'ni, o'z iqtisodiyotini mavjud tabiiy resurslarni sarflash evaziga emas, innovatsion mahsulotlar yaratish, o'zlashtirish va ilg'or texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilish orqali rivojlantirish taraqqiyotning asosiy omiliga aylanmoqda. Shu o'rinda ta'kidlash mumkinki, mamlakatimizni innovatsion rivojlantirish strategiyasi va mexanizmlari, eng avvalo, shu davlatda yaratilgan intellektual, ilmiy-texnikaviy salohiyatdan qanchalik samarali foydalanish bilan chambarchas bog'liq. Hozirgi vaqtda

mamlakatimizda uch yuzdan ortiq ilmiy tadqiqot muassasalari, oliy o‘quv yurtlari, tajriba konstruktorlik tashkilotlari, ilmiy ishlab chiqarish korxonalari, kichik innovatsion markazlar va boshqa ilmiy texnikaviy tuzilmalar faoliyat yuritmoqda.

O‘zbekiston 2030-yilga qadar global innovatsion indeks reytingida dunyoning yetakchi davlatlari qatoriga kirishdek ulkan maqsadga erishishda inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan strategik reja e’lon qilindi. Bizning maqsadimiz ilm-fan sohasini zamonaviy iqtisodiyot talablariga moslashtirishdan iborat bo‘lib, ilm-fandagi tegishli huquqiy baza bilan tartibga solinadigan tub tarkibiy, tashkiliy-moliyaviy infratuzilmaga oid islohotlarni amalga oshirishni talab etadi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda 30 mingdan ortiq shaxs ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug‘ullanadi, ularning 27 mingdan ortig‘i oliy ma’lumotga ega. Har yili O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetining salmoqli qismi ijtimoiy xarajatlarga, shu jumladan, ta’lim va ilm-fanga sarflanadi. 2021-yilda mamlakat budjetidan faqat innovatsion rivojlanish va novatorlik g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlash, obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun 239 milliard so‘mdan ortiq mablag‘ ajratildi. 2022-yilda bu ko‘rsatkich 671 milliard so‘mdan ortiqni yoki davlat budjeti xarajatlarining 0,39 foizini tashkil etadi.

O‘tgan to‘rt yil davomida 28 ta ilmiy tashkilot va 4 ta innovatsion texnopark tashkil etildi. Olimlarning maoshlari uch baravarga ko‘paydi. Soha tashkilotlarining moddiy-texnik bazasini yangilashga katta mablag‘lar sarflandi. Davlat ilmiy-tadqiqot siyosatining muhim ishtirokchisi sifatida 28 ta ilmiy-tadqiqot muassasasi va 4 ta davlat muzeyini o‘z ichiga olgan O‘zbekiston Fanlar akademiyasining faoliyati takomillashtirildi.

2017-yilda O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi faoliyati yo‘lga qo‘yilgani innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etishni tashkil qilish sohasida muhim qadam bo‘lib, ushbu yo‘nalishda salmoqli ishlarni amalga oshirishga xizmat qildi. Xususan, vazirlikning bevosita ko‘magi bilan 2018-2021-yillarda 342 ta ilmiy ishlanma tijoratlashtirildi. Natijada 151,2 milliard so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi, 128,7 milliard so‘mlik mahsulotlar sotildi.

Umuman olganda, soʻnggi yillarda ilm-fan va innovatsiyalarni davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash tizimini takomillashtirishning huquqiy asoslari yaratildi.

Jumladan, 2018-2021-yillarda ilmiy-innovatsion faoliyat sohasida 2 ta qonun, Prezidentning 5 ta Farmoni va 26 ta qarori, Vazirlar Mahkamasining 35 ta qarori va 7 ta farmoyishi qabul qilindi.

Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish va qoʻllab-quvvatlash boʻyicha erishilgan yutuqlarga qaramay, hali hal qilinishi kerak boʻlgan bir qator muammolar mavjud. Ayniqsa, bugungi kunda globallashuv va raqamlashtirish davrida aynan innovatsion yondashuv mamlakat muvaffaqiyatiga zamin yaratadi. Bunday yondashuvni faqat ilm-fan yutuqlari tufayli qoʻllash mumkin, shuning uchun ilm-fan taraqqiyoti davlatning innovatsion rivojlanishining muhim tarkibiy qismidir.

Ilm-fan muammolari iqtisodiy oʻsishga, aholi turmush darajasini yaxshilashga, ijtimoiy sohaning dolzarb muammolarini hal qilishga bevosita taʼsir qiladi. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrdagi PF–6097-son Farmoni bilan tasdiqlangan Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ilm-fanni rivojlantirish yoʻlidagi *19 ta muammo* alohida belgilandi. Iqtisodiyot real sektori korxonalarining ilm-fanga eʼtibori yuqori emasligi, ilmiy-tadqiqot oʻtkazadigan jamoalar oʻrtacha yoshining kattaligi, ilm-fan va ilmiy faoliyatga moliyaviy resurslarning yetarli darajada yoʻnaltirilmayotgani shular jumlasidandir. Ushbu muammolarni hal qilish muhim boʻlib, har tomonlama va chuqur oʻylangan choralar koʻrishni talab qiladi.

Zamonaviy ilmiy-pedagogik kadr – bu oʻz ishi bilan dolzarb muammoni tahlil qiladigan va ushbu muammoning samarali yechimlarini ilgari suradigan tadqiqotchi. Bunday taʼrif olimning oʻzidan halollik va mehnatsevarlikni talab qiladi. Ilm-fanning zamonaviy rivojlanishi sharoitida ushbu taʼrifning dolzarbligiga shubha qoldirmaydi.

Bugungi kunda ilmiy va pedagogik faoliyatni amalga oshirishda boʻlajak tadqiqotchi bir qator muammolarga duch kelmoqda. Ulardan birinchisi – *dolzarb tadqiqot mavzusini tanlashdir*. Afsuski, hamma ham bunga eʼtibor bermaydi.

Ba'zan tadqiqot mavzusining to'g'ri tanlangani muvaffaqiyatning kaliti hisoblanadi. Tanlangan tadqiqot mavzularining tahlili asosan eskirgan yoki ahamiyatsiz bo'lgan tadqiqot mavzularining hali hamon mavjudligini ko'rsatmoqda. Ba'zi mavzular ko'proq referatlar mavzusiga o'xshaydi. Ba'zida tadqiqotchilar mavzu nomiga tuzatishlar kiritishga majbur bo'lishadi. Jumladan, tadqiqot mavzulari chop etilishi lozim bo'lgan Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining byulletenlarida tadqiqot mavzusi nomidagi o'zgarishlarni chop etish uchun alohida sahifalar ajratiladi. Ba'zi mavzularning nomlari uch-to'rt marta o'zgaradi. Bunday holda, tabiiy savol tug'iladi – bunday o'zgarishlarning sababi nima? Nima uchun tadqiqotni amalga oshirish bosqichida mavzuni o'zgartirishga ehtiyoj vujudga keladi? Bu savollarga javoblar turlicha bo'lishi mumkin.

Ikkinchi muammo – ilmiy faoliyat bilan bog'liq jarayonlarda ortiqcha rasmiyatchiliklarning mavjudligi. Yuqorida aytib o'tilganidek, tadqiqot mavzulari maxsus byulletenda e'lon qilinishi kerak. Aks holda, mavzu rasman tadqiqotchiga biriktirilmagan hisoblanadi. Har qanday o'zgarish, hatto tahririy o'zgarishlar ham ushbu byulletenda aks etishi lozim. Xuddi shunday dissertatsiyani himoya qilish uchun rejalashtirilgan himoya haqidagi xabar ham Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining veb-saytida e'lon qilinishi kerak. Ba'zi tadqiqotchilar dissertatsiyani himoya qilish to'g'risidagi xabarni nashr etish bilan bog'liq muammolarga duch kelmoqdalar (dissertatsiya matni va avtoreferatni belgilangan talablarga muvofiq to'g'ri rasmiylashtirish talab etiladi).

Rasmiyatchilik jarayoni ayrim hollarda Ilmiy kengashlar va talabgorlar orasidagi munosabatlarda ham kuzatilmoqda. Qoida tariqasida, Kengashga talabgorning hujjatlarini taqdim etish an'anaviy usulda amalga oshiriladi. Ilmiy bahs-munozara maydoni bo'lgan Ilmiy kengashlar faoliyati, xususan bayonnoma yuritilishi va turli rasmiyatchilikka rioya qilinishi bilan bog'liq holatlar ham raqamlashtirish orqali soddalashtirilishi mumkin.

Uchinchi muammo – ilmiy kengashlarning nisbatan zaif o'rni. Ishning asosiy qismi mazkur kengashlar faoliyat ko'rsatayotgan universitet yoki ilmiy tashkilotda tekshirilsa-da, dissertatsiya himoyasi bo'yicha yakuniy qaror Vazirlar

Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi. Shu o'rinda universitetlar yoki ilmiy tashkilotlarning mustaqilligini oshirish, ularning tadqiqot sifati uchun javobgarligini mustahkamlash masalasini o'ylab ko'rish kerak. Albatta, bunda Ilmiy kengashlar faoliyati ustidan monitoring olib borish mexanizmlari yaratilishi, ochiqlik va shaffoflik ta'minlanishi lozim.

Ilmiy kengash faoliyatida manfaatlar to'qnashuvining oldini olish ham muhim vazifa sanaladi. Ayniqsa, taqrizchi yoki rasmiy opponentlarni belgilash, ilmiy tadqiqot ishini muhokama qilish va himoyaning keyingi bosqichlariga tavsiya qilish masalalarida axborot texnologiyalarini joriy etish orqali manfaatlar to'qnashuvining oldini olish maqsadga muvofiqdir.

Dissertatsiyani himoya qilish uchun tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish dolzarb muammolardan biri sanaladi. Amaldagi tartibga ko'ra, dissertatsiyani himoya qilish uchun ilmiy tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish talab etiladi. Ilmiy natijalarni joriy etish to'g'risidagi hujjatsiz falsafa doktori va fan doktori bo'lish mumkin emas. Ba'zan tadqiqot natijalari kelajakda (uzoq vaqt davomida) amalga oshirishga qaratilgan bo'lishi mumkin, bu esa bajarilgan dissertatsiya ishi uning natijalari amaliyotga joriy etilgani to'g'risidagi hujjat yo'qligi sababli himoya qilinmasligiga olib keladi. Bu ba'zi tadqiqotchilarni natijalarini tezda amaliyotga joriy etish yo'llarini topishga undaydi, bunga esa har doim ham erishishning iloji yo'q.

Fan-texnika taraqqiyoti - fan bilan texnikaning o'zaro bog''liq, yagona, ilgarilab boruvchi taraqqiyoti; ijtimoiy taraqqiyot asosi. Dastlab fan rivoji bilan texnika taraqqiyoti o'rtasidagi yaqinlashuv 16—18-asrlarda manufaktura ishlab chiqarishi bilan bog'liq holda sodir bo'ldi. Bungacha moddiy ishlab chiqarish empirik tajribalar, hunarmandlik asosida shakllangan. Teologiya va sxolastika ta'siridagi tabiat haqidagi ilmiy nazariy bilimlar ham ishlab chiqarishga xech qanday salbiy ta'sir qilmasdan sekinlik bilan rivojlangan.Ilmiy va texnikaviy taraqqiyot inson faoliyatining 2 ta nisbatan mustaqil yo'nalishi sifatida yuksala boshlagan.

16-asrda savdo-sotiq va yirik manufakturadagi tub oʻzgarishlar bir qancha aniq vazifalarni nazariy va eksperimental hal qilishni talab qildi. Bu davrda fan Uygʻonish davri gʻoyalari ta’sirida sxolastika an’analarini parchalab, amaliyotga murojaat qildi. Kompas, porox va kitob nashr qilish ilmiytexnikaviy faoliyatga asos solgan 3 ta yirik kashfiyot boʻldi. Suv tegirmonlarining rivojlanayotgan manufaktura ishlab chiqarishida qoʻllanilishi ba’zi mexanik jarayonlarni nazariy tadqiq etishni talab qildi. Natijada charxpalak gʻildiragi, charxpalak harakati nazariyasi, karshilik va ishqalanish ta’limotlari yaratildi. Fan bilan texnika yaqinlashuvining 2 bosqichi mashina ishlab chiqarishning 18-asr oxiridan boshlab taraqqiy etishi bilan bogʻliq boʻlib, bunda fan bilan texnika bir-birining jadal rivojlanishiga ta’sir koʻrsatdi. Bu davrda ilmiy tadqiqot faoliyatida nazariy masalalarni hayotga tatbiq qilishga da’vat etuvchi fanning maxsus boʻgʻinlari paydo boʻldi: amaliy tadqiqotlar, ishlab chiqarish tadqiqotlari, amaliy konstruktiv ishlanmalar va h.k. Fan-texnika taraqqiyotit. ning 3bosqichi fantexnika inqilobi bilan bogʻliq. Uning ta’sirida texnika taraqqiyotiga qaratilgan ilmiy sohalar kengayadi. Texnik masalalarni hal qilishda biologlar, fiziologlar, psixologlar, mantiqshunoslar ishtirok etadi. Ma’lumki, har qanday holatda ham ilmiy – texnika taraqqiyotining bosib o’tgan tarixiy asoslari bor. Bunga yaqin kelajakka bir nazar solaylik. XX asrning o’rtalariga kelib fanning ijtimoiy hayotdagi roli mislsiz darajada oshdi. Fanlar taraqqiyotidagi inqiloblarning xarakteri o’zgardi, ya’ni ilm sohasidagi inqiloblar texnika sohasidagi axborotlar bilan uyg’unlashib ketdi va ilmiy – texnika inqilobi yuzaga keldi, shuningdek ijtimoiy fanlar yoʻnalishlari, iqtisod va ishlab chiqarishni tashkil qilish, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni ilmiy boshqarish, aniq ijtimoiy tadqiqotlar kabilarga bilvosita ta’sir qiladi. Fanning texnikaga nisbatan yetakchilik mavqei yanada yorqin namoyon boʻladi, fan texnikani uzluksiz inqiloblashtiruvchi kuchga aylanadi. Oʻz navbatida, texnika ham fan taraqqiyotiga ijobiy ta’sir koʻrsatib, uning oldiga yangi talab va vazifalar qoʻyadi. Hozirgi zamon fantexnika inqilobining xarakterli xususiyati uning sanoat bilan birga ijtimoiy hayotning turli sohalari: qishloq xoʻjaligi, transport, aloqa, tibbiyot, ta’lim, maishiy xizmat kabilarni qamrab olganligidadir. Mustaqillik tufayli

qo‘lga kiritilgan yutuqlarni davom ettirish, mamlakatning intellektual salohiyatini o‘ylash, jamiyatni har tomonlama taraqkiy ettirish, uning mustaqilligini mustahkamlash yo‘lidan muvaffaqiyatli ravishda olg‘a siljib borishdagi mas’uliyat bugungi ijodkor (tadqiqotchi)lar ommasi zimmasiga tushadi. Shuning bilan birga fan-texnika yutuqlari asosida yaratilayotgan yangi-yangi mashinalar, dastgoxdar, metodologiya, algoritmlar, modellar, fanlar va shu kabilardan foydalanish, ularni tayyorlash hamda amaliyotga joriy etishni avtomatik boshqarish, kishilardan katta ilmiy tayyorgarlikni talab etadi. Keyingi chorak asr davomidagi fan-texnika taraqkiyotiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, bu davr ichida ko‘pgina, ayniqsa, fizika, matematika, mexanika, kimyo, biologiya, mantik, psixologiya va shu kabi fanlar va shu bilan birga texnikada tamomila yangicha sifat va tamoyillarga ega bo‘lgan qonunlar, nazariyalar, metodologiyalar va turli ilmiy gipotezalarni vujudga kelganligining guvohi bo‘lamiz. Fanlarning o‘zaro hamkorligi tezlashib, fanning yangi sohalari paydo bo‘la boshladi. Bular esa o‘z navbatida texnika tarakkiyoti uchun ham xizmat qiladi. Bu borada fan va texnika yutuklarini o‘z navbatida yoshlarga yetkazib borish, hozirgi zamon darslariga qo‘yilgan talab bo‘lib, u orqali mamlakatimizda intellektual salohiyatli kishilar (tadkiqotchilar) otryadi shakllantiriladi.

Bugungi yuksalayotgan ilm-fan bizga jamiyat qonunlari va tabiatdagi hodisalar mohiyatini, bizni o‘rab turgan muhitni rivojlantirishni tushunib yetishga yordam beradi. Fan-texnika taraqqiyotida tubdan o‘zgarish yuz berayotgan hozirgi zamonda fan olamidagi rivojlanish yangi bosqichga ko‘tarildi va zamonaviy fanlar shakllana boshladi.

Harqanday holatda ham hozirgi vaqt va davr rivojlanishida ilmiy texnikalar va innovatsiyalarni o‘rni juda beqiyos yuqorida takidlangani dek tyexnika inson hayotini bir bo‘g’ini bu bo‘g‘indan qanday foydalanish va ishlatish har bir fuqaroni o‘z qo‘lidadir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:**

**1.** https://www.xabar.uz/uz/tahlil/ozbekistonda-ilm-fan-taraqqiyotining-ahvoli
**2.** https://yuz.uz/uz/news/ilm-fan-innovatsion-taraqqiyot-asosi

3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Fan-texnika_taraqqiyoti
4. https://fayllar.org/tarbiyaviy-ishlar-metodikasi-fanini-oqitishda-yangi-pedagogik-v5.html

# ПРИМЕНЕНИЕ ИГРОВОЙ МЕТОДИКИ В ИЗУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

***Тошматова Мадинахон Кодировна***
*Студентка Наманганского государственного педагогического института, факультет методики преподавания социальных и гуманитарных наук, направление иностранный язык и литература, английский язык*
*mtosmatova123@gmail.com +998936406051*
*Научный руководитель:*
***Умарханова Нигора Умаржановна***
*Учитель кафедры иностранных языков*
*@nigora.umarkhanova@mail.ru*

***Аннотация:*** *В статье исследуются характерные признаки использование интерактивных игр в начальных классах. Показано, что игра является одним из эффективных методов обучения иностранному языку в начальных школах. Выявлены и обоснованны необходимые функции использования игровой методики. Игровые методики выполняют множество функций в процессе развития ребенка, упрощая процесс обучения, помогая ребенку усваивать все больший объем материала из года в год и способствуя развитию необходимых для него навыков. Кроме того, в статье даны примеры интерактивных игр, которые могут применять на практике в начальных классах.*

***Ключевые слова:*** *игра, игоровой метод, начальные классы, развитие, ученики, иностранный язык, развитие, достижения успеха.*

Игра — это средство воспитания, в котором воспитатель в качестве инструмента формирования личности воспитанника использует его свободную (игровую) деятельность в воображаемой и реальной ситуациях, направляя ее на развитие положительных качеств личности.

Игры для изучения английского языка в начальных классах это одна из основных форм обучения иностранным языкам. Игры создают непринужденную обстановку, более благоприятную для обучения, чем обязательные методы преподавания. В процессе игры дети не только учат новые слова, выражения и правила, но и развивают внимание, память, мышление, наблюдательность и, конечно же, творческие способности. Использование игр в обучении помогает поддерживать интерес к английскому языку и облегчает изучение, запоминание и усвоение содержания урока. В свою очередь, имеются игровые методы, которые помогают для более эффективной изучении нового языка с глубокой увлеченностью.

Игровой метод — это способ организации овладения специальными знаниями, умениями и навыками, развития двигательных качеств, основанный на включении в процесс обучения компонентов игровой деятельности.

Об игре как методе обучения упоминалось еще в Древней Греции. В эпоху Возрождения ученые предлагали рассматривать игру как принцип обучения детей разным наукам. Игра сегодня — это уникальное многогранное понятие, посредством которого осуществляется не только обучение, но и воспитание, а также развитие личности. Игра социализирует, несет в себе развлекательную функцию, помогает снять усталость и нервное напряжение, приобщает к культуре. Однако исторически так сложилось, что одна из основных задач игры — это все-таки обучение, в процессе которого воспроизводятся реальные практические задачи и ситуации с целью их освоения [1].

Обучение иностранным языкам - сложный процесс, требующий индивидуального подхода и использования специальных педагогических приемов и методов для формирования у учащихся необходимых навыков и умений. По результатам многочисленных исследований, использование игр в

обучении иностранным языкам на ранних этапах является одним из наиболее эффективных методов обучения.

Одним из преимуществ игр является то, что все ученики работают одновременно. Участие в играх развивает способность сотрудничать, соревноваться, не проявляя агрессии, уметь проигрывать, брать на себя ответственность.

"Игры помогают детям стать творческими личностями, учат творчески относиться к любому делу. Творчески относиться к делу — значит выполнять его качественно, на более высоком уровне. Творчество — это постоянное совершенствование и прогресс в любой деятельности. Игры приносят детям и взрослым радость творчества. Без радости творчества наша жизнь превращается в скуку и рутину. Творческий человек всегда чем-то увлечен. От творческих возможностей человека зависит его жизненный уровень.

Увидеть необычное в обычном может и взрослый, и ребенок. Творчество заложено в детях самой природой. Они любят сочинять, выдумывать, фантазировать, изображать, перевоплощаться. Детское творчество быстро увядает, если к нему не проявляется интереса со стороны окружающих. Совместные творческие игры сближают и взрослых, и детей. В этом — один из главнейших принципов эффективного воспитания." [2]

С помощью использования методики игр, учитель иностранного языка сможет приобрести у учеников большой интерес к учебе и учащихся на уроках смогут освоить огромные объемы информации и анализировать новые полученные знания.

Игровая деятельность в процессе обучения выполняет следующие функции:

1. Обучающая функция состоит в развитии памяти, внимания, развитии внеучебных умений и навыков, а также, восприятии информации.

2. Воспитательная функция состоит в развитии такого качества как внимательное, гуманное отношение к партнеру по игре; Учащимся вводятся фразы- клише речевого этикета для воспроизведения речевого общения друг к

другу на иностранном языке, что помогает воспитать такое качество, как вежливость.

3. Развлекательная функция состоит в создании благоприятной и комфортной атмосферы на уроке, превращение урока в интересное и увлекательное событие, удивительное приключение, а порой и в фантастический мир.

4. Коммуникативная функция состоит в создании атмосферы иноязычной среды, создание иноязычного общения, объединении учащихся в дружный коллектив, установление новых эмоционально-коммуникативных отношений, основанных на взаимодействии на иностранном языке.

5. Релаксационная функция- снятие эмоциональной нагрузки и напряжения, вызванных нагрузкой на нервную систему при усиленном обучении иностранному языку.

6. Психологическая функция- состоит в формировании навыков подготовки своего физиологического состояния для более продуктивной деятельности. [3]

Учителя должны подготовиться на то, что какие игры можно использовать на уроках иностранного языка, каким путем можно их использовать и как эффективно связать игры с учебной программой, также как, более конкретно, различные игры принесут учащимся разную пользу. Ключ к успешной языковой игре заключается в том, что преподаватель объясняет правила ясно и точно, конечная цель четко определена, а игра должна приносить удовольствие. В свою очередь, игра должна подходит так же по возрастной категории и по уровню владения иностранного языка. Учителя должны быть очень бдительны во время игры и объяснить основную цель игры на уроке.

Доказано, что при использовании игровой формы обучения иностранному языку в начальных классах, значимо увеличивает познавательный интерес учащихся к предмету, к уроку. Философские, психолого-аналитические и научные материалы доказывают, что обучение лексике на начальном этапе-есть основной процесс при обучении иностранному языку, коммуникабельное

средство общения в реальном, сегодняшнем мире. Необходимо учитывать при обучении начальных классов иностранному языку:

- развитие у детей способности понятия разговорного иностранного языка, закладывание основ произношения, использование самых элементарных понятий и слов в процессе игры;
- учитывать психологические особенности у учащихся младших классов;
- игровые действия способствуют умственному развитию личности, повышают познавательную потребность учащихся младшего возраста к изучению иностранного языка;
- возможно играть на любом этапе лексической практики в группах, направляя на нужное направление;
- использовать игры для достижения целей и задач урока;
- на учащихся 2–3 классов использовать игры для тренировки и развития произношения и чтения; [4]
- игры необходимы при ознакомлении с новым материалом, и обработке речевого процесса;
- активирует грамматику речи и умение строить предложения.

Таким образом, использование игровых технологий на уроках английского языка является важным аспектом формирования предметной одаренности учащихся, в частности – коммуникативных навыков. В настоящее время в методической литературе представлено большое количество разнообразных игр, однако в научной литературе существует так же немало описаний того, как неверная, или, точнее сказать, методически неграмотно построенная работа, с использованием игровых технологий, способствовала формированию у учащихся ложных стереотипов. Именно поэтому, используя игровые технологии на уроках, учитель должен учитывать возрастные и умственные особенности учащихся.

При использовании игровых методов в обучении учеников необходима связь игры с жизнью и практикой, проблемный и эмоциональный характер

изложения, организация поисковой, познавательной деятельности, дающей учащимся возможность переживать радость самостоятельных открытий, вооружение учеников рациональными приемами учебной работы, навыками самовоспитания, являющимися непременной предпосылкой для достижения успеха [5].

**Игра - Be quick**

Все ученики делятся на две команды. В ходе жеребьевки выбирается команда, которая будет начинать игру. Один из игроков первым называет слово по-английски. Затем представители команд по очереди должны называть слова, которые начинаются на букву предыдущего слова. Кто не смог придумать слово, выбывает из игры. Побеждает та команда, в которой осталось больше всего игроков. Пример: «Aunt → Telephone → Elephant → Tiger».

**Саймон говорит - Simon says**

Очень популярная игра в США среди младших учеников. Такие игры для детей на уроке английского языка настолько увлекательны, что ученики хотят провести за ними как можно больше времени, даже в ущерб основным занятиям. Как играть в «Simon says»:

Один человек принимает роль Саймона и становится лицом к участникам. Затем Саймон говорит предложение на английском, остальные выполняют задания. К примеру: Simon says put your hand on the left shoulder of your classmate. Чтобы подловить игроков иногда следует упускать фразу «Simon says». В этом случае тот, кто совершает действие, выбывает из игры. Побеждает последний оставшийся.

**Как можно больше**

Эта развивающая игра на английском языке поможет детям легче усвоить большое количество новых слов. Для нее лучше всего разделить учеников на две команды. Суть игры заключается в том, чтобы назвать как можно больше слов заданной темы. К примеру, тема «Weather» (погода). Ученики могут называть разные слова и словосочетания, которые относятся к данной тематике, причем часть речи тоже может быть любой. Среди таких слов могут быть

«sunny» (солнечный), «wind» (ветер), «clouds» (облака) и так далее. Команда, которая назовет больше слов, относящихся к данной теме, будет считаться победителем.

**Нарисуй слово - Pictionary**

Такие популярные обучающие игры на уроках английского языка обычно применяют в начальных школах. Школьникам нравится игра потому, что она совсем не похожа на монотонную учебу. А взрослые любят ее из-за того, что она позволяет на время отвлечься от уроков.

Как играть в Pictionary?

- Для начала на отдельных листиках пишутся слова и прячутся в мешок;
- Класс делится на две команды, и доска разделяется на две половины;
- Один ученик из каждой команды достает случайное слово из мешка, а затем начинает рисовать его. Первая команда, которая правильно угадает слово, побеждает;
- Если рисунок завершен, а слово не отгадано, тогда другой член команды занимает место «художника».

Несомненно, что игра - это способ сделать практику изучения иностранных языков приятной и эффективной. Это отличное упражнение для развития и получения знания для учеников. При чётком поставленном цели обучения, преподаватель сможет передать новые знания ученикам грамотно и ясно. Чем больше педагог использует в практике интерактивные игры, тем активнее учащиеся будут учиться.

Список **источников**:

9. Использование игр в обучении иностранному языку на начальном этапе\ Попкова Екатерина\ Журнал: «Евразийский Научный Журнал №10 2020» (октябрь, 2020)\ https://journalpro.ru/articles/ispolzovanie-igr-v-obuchenii-inostrannomu-yazyku-na-nachalnom-etape/

10. Пожалуйста, не забудьте правильно оформить цитату: Мухиддинова, С. А. Роль игры в процессе изучения английского языка в школе / С. А. Мухиддинова, Д. С. Уралова. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2013. — № 7 (54). — С. 397-399. — URL: https://moluch.ru/archive/54/7313/ (дата обращения: 07.01.2024).
11. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЛЕКСИЧЕСКИХ ИГР В ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ НА НАЧАЛЬНОМ ЭТАПЕ ОБУЧЕНИЯ/ А.А.Сатюкова/ Екатеринбург/ 2016 г.
12. Арсарык, А. А. Использование игровых технологий в обучении младших школьников лексике иностранного языка / А. А. Арсарык. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2022. — № 49 (444). — С. 159-162. — URL: https://moluch.ru/archive/444/97338/ (дата обращения: 07.01.2024).
13. Методика использования игровых технологий в обучении иностранному языку на начальном этапе обучения в школе/ Д. С. Лапенков/ Орск 2020.

# BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI TADQIQOTCHILIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA PIRLSNING AHAMIYATI

***Samandarova Go'zalxon Qudrat qizi***
*Namangan davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi,*
*e-mail: samandarovagozalxon888@gmail.com Telefon raqam: +998999623180*
*Ilmiy rahbar: Tillayeva Rayxona Tuxtasinovna, Namangan davlat pedagogika institutining Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasi katta o'qituvchisi, Pedogogika fanlari bo'yicha falsafa doktori,(PhD)*

***Annotatsiya:*** *ushbu maqolada o'quvchilarda "tadqiqotchilik kompetensiyasi"ni rivojlantirish orqali o'quv samaradorligi darajasini oshirish va bu jarayonda PIRLS va PIRLS topshiriqlarining ahamiyati to'g'risida keltiriladi.*

***Kalit so'zlar:*** *Tadqiqot, tadqiqotchilik kompetensiyasi, kompetensiya, adabiy ta'lim, xalqaro baholash, PIRLS topshiriqlari, layoqat, qiziqish, PIRLSning ahamiyati.*

***Аннотация:*** *в данной статье рассматривается значение PIRLS и задач PIRLS в повышении уровня образовательной эффективности посредством развития "исследовательской компетентности" у учащихся.*

***Ключевые слова:*** *Исследования, исследовательская компетентность, компетентность, литературное образование, международная оценка, задачи PIRLS, компетентность, интерес, значимость PIRLS.*

***Abstract:*** *this article discusses the importance of PIRLS and PIRLS tasks in increasing the level of educational efficiency through the development of "research competence" in students.*

***Key words:*** *Research, research competence, competence, literary education, international assessment, PIRLS tasks, competence, interest, importance of PIRLS.*

Hozirgi adabiy ta'lim maktab oldiga o'sib kelayotgan yosh avlodni asrlar mobaynida insoniyat tarixi davomida yaratilgan va to'ldirib, boyitib kelingan madaniy boyliklarni egallash, real hayotga tayyorlash, ongli ravishda kasb tanlashlariga erishish, atrofdagi kishilar bilan madaniyatli muomala qilishga o'rgatish intellektual salohiyatli kishilar qilib tarbiyalash talabini qo'ymoqda. Bunga erishish uchun adabiy ta'limning har bir bosqichida o'qitish metodlari, maqsad va vazifalarini aniq-ravshan belgilab olish lozim [1].

O'quvchilarini bilim olish jarayoniga to'laqonli jalb qilishda tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirish qo'l keladi.

Tadqiqotchilik kompetensiyasi - deganda biz tanlagan muammoni yechishning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, mustaqil bilishga yo'naltirilgan tadqiqotchilik jarayonida shakllanadigan shaxsiy ko'nikmalarni deyish mumkin. [2] Ya'ni sodda qilib aytganda o'quvchi tadqiqot davomida o'zlashtirgan bilimlarini hayotda, zarur bo'lgan vaziyatlarda qo'llay olishi tadqiqotchilik kompetensiyasini yuzaga keltirar ekan.

Kompetensiya – oʻquvchilarning egallangan bilim, koʻnikma va malakalarini oʻz shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qoʻllay olish imkoniyatidir [3].

Oʻquvchilarimizda tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirishda, turli koʻrinishlarini ham qoʻllashimiz mumkin. Masalan: oʻquvchi bitta tabiiy gulni olib, uni oʻrganib chiqishi ham tadqiqotchilikning bir koʻrinishi. Chunki, oʻquvchi tadqiqot davomida gul qanday qismlarga ega boʻlishi, qanday sharoitda rivojlanishi yoki qaysi sharoit oʻsish davomiyligiga yomon ta'sir qilishi haqida ma'lumot toʻplaydi, bu bilimlarni hayotda qoʻllay oladi va uni tadbiq qiladi.

Biz esa oʻquvchilarni bu kabi tadqiqotchilik jarayoniga katta qiziqish bilan yondashishini hisobga olgan holda dasr jarayonlariga ham “tadqiqotchilik kompetensiyasi” ni singdirgan holda olib borishimiz oʻquv jarayonidagi yutuqlarga sezilarli darajada ijobiy ta’sir qiladi.

Tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirishda oʻquvchilarga turli yoʻnalishda yoki umumiy boʻlgan mavzuda ish olib borishlariga yoʻnaltirish mumkin. Umumiy mavzulardagi topshiriqlarni dars jarayonida qoʻllash samarali boʻladi. Biror asar, hikoya, she’r ustida ish olib borishadi va oʻrganayotgan mavzusi ustida tadqiqot qilishadi. Masalan: oʻquvchi bitta hikoyani oldi deylik. U tadqiqot davomida asarning qismlarini chuqur oʻrganadi va bu jarayon davomiyligida asar bosh fikriga yetib keladi.

Oʻquvchi asardan olgan bilimlarini namoyon qila olishi, nutqi shakllanishi ya'ni qayta hikoya qilib bera olishi ham ahamiyatlidir. Abu Nasr Forobiyning: ..badiiy asarni ifodali oʻqish, oʻqiganini hikoya qilib berish zoʻr san’at ekan" ligi fikriga tayangan holatda tadqiqot davomida sinchikovlik va e'tibor bilan yondashishi kerakligini koʻrsatadi. Endilikda bizni oʻylantiradigan muammo, oʻquvchi bu tadqiqot davomida asarga qay darajada chuqur kira olganligi va asarni toʻlaqonli tushunaolganlik darajasini oʻlchash kerak boʻladi. Bu jarayonda esa PIRLS topshiriqlari katta yordam beradi.

PIRLS (inglizcha: Progress in International Reading Literacy Study') — bu turli mamlakatlarda boshlangʻich sinfda tahsil oluvchi oʻquvchi yoshlarning matnni

o'qish va tushunish darajalari sifatini baholab beruvchi xalqaro baholash tizimidir [4].

PIRLS tadqiqotida o'quvchilar matnni baholash va tanqidiy tahlil qilishida quyidagi malaklarga ega bo'lishlari talab etiladi:

- matnda berilgan ma'lumotlarning aniq va to'liqligini baholash;
- tasvirlangan voqeani haqiqatdan sodir bo'lish ehtimolini baholash;
- insonlarni g'oyalari va bajaradigan ishlarini o'zgartirishda muallifning fikrlari qanchalik aniqligini baholash;
- matn mavzusi asosiy mazmunni qanchalik yoritib berishini baholash;
- Metafora va nutq ohangi kabi til xususiyatlarini anglash;
- muallifni asosiy mavzuga oid qarashlarini aniqlash [5].

Bu kabi talablarga javob berolgan o'quvchida "tadqiqotchilik kompetensiyasi" rivojlanganligini topshiriqlarning holatidan ham bilib olinishi mumkin. Ayni fikrimizning tasdig'i sifatida aytishimiz mumkinki, tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirishda PIRLSning ahamiyati kattaligiga guvoh bo'lamiz. PIRLS topshiriqlari esa o'z maqsad va vazifalarini bajarish bilan bir qatorda o'quvchini sinchikovlikka, tanqidiy fikr yuritishga, yangicha fikrlashga, ijodkorlikka o'rgatadi. Bu esa tadqiqotchilik kompetensiyasidan ko'zlangan maqsadlarga eltuvchi yo'l hisoblanadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abullayeva Q. Safarova R. Ochilov M. Nazarov K. Bikboyeva N. Zayniddinova M. Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi // Boshlang'ich ta'lim. 6-son, 1998. – B. 2-9.
2. Abduraxmonova D. Boshlang'ich ta'lim sifatini baholash va takomillashtirishda xalqaro tadqiqot dasturlarining o'rni: muammo va yechimlari // Boshlang'ich ta'limda innovatsiyalar, 2021/4. – 78-84 b.
3. Adizov B.R. Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari: ped. fanlari dokt... diss. – Buxoro, 2002. – 276 b.
4. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. –T.:

Oʻzbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamgʻarmasi nashriyoti, 2006. – 160 b.
5. Pulatova Z.A. Kompetensiya va oʻquvchi bilimini baholash. // Молодой ученый, (25) 2020. – 509-511 б.
6. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/PIRLS.

## INSON KAPITALINING MOHIYATI VA UNING JAMIYAT TARAQQIYOTI BOSQICHLARIDAGI OʻRNI VA AHAMIYATI

***Nabijonov Murodjon Toʻlqinjon oʻgʻli***
*Namangan davlat pedagogika instituti Ijtimoiy-gumanitar fanlarni oʻqitish metodikasi (Ma'naviyat asoslari) mutaxassisligi magistranti*
***E-mail:*** *murodjonnabijonov5@gmail.com* ***Tel:*** *+998901588232*

***Annotatsiya.*** Ushbu maqolada inson, uning ijodiy fazilatlari, qobiliyatlari ongli, maqsadli va samarali faoliyati shuningdek, inson hayotining eng muhim qismi boʻlgan mehnat vositasi, ishlab chiqaruvchi kuch sifatida qaralib, uning qobiliyatlari ishlab chiqarish jarayonidagi faoliyati tahlil qilingan.

***Kalit soʻz va iboralar:*** inson, qobiliyat, mexanizm, faoliyat, jamiyat, rivojlanish, ijtimoiy, kapital, ishchi kuchi, mehnat qobiliyati.

***Абстрактный.*** В данной статье человек, его творческие качества, способности, сознательная, целенаправленная и эффективная деятельность, а также важнейшая часть человеческой жизни рассматриваются как средство труда, производительная сила, активность его способностей в анализируется производственный процесс.

***Ключевые слова и фразы:*** человек, способность, механизм, деятельность, общество, развитие, социальное, капитал, рабочая сила, трудоспособность.

***Abstract.*** In this article, a person, his creative qualities, abilities, conscious, purposeful and effective activity, as well as the most important part of human life,

is considered as a means of labor, a productive force, and the activity of his abilities in the production process is analyzed.

***Key words and phrases:*** human, ability, mechanism, activity, society, development, social, capital, workforce, labor capacity.

Barcha davrlar va zamonlarda inson va uning mehnati jamiyat boyliklarining asosini tashkil etgan. Ibtidoiy jamoa tuzumidan to bugunga qadar insoniyat yaratgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklar insonning jismoniy va aqliy mehnati, bilimi va ko'nikmalari mahsuli o'laroq maydonga kelgani bois mehnatkash inson har doim har qanday boyliklarning yaratuvchisi bo'lib maydonga chiqadi. Chunki inson o'zining uy-joy, oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshqa hayot uchun zaruriy narsalarga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun mehnat qilishi lozim. Bu bilan u, bir tomondan, o'zining ishlash salohiyatini realizatsiya qiladi va boshqa tarafdan jamiyat bilan o'zaro ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga kirishadi. Aynan insonning mehnat faoliyatining mahsuli sifatida turli moddiy va ma'naviy boyliklar yaratiladi hamda ular nafaqat o'sha insonning, balki butun jamiyatning ehtiyojlarini qoplashga va ayni vaqtda u yashagan mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga xizmat qiladi. Shunisi diqqatga sazovorki, mehnat so'zi faqat insonning aqliy va jismoniy faoliyati turlari uchungina qo'llanadi. Ammo, ko'p asrlar davomida insonga faqat ishlab chiqarish vositasi, qo'l kuchi sifatida qaraldi va gohida uning mehnati ayovsiz ekspluatatsiya qilindi. Jahon tarixidan mehnati, bilimi, ijodi uchun yetarlicha rag'batlantirilmagan insonlar, sinflar va tabaqalarning bu adolatsizlikka qarshi ko'targan isyonlariga ko'plab misollar keltirish mumkin. Bashariyat - inson mehnatini ijtimoiy-iqtisodiy sub'yekt va qadriyat sifatida qabul etgunicha, inson mehnati qiymatini to'g'ri baholanguniga qadar o'z boshidan ko'p achchiq va saboq bo'luvchi voqealarni o'tkazdi. Insonning intellektual va amaliy salohiyatining ahamiyati hamda inson kapitali konsepsiyasining o'rtaga kelishida ilk tamal toshlarini qo'ygan siyosiy iqtisod fanining asoschisi A.Smit edi. U insonni ijtimoiy boylikning bir qismi va ishlab chiqarishning pirovard maqsadi, deb bilar edi [1].

XIX asr oxirida boshqa bir mutafakkir A. Marshall esa boylik to'plashni inson taraqqiyoti bilan bevosita bog'lab quyidagicha tushuntirgan edi: "Moddiy boyliklarni ishlab chiqarish bu faqat inson hayotini ta'minlash, uning ehtiyojlarini qondirish va uning jismoniy, aqliy va ma'naviy imkoniyatlarini o'stirish uchundir. Ammo insonning o'zi bu boylikni ishlab chiqarishning asosiy vositasidir, bu boylikning pirovard maqsadi ham insondir" [2].

XX asrga kelib esa bu tushuncha "inson kapitali" deb ataluvchi umuminsoniy va umumiqtisodiy qadriyat shaklini oldi. Chunki, Yevropa va jahonning boshqa qismlariga yoyilgan sanoat inqilobi va ishlab chiqarishning jadallashuvi bu jarayonlarning harakatlantiruvchi kuchi – insonning iqtisod, ishlab chiqarish, menejment va texnologik jarayonlardagi rolini keskin oshirdi. An'anaviy "inson-ishchi kuchidir" tasavvurini o'rnini asta-sekin "mehnatkash inson – sarmoya (kapital)dir" tushunchasi egallay boshladi [3]. Inson kapitali tushunchasi iqtisodiy va gumanitar kategoriya (termin) sifatida o'tgan asrning 60-yillaridan e'tiboran muomalaga kiritilgan va bu tushuncha avvalboshda iqtisodiy munosabatlar hamda ishlab chiqarish jarayonlarning markazida turuvchi inson faktorini ifodalay boshlagan edi. O'sha davrlarda boshlangan zamonaviy ilmiy-texnika inqilobi, informatsion texnologiyalarning keng yoyilishi, dunyodagi iqtisodiy vaziyat hamda modellarning (postmodern va postindustrial jamiyat modellari) o'zgarishi kabi holatlar inson kapitali tushunchasining ma'nolarini o'zgartirdi va kengaytirdi. Jamiyat turmushi va iqtisodiyotda inson faktorining (Human Factor) va umuman inson kapitali (Human Capital) tushunchasining ommalashuvi yetakchi rivojlangan davlatlarda bu xususidagi tadqiqotlarning avj olishiga olib keldi. Amerikalik ikki iqtisodchi olim - Teodor Shuls (1979) va Geri Bekker (1992) inson kapitali nazariyasining asoslarini ishlab chiqdilar va bu tadqiqotlari uchun xalqaro Nobel mukofotiga sazovor bo'ldilar. Bu olimlarning inson kapitali tushunchasiga bergan ta'rifini ham qisqacha ushbu satrlarda umumlashtirish mumkin: "inson kapitali – shaxsning o'zi va umuman, jamiyatning ko'p sonli ehtiyojlarini qoplashga xizmat qiladigan bilimi, qobiliyati va ko'nikmalari

yig‘indisidir”. Inson kapitali nazariyasi asoschilarining bu qisqacha ta’rifi vaqt o‘tishi bilan insoniyat turmushida yuzaga kelgan o‘zgarishlar tufayli yil sayin kengayib va mukammallashib bormoqda [4].

Inson kapitali iqtisodiyot va jamiyat taraqqiyotining to‘xtovsiz rivojlanuvchi va murakkab faktori bo‘lib, u o‘zida mehnat resurslarini, bilimlarni, aqliy va jismoniy mehnat unsurlarini, yashash shart-sharoitlarini, intellektual faoliyatni jamlaydi. Inson kapitali tushunchasining markazida albatta har doim inson bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qoladi. Bugungi kunda bu tushunchaning zamirida yaxshi ta’lim olgan, ijodkor va tashabbuskor, yuqori professionalizmga ega inson yotmoqda.

AQSH, Yaponiya va G‘arbiy Yevropadagi boshqa rivojlangan mamlakatlarning namunasi inson kapitali hozirgi davrda zamonaviy iqtisod va jamiyatni shakllantirish va rivojlantirishning asosiy ishlab chiqarish va ijtimoiy faktori ekanligini ko‘rsatmoqda. Inson kapitali tushunchasi inson faktori va insonning imkoniyatlari (resurslari) tushunchalarining yig‘indisi bo‘lishdan tashqari endi uning ijtimoiy-falsafiy kategoriya ekanligi barcha tarafidan tan olinmoqda. Inson kapitali degan kategoriyaning shakllanishi ham o‘z-o‘zidan yuz bergani yo‘q, u dastlab uzoq vaqt insonning bilim va mehnat qobiliyatini ifodalovchi bir tushuncha sifatida mavjud edi. Shu bilan birga, inson kapitalini dastlab faqatgina xarajat talab etuvchi ijtimoiy faktor sifatida bilishar edi. Ta’lim va tarbiya uchun sarflangan mablag‘lar ishlab chiqarishga aloqasi bo‘lmagan xarajatlar, deb hisoblanar edi.

Zotan, inson kapitali har doim aholining ta’lim va turmush darajasini oshirish uchun sarflangan xarajatlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Jumladan, tarbiya, ta’lim, bilimlar (fanlar), sog‘liqni saqlash, ishbilarmonlik qobiliyati va muhitini shakllantirish, mehnat jarayonini axborotlar bilan ta’minlash, fuqarolar va biznesning xavfsizligi, iqtisodiy erkinlik, madaniyat, san’at va boshqa inson uchun zaruriy sohalarga sarflangan investisiyalar pirovard natijada inson kapitalining shakllanishiga asos bo‘ladi va bu kapitalning saviyasi, sifati va qiymatiga ta’sir qiladi.

Aynan ana shu ta'lim va tarbiya faktori inson kapitalining shakllanishida muhim oʻrin tutishini insoniyat tarixidagi alohida shaxslar timsolida koʻrishimiz mumkin. Chunki, boshqa turdagi kapital tiplaridan farqli oʻlaroq inson kapitali u yoki bu aniq shaxs bilan chambarchas bogʻliq boʻlib, u avalo oʻsha shaxsning shaxsiy mulkidir va u kapital egasining ixtiyoriga koʻra sarflanadi.

Inson kapitali – mehnat qiluvchi kishilarning oddiy yigʻindisi emas. Inson kapitali bu professionalizm, bilimga intilish, axborot ta'minoti, optimizm, tashabbus va mehnatsevarlik kabi xislatlardan jamlangan tizim kabidir. Yuqoridagi ta'riflar, albatta, inson kapitali kabi murakkab jarayonning mohiyatini toʻla ifodalashi qiyin. Chunki, har qanday ijtimoiy-falsafiy fenomen kabi inson kapitalining ham har bir mamlakatning asriy an'analarini va xalqning mentalitetini, boshqa mahalliy shart-sharoitlarni oʻzida aks ettiruvchi xususiyatlari mavjud. Shu sababli chet ellik olimlar va mutaxassislarning inson kapitaliga bergan ta'rifi bu murakkab fenomenning barcha qirralarini qamrab ololmaydi.

Shundan kelib chiqib inson kapitalining quyidagi ta'rifini taklif etish mumkin: Inson kapitali – ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-falsafiy tushuncha boʻlib, bu shaxsning fundamental va amaliy bilimi, tajribasi, koʻnikmalari, tabiat va jamiyatdagi voqea, hodisa va jarayonlarga ilmiy-mantiqiy yondashishi, ularning innovatsion yechimlarini topishdagi professionallik darajasi, intellektual mulki, moddiy va ma'naviy boyliklar ishlab chiqarish imkoniyatlari, inson va jamiyat taraqqiyotini kafolatlovchi kuch va vositalar majmuidir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

**1.** Веряскина В. Динамика развития человеческого потенциала и приоритеты высшего образования, Высшее образование в России. 2005.-156 B.

**2.**Философия хозяйства. Альманах Центра общественных наук и экономического факультета МГУ имени М.В. Ломоносова. 2022. № 6. -34 B.

**3.** Crawford R. In the Era of Human capital. N.Y.: Harper Business, 1991.-10 B.

**4.** Қаранг: Курганский С.А. Введение в теорию человеческого капитала. -СПб.: ГУЭФ, 1999. -60 С.; Корчагин Ю. А. Современная экономика России. - Ростов-на-Дону: Феникс, 2008. – 17 В.

# BOSHLANG’ICH SINFLARDA O‘ZGA TILLARNI O’RGATISHNING PEDAGOGIK JIXATLARI

***To‘lqinova Salimagul Bahromjon qizi***
*Namangan davlat pedagogika instituti 2-bosqich talabasi*

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarida til o‘rganish jarayoni, xorijiy tilni o‘rganishda og‘zaki nutq gapirish va tinglab tushunish, o‘qish malakalarini shakllantirishda muhim o‘rin egallashi, uning xusussiyatlari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar haqida so‘z boradi.*

***Аннотатция.*** *В данной статье рассказывается о процессе изучения языка в начальных классах, о том, как устная речь при изучении иностранного языка занимает важное место в формировании навыков чтения, ее особенностях, современных педагогических технологиях.*

***Abstract.*** *This article describes the process of learning a language in elementary grades, how oral speech in learning a foreign language occupies an important place in the formation of reading skills, its features, and modern pedagogical technologies.*

***Kalit so‘zlar:*** *Innovatsiya, metod, keyslar, ta’lim texnologiyalari*

Zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda o’qitishning ilg’or uslublarini joriy etish yo’li orqali o’sib kelayotgan yosh avlodni chet tillarga o’qitish , shu tillarda erkin muloqot qilaoladigan yosh avlodni tayyorlash va tubdan takomillashtirish bugungi kun ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biriga aylandi. Buning tub mazmun mohiyatida dunyo axborot resurslaridan keng ko’lamda foydalanish va muloqotni rivojlantirish uchun barcha

imkoniyatlar yaratish maqsadida koplab qarorlar qabul qilindi . Ushbu qabul qilingan qonunlar xorijiy tillarni o’qitishda yangi umumyevropa standartlariga asoslangan davlat ta’lim standartlari,dasturlar ,darsliklar va o’qituvchi uchun zarur bo’lgan metodik adabiyotlarning yaratilishiga zamin bo’ldi.

Insonlarda qadim zamondan xorijiy tillarni o’rganishga bo’lgan qiziqish mavjud bo’lgan .Boshlang’ich sinflarda xorijiy tillarni o’rganish bu til haqida ma’lumot olish va uni o’zlashtirishgina emas balki o’quvchining faol muloqotga kirish jarayoni ham muhim ahamiyatga egadir .

Maktabga kelish arafasida bolaning so’z boyligi o’z fikrini bayon eta oladigan darajada ortadi . Bu yoshdagi rivojlanayotgan bola o’z nutqida 400-700 nafar so’zni ishlatadi. Bola butun bolalik davrida nutqini jadal ravishda egallab borib ,nutqini o’zlashtirishi ma’lum bir faoliyatiga aylana boradi .

Chet tilida nutqiy faoliyat yuritish o‘quvchi shaxsini shakllantirishga yo‘naltiriladi, ya’ni o‘rganilayotgan til sohibi madaniy merosni o‘zlashtirishga erishiladi. Tinglab tushunish, gapirish, o‘qish, yozuv jarayonida o‘quvchi oldin egallagan ijtimoiy, madaniy, lisoniy, emotsional tajribasini boyitadi. Muloqotdosh (kommunikant)larning bir-birini tushunishlari chet tilini bilishning asosiy mezoni hisoblanadi.

Ta’lim olayotgan o‘quvchilar boshqa fanlardan chet tilning farqi bir paytning o‘zida, uning ham ta’lim maqsadi, ham ta’lim vositasi ekanligida namoyon bo‘ladi. Chet tilda nutqiy malakalar (tinglab tushunish, gapirish, o‘qish, yozuv)ni egallash ta’limdan ko‘zlanadigan maqsad bo‘lishi bilan birga, o‘rganilayotgan til yangi va foydali axborot (informatsiya) olish, yetkazish vositasi maqomini ham oladi.

O‘quvchi faqat muloqotdosh sifatida emas, balki axborot oluvchi sifatida o‘rganilayotgan tildan foydalanadi. Tilni o‘rganish chog‘ida o‘quvchi lingvistik bilimlar to‘plash bilan emas, balki nutqiy va madaniy malakalari (kompetensiyasi)ni oshirish bilan mashg‘ul bo‘ladi. Kommunikativ faoliyat ko‘rsatish, shaxsga yo‘naltirilgan, kompetensiyani egallashga mo‘ljallangan integrativ yondashuv asosida chet til o‘rgatiladi. Chet til ta’limida kommunikativ - kumulyativ metod tatbiq etiladi. Xorijiy G‘arb lingvodidaktikasi atamalarida buni

madaniyatlararo muloqot yo‘nalishi nomi bilan yuritiladi.Kognitologiya, konseptologiya, lingvokulturologiya va boshqa zamonaviy fanlarning so‘nggi yutuqlari asosida mazkur metodik nazariya shakllangan va keng ko‘lamda joriy etilmoqda.Chet tili (integratsiyalashgan) holda o‘rgatiladi. Chet tilida o‘rganiladigan leksik, grammatik, talaffuzdagi birlikda lingvomadaniy xususiyatlar ifoda topgan va nutqiy jarayon ularga o‘quvchi e’tibori qaratiladi. Mazkur metodik qoida doirasida chet til o‘qitish maqsadi va mazmuni belgilanadi. O‘qitish mazmuni jahonda e’tirof etilgan didaktik ta’limotga binoan bilim,ko‘nikma va malakalarni o‘z ichiga oladi. Chet tilini amaliy o‘rganishda lingvistik nazariy bilimlar umuman namayon etilmaydi. Bilim til materialini bilish ko‘nikma va uni o‘zlashtirishda yuz beradigan qiyinchiliklarni oddiy so‘zlar bilan sodda tilda tushuntirish, ya’ni xatolarning oldini olishga qaratilgan ko‘rsatma ma’nosini bildiradi.

Chet til o‘qitish mazmuni uch tarkibli ta’limiy hodisadir:

1) nutq mavzulari

2) ko‘nikma va malakalarga qo‘yiladigan talablar

3) til materiali

O‘qitish mazmuni mavjud sharoitga ko‘ra, jumladan, o‘quv predmetiga ajratilgan vaqtga qarab tanlanadi.

Boshlang’ich sinflarda chet til o‘quv predmetiga ajratilgan soatlar miqdori:

I-sinfda haftasiga 2 soat (o‘quv yiliga 66 soat).

II- sinfda haftasiga 2 soat (o‘quv yiliga 68 soat). sinfda xorijiy til darsi.

Fan kabenitida bolalar diqqat – e’tiborini televizor,kompyuter va videoproyektor o‘ziga jalb qilib turadi. Turli oilaviy sharoitda tug‘ulib, ongi shakllanayotgan bolalarning biri juda ziyrak, ikkinchisi o‘rta darajada, uchunchisi esa qayta – qayta tushuntirgachgina qabul qiladi. Qaysi o‘quvchi qanday bo‘lmasin, darsda har biriga o‘tiladigan mavzuga oid bilim va tushuncha berish kerak. Buning afzal tomoni shundaki, bola slayd orqali nafaqat buyum va narsani ko‘rib, tasavvuri boyiydi, balki fransuzcha talaffuz ko‘nikmasi ham hosil qilinadi. Xorijiy tilni o‘rganishda eng muhim komponent – tinglash, talaffuz qilish, o‘qish – yozish hisobladi. Agar bola tog‘ri talaffuz qilishni o‘rgansa, yozish malakasini ham oson

egallaydi. Bir – biriga uzviy bogʻliq bu jarayonlarga dars oʻtishda e'tibor berilishi kerak.Xorijiy tilni oʻrgatishda boshlangʻich oʻquvchilarda ushbu malakalarni shakllantirishga alohida e'tibor zarur.

Til odamlaring bir – birlari bila muomilada boʻlishi uchun yordam beradigan eng muhim vosita hisoblanadi. Odamlar til vositasida oʻz fikrlarini, his – tuygʻularini ifodalaydilar. Insoniyat jamiyatning shakllanishida tilning roli biqiyosdir.Til paydo bulgandan jamiyat tez rivojlana boshlagan. Tilsiz jamiyat, jamiyatsiz til boʻlishi mumkin emas, shuning uchun til ijtimoiy hodisa hisoblanadi, ya'ni til yakka odamga emas, balki butun jamiyatga daxldor boʻlib, shu jamiyat a'zolari yordamida shakllanib, rivojlanib boradi. Chet tilining oʻrgatishning barcha asosiy komponentlari metod va vositalari, oʻquv fan mazmuni bir-birlari bilan chambarchas bogʻliq. Chet tiliga oʻrgatishning maqsadi muomila asoslarini yaratishga, oʻz fikrini erkin bayon qilishga va shuningdek oddiy kommunikativ vaziyatlarda suhbat olib boorish malakalaridan iborat. Chet tilini oʻrgatish jarayonida yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalar joriy etish va amaliyotga tadbiq etishni taqozo etmoqda. Ayni paytda amaliyotda qoʻllanilayotgan va ijobiy natijalar berayotgan bir qancha zamonaviy pedagogik texnologiyalar mavjud-ki, ulardan chet tilini oʻqitish boʻyicha oʻquv jarayonida qoʻllash bir necha omillarni talab etadi. Chet til o'qitishning amaliy maqsadiga erishish yo'lida umumta'lim maktab kursida chet til o'rgatishning yakuniy amaliy maqsadi – tinglab tushunish va o'qish, ya'ni chet tilda tinglab va o'qib axborot olishdir. Oraliq amaliy maqsad turlicha talqin etiladi:

I sinfda tinglab tushunish va gapirish amaliy maqsad hisoblanadi

II-IV sinflarda ham tinglab tushunish va gapirish amaliy maqsad, o'qish va yozuv og'zaki nutqda o'rganilgan til materialini takrorlash va mustahkamlash vositasi.

Chet til o'qitishning amaliy maqsadiga erishish yo'lida-nutq faoliyatining turlari uchun maxsus mavzular va til materiali tanlanadi, o'quv vaqtining asosiy qismi ularni o'rganishga bag'ishlanadi, ya'ni mashqlarning aksariyati ushbu nutq faoliyati bajariladi. Didaktikadagi rivojlantiruvchi ta'lim ma'nosi bilan hamohang bo'lib, o'quvchi shaxsining aqliy, hissiy va motivatsion jihatlarini rivojlantirishni

ifodalaydi. O'quvchi intellektual va ma'naviy oziqa oladi, nutqiy muloqotda o'z hissiyotini sinab ko'radi, muloqotdosh o'quvchi, muallim, fikrini bilish va o'z fikrini bayon etish orqali uning shaxsi kamol topib boradi. Ta'lim jarayonida, jumladan, chet til o'rganishda me'yordagi nutqiy qiyinchiliklarni yengib o'tish o'quvchi tafakkuri va his-tuyg'ularining rivojlanishini ta'minlaydi. Rivojlantiruvchi maqsadga nutqiy amallar tufayligina erishiladi. Ta'lim, jumladan,chet til o'rganish shaxs rivojlanishida alohida o'rin egallaydi.

## SPIRITUALITY, ITS ROLE IN THE DEVELOPMENT OF SOCIETY AND HUMAN DEVELOPMENT

***Kasimov is the son of Khamidullo Abdukhakhor***

*He is a student of the MIG-AU-21 group of the Faculty of Law of Namangan State University, National idea, foundations of spirituality and legal education.*

***Abstract:*** *In this article, spirituality is an important aspect of human life that goes beyond religious beliefs and rituals. It includes a broader perspective on life, focusing on our relationships with ourselves, others, nature, and the transcendent. It talks about the importance of spirituality in society and its influence on human development.*

***Key words:*** *Spirituality, culture, traditions, values, kindness, dedication, compassion, justice.*

Spirituality is a deeply personal and subjective aspect of human existence that includes beliefs, values, practices, and experiences that connect people to something greater than themselves. Throughout history, spirituality has played an important role in shaping societies and ensuring personal growth. Spirituality gives a person a sense of purpose and meaning in life. It offers a framework for understanding our existence beyond material possessions or social expectations. When it is said that man is the culmination of nature, of all beings, this

characteristic of him, that is, the possibility of becoming the owner of high spirituality, is meant. We do not see this possibility in other creatures. Material things give a person physical nourishment and strength, spirituality gives him spiritual nourishment and strength. Contentment with only material security is characteristic of unconscious and spiritless creatures. The pursuit of spirituality is a virtue unique to human beings who possess a soul and mind. Spirituality is a complex social phenomenon, like a set of mental and spiritual world of a person. By connecting with something greater than ourselves, spirituality allows people to find inner peace and contentment. Spirituality gives a person the meaning and purpose of life. It answers fundamental questions about our existence and helps us understand the world around us. By offering a framework for understanding our place in the universe, spirituality helps people find direction, directing their actions to create meaningful lives. Spirituality emphasizes the interconnectedness of all beings, develops compassion, empathy, and a sense of responsibility toward others. It encourages people to look beyond their own needs and desires, develops a sense of community and social harmony. Spiritual practices often involve kindness, selflessness, and service to others—all necessary ingredients for building strong societies. Spirituality provides comfort through comfort, hope, and emotional support during difficult times. It helps people overcome adversity by building resilience through belief systems that offer guidance and strength in difficult times. Spiritual practices such as meditation or prayer have been shown to reduce stress levels, increase emotional well-being, and promote overall mental health.

Spirituality offers a path to personal growth and self-improvement. Through introspection, meditation, prayer, or other spiritual practices, people can gain insight into their thoughts, feelings, and behaviors. This self-awareness allows for personal development by identifying areas that require attention or improvement. Spirituality encourages self-reflection and introspection as one seeks to understand one's beliefs, values, strengths, weaknesses, and purpose in life. By regularly engaging in spiritual practices such as meditation or mindfulness exercises, people can explore their inner world and develop self-awareness. This

journey of self-discovery leads to personal growth by uncovering hidden possibilities. In a fast-paced world full of stressors, spirituality plays a crucial role in promoting mental well-being. Practices such as mindfulness or meditation allow people to quiet their thoughts and find solace in the midst of chaos. Spirituality provides tools for effective stress management while enhancing emotional stability. Spirituality often provides a moral compass that guides people's choices and actions. It establishes a moral framework based on principles such as compassion, honesty and justice, and promotes qualities that contribute to the betterment of society. By aligning personal values with spiritual teachings, people become more aware of their impact on others and strive to live ethically. Spiritual communities often serve as a platform for social solidarity, bringing together people who share common values and beliefs. These communities provide support networks where people can find comfort in difficult times or celebrate joys together. They offer spaces for communication, tolerance and understanding between different groups. The transformation of spirituality into material power is manifested in the behavior of each person, in his relationship to his family, nation and homeland. As we said above, parents, the environment in which a person lives, national and religious values, humaneness and justice policy in society are important in its formation. A person is born from a father and mother, but his moral and moral qualities, that is, his spiritual world, are formed in society, under the influence of social, political, and economic relations. Although the spiritual world of a person is mainly a product of social development, it, in turn, has a great influence on the development of society, it is considered one of the factors that determine it.

Spirituality helps people develop ethical behavior by encouraging them to act in accordance with their values and principles. It promotes virtues like honesty, integrity and justice for a fair and just society. Spirituality is a moral compass that guides people to make responsible choices that benefit themselves and others. Spirituality encourages a deep connection with nature and the environment, realizing its inner value. By developing this connection, people are more inclined to protect and preserve nature. Spiritually grounded individuals often develop a sense

of responsibility for environmental stewardship, leading to sustainable practices that benefit present and future generations. Spirituality plays a critical role in society, providing people with meaning, purpose, emotional well-being, personal growth, moral foundations, and interfaith communication. By embracing spirituality in our lives and communities, we can foster a more compassionate and harmonious world where human progress flourishes.

In conclusion, spirituality plays an integral role in society, giving people a sense of purpose, promoting personal growth, encouraging compassion, fostering mental well-being, inspiring ethical behavior, encouraging social cohesion. encourages and promotes environmental protection. Understanding the importance of spirituality leads us to create a more harmonious society where individuals thrive both individually and collectively.

**LIST OF REFERENCES:**

1. I.A. Karimov "High spirituality - invincible power" Tashkent "Spirituality" 2008
2. M. Hamdamova "FOUNDATIONS OF SPIRITUALITY" study guide TASHKENT — 2008
3. M. Abdurahmonov, N. Rakhmon, E. Gulmetov "Cultural Studies" Tashkent 2007
4. S.H. Nasirkhojayev, M.F. Lafasov S.A. Azamxojayeva "The foundations of spirituality" Tashkent 2016
5. O.M. Gaibullayev "History and theory of the national idea" TASHKENT-2019
6. w.w.w.wikipedia.uz
7. https:// manaviyat-un-jamiat-taraqiyatida-va-barkamol-avlod-insan-t.html

## AKADEMIK LITSEY O'QUVCHILARIDA XARAKTER AKSENTUATSIYASI TA'SIRINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

***Z. Alisherova.*** *NamDPI 1-bosqich magistranti*
*Ilmiy rahbar: M.Badritdinova NamDPI dotsenti v.b, PhD*

***Annotatsiya:*** *ushbu maqola akademik litsey o'quvchilarida xarakter aksentuatsiyasi ta'sirining psixologik mexanizmlari, jadal rivojlanib borayotgan jamiyatda yoshlarni katta hayotga moslashishidagi muammolar, akademik litsey o'quvchilarda xarakter aksentuatsiyasining tarbiya va o'quv jarayoni, oilaviy muhit va boshqa ko'rsatkichlarga ham bog'liq ekanligi, xarakterning o'sishida namunaning ahamiyati haqida bayon qilingan.*

***Kalit so'zlar:*** *xarakter, xarakter aksentuatsiyasi, o'smirlik avtonomiyalari, emotsional avtonomiya, huquqiy avtonomiya, makoniy avtonomiya, taqlid, genotip, introversiya, ekstraversiya, o'z-o'zini tarbiyalash, namuna ko'rsatish,*

***Аннотация:*** *В статье рассматриваются психологические механизмы акцентуации характера у академических лицеистов, проблемы адаптации молодежи к большой жизни в быстро развивающемся обществе, воспитание и тренировочный процесс акцентуации характера у академических лицеистов, семейное окружение и другие показатели. Утверждается о важности примера в развитии характера.*

***Ключевые слова и понятия:*** *характер, акцентуация характера, подростковая автономия, эмоциональная автономия, правовая автономия, пространственная автономия, подражание, генотип, иртроверсия, екстраверсия, самовоспитания, ролевое моделирование*

***Abstract:*** *This article deals with the psychological mechanisms of character accentuation in academic lyceum students, problems in the adaptation of young people to the big life in a rapidly developing society, the education and training process of character accentuation in academic lyceum students, family environment and other indicators. It is stated about the importance of example in the growth of character.*

***Key words and concepts:*** *character, character accentuation, adolescent autonomy, emotional autonomy, spatial autonomy, imitation, genotype, introversion, extraversion, self-discipline, role modeling*

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida yoshlarga katta ahamiyat berilmoqda. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" hamda "Ta'lim to'g'risida"gi

qonunlarni qabul qilishning tag zaminida ham yoshlarning ilmiy, ahloqiy, intellektual, ma'naviy salohiyatini yanada oshirish, bugungi zamon talablariga javob bera oladigan, ,raqobatbardosh, yuqori malakali kadrlar tayyorlash yotadi. [1]. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda" deb nomlangan asarlarida yoshlarga shunday ta'rif beriladi: "Yoshlar-xalqimizning asosiy tayanchi va suyanchi. Keng ko'lamli islohotlarimizni samarali amalga oshishida ular hal qiluvchi kuch bo'lib maydonga chiqmoqda. Aynan zamonaviy bilim olgan, ilg'or kasb-hunarlarni, innovatsion texnologiyalarni, xorijiy tillarni puxta egallagan o'g'il-qizlarimiz mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishda yetakchi o'rin tutadi."[2]. Bizga ma'lumki, akademik litsey uzluksiz ta'lim tiziminig asosiy bo'g'inlaridan biri hisoblanadi. Unda tahsil oluvchi o'quvchilarning asosiy qismini o'smirlar tashkil qiladi.

Akademik litsey o'quvchilari o'zlarining xarakter aksentuatsiyasi bilan bog'liq o'ziga xos psixologik xususiyatlarni namoyon qilishi mumkin. Xarakter aksentuatsiyasi ma'lum shaxsiy xususiyatlarni bo'rttirib ko'rsatishni anglatadi. Boshqacha qilib aytganda, biror xususiyatning boshqalari zarariga kuchli rivojlanishi va atrofdagilar bilan munosabatlarning yomonlashuviga olib kelishidir. O'smirlar orasida bu holat juda ko'p ya'ni 50-80% uchraydi.[3]. O'smir yoshdagi o'quvchilar va yangiliklarga qiziqish ko'rsatishlari, jamiyat bilan aloqalarni o'rnatishga oid bo'lgan qiziqishlarni saqlab qolishlari, o'z-o'zlarini boshqarishga tayyorgarliklari va ilmiy-texnikaviy sohalarda afzalliklarda ega bo'lishlari, ularni bugungi dunyoda muhim va talabga ega bo'lgan xususiyatlar hisoblanadi. Bu xususiyatlar ularning o'zlarini rivojlantirish, yangiliklarga moslashish va jamiyat uchun yetuk kadr bo'lishlari uchun muhimdir.

O'smir yoshdagi o'quvchilarda xarakter aksentuatsiyasining o'ziga xos psixologik xususiyatlari quyidagilar bilan bog'liq bo'ladi:

1. O'zgaruvchanlik: Bu o'quvchilar o'zgaruvchanlikka oid bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin. Ularning fikrlari va his-tuyg'ulari o'zgaruvchan bo'lishi,

yangiliklarga qulaylik bilan moslashishlari, yangi narsalarga qiziqish ko’rsatishlari kabi.

2. Intellektual qobiliyatlar: Akademik litsey o’quvchilari odatda yuqori intellektual qobiliyatga ega bo’ladi. Ularning tushunuvchanlik darajasining yuqori bo’lishi, muammolarni tez va yaxshi hal qilishlari, yangi ma’lumotga qiziqish ko’rsatishlari kabi xususiyatlar bu jihatdan ajratiladi.

3. Jamiyatga oid bo’lgan qiziqish: Bu o’quvchilar jamiyat bilan o’zaro aloqalarni o’rnatishga va jamiyatning muammolariga qiziqish jo’rsatishga oid bo’lgan xususiyatlarga ega bo’ladi. Ularning jamiyatdagi muammolarga qarshi qiziqish ko’rsatishi , jamiyatning rivojlanishi uchun qo’llab-quvvatlashga intilishlari kabi xususiyatlar bu jihatidan ajratiladi.

4. O’z-o’zini boshqarish: O’smirlar odatda o’z- o’zini boshqarishga oid bo’lgan xususiyatlarga ega. Ularning o’z vazifalarini o’z vaqtida va yaxshi bajarishlari, maslahat so’rashga tayyor bo’lishlari, o’zlarining maqsadlariga erishish uchun samarali rejalarni tuzishlari kabi xususiyatlar bu jihatdan ajratiladi.

5. Odatlar va afzalliklar: Akademik litsey o’quvchilari odatda ilmiy-texnikaviy sohada afzalliklarga ega bo’ladi. Ularning biror bir sohada maxsus bilim va ko’nikmalarga ega bo’lishlari, bu sohani rivojlantirish uchun qo’llab-quvvatlashlari kabi xususiyatlar bu jihatdan ajratiladi.

O’smirlik davrini boshdan kechirayotgan yoshlar, jumladan, akademik litsey o’quvchilarining ham xaraktreli xususiyatlaridan biri bu- o’smirlik avtonomiyasi holati hisoblanadi. O’smirlik avtonomiyasi huquqiy, emotsional, makoniy kabi avtonomiyalarga bo’linadi. O’smirlik davrida bola o’z hayotini, xavfsizligini ta’minlash borasida nisbatan mustaqillikka erishadi. Endi u o’z-o’zini himoya qila olishi, lozim bo’lsa o’z imkoniyatlari darajasida mehnat qilib, yetarli darajada daromad topishi, o’z ehtiyojlarini mustaqil ravishda o’zi qondira olishi mumkin bo’ladi. Bu huquqiy avtonomiya hisoblanib, ayni vaqtda bola o’smirlik yoshiga yetishi bilan unga qator huquqiy imkoniyatlar berilishi bilan xarakterlanadi. Bu davrda bola yuridik shaxs hisoblanib, ovoz berish huquqiga ega bo’ladi. Mobodo bu

davrda o'smir ota-onasi ajrashib ketgudek bo'lsa, bu holatda o'smirning qayerda va kim bilan qolishi bola xohishiga qarab hal etiladi. [4].

O'smirlik avtonomiyalaridan yana biri- emotsional avtonomiyadir. O'smirlik davrida o'smir endi "yosh bola"emas, endi u "katta odam", katta odam esa mustaqil bo'lishi, o'z muammolarini o'zi hal qilishi kerak. Bu davrda kattalar yordamiga murojaat qilish tengdoshlar tomonidan qoralanadi. Va buni o'smirlar o'zi ham xohlamaydi. Bu davrda o'smirlarga kattalar tomonidan oldingidek ko'rsatiladigan iltifot, erkalashlar erish tuyuladi. Endi ular o'zlarini erkalab, silab-siypashlarini, "arzimagan narsalar" uchun kattalar tomonidan bildiriladigan olqishlarni "yoqtirmaydi". Endi ular atrofdagilarning hissiy qo'llab-quvvatlashlaridan xoliroq bo'lishga, o'z muammolarini o'zlari hal qilishga intiladilar. Oldinlari ko'chada, bog'chada, maktabda yuz bergan voqealar haqida uydagilarga shikoyat qilib ota-onasidan yordam so'ragan bo'lsalar, endi oiladan tashqarida birontasidan dakki eshitib, kaltak yeb kelgan taqdirda ham bu haqida ota-onasiga bildirmaslikka harakat qiladi va imkon qadar ota-onalarini uning "ishlariga" aralashmasliklarini xohlaydi. Bularning barchasi o'smirlarda kuzatiladigan emotsional avtonomiyaning ta'siri hisoblanadi. O'smirlarda kuzatiladigan avtonomiya holatining yana biri makoniy avtonomiyadir. Bunga ko'ra o'smirlar imkon qadar o'z xonasida yolg'iz qolishga, biron-bir ishni bajarayotgan yoki biron-bir joyda bo'lgan vaqtlarida imkon qadar yolg'iz qolishga, ayniqsa, o'z ota-onasi, oila a'zolari nazaridan chetroqda bo'lishga, o'z xayollari bilan mashg'ul bo'lib vaqt o'tkazishga intilib qoladi. Suhbatlashsa ham asosan o'z tengdoshlari, yaqin o'rtoqlari bilangina muloqotda bo'lib o'z ota-onasi bilan imkon qadar kamroq muloqotda bo'lishga intilib o'zi bilan o'zi ovora bo'lib qoladi. Ayni vaqtda o'smirda kuzatilayotgan bu hodisalarning asl sababini tushunmagan ayrim ota-onalar ularning bunday holatidan xavotirlanib, ular bilan oldingiga qaraganda ko'proq qiziqib qoladilar. O'smir ruhiyatida kuzatiladigan xarakterli xususiyatlardan biri ularning o'ta ta'sirlanuvchan, jizzaki, qo'rs, sal narsaga hafa bo'lishi uning hissiy noturg'unligining ifodasidir. Bunday holatlarning yuzaga kelish sabablaridan biri bevosita jinsiy balog'atga yetish, ichki sekretsiya bezlari, ayniqsa, jinsiy bezlar vazifalarining faollashuvi va shular bilan

bog'liq holda o'smir organizmida ro'y beradigan psixofiziologik o'zgarishlar bilan bog'liqdir. O'smirlik davrida o'smirning "men"i qaytadan shakllana boradi. Uning atrofdagilarga, ayniqsa, o'z-o'ziga bo'lgan munosabati, qiziqishlari, qadriyatlari yo'nalishi keskin o'zgaradi. Uning o'z shaxsiga bo'lgan e'tibori kuchayadi.[5]. O`smirlik davrida shaxs egosentrizmi boshqa davrlarga qaraganda eng yuqori darajaga yetadi. Bu davrda o'smir o'z shaxsiyatini boshqalardan ustun qo'yadigan, o'ziga ko'proq bino qo'yadigan bo'lib qoladi. Shu o'g'il bolalarda ham qiz bolalarda ham shunchaki kattalarga taqlid qilib emas, balki tom ma'noda o'zining xatti-harakatini nazorat qilish, o'zining yurish-turishi, tashqi ko'rinishiga astoydil e'tibor berish, pardoz-andoz bilan shug'ullanish kabi holatlar kuzatiladi. Biroq bu davrdagi endokrin sistemasi faoliyati, epofiz, jinsiy sekretsiya bezlari ajratib chiqaradigan garmonlar ta'siri ostida o'smir organizmida va tana tuzilishida o'zgarishlar yuz beradi. Masalan, uning tana tuzilishi proporsiyasi buziladi, ya'ni u nisbatan beso'naqayroq bo'lib qoladi, ovozlari o'zgarib do'rillab qoladi, jinsiy balog'atga yetishning boshlanishi bilan yuzlariga husnbuzar chiqa boshlaydi.

O'smirlarda o'z-o'zini anglashning tarkib topishi asosida kishi shaxsiga xos bo'lgan yaxshi fazilatlarni o'zlarida paydo qilish masalasi tug'iladi. Ular ko'pincha o'z harakatlarida faqat katta yoshdagi kishilarga yoki o'rtoqlariga taqlid qilibgina qolmay xar bir ishni o'z xohlaganlaricha qilishga mustaqillikka, boshqalarga o'xshamaslikka intiladilar.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yuksak irodaviy va axloqiy sifatlari bilan hammaga manzur bo'lgan kishilar namunasi o'smirlarda xarakterni tarbiyalashning juda muhim vositasidir. Yoshlar o'z intilishlari va xatti-harakatlarida hammaga manzur bo'lgan kishilarga taqlid qilishlari kerak. O'smirlarda xarakter xislatlarni shakllanishida, uni tarbiyalashda ota-bobolarimiz bosib o'tgan mashaqqatli yo'llariga e'tiqodli bo'lishni o'rgatish ular haqida bilim berish ahamiyatlidir chunki ular o'z Vatani, xalqining farovonligi yo'lida hatto o'limdan ham qo'rqmaganlar, o'z oldiga qo'ygan maqsadni amalga oshirish imkoniyati bo'lmaganda ham imkoniyat topganlar.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF-134-son qarorida tasdiqlangan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ning yangi tahriri
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" Farmoni. T.: 2022.
3. G'. B. Shoumarov, Oila psixologiyasi. Toshkent.:2015
4. F.I. Xaydarov, N.I. Xalilova, Umumiy psixologiya. Toshkent.:2017
5. P.I. Ivanov, M.E. Zufarova, Umumiy psixologiya. Toshkent.:2014

# MUNDARIJA

## I. TA'LIMNING DOLZARB MUAMMOLARI VA YECHIMLARI;


| | | |
|---|---|---|
| 1. | **Til to'garagi mashg'ulotlarining o'ziga xos jihatlari**<br>*Sobirova M.Y., Toshnazarova A.X.* | 3 |
| 2. | **O'zbekistonda ta'lim islohotlari. Maktabgacha ta'lim xususida**<br>*Fayzullayev T., Xujamberdiyeva Sh.* | 14 |
| 3. | **Jamiyat va shaxs muammosini o'rganishda forobiy qarashlarining o'rni**<br>*Mamatov O.V.* | 17 |
| 4. | **Ona tili darslarida o'qituvchilar faoliyatini modellashtirishning ilmiy metodik manbalarda yoritilishi ahamiyatligi**<br>*Qirg'izov N.O.* | 22 |
| 5. | **Ta'lim jarayonida multimedia vositalari va ulardan samarali foydalanish**<br>*Nazarov O.D.* | 31 |
| 6. | **Bolalar tarbiyachilarining ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish**<br>Nishanova M. | 38 |
| 7. | **Iqtisodiy fanlarni o'qitishda zamonaviy metodlar integratsiyalashuvini tashkil etilishi**<br>*Urinov B.J.* | 44 |
| 8. | **Ўқувчи ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашда бўлажак фуқароларнинг ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданиятини юксалтириш янги ўзбекистон жамияти ривожланишининг муҳим шартидир**<br>*Қулматов Н.Э., Эшмуродов С.Т.* | 52 |
| 9. | **Maktabgacha ta'lim tarbiyachisi faoliyatini kompatentli yondashuv asosida shakllantirish**<br>*Nazarova A.M.* | 61 |
| 10. | **Musiqa ta'limi qo'shimcha ta'lim muassasalarida nogiron bolalarni ijtimoiylashtirish vositasi sifatida**<br>*O'rmonjonov A.M.* | 68 |
| 11. | **Maktabgacha ta`lim yoshidagi bolalarga axloqiy tarbiya berishning pedagogik omillari**<br>*Qosimova A.* | 77 |
| 12. | **O'qish darslariga o'quvchilarda tanqidiy fikrlash orqali mustaqil fikrlash kompetentligini shakllantirish**<br>*Xusanova N.Z.* | 81 |
| 13. | **Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish** | 87 |

*To'xtasinova G.Y.*

14. **Steam texnologiyalari orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil bilish ko'nikmalarini shakllantirish** 93
*Turdiyeva M.A.*

15. **Umumiy ta'lim maktab o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligini oshirishning pedagogik prinsiplari (boshlangich sinflar misolida)** 99
*Abdunabiyev M.M.*

16. **Boshlang'ich sinf o'quvchilariga an'anaviy kuy va qo'shiqlarni o'rgatish mexanizmlari** 113
*Jo'rayeva F.*

## II. MAXSUS PEDAGOGIKA;

17. **Imkoniyati cheklangan bolalarda chet tilini tez va samarali o'qitish tizimini rivojlantirish** 118
*Jo'rayeva D.*

18. **Ta'lim tizimida inklyuziv ta`limning samaradorligini oshirish masalalari** 125
*Rahimjanova M.R.*

## III. IJTIMOIY PEDAGOGIKA;

19. **Ma'naviyat kategoriyalarining xalq maqollarida aks etishi** 131
*Mamatov O.V., Abduvohidov Q.K.*

20. **Milliy qadriyatlar va ta'lim tarbiyaning uyg'unligi** 136
*Kenjayev B.Q., Sultanova Z.A.*

21. **Fuqarolik munosabatlarini tartibga solish – mamlakat taraqqiyoti sari yana bir muhim qadam** 141
*Kenjayev B.Q., Sadullayeva G.A.*

22. **Коррупцион ҳолатларни олдини олишда маънавий қадриятларнинг ўрни: тарихий-сиёсий ёндашув** 147
*Валиева Н.А.*

23. **Temuriylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar** 153
*Yo'ldashev S.A.*

24. **Jamiyat barqarorligi va ijtimoiy adolat qaror topishida siyosiy lider fenomeni** 159
*Xamidov J.A.*

25. **O'quvchilarni badiiy qobiliyatlarini rivojlantirishda metodlarning ahamiyati** 164
*Aliyeva M.J.*

26. **Halima xudoyberdiyeva she'riyatida ayol timsoli** 171
*Erkinboyeva D.*

27. **O'zbek bolalar o'yinlarining bola aqliy faoliyatining o'sishidagi o'rni** 174
*Nazaraliyeva M.*

28. **Dilorom ergasheva ijodi poetikasi** 176
*Egamberdiyeva Sh., Nurmuhammaedova D.*

29. **Sirojiddin sayyid ijodida vatan timsoli** 181
*Mehmonjonova M.*

30. **Расположение таджикского населения в кокандском ханстве** 186
*Ибрахимов Б.Б.*

31. **Xosiyat rustamova she'riyatida tabiat tasviri** 192
*Abdullajonova M.*


## IV. ILG'OR MILLIY VA XALQARO TAJRIBALAR;


32. **Tabiatdagi majud ranglarni ko'rish va ajratish usullari** 197
*Abduqaxxarova X.Sh.*

33. **Ranglarni farqlash xususiyatlari rangtasvirning ilmiy omili sifatida** 202
*Boltaboyev A.X., Abduqaxxarova X.Sh.*

34. **O'zbek xalq musiqa ijodining o'ziga xos tomonlari hamda asosiy musiqiy an'analar** 206
*Axmedov B.S., Mirzajonov O.Sh.*

35. **Rishton kulolchiligining xalq badiiy hunarmandchilikdagi ahamiyati hamda milliy qadriyatlarimizga ta'siri** 216
*Maxsutaliyev J., Ubaydullayeva Sh.*

36. **Steam-образование в начальной школе** 219
*Хайдарова М.Б.*

37. **O'zbek milliy cholg'u asboblari haqida ma'lumot va ularning tavsifi (rubob va dutor cholg'ulari misolida)** 225
*Ergashev I.Q.*


## V. TA'LIM-TARBIYA NAZARIYASI VA METODIKASI


38. **Методические условия обучения младших школьников чистописанию** 231
*Фарходжонова Н.Ф.*

39. **Didaktika – pedagogik nazariya sifatida** 240
*Jaloldinova Z.Sh.*

40. **Umumiy o'rta ta'lim maktablatida musiqa madaniyati fanini o'qitishda yangi pedagogik taxnologiyalar va metodlar** 245
*Odashaliyeva F.O.*

41. **Tasviriy san'at darslarida o'quvchilarni kreativ qobiliyatlarini aniqlashda 4 k modeli** 251

| | | |
|---|---|---|
| | *Aliyeva M.J.* | |
| 42. | **Boshlang'ich sinflarda massa va sig'im o'lchov birliklarini o'qitish metodikasi** | 257 |
| | *Mamadjanova M.* | |
| 43. | **Nega yetishmayapti Navoiy, Bobur, Temur-u Buxoriylar** | 263 |
| | *Olimboyeva M.M., Yuldashev O.T.* | |
| 44. | **Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining matematika fani bo'yicha kompetentligini takomillashtirish metodikasi** | 265 |
| | *Shermatova M.A.* | |
| 45. | **Boshlangich ta'limda ta`lim sifatini oshirish uchun qo'llanadigan innovatsion metodlar** | 269 |
| | *Ismoilova X.B.* | |
| 46. | **Maktabgacha va boshlang'ich yoshidagi bolalarga chet tilini o'rgatishda ingliz muhitini yaratish** | 272 |
| | *Nizomiddinova D.X.* | |
| 47. | **Yangi Konstitutsiya - taraqqiyot qomusi** | 276 |
| | *Chuboyeva O.Q., Alimatov E.B.* | |
| 48. | **Pirls xalqaro baholash dasturi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qish va matnni tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish** | 282 |
| | *Ahmadjonova G.Y.* | |
| 49. | **Musiqa o'qitish metodlarining maqsad vazifalari hamda musiqa madaniyati fanini yangi dastur asosida o'qitish** | 289 |
| | *Odashaliyeva F.O.* | |
| 50. | **Ta'limda axborot texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati** | 298 |
| | *Jaxongirova M.* | |
| 51. | **Umumta'lim maktablarida musiqa fanini zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etish** | 304 |
| | *Anvarova M.Sh.* | |
| 52. | **Inklyuziv ta'limning maqsad va vazifalari** | 312 |
| | *O'rmonjonov A.M., Tajiboyev E.M.* | |
| 53. | **Yangi Konstitusiya taraqqiyot qomusi** | 318 |
| | *Axmatov A.I., Chuboyeva O.Q.* | |
| 54. | **Мактаб физика курсларида ўкувчиларни ўқитишда энергия тежамкорлигига йўналтириб боришни такомиллаштириш** | 323 |
| | *Исманов Т.* | |
| 55. | **Inklyuziv ta'limni joriy etish va rivojlantirishning muhim masalalari: muammolar va mavjud imkoniyatlar** | 330 |
| | *Adashaliyeva M.M.* | |
| 56. | **Navigating challenges in english language teaching: current issues and innovative solutions** | 338 |
| | *Mamadaliyeva S.A., Umarkhanova N.* | |

**57.** **Ilm-fan taraqqiyotida texnologiyani o'rni** 343
*Mamadjanov M.H.*
**58.** **Применение игровой методики в изучении английского языка в начальных классах** 351
*Тошматова М.К., Умарханова Н.У.*
**59.** **Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirishda pirlsning ahamiyati** 358
*Samandarova G.Q., Tillayeva R.T.*
**60.** **Inson kapitalining mohiyati va uning jamiyat taraqqiyoti bosqichlaridagi o'rni va ahamiyati** 362
*Nabijonov M.T.*
**61.** **Boshlang'ich sinflarda o'zga tillarni o'rgatishning pedagogik jixatlari** 367
*To'lqinova S.B.*
**62.** **Spirituality, its role in the development of society and human development** 371
*Kasimov Kh.A.*
**63.** **Akademik litsey o'quvchilarida xarakter aksentuatsiyasi ta'sirining psixologik xususiyatlari** 374
*Alisherova Z., Badritdinova M.*

*"Ta'lim va taraqqiyot" ilmiy-uslubiy jurnali elektron to'plam sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA)ning 2022-yil 25-oktabrdagi № 045044 raqamli guvohnomasi asosida chop etiladi. UDK: 37, Xalqaro standartlashtirish raqami ( ISSN): 2992-9008. "Ta'lim va taraqqiyot" ilmiy-uslubiy jurnalining 2023-yil 6-soni NamDPI Ilmiy-texnikaviy Kengashining 11-yanvar 2024-yildagi 1-sonli kengaytirilgan yig'ilishida muhokama qilinib, ilmiy to'plam sifatida chop etishga ruxsat etilgan (Bayonnoma **№ 01**). Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma'lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.*

**Texnik muharrir: R.Tursunov**

***Tahririyat manzili: Namangan shahri, Uychi ko'chasi, 316-uy.***

***Pochta indeksi:*** 160136, ***Faks:*** (0369) 227-27-21,

***Email***: Info@namspi.uz

***"Ta'lim va taraqqiyot" ilmiy-uslubiy jurnalining 2023-yil 6-soni 386 sahifadan iborat bo'lib, 63 ta ilmiy maqoladan tashkil topgan.***

***Jurnalning elektron holatini har qanday tartibda o'zgartirish yoki soxtalashtirishga uringan subyekt shaxsan javobgan hisoblanadi.***

*NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI 2023*